

# PEDAGOGIK MAHORAT

**6(2)**  
**2026**



# PEDAGOGIK MAHORAT

**Ilmiy-nazariy va metodik jurnal**

**6-son (2026-yil, iyun)**

**Jurnal 2001-yildan chiqa boshlagan**

**Buxoro – 2026**

## PEDAGOGIK MAHORAT

### Ilmiy-nazariy va metodik jurnal

2026, № 6

Jurnal O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi OAK Rayosatining 2016-yil 29-dekabrda qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo‘yicha dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo‘lgan zaruriy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2001-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O‘zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2016-yil 22-fevral № 05-072-sonli guvohnoma bilan ro‘yxatga olingan.

#### **Muassis: Buxoro davlat universiteti**

**Tahririyat manzili:** 200117, O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko‘chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### **TAHRIR HAY‘ATI:**

**Bosh muharrir:** Adizov Baxtiyor Rahmonovich – pedagogika fanlari doktori, professor

**Mas‘ul kotib:** Sayfullayeva Nigora Zakiraliyevna – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent

*Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Begimqulov Uzoqboy Shoyimqulovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Navro‘z-zoda Baxtiyor Nigmatovich – iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Yanakiyeva Yelka Kirilova, pedagogika fanlari doktori, professor (N. Rilski nomidagi Janubiy-G‘arbiy Universitet, Bolgariya)*

*Satibekova Mayramkul Abdikulovna, Jusup Balasagin nomidagi Qirg‘iziston milliy universiteti professori,*

*pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*Azizov Abdulatif Abduxalimovich, Bobojon Gafurov nomidagi Xo‘jand davlat universiteti professori,*

*pedagogika fanlari doktori (DSc), akademik*

*Batchuluun Yembuu, Mongoliya davlat ta‘lim universiteti professori, pedagogika fanlari falsafa doktori (PhD)*

*Andriyenko Yelena Vasilyevna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Fizika, matematika, axborot va texnologiya ta‘limi instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Romm Tatyana Aleksandrovna pedagogika fanlari doktori, professor (Novosibirsk davlat pedagogika universiteti Tarix, gumanitar va ijtimoiy ta‘lim instituti, Novosibirsk, Rossiya)*

*Chudakova Vera Petrovna, psixologiya fanlari nomzodi (Ukraina pedagogika fanlari milliy akademiyasi, Ukraina)*

*Zotova Firuza Raxmatullova, pedagogika fanlari doktori, professor (Volgabo‘yi davlat jismoniy tarbiya, sport va turizm universiteti, Rossiya)*

*Hamroyev Alijon Ro‘ziqulovich – pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Mahmudova Muyassar, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Kozlov Vladimir Vasilyevich, psixologiya fanlari doktori, professor (Yaroslavl davlat universiteti, Rossiya)*

*Tadjixodjayev Zokirxo‘ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor*

*Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor*

*O‘rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor*

*Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor*

*Mahmudov Nosir Mahmudovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor*

*Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qiyamov Nishon Sodiqovich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Shomirzayev Maxmatmurod Xuramovich, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Ro‘ziyeva Dilnoza Isomjonovna, pedagogika fanlari doktori, professor*

*Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc)*

*To‘xсанov Qahramon Rahimboyevich, filologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Nazarov Akmal Mardonovich, psixologiya fanlari doktori (DSc), professor*

*Dilova Nargiza Gaybullayevna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Jumayev Rustam G‘aniyevich, siyosiy fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Abdullayev Mehridin Junaydulloyevich, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Adizova Nigora Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Adizova Nodira Baxtiyorovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*

*Sattorov Anvar Ergashovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor*

*Nurulloev Firuz No‘monjonovich, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), professor*

*Navruz-Zoda Layli Baxtiyorovna, iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Axmadova Umidaxon Shavkat qizi, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent*

*Rasulova Zilola Durdimurotovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Fayziyeva Umida Asadovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

*Xalikova Umida Mirovna, pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent*

## ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ МАСТЕРСТВО

### Научно-теоретический и методический журнал

№ 6, 2026

Решением Высшей аттестационной комиссии при Кабинете Министров Республики Узбекистан от 29 декабря 2016 года журнал включён в перечень изданий, рекомендованных для публикации научных результатов статей по направлениям «Педагогика» и «Психология».

Журнал основан в 2001 году.

Журнал выходит 12 раз в год.

Журнал зарегистрирован Бухарским управлением агентства по печати и массовой коммуникации Узбекистана.

Свидетельство о регистрации средства массовой информации № 05-072 от 22 февраля 2016 г.

**Учредитель:** Бухарский государственный университет

**Адрес редакции:** 200117, Узбекистан, г. Бухара, ул. Мухаммад Икбол, 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

**Главный редактор:** Адизов Бахтиёр Рахманович – доктор педагогических наук, профессор

**Ответственный редактор:** Сайфуллаева Нигора Закиралиевна – доктор философии педагогических наук, доцент

*Хамидов Обиджон Хафизович, доктор экономических наук, профессор*

*Бегимкулов Узакбай Шаимкулович, доктор педагогических наук, профессор*

*Навруз-заде Бахтиёр Нигматович, доктор экономических наук, профессор*

*Ибрагимов Холбой Ибрагимович, доктор педагогических наук, профессор*

*Янакиева Елка Кирилова, доктор педагогических наук, профессор (Болгария)*

*Сатыбекова Майрамкул Абдикуловна, доктор педагогических наук (DSc) профессор (Кыргызстан)*

*Азизов Абдулатиф Абдухалимович, доктор педагогических наук (DSc), профессор, академик (Таджикистан)*

*Батчулуун Ямбуу, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам, профессор (Монголия)*

*Андрюченко Елена Васильевна (Институт физико-математического, информационного и технологического образования НГПУ, Новосибирск, Россия)*

*Ромм Татьяна Александровна (Институт истории, гуманитарного, социального образования ФГБОУ ВО НГПУ, Новосибирск, Россия)*

*Чудакова Вера Петровна, кандидат психологических наук (Национальная академия педагогических наук Украины, Украина)*

*Зотова Фируза Рахматуловна, доктор педагогических наук, профессор (Поволжский государственный университет физической культуры, спорта и туризма, Россия)*

*Хамроев Алижон Рузикулович, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Каххаров Сиддик Каххарович, доктор педагогических наук, профессор*

*Махмудова Муяссар, доктор педагогических наук, профессор*

*Козлов Владимир Васильевич, доктор психологических наук, профессор (Ярославль, Россия)*

*Таджиходжаев Закирходжа Абдусаттарович, доктор технических наук, профессор*

*Аманов Мухтор Рахматович, доктор технических наук, профессор*

*Ураева Дармоной Саиджановна, доктор филологических наук, профессор*

*Дурдиев Дурдимуррад Каландарович, доктор физико-математических наук, профессор*

*Махмудов Насыр Махмудович, доктор экономических наук, профессор*

*Олимов Ширинбой Шарофович, доктор педагогических наук, профессор*

*Киямов Нишон Содикович, доктор педагогических наук, профессор*

*Шомирзаев Махматмурод Хурамович, доктор педагогических наук, профессор*

*Рузиева Дилноза Исомжоновна, доктор педагогических наук, профессор*

*Курбонова Гулнос Негматовна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Тухсанов Кахрамон Рахимбоевич, доктор филологических наук (DSc), профессор*

*Назаров Акмал Мардонович, доктор психологических наук (DSc), профессор*

*Дилова Нарзиза Гайбуллаевна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Жумаев Рустам Ганиевич, доктор философии политических наук (PhD), доцент*

*Абдуллаев Мехридин Жунайдуллоевич, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Адизова Нигора Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Адизова Нодира Бахтиёровна, доктор педагогических наук (DSc), профессор*

*Сатторов Анвар Эргашович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор*

*Нуруллоев Фируз Нумонжонович, доктор философии педагогических наук (PhD), профессор*

*Навруз-заде Лайли Бахтиёровна, доктор философии экономических наук (PhD), доцент*

*Ахмадова Умидахон Шавкат кизи, доктор филологических наук (DSc), доцент*

*Расулова Зилола Дурдимуратовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

*Файзиева Умида Асадовна, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

*Халикова Умида Мирова, доктор философии педагогических наук (PhD), доцент*

## PEDAGOGICAL SKILLS

### The scientific-theoretical and methodological journal

№ 6, 2026

By the decision of the Higher Attestation Commission under the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan dated December 29, 2016, the journal was included in the list of publications recommended for publishing scientific results of articles in the areas of «Pedagogy» and «Psychology».

The journal was founded in 2001.

The journal is published 12 times a year.

The journal is registered by the Bukhara Department of the Agency for Press and Mass Communication of Uzbekistan.

The certificate of registration of mass media № 05-072 of 22 February 2016

**Founder: Bukhara State University**

**Publish house:** 200117, Uzbekistan, Bukhara, Muhammad Ikbol Str., 11.

E-mail: nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

#### EDITORIAL BOARD:

**Chief Editor:** Pedagogical Sciences of Pedagogy, Prof. Bakhtiyor R. Adizov.

**Editor:** Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Doc. Nigora Z. Sayfullaeva

*Doctor of Economics Sciences Prof. Obidjon X. Xamidov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Uzokboy Sh. Begimkulov*

*Doctor of Economics Sciences, Prof. Bakhtiyor N. Navruz-zade*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Holboy I.Ibragimov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Yelka K. Yanakieva (Bulgaria)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mayramkul A. Satibekova (Kyrgyzstan)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Azizov Abdulatif Abdukhalimovich, Academician (Tajikistan)*

*PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Batchuluun Yumbuu (Mongolia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Andrienko Yelena Vasilyevna (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Romm Tatyana Aleksandrovna (Russia)*

*Candidate of Psychology, Vera P. Chudakova (Kiev, Ukraina)*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Zotova Firuza Raxmatullova (Russia)*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Alijon R. Hamroev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Siddik K. Kahhorov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. M. Mahmudova*

*Doctor of Psychology, Prof. Vladimir V. Kozlov (Yaroslavl, Russia)*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Zakirkhodja A. Tadjikhodjaev*

*Doctor of Technical sciences, Prof. Mukhtor R. Amanov*

*Doctor of Philology, Prof. Darmon S. Uraeva*

*Doctor of Physical and Mathematical Sciences, Prof. Durdimurod K. Durdiev*

*Doctor of Economics, Prof. Nasir N. Mahmudov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Shirinboy Sh. Olimov*

*Doctor of Pedagogical Science, Prof. Nishon S. Kiyamov*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Maxmatmurod X. Shomirzaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Dilnoza I. Ruzieva*

*Doctor of Pedagogical Sciences, Prof. Gulnoz N. Qurbonova*

*Doctor of Philology, Prof. Qahramon R. Tuxsanov*

*Doctor of Psychology, Prof. Akmal M. Nazarov*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nargiza G. Dilova*

*PhD in Political Sciences, Doc. Rustam G. Jumaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Mekhriddin J. Abdullaev*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nigora B. Adizova*

*Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Prof. Nodira B. Adizova*

*PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Anvar E. Sattorov*

*PhD in Pedagogical Sciences, Prof. Firuz N. Nurulloev*

*PhD in Economics Sciences, Doc. Layli B. Navruz-zade*

*Doctor of Philology (DSc), Doc. Umidakhon Sh. Akhmadova*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Zilola D. Rasulova*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida A. Fayzieva*

*PhD in Pedagogical Sciences, Doc. Umida M. Khalikova*

**MUNDARIJA**

	<b>Familiya I.Sh.</b>	<b>Mavzu</b>	<b>Bet</b>
<b>MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM</b>			
	<i>AZIMQULOVA Mehro‘za Alimardon qizi</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari vositalar orqali vatan tuyg‘usini rivojlantirish	7
	<i>DJALALOVA Moxinur Abdusattor qizi</i>	Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ijtimoiy malakalarni shakllanish xususiyatlari	12
	<i>LATIPOV Rahmon Ravshanovich</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining morfofunktsional holatini rivojlantirishda milliy o‘yinlardan foydalanish usullari	18
	<i>YULDASHEVA Gulnora Saparbayevna</i>	6-7 yoshli bolalarda “Men” konsepsiyasini shakllantirishda interfaol metodlardan foydalanish samaradorligi	22
	<i>RAIMOV O‘lmasjon Ikrom o‘g‘li</i>	Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazishning nazariy asoslari	26
	<i>NAVRUZOVA Muyassar G‘aybullayevna, SHERMATOVA Munojotxon Marifovna</i>	Boshlang‘ich sinf tarbiya darslarida milliy o‘zlikni anglashning shakllari	29
	<i>YULDASHEVA Gulnora Saparbayevna</i>	Tarbiyalanuvchilarda “Men” konsepsiyasini shakllantirishning ayni kundagi holati	34
<b>TILLARNI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI</b>			
	<i>NIYAZOVA Feride Seyful qizi, TOSHEMIROVA Sabrina Toshpulat qizi</i>	Ingliz tilida xushmuomalalikni o‘rgatishda nutq akti nazariyasidan foydalanish	38
	<i>XIDIROV Xolmurod Norimovich, XIDIROVA Sarvinoz Mahmudjon qizi</i>	O‘zbek va xorijiy tillarning o‘zaro integratsiyasi	42
	<i>RAXMATOVA Madina Abdumo‘min qizi, XOLBO‘TAYEVA Moxinur Temirboy qizi</i>	Elektron korpuslar va raqamli texnologiyalar asosida ingliz tilini o‘qitish metodikasini takomillashtirish	46
	<i>SHARIPOVA Firuza Mexriddinovna</i>	Ertak va hikoyalar vositasida grammatik qoidalarni uyg‘unlashtirib o‘rgatish	51
	<i>SHUKUROVA Shohsanam Qaxramon qizi</i>	Ingliz tilini o‘qitishda spekulyativ nutq faoliyatlari orqali talabalarning analitik fikrlashini rivojlantirish	54
	<i>ULASHEVA Feruza Musurmon qizi</i>	The effectiveness of multimedia technologies in developing speaking skills	59
	<i>УЛЖАЕВА Хуршуда</i>	Система заданий, развивающих саногенное мышление, на занятиях по методике преподавания родного языка	64

<i><b>СУЛТОНОВА Сайёра Холмирзаевна</b></i>	Дидактический потенциал LMS-платформ в обучении русскому языку	70
<b>ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH</b>		
<i><b>ATAJANOVA Gulzar Kazakbayevna</b></i>	Talabalarga axborot texnologiyalarini qo‘llash asosida fizika fanini o‘qitish metodikasi mazmuni va unga qo‘yiladigan talablar	75
<i><b>JUMANIYOZOV Ibrohim Otaxonovich, RADJABXODJAYEV Sardorbek Ikrom o‘g‘li</b></i>	Yarimo‘tkazgichlar fizikasi mavzusini interaktiv va raqamli metodlar asosida o‘qitish samaradorligini tahlil qilish	79
<i><b>NABIYEV A‘zamjon Botirjonovich</b></i>	Nazariy mexanikadan amaliy mashg‘ulotlarda talabalar kreativligini rivojlantirish	86
<i><b>ATAJANOVA Gulzar Kazakbayevna</b></i>	Talabalarga fizika fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitishni takomillashtirish holati va mavjud muammolar	91
<i><b>SAIDMURODOVA Ozoda Saidmurod qizi</b></i>	Tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirish yo‘llari	95
<i><b>SAYIDOVA Aziza Zarifboy qizi</b></i>	Fizika ta‘limida interfaol metodlarning o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyati	99
<i><b>TOXIROVA Maxfuzaxon Otaqo‘ziyevna</b></i>	Umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizikadan masalalar yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish metodikasi	103
<i><b>НАСЫРОВА Нузора Каримовна</b></i>	Численные методы в квантовой механике: методология и практика применения в образовательном процессе	107
<i><b>ATAJANOVA Shoira Ulug‘bekovna, AXADOV Abdushukur O‘tkir o‘g‘li</b></i>	Chiziqli algebra xossalarini olimpiada masalalariga tadbiqu	112
<b>JISMONIY MADANIYAT VA SPORT</b>		
<i><b>UMMATOV Nozim Raimjonovich</b></i>	Talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari va ularning pedagogik tahlili	120
<i><b>BOLTABOYEVA Mahliyo Muzaffar qizi</b></i>	11-12 yoshli futbolchilarning maxsus chidamkorligini rivojlantirish uslubiyati	125
<i><b>NURUMOVA Dinara Maqsudovna</b></i>	Plyaj voleyboli va klassik voleybolning jismoniy yuklamalarini qiyosiy tahlili	130
<i><b>NURIDDINOV Axrorjon Bahodir o‘g‘li</b></i>	Issiq iqlim sharoitida yosh yengil atletikachilarni kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish	134
<b>SAN‘AT</b>		
<i><b>NORMURODOVA Lobar Mamasolievna</b></i>	Bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida ansambl ijrochiligi ko‘nikmalarini rivojlantirishda fortepiano jo‘rnavozligining o‘rni	138

## MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH TA‘LIM

### BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINI SINFDAN TASHQARI VOSITALAR ORQALI VATAN TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISH

*Azimqulova Mehro‘za Alimardon qizi,  
Shahrisabz davlat pedagogika institutining  
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi 1-bosqich talabasi*

*Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Vatanga bo‘lgan muhabbat va sadoqat tuyg‘ularini shakllantirish masalasi ko‘rib chiqilgan. Sinfdan tashqari faoliyatlarning tarbiyaviy ahamiyati va ularning o‘quvchilar ongiga ta‘siri yoritilgan. Muallif tomonidan turli tadbirlar, ijodiy mashg‘ulotlar va amaliy faoliyatlar orqali vatanparvarlikni rivojlantirish usullari tahlil qilingan. Shuningdek, o‘qituvchining pedagogik mahorati va tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil etish muhimligi ta‘kidlangan. Maqola ta‘lim jarayonida samarali usullardan foydalanishga oid tavsiyalarni o‘z ichiga oladi.*

***Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta‘lim, vatanparvarlik, vatan tuyg‘usi, sinfdan tashqari faoliyat, tarbiya, o‘quvchilar, pedagogik jarayon, ma‘naviy tariya, milliy qadriyatlar, tadbirlar.*

### РАЗВИТИЕ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ ПОСРЕДСТВОМ ВНЕКЛАССНЫХ СРЕДСТВ

*В данной статье рассматривается влияние дошкольного образования на учащихся начальной школы. Рассматривается вопрос формирования чувства любви и преданности Родине. Подчёркивается воспитательная ценность внеклассных мероприятий и их влияние на умственную деятельность учащихся. Автор анализирует методы развития патриотизма посредством различных мероприятий, творческих и практических занятий. Также подчёркивается важность педагогических навыков учителя и правильной организации учебной работы. В статье содержатся рекомендации по использованию эффективных методов в учебном процессе.*

***Ключевые слова:** начальное образование, патриотизм, преданность родине, внеклассные мероприятия, образование, учащиеся, педагогический процесс, духовное воспитание, национальные ценности, мероприятия.*

### DEVELOPING A SENSE OF PATRIOTISM IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS THROUGH EXTRACURRICULAR ACTIVITIES

*This article discusses the effects of early childhood education on primary school students. The issue of forming feelings of love and loyalty to the Motherland is considered. The educational value of extracurricular activities and their impact on the minds of students is highlighted. The author analyzes methods for developing patriotism through various events, creative activities and practical activities. The importance of the teacher's pedagogical skills and the correct organization of educational work is also emphasized. The article contains recommendations for the use of effective methods in the educational process.*

***Keywords:** primary education, patriotism, extracurricular activities, education, students, pedagogical process, spiritual education, national values, activities.*

**Kirish.** Hozirgi globallashuv jarayonlari, axborot oqimining keskin ortib borishi hamda turli madaniy ta‘sirlarning kuchayishi sharoitida yosh avlodni milliy qadriyatlarga sodiq, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega va vatanparvar ruhda tarbiyalash dolzarb masalalardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Zero, har qanday jamiyatning ertangi kuni, uning taraqqiyoti va barqarorligi aynan yoshlarning qanday ruhda voyaga yetishiga bevosita bog‘liqdir. Boshlang‘ich ta‘lim bosqichi esa inson shaxsining shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Aynan shu davrda bolalarning ongida ilk ijtimoiy tushunchalar, milliy qadriyatlarga bo‘lgan munosabat hamda Vatanga nisbatan mehr-muhabbat tuyg‘ulari shakllana boshlaydi. Shu boisdan, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Vatan tuyg‘usini rivojlantirish masalasi pedagogika fanining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda ta‘lim jarayonida faqat an‘anaviy dars usullari bilan cheklanib qolish yetarli natija bermasligi amaliyotda o‘z isbotini topmoqda. Shu nuqtayi nazardan

qaraganda, sinfdan tashqari faoliyatlar o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida, xususan, ularda vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirishda samarali vosita sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Turli madaniy-ma’rifiy tadbirlar, tarixiy obidalarga uyushtirilgan ekskursiyalar, badiiy chiqishlar, uchrashuvlar va tanlovlar orqali o‘quvchilarni Vatan tushunchasini chuqurroq anglaydi, milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Shuningdek, bunday faoliyatlar o‘quvchilarning nafaqat bilim doirasini kengaytiradi, balki ularning ijtimoiy faolligini oshiradi, jamoada ishlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi hamda mustaqil fikrlashga o‘rgatadi. Bu esa, o‘z navbatida, barkamol shaxsni shakllantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Mamlakatimiz ta’lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar ham yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash, ularning qalbida Vatanga sadoqat va muhabbat tuyg‘ularini mustahkamlashga qaratilgani bilan ahamiyatlidir. Zero, Vatan ravnaqi yo‘lida fidoyi, ma’naviy yetuk va faol fuqarolarni tarbiyalash har bir pedagogning muqaddas burchi hisoblanadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari bilan olib boriladigan tarbiyaviy ishlar o‘zining mazmuni va shakliga ko‘ra qiziqarli, tushunarli va ta’sirchan bo‘lishi lozim. Ayniqsa, sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilarda Vatan haqidagi tasavvurlarni boyitish, ularda milliy o‘zlikni anglash, tarixiy merosga hurmat hissini uyg‘otish imkoniyati kengdir. Bunday yondashuv o‘quvchilarning faqat nazariy bilimlarini emas, balki ularning hayotiy qarashlari va ijtimoiy faolligini ham rivojlantiradi. Shu bilan birga, o‘qituvchining pedagogik mahorati, uning tarbiyaviy ishlarni to‘g‘ri tashkil eta olishi, innovatsion usullardan samarali foydalanishi ushbu jarayonning muvaffaqiyatini ta’minlaydi. Har bir tashkil etilgan tadbir o‘zining maqsadi, mazmuni va tarbiyaviy ahamiyati bilan o‘quvchilar qalbida chuqur iz qoldirishi zarur.

Aynan shunday yondashuv orqali boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Vatan tuyg‘usi nafaqat tushuncha sifatida, balki hayotiy qadriyat darajasiga ko‘tariladi. Bu esa kelajakda jamiyatga foydali, vatanparvar va mas’uliyatli shaxslarning shakllanishiga xizmat qiladi. Bugungi kunda yoshlar tarbiyasida yuzaga kelayotgan ayrim muammolar, xususan, befarqlik, milliy qadriyatlarga loqaydlik kabi holatlar ta’lim-tarbiya jarayoniga yangicha yondashuvni talab etmoqda. Shu jihatdan qaraganda, o‘quvchilarda Vatan tuyg‘usini shakllantirishni tizimli va uzluksiz yo‘lga qo‘yish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayon nafaqat maktab, balki oila va jamiyat hamkorligida amalga oshirilgandagina samarali natija beradi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining psixologik xususiyatlari ham bu jarayonda alohida e’tiborni talab qiladi. Ular ko‘proq ko‘rish, eshitish va amaliy faoliyat orqali tezroq o‘zlashtiradi. Shu sababli sinfdan tashqari mashg‘ulotlarda interfaol usullardan, o‘yin elementlaridan, sahna ko‘rinishlaridan va ijodiy topshiriqlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bu esa o‘quvchilarda nafaqat qiziqish uyg‘otadi, balki Vatan haqidagi tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash orqali tarbiyaviy ishlarning samaradorligini yanada oshirish mumkin. Multimediali vositalar, videoroliklar, taqdimotlar va interfaol o‘yinlar o‘quvchilarning diqqatini jalb etib, ularni faol ishtirok etishga undaydi. Natijada, o‘quvchilar o‘z fikrini erkin bayon eta oladigan, ongli va faol shaxs sifatida shakllanadi. Umuman olganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Vatan tuyg‘usini rivojlantirish murakkab, ammo zarur pedagogik jarayon bo‘lib, u o‘qituvchidan katta mas’uliyat, ijodkorlik va yondashuvni talab etadi. Ushbu yo‘nalishda olib boriladigan izchil va samarali ishlar kelajakda jamiyat taraqqiyotiga munosib hissa qo‘sha oladigan avlodni tarbiyalashga xizmat qiladi. Shu o‘rinda ta’kidlash joizki, Vatan tuyg‘usi — bu shunchaki tushuncha emas, balki shaxsning ichki e’tiqodi, ma’naviy dunyosining ajralmas qismidir. Uni shakllantirish esa uzluksiz va izchil tarbiyaviy faoliyatni talab etadi. Ayniqsa, boshlang‘ich ta’lim bosqichida berilgan tarbiya keyingi bosqichlar uchun mustahkam poydevor vazifasini o‘taydi. Agar bu davrda o‘quvchilarda Vatanga mehr, milliy qadriyatlarga hurmat va sadoqat tuyg‘ulari to‘g‘ri shakllantirilsa, kelajakda ularning fuqarolik pozitsiyasi ham shunga mos ravishda mustahkam bo‘ladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Bundan tashqari, sinfdan tashqari faoliyatlar orqali o‘quvchilarda nafaqat vatanparvarlik, balki insonparvarlik, jamoaviylik, mas’uliyat va intizom kabi ijobiy fazilatlarini ham rivojlantirish mumkin. Bu esa tarbiya jarayonining ko‘p qirrali ekanligini ko‘rsatadi. Har bir tashkil etilgan tadbir o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga mos, mazmunan boy va tarbiyaviy jihatdan ahamiyatli bo‘lishi zarur. Zamonaviy ta’lim tizimi o‘qituvchidan faqat bilim berishni emas, balki tarbiyachi, yo‘naltiruvchi va motivator bo‘lishni ham talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, boshlang‘ich sinf o‘qituvchisining kasbiy mahorati, uning pedagogik yondashuvi hamda o‘quvchilar bilan ishlash uslubi alohida ahamiyatga ega. O‘qituvchi o‘z faoliyatida innovatsion yondashuvlarni qo‘llagan holda, har bir o‘quvchining qalbiga yo‘l topa olishi lozim. Boshlang‘ich ta’lim bosqichi o‘quvchilarning shaxsiy, aqliy, jismoniy va ijtimoiy rivojlanishida hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois, bu bosqichda amalga oshiriladigan tarbiya jarayoni nafaqat bilim berish, balki komil insonni shakllantirishga qaratilgan kompleks pedagogik faoliyat sifatida qaraladi. Tarbiya turlari bu o‘quvchilarning turli qirralarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi

yo'nalishlar bo'lib, ular bir-biri bilan uzviy bog'liq, integratsiyalashgan va tizimli tarzda olib borilishi Axloqiy tarbiya o'quvchilarda odob-axloq qoidalariga rioya qilish, halollik, rostgo'ylik, sabr-toqat, hurmat kabi insoniy fazilatlarini shakllantiradi.

Bu tarbiya turi shaxsiy kamolotning asosiy poydevorini yaratadi. Estetik tarbiya esa go'zallikni anglash, didni tarbiyalash, san'atga, tabiatga va madaniyatga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirishga xizmat qiladi. Bu ikki tarbiya turi birgalikda o'quvchining ichki madaniyatini boyitadi. Mehnat tarbiyasi o'quvchilarda ishga hurmat, mas'uliyat, sabr-toqat, natijani qadrlash, jamoaviy ish ko'nikmalarini shakllantiradi. Ekologik tarbiya esa tabiatga mehr, atrof-muhitga e'tibor, yashil Qadriyatlar, ekologik ong va sog'lom muhitga intilish kabi sifatlarni rivojlantiradi. Jismoniy tarbiya sog'lom turmush tarzini shakllantirish, harakatga qiziqish, sport madaniyati, jismoniy salohiyat va psixologik barqarorlikni ta'minlaydi. Ijtimoiy tarbiya o'quvchilarda jamiyatda yashash, muloqot qilish, hamkorlikda ishlash, tengdoshlar bilan sog'lom munosabat o'rnatish, jamoaviy mas'uliyatni anglash kabi ko'nikmalarni shakllantiradi. Vatanparvarlik tarbiyasi esa milliy qadriyatlarga hurmat, tarixiy ong, davlat ramzlariga sadoqat, yurtga xizmat qilish istagini uyg'otadi.

Bu ikki tarbiya turi o'quvchining fuqarolik pozitsiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. Huquqiy tarbiya o'quvchilarda qonunlarga hurmat, huquqiy madaniyat, o'z huquq va majburiyatlarini anglash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Iqtisodiy tarbiya esa tejash, rejalashtirish, mehnatning qiymatini anglash, pulga mas'uliyatli munosabatni shakllantiradi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'quvchilarida Vatan tuyg'usini shakllantirishda sinfdan tashqari vositalardan oqilona foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vositalar orqali o'quvchilar nafaqat bilim oladi, balki o'z Vatanga nisbatan mehr va faxr tuyg'ularini ham chuqur his etadi. Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'quvchilarning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etish bilan birga, ularning dunyoqarashini kengaytiradi. Ayniqsa, turli mavzulardagi tarbiyaviy tadbirlar, sahna ko'rinishlari va badiiy chiqishlar orqali bolalarda milliy ruh va o'zlikni anglash hissi shakllanadi. Masalan, Vatan haqidagi she'rlarni yodlash, qo'shiqlar kuylash yoki kichik spektakllar sahnalashtirish orqali o'quvchilar Vatan tushunchasini yanada chuqurroq anglay boshlaydi. Bundan tashqari, tarixiy joylarga sayohatlar tashkil etish ham katta tarbiyaviy ahamiyatga ega.

Bunday ekskursiyalar davomida o'quvchilar ajdodlarimiz qoldirgan boy meros bilan yaqindan tanishadi. Bu esa ularda o'z yurtiga nisbatan hurmat va g'urur hissini kuchaytiradi. Ayniqsa, o'qituvchi tomonidan berilgan izohlar va tushuntirishlar bu jarayonni yanada samarali qiladi. Shuningdek, o'quvchilar o'rtasida turli tanlovlar tashkil etish ham muhim hisoblanadi. “Eng yaxshi rasm”, “Vatan haqida eng chiroyli insho” kabi tanlovlar bolalarda ijodkorlikni rivojlantiradi va ularni faol bo'lishga undaydi. Bu orqali o'quvchilar o'z fikrlarini erkin ifoda etishni o'rganadi hamda Vatan haqidagi qarashlarini mustahkamlaydi. O'yinlar ham bu jarayonda muhim vosita hisoblanadi. Ayniqsa, rolli o'yinlar orqali bolalar turli kasblarni tasavvur qiladi, o'zlarini Vatan ravnaqi uchun xizmat qilayotgan inson sifatida his etadi. Bu esa ularda mas'uliyat hissini shakllantiradi.

**Adabiyotlar tahlili.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarida Vatan tuyg'usini shakllantirish masalasi pedagogika va psixologiya fanlarida muhim yo'nalishlardan biri sifatida keng o'rganilgan. Ayniqsa, sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar orqali bu tuyg'uni rivojlantirish samarali vosita sifatida ko'riladi.

O'zbekistonlik pedagog olimlaridan Q. Yo'ldoshev va R. Mavlonova o'z tadqiqotlarida boshlang'ich ta'lim jarayonida tarbiya va ta'limning uzviyligini ta'kidlab, sinfdan tashqari faoliyatlar o'quvchilarning ma'naviy dunyosini boyitishda muhim ahamiyat kasb etishini qayd etadi. Ularning fikricha, turli tadbirlar, ekskursiyalar va ijodiy mashg'ulotlar orqali bolalarda Vatanga muhabbat hissi tabiiy ravishda shakllanadi.

Shuningdek, N. Azizxo'jayeva tarbiya nazariyasiga oid ishlarida o'quvchilarda milliy qadriyatlar, urf-odatlar va an'analarga hurmatni shakllantirish Vatan tuyg'usining asosiy tarkibiy qismi ekanligini ta'kidlaydi. Muallif sinfdan tashqari ishlarida xalq og'zaki ijodi, milliy bayramlar va urf-odatlardan foydalanishni tavsiya etadi.

Xorijiy olimlardan K. D. Ushinskiy tarbiya jarayonida xalqchilik tamoyiliga katta ahamiyat berib, bolalarni o'z xalqining madaniyati va tarixiga hurmat ruhida tarbiyalash zarurligini uqtiradi. Uning fikricha, bu jarayon Vatanparvarlik tuyg'usining shakllanishiga asos bo'ladi.

Bundan tashqari, A. S. Makarenko jamoa orqali tarbiyalash nazariyasida sinfdan tashqari faoliyatlarning o'rni katta ekanligini ta'kidlab, o'quvchilarni turli jamoaviy ishlar, o'yinlar va ijtimoiy foydali mehnatga jalb etish orqali ularda mas'uliyat, hamjihatlik va Vatanga sadoqat kabi sifatlarni rivojlantirish mumkinligini ko'rsatadi.

Zamonaviy tadqiqotlarda esa sinfdan tashqari vositalar sifatida interaktiv metodlar, loyihaviy faoliyat, multimedia vositalari va tarbiyaviy tadbirlarning yangi shakllari keng qo'llanilmoqda. Bu esa o'quvchilarning qiziqishini oshirib, Vatan haqidagi bilimlarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Asosiy adabiyotlar tahlili mana shulardan iborat bo'lgan.

**Muhokama.** Maqsad: Sinfdan tashqari faoliyat (to‘garaklar, ekskursiyalar, tadbirlar) orqali o‘quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishning samarali metodik tizimini ishlab chiqish va tajribada sinab ko‘rish.

Vazifalar: Mavzu bo‘yicha pedagogik-psixologik adabiyotlarni tahlil qilish;

Sinfdan tashqari ishlarning vatanparvarlikni shakllantirishdagi imkoniyatlarini aniqlash;

O‘quvchilarning vatan tuyg‘usi shakllanganlik darajasini o‘lchash mezonlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot jarayonida quyidagi metodlar majmuasidan foydalaniladi:

Nazariy metodlar: Pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, normativ hujjatlarni (DTS, o‘quv dasturlari) o‘rganish.

Empirik (amaliy) metodlar:

Kuzatuv: Sinfdan tashqari tadbirlarda o‘quvchilarning faolligi va hissiy munosabatini kuzatish.

Suhbat va So‘rovnoma (Anketa): O‘quvchilarning "Vatan" tushunchasi haqidagi tasavvurlarini aniqlash.

Test sinovlari: Bilim darajasini aniqlash uchun vatan tarixi va ramzlari bo‘yicha testlar.

Pedagogik eksperiment: Tadqiqotning samaradorligini isbotlash uchun "Aniqlovchi", "Shakllantiruvchi" va "Tekshiruvchi" bosqichlarda o‘tkaziladi.

Matematik-statistik metodlar: Eksperiment natijalarini raqamlar asosida tahlil qilish (foiz ko‘rsatkichlari, diagrammalar). Tadqiqotning obyekti va predmeti

Obyekti: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sinfdan tashqari tarbiya jarayoni.

Predmeti: Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida vatan tuyg‘usini rivojlantirishning mazmuni, shakllari, metod va vositalari. Agar boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun sinfdan tashqari mashg‘ulotlar tizimli, qiziqarli (interaktiv o‘yinlar, virtual sayohatlar, ijodiy loyihalar) va milliy qadriyatlarga tayangan holda tashkil etilsa, ularda vatanparvarlik tuyg‘usi va milliy g‘urur yuqori darajada shakllanadi".

Kutilayotgan natijalar. Vatan tuyg‘usini rivojlantirishga qaratilgan sinfdan tashqari tadbirlar ishlanmalari to‘plami;

O‘quvchilarning vatanparvarlik darajasini aniqlash bo‘yicha metodik tavsiyalar.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida Vatan tuyg‘usini shakllantirish va rivojlantirish har bir pedagogning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki yosh avlod qalbida ona yurtga muhabbat, milliy qadriyatlarga hurmat va ajdodlar merosiga sadoqat tuyg‘ularini aynan boshlang‘ich ta‘lim davridan boshlab singdirish kelajak taraqqiyotining muhim omilidir. Bu jarayonda sinfdan tashqari vositalar alohida ahamiyatga ega bo‘lib, ular o‘quvchilarning nafaqat bilimini, balki ma‘naviy dunyosini, dunyoqarashini va ijtimoiy faolligini ham boyitadi.

Sinfdan tashqari mashg‘ulotlar orqali o‘quvchilar Vatan haqidagi she‘rlar, qo‘shiqlar, sahna ko‘rinishlari, tanlovlar, ekskursiyalar va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlarda faol qatnashadilar. Bunday faoliyatlar bolalarda o‘z yurtiga nisbatan faxr va g‘urur hissini uyg‘otadi. Ayniqsa, buyuk ajdodlarimiz hayoti va faoliyati bilan tanishtirish, tarixiy obidalar hamda muqaddas qadamjolar haqida ma‘lumot berish o‘quvchilarning milliy ongini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, turli bayram tadbirlari va uchrashuvlar bolalarda jamoaviylik, hamjihatlik va o‘zaro hurmat kabi insoniy fazilatlarini shakllantiradi.

Maqolada ko‘rib chiqilganidek, sinfdan tashqari vositalar o‘quvchilarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yordam beradi. Bugungi globallashuv davrida yoshlarni turli salbiy ta‘sirlardan asrash, ularni foydali mashg‘ulotlarga jalb etish juda muhimdir. Shu sababli maktablarda tashkil etiladigan turli to‘garaklar, ijodiy uchrashuvlar, sport musobaqalari va ma‘naviy tadbirlar yosh avlodning barkamol inson bo‘lib voyaga yetishida katta rol o‘ynaydi. O‘quvchilar bu jarayonda mustaqil fikrlashga, tashabbuskorlikka va o‘z fikrini erkin ifoda etishga o‘rganadilar. Shuningdek, Vatan tuyg‘usini rivojlantirishda o‘qituvchi shaxsining o‘rni ham beqiyosdir. O‘qituvchi o‘zining bilim saviyasi, muomala madaniyati va vatanparvarlik namunasi bilan o‘quvchilarga ta‘sir ko‘rsatadi. Pedagogning har bir so‘zi, munosabati va tashkil etgan faoliyati bolalar qalbida chuqur iz qoldiradi. Shu bois o‘qituvchi zamonaviy pedagogik texnologiyalardan unumli foydalanib, dars va sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni mazmunli hamda qiziqarli tashkil etishi lozim.

Bundan tashqari, oilaning ham tarbiyadagi o‘rni juda katta hisoblanadi. Ota-onalar farzandlariga milliy qadriyatlarni o‘rgatishi, Vatan haqida suhbatlar olib borishi va ularni ma‘naviy tadbirlarga faol jalb qilishi orqali maktab bilan hamkorlikda samarali natijalarga erishish mumkin. Maktab, oila va jamiyat hamkorligi asosida olib borilgan tarbiyaviy ishlar bolalarda Vatanga muhabbat hissini yanada mustahkamlaydi.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini sinfdan tashqari vositalar orqali Vatan tuyg‘usi ruhida tarbiyalash ularning ma‘naviy kamolotini ta‘minlaydi, milliy ong va mafkurasini shakllantiradi hamda kelajakda yurt ravnaqi uchun xizmat qiladigan yetuk, bilimli va vatanparvar shaxs bo‘lib voyaga yetishiga zamin yaratadi. Shuning uchun ham ta‘lim muassasalarida sinfdan tashqari

faoliyatlarni yanada takomillashtirish, ularning mazmunini boyitish va zamonaviy usullar asosida tashkil etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi.

**Adabiyotlar:**

1. Axrorov Y., Qobilova R. O'rta Osiyo mutafakkirlarining pedagogik qarashlari. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2019. (Vatanparvarlikning tarixiy ildizlari uchun).
2. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. – T.: “O'zbekiston”, 2020. (Ma'naviy-vatanparvarlik asoslari).
3. Umirova M. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini sinfdan tashqari ishlar vositasida vatanparvarlik ruhida tarbiyalash texnologiyasi.
4. Shaxnozaxon Nishonboyeva, & Sayyoraxon Xamraqulova. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarida vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish. // Pedagog, 8(1), 89-93.
5. O'ktamova M.A. (2024). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini vatanparvarlik ruhida tarbiyalash. Buxoro davlat pedagogika instituti,
6. Umarova D. D. (2023). Boshlang'ich sinflarda vatanparvarlik hissini uyg'otish.
7. Xazratov T. N. (2022). Yoshlarda vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirishning zamonaviy yondashuvlari.

## KATTA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA IJTIMOY MALAKALARNI SHAKLLANISH XUSUSIYATLARI

*Djalalova Moxinur Abdusattor qizi,  
Farg'ona davlat universiteti Psixologiya kafedrasida o'qituvchisi,  
psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

*Maqolada maktabgacha yosh davri bolalarining ijtimoiy malaka va ko'nikmalari, olimlarning bu boradagi fikr-mulohazalari, ijtimoiy ko'nikma va muloqotning o'ziga xosligi, kommunikativ me'yorlar, kattalarning bolalar hayotidagi o'rni borasida mulohazalar bayon etilgan.*

***Kalit so'zlar:** bola, jins, malaka, ijtimoiy ko'nikma, vaziyat, daraja, reja, e'tibor, munosabat, iliqlik, hayot, tushunish, muloqot, aksariyat.*

## ОСОБЕННОСТИ ФОРМИРОВАНИЯ СОЦИАЛЬНЫХ НАВЫКОВ У ДЕТЕЙ СТАРШЕГО ДОШКОЛЬНОГО ВОЗРАСТА

*В статье рассматриваются социальные умения и навыки детей дошкольного возраста, анализируются мнения учёных по данной проблеме, раскрываются особенности социальных навыков и общения, коммуникативные нормы, а также роль взрослых в жизни ребёнка.*

***Ключевые слова:** ребёнок, пол, навык, социальные умения, ситуация, уровень, план, внимание, отношение, теплота, жизнь, понимание, общение, большинство.*

## FEATURES OF THE FORMATION OF SOCIAL SKILLS IN OLDER PRESCHOOL CHILDREN

*The article examines the social skills and abilities of preschool-aged children, analyzes scholars' views on this issue, and highlights the specific characteristics of social skills and communication, communicative norms, as well as the role of adults in a child's life.*

***Keywords:** child, gender, skill, social skills, situation, level, plan, attention, relationship, warmth, life, understanding, communication, majority.*

**Kirish.** Bolalarning tengdoshlar bilan muloqoti – bu ularning hayot faoliyatining alohida sohasi bo'lib, kattalar bilan muloqotdan sezilarli darajada farq qiladi. Yaqin kattalar odatda bolaga e'tiborli va mehribon bo'lib, uni iliqlik va g'amxo'rlik bilan qamrab oladi, ma'lum malaka va ko'nikmalarni o'rgatadi. Tengdoshlar bilan esa vaziyat boshqacha kechadi. Bolalar bir-biriga kam e'tiborli va kam mehribon bo'lib, odatda bir-biriga yordam berishga yoki tushunishga intilmaydi. Ular o'yinchani tortib olishi, boshqa bolani xafa qilishi mumkin. Shu bilan birga, tengdoshlar bilan muloqot bolaga misli ko'rilmagan zavq bag'ishlaydi. 4 yoshdan boshlab, tengdosh bolalar kattalarga qaraganda bolaga yanada qiziqarli va jozibador sherik bo'ladi. Agar bola tanlov qilishga majbur bo'lsa – do'sti bilan o'ynash yoki onasi bilan vaqt o'tkazish, aksariyat bolalar tengdoshni tanlaydi.

Muloqot mazmuni bolalarning o'z kechinmalari, maqsadlari va rejalari, munosabatlari, xotiralari ham bo'lishi mumkin. Bularning barchasi ham ko'z bilan ko'rish yoki qo'l bilan teginish orqali amalga oshmaydi, ammo kattalar bilan muloqot orqali ular bolaning hayotida to'laqonli va muhim bo'ladi. Vaziyatdan tashqari muloqotning paydo bo'lishi maktabgacha yoshdagi bolaning hayotiy olamining yangi tomonlarini ochib beradi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Katta maktabgacha yoshda kattalar bolalar hayotida markaziy shaxs bo'lib qoladi. Aynan pedagog va ota-onadan bola muloqot madaniyati namunasi va kommunikativ me'yorlarni o'rganadi. Endi bolalar bilan tengdoshlar o'rtasidagi muloqotni ko'rib chiqamiz. Maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlar bilan muloqoti kattalar bilan muloqotdan sifat jihatdan farq qiladi. Birinchidan, tengdoshlar bilan aloqalar deyarli o'n barobar ko'proq hissiy jihatdan boy va ifodali bo'lib, yorqin intonatsiyalar, qichqiriqlar, kulgilar va yuz ifodalari bilan kechadi. Bu turli hissiy holatlarni – faol norozilikdan quvonchgacha, mehr-muhabbatdan janjalgacha – ifodalaydi. Bolalar muloqotining yuqori hissiyligi ularning tengdoshlar orasida erkinlik va qulaylikni his qilishini ko'rsatadi. Ikkinchidan, bolalar bilan aloqalar nostandart va tartibsiz bo'lib, ularning kattalar bilan muloqotidagi qat'iy qoidalar yo'q. Tengdoshlar bilan muloqotda bolalar erkin bo'lib, kutilmagan va noodatiy vositalardan foydalanadi, g'ayrioddiy pozalar qabul qiladi, noodatiy tovushlar chiqaradi, g'ayrioddiy so'z birikmalarini yaratadi, bir-

birini taqlid qilib, ijodiylik va fantaziyani namoyon qiladi. Uchinchidan, tengdoshlar bilan aloqada tashabbuskor fikrlar javoblarga nisbatan ustun turadi. Bola uchun boshqa odamni tinglashdan ko‘ra o‘zini ifodalash muhimroq, bu esa o‘zini yaxshiroq bilishga yordam beradi. Suhbatda har kim o‘z mavzusida gapiradi, bir-birini tinglamaydi yoki so‘zini to‘sadi, shuning uchun suhbat ko‘pincha muvaffaqiyatsiz bo‘ladi va hattoki nizolarga, ranjishga olib kelishi mumkin. To‘rtinchidan, tengdoshlar bilan muloqot maqsad va vazifalar, kommunikativ funksiyalar jihatidan boyroqdir. Bolaning tengdoshlarga qaratilgan harakatlari ko‘proq xilma-xildir.

Shuni hisobga olish kerakki, muloqot faoliyatning bir turi sifatida ma‘lum vositalar orqali amalga oshiriladi. M.I. Lisinaning fikriga ko‘ra, «bola-bola» sohasida bolalar «bola-katta» sohasidagi vositalardan foydalanadi va kommunikativ faoliyat shakllanishining boshlanishiga (uch yoshga kelib) deyarli to‘liq egadirlar. Biz M.I. Lisina va E.O. Smirnova fikriga qo‘shilib hisoblaymizki, katta maktabgacha yoshdagi bolalar o‘zaro munosabat va muloqotda kichik bolalarga nisbatan ko‘proq tengdoshlariga yo‘naltiriladi. Ular bo‘sh vaqtning katta qismini birgalikdagi o‘yinlar va suhbatlarda o‘tkazadilar, tengdoshlarning baholari va fikrlari ular uchun muhim bo‘ladi, bir-birlariga ko‘proq talablar qo‘yadilar va o‘z xatti-harakatlarida ularni hisobga olishga harakat qiladilar.

Ushbu yoshdagi bolalarning munosabatlari tanlovchanlik va barqarorlik xususiyatiga ega bo‘ladi: doimiy sheriklar butun yil davomida saqlanishi mumkin. Ular o‘z afzalliklarini tushuntirayotganda endi vaziyatga bog‘liq, tasodifiy sabablarni («yaqin o‘tiradi», «bugun u menga mashina bilan o‘ynashga berdi») keltirmaydi, balki o‘yin davomida bola muvaffaqiyatini («ular bilan o‘ynash qiziqarli», «ular bilan o‘ynash yoqadi») yoki uning ijobiy sifatlarini («u mehribon», «u yaxshi», «u urishmaydi») ta‘kidlaydi. L.H. Galiguzova va E.O.Smirnova bolalarning tengdoshlar bilan o‘zaro aloqasidagi bir qator xususiyatlarni ajratib ko‘rsatganlar:

– **yorqin hissiy boylik:** bolalarning kattalar bilan suhbatlari nisbatan tinch va kam hissiy ifoda bilan kechadi, tengdoshlar bilan esa keskin intonatsiyalar, qichqiriqlar, kulgi va yuz ifodalari bilan birga bo‘ladi;

– **bolalar fikrlarining nostandartligi:** ular bir-biri bilan gaplashar ekan, kutilmagan, oldindan aytib bo‘lmaydigan so‘zlar, tovushlar va iboralardan foydalanadilar, shu orqali o‘z shaxsiylikini va ijodiy mustaqilligini namoyon etadilar;

– **tashabbuskorlikning ustunligi:** bolalar suhbatlarda ko‘pincha bir-birini to‘sib qo‘yadi, har biri o‘z mavzusida gapiradi va hamkoringni tinglamaydi, kattalarning tashabbusiga esa doimo javob beradi, ularni qo‘llab-quvvatlaydi va suhbatni davom ettirishga intiladi;

– **muloqotning boy maqsad va funksiyalari:** tengdoshlar bilan muloqotda harakatlarni boshqarish, sherikning harakatlarini nazorat qilish, o‘z namunalarini tatbiq etish, birgalikda o‘yin o‘ynash va o‘zini boshqalar bilan taqqoslash kabi ko‘plab vazifalar namoyon bo‘ladi.

Shunday qilib, tengdoshlar bilan muloqot kattalar bilan muloqotdan sezilarli darajada farq qiladi. Ko‘plab tadqiqotchilar fikricha, jamoaviy faoliyat muloqot rivojiga ta‘sir qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning tengdoshlar va kattalar bilan birgalikdagi faoliyati va uning muloqotga ta‘siri bo‘yicha ko‘plab mahalliy olimlar izlanishlar olib borgan: A.A.Bodalev, L.A.Krichevskiy, T.A.Repina, R.A.Ivanova, L.P. Bukhtiarova, M.I.Lisina, R.B.Smerkina va boshqalar. Avval aytilganidek, vaziyatdan tashqari shaxsiy muloqot bolalarni muloqotga undaydigan shaxsiy motivlarga asoslanadi. Shu bilan birga, u turli faoliyatlar – o‘yin, mehnat, kognitiv faoliyat – fonida kechadi. Katta maktabgacha yoshda bu muloqot bolaning shaxsiyati uchun mustaqil ahamiyat kasb etadi va kattalar bilan hamkorlik kontekstiga bog‘liq bo‘lmaydi, bu esa bolaga o‘zini, boshqa odamlarni va ular bilan munosabatlarni tushunish imkonini beradi. Vaziyatdan tashqari ishchi muloqot olti-yetti yoshdagi bolalarda kamroq kuzatiladi, ammo uning rivojlanish tendensiyasi yaqqol seziladi.

O‘yinlarning murakkablashishi, qoidali o‘yinlarning paydo bo‘lishi bolalarni oldindan kelishishga, uni rejalashtirishga, qoidalarni muhokama qilishga majbur qiladi. Muloqotdagi asosiy ehtiyoj – tengdoshlar bilan hamkorlik qilish istagi bo‘lib, u vaziyatdan tashqari xarakterga ega bo‘lsa-da, amaliy bo‘lib qoladi va bolalarning real harakatlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Muloqotning asosiy motivi ham vaziyatdan tashqari bo‘lib, tengdoshga nisbatan subyekt munosabat shakllanadi – ya‘ni uning xohlari va afzalliklarini inobatga olgan teng shaxs sifatida ko‘rish qobiliyati paydo bo‘ladi.

Shu davrda ilk do‘stona bog‘lanishlar va yaqin munosabatlar paydo bo‘ladi. Bola tengdoshining manfaatlarini hisobga oladi, unga hamdardlik qiladi, yordam berishga, himoya qilishga yoki jazodan himoya qilishga intiladi. Bolalar muloqot vositalaridan keng foydalanadi, ammo asosiy vosita so‘zdir. Vaziyatdan tashqari kontaktlar soni oshadi, “toza muloqot” endi buyumlar va ularni ishlatish bilan bog‘liq bo‘lmaydi. Bolalar endi bilim va shaxsiy mavzularda suhbatlashadi, garchi ishbilarmon motivlar hali ham ustun bo‘lsa-da. Vaziyatdan tashqari ishchi muloqot hamkoringni o‘ziga teng shaxs sifatida ko‘rish, uning fikr va his-tuyg‘ularini tushunish, o‘zini anglash qobiliyatini shakllantiradi. Olti yoshga kelib, bolalarning tengdoshiga

hamdardlik qobiliyati sezilarli darajada ortadi, boshqasiga yordam berish yoki o‘rtoqlashish istagi paydo bo‘ladi. Bunday harakatlar odatda ijobiy hissiyotlar bilan birga kechadi – tabassum, ko‘z bilan qarash, samimiy imo-ishoralar. Ko‘pincha bolalar o‘yin qoidalariga qarshi bo‘lsa ham, sheriklariga yordam berishga, ularning harakatlarini kattalar oldida himoya qilishga intiladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, tengdoshga nisbatan xulq nafaqat axloqiy norma saqlash istagidan, balki boshqa odamga bevosita munosabatdan kelib chiqadi.

Befoyda yordam berish, sovg‘a qilish yoki ustunlikni berish, sherikning harakatlariga hissiy befarqlik bilan bog‘lanmaslik kabi holatlar katta maktabgacha yoshda bolalar o‘rtasidagi shaxsiy munosabatni shakllantiradi. Bu munosabatning mazmuni shundaki, tengdosh nafaqat birgalikdagi faoliyat uchun tanlangan sherik, nafaqat o‘zini solishtirish vositasi, balki o‘ziga teng bo‘lgan to‘laqonli shaxsga aylanadi. O‘zini tengdosh bilan taqqoslash va qarama-qarshi qo‘yish ichki birlikni hosil qiladi, bu esa yanada chuqurroq shaxslararo munosabatlarni amalga oshirish imkonini beradi. Mutaxassislar fikriga ko‘ra, tengdoshlar bilan muloqotda bolada quyidagi kommunikativ ko‘nikmalar shakllanadi va rivojlanadi: o‘zini boshqalar sifatida tutish, xafa bo‘lishni ifodalash (qasddan e‘tiborsiz qolish, javob bermaslik), fantaziyalash (noto‘g‘ri yoki g‘ayrioddiy narsalarni ixtiro qilish).

Tengdoshlar bilan yetarlicha muloqot qilmaydigan yoki ularni muloqotga qiziqтира olmaydigan bola o‘zini noqulay, rad etilgan his qiladi. Bu esa past o‘zini baholash, uyatchanlik va yopiq xulqqa olib keladi. Bolaning hayotidagi bu tomonga erta e‘tibor qaratilsa, kelajakda muammolar kamroq bo‘ladi. Shunday qilib, yuqorida aytilganlarni umumlashtiradigan bo‘lsak, quyidagi xulosa chiqarish mumkin: tengdoshlar bilan muloqot jarayonida bola o‘zini ifodalashni, boshqalarni boshqarishni, turli munosabatlarga kirishni o‘rganadi. Shu bilan birga, kattalar bilan muloqot jarayonida bola to‘g‘ri gapirishni, boshqalarni tinglash va tushunishni, yangi bilimlarni o‘zlashtirishni o‘rganadi. Bundan tashqari, aynan muloqot orqali bola kattalardan ularning odat va xulq namunalari, o‘ziga xos obrazlarini o‘zlashtiradi, shuning uchun ota-onalar va pedagoglarga bola bilan samarali muloqot va o‘zaro aloqani qurishda alohida mas‘uliyat yuklanadi.

**Natijalar.** Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda kommunikativ ko‘nikmalarni shakllantirish juda dolzarb muammo hisoblanadi, chunki ushbu ko‘nikmalarning shakllanish darajasi nafaqat bolalarning o‘qish samaradorligiga, balki ularning sotsializatsiya jarayoni va shaxs sifatida rivojlanishiga ham ta‘sir qiladi. Ko‘nikmalar faoliyat orqali shakllanadi, kommunikativ ko‘nikmalar esa aynan muloqot jarayonida rivojlanadi va takomillashadi.

Bolalarning muloqot qilishni tashkil etish va amalga oshirish ko‘nikmalari va malakalari ularda rivojlanish uchun zarur shart hisoblanadi. Ular bolaning yoshiga va individual imkoniyatlariga mos keladigan muloqot shakllariga javob berishi kerak. Har bir muloqot shakli o‘ziga xos muloqotga bo‘lgan ehtiyoj va bola hamda kattalar orasidagi o‘zaro bog‘liqlik mazmuni bilan ajralib turadi. Mahalliy psixologiya va pedagogikada ushbu masalani M.I.Lisina, A.M.Leushina, E.O.Smirnova o‘rganishgan. Tengdoshlar bilan muloqotning birinchi alohida xususiyati – ularning juda boy hissiy ifodali bo‘lishidir. Kattalar bilan suhbatlashganda bola odatda tinchroq, ortiqcha ifodalarsiz gapiradi, tengdoshlar bilan suhbat esa odatda qichqiriq, hazil, kulgi, turli tovushlar bilan kechadi.

Tengdoshlar bilan muloqot bolalarning lug‘atini boyitadi: turli fe‘l shakllari, sifatlar, olmoshlar va murakkab gaplar paydo bo‘ladi. Buning sababi shundaki, tengdoshlar kattalar kabi tushunuvchi va sezgir emas. Shu tufayli bola o‘z fikrini aniq va tushunarli ifodalashga harakat qiladi. Shuningdek, bolalar yoshidan kattalardan o‘rganadigan mavzularni suhbatga olib keladi, ular so‘zlarni va iboralarni takrorlaydi, hatto ma‘nosini to‘liq tushunmasalar ham. Tengdoshlar bilan muloqotda bolaning o‘ziga bo‘lgan ishonchi va boshqalarning e‘tibori ortadi. 5 yoshga yaqin bolalar o‘z yutuqlarini namoyish qilishga intiladi va tengdoshlar oldida hurmat qozonishni istaydi. Shuningdek, bolalar o‘zaro suhbatda nafaqat o‘zlarining narsalari va harakatlari haqida, balki turli mavzular, masalan, kundalik hayot, qiziqishlar va bilimlar haqida ham fikr almashadilar.

Muloqotda bolalar dialog orqali ko‘nikmalarni rivojlantiradi: so‘rash, javob berish, tushuntirish, so‘rov bildirish, fikrni himoya qilish va boshqalar. Kattalar bilan muloqot orqali bola keng qamrovli bilimlarni egallaydi va o‘zini namoyish etishni o‘rganadi. Tengdosh bilan esa bu bilimlarni amalda ishlatadi, o‘zini va qobiliyatini ko‘rsatadi, boshqalarni baholashni o‘rganadi. Hozirgi davrda malakalarga pedagogika, psixologiya, psixolingvistika, logopediya va boshqa ko‘plab fanlarda muhim ahamiyat berilmoqda. Shu bilan birga, “malaka” tushunchasining yagona qabul qilingan ta‘rifini ilm-fan hali ishlab chiqmagan.

Ilmiy adabiyotlarda turli turdagi malakalar ko‘rib chiqiladi: mehnat, intellektual (aql-idrok), harakat, sport, musiqa, jismoniy, ruhiy, verbal va boshqa.

O.V. Polozova malakalarni oddiy va murakkabga ajratadi. Oddiy malakalar elementar harakatlardan iborat: ruchkani olish, ruchkani qog‘ozga yaqinlashtirish, yozishni boshlash va hokazo. Murakkab malakalar esa bir nechta oddiy malakalardan tashkil topadi, masalan, jamoaviy o‘yin ko‘nikmalari yoki charchashga qaramay taslim bo‘lmaslik ko‘nikmasi.

G.V. Belokurova esa aniq va universal malakalarni ajratadi. Aniq malakalar faqat bitta konkret vaziyatda ishlaydi, masalan, samarali muzokara ko'nikmalari. Universal malakalar esa juda keng doiradagi vaziyatlarda qo'llaniladi. T.L. Pasalskaya harakat turlariga qarab malakalarni sezgi (perseptiv), intellektual va harakat (motor) malakalarga ajratadi. Sezgi malakasini muallif shunday ta'riflaydi: «Malaka – bu yaxshi tanish bo'lgan va ilgari bir necha marta qabul qilingan predmetning xususiyatlari va belgilari bo'yicha avtomatlashtirilgan hissiy aks».

«Ijtimoiy malaka» terminini birinchi bo'lib ilmiy doiraga kiritgan niderlandiyalik olim S. Slot Nikolas Vim bo'lgan. V. Slot ijtimoiy malakani shunday tushuntiradi: «Malaka – bu ijtimoiy muloqotning turli usullari va qoidalari majmui bo'lib, inson umr bo'yi egallaydi va jamiyatda yashash, boshqalar bilan muvozanatni o'rnatish uchun foydalanadi».

Xulq-atvor komponenti: qoidalarni egallashni bildiradi, bu boshqalar hissi va manfaatlarini inobatga olish, kelishish, boshqalar muvaffaqiyatidan xursand bo'lish va muvaffaqiyatsizliklariga hamdardlik ko'rsatish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Ushbu nuqtayi nazarlarni tahlil qilganda quyidagicha xulosa qilinadi: turli ta'riflar mavjud bo'lsa-da, barcha olimlar ijtimoiy malakalar – bu boshqalar bilan munosabatlarni samarali boshqarish qobiliyati ekanligi bo'yicha bir fikrda. Ijtimoiy malakalarning maqsadi – boshqa odam yoki guruh bilan o'zaro tushunish va kelishuvga erishishdir. Tahlil va xorijiy hamda rus olimlarining ishlarida keltirilgan ijtimoiy malakalarning tuzilmasiga asoslanib, ijtimoiy malakalarning tuzilmasi shakllantirilgan. Shuni ko'rish mumkinki, ijtimoiy malakalar – bu ko'p qirrali va kompleks hodisa bo'lib, unda shaxsiy malakalar hamda shaxslararo va guruh darajasidagi muloqotda yuqori kompetensiyani ta'minlaydigan ko'nikmalar mavjud. Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda ijtimoiy malakalarni shakllantirish va rivojlantirish masalasi kengroq kontekstda ko'rib chiqiladi, ya'ni shaxsning ijtimoiy kompetensiyasi kontekstida.

Shu tadqiqot doirasida ijtimoiy malakalar tushunchasi ham ko'rib chiqildi. Tadqiqotda asosiy sifatida T.L. Pasalskayaning ta'rifidan foydalaniladi: «Ijtimoiy malakalar – bu axloqiy normalarni egallash jarayoni bo'lib, ular shaxslararo va shaxs ichidagi ijtimoiy munosabatlar, ijtimoiy pozitsiyalarni qurish va tartibga solishning asosini tashkil qiladi».

Ilmiy adabiyotlarni o'rganish G.V. Belokurova, O.F. Borisova, T.L. Pasalskaya, O.V. Polozova, N.B. Sodnomova, L.V. Filippova, E.V. Khmelkovalar shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy malakalarni shakllantirish uchun eng sezgir davr – katta maktabgacha yoshdir. Shu yoshga kelib, bola ma'lum darajada ijtimoiy yetuklikka erishadi, bu esa yoshga xos xususiyatlar bilan belgilanadi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolada psixofizik va shaxsiy rivojlanish natijalari allaqachon shakllangan bo'ladi. Bolaga mustaqillik va nisbiy avtonomlik xos, u oddiy uy ishlarini bajarishga qodir. Katta maktabgacha yoshdagi bolaning tengdoshlar va kattalar bilan o'zaro aloqasi tartibli xarakterga ega bo'ladi. T.L. Pasalskaya ta'kidlaydi: «Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda ko'plab savollar paydo bo'ladi, atrofdagi haqiqatni o'rganishga doimiy qiziqish shakllanadi, bolalar hamma narsaga e'tibor berib, savollar beradi va javoblar asosida dunyoqarashlarini hosil qiladi. Bola hodisalarning sabablarini va ularning oqibatlarini so'raydi». Shu yoshda bolaning kognitiv qiziqishini faollashtirish muhimdir, ya'ni unga maqsadli ta'sir ko'rsatish orqali yangi bilimlarga qiziqish shakllantirish lozim. Kognitiv qiziqishni faollashtirish nafaqat pedagog, balki ota-onalar tomonidan ham amalga oshirilishi kerak: uyda bolaga yangi bilim va kashfiyotlarga bo'lgan qiziqishni qo'llab-quvvatlashlari zarur. Shu jarayonda yetakchi rol pedagogga tegishli, u bolada bilishga bo'lgan qiziqishni uyg'otadi. Bu jarayon biryozlama emas — pedagogdan bolaga ta'sir bilan birga, bola ham o'z javobini beradi. Biroq bilim olish jarayonini boshqarish pedagog zimmasida bo'lib, bola unga jalb qilingan, lekin pedagog nazorati va yo'nalishida bo'ladi.

I.A. Zimnyaya ta'kidlaydi: «Katta maktabgacha yosh sezish qobiliyatining kengayishi va rivojlanishi bilan bog'liq — bolaning barcha besh sezgi organi yaxshiroq boshqariladigan bo'ladi, ko'proq ma'lumot beradi, kognitiv harakatlar esa ongli va maqsadli bo'ladi. Atrofdagi ob'ektlarni qabul qilayotganda, bola ularga nisbatan o'z pozitsiyasini bildiradi».

Sh.G. Aliyeva ijtimoiy malakalarni tahlil qilarkan, ta'kidlaydi: «Katta maktabgacha yoshdagi bola kattalar va tengdoshlar bilan muloqot va o'zaro ta'sir bilan bog'liq vazifalarni mustaqil hal qilishga tayyor. Bolada xulq-atvor va ijtimoiy munosabat usullarini tanlashni belgilovchi tasavvurlar va o'z-o'zini baholash shakllangan».

Tug'ilgan paytdan bola ijtimoiy mavjudot hisoblanadi, chunki uning har qanday ehtiyoji boshqa inson ishtirokisiz qondirilmaydi. Sotsializatsiya, ya'ni bolaning avvalgi avlodlar to'plagan umuminsoniy tajribani egallashi faqat birgalikdagi faoliyat va muloqot orqali sodir bo'ladi. Sotsializatsiya jarayonida bola nutq, yangi bilim va ko'nikmalarni egallaydi, shaxsiy e'tiqodlar, ruhiy qadriyatlar va ehtiyojlar shakllanadi, xarakteri shakllanadi. Tajriba asosida bolalarda ijtimoiy sezgirlik rivojlanadi, ya'ni boshqa insonlarning his-tuyg'ulari va istaklarini, ularning harakatlar sabablarini hisobga olish qobiliyati paydo bo'ladi. Shu orqali

odamlar oʻrtasida oʻzaro mehr, doʻstlik, sevgi kabi maxsus munosabatlar yuzaga keladi. Shuning uchun, L.V. Filippova taʼkidlaydi: «Aynan maktabgacha yoshda bolaning ijtimoiy kompetentsiyasining asoslari yaratiladi, bu esa uning rivojlanish yoʻnalishi va oʻzgaruvchan jamiyatda muvaffaqiyatli moslashuvini belgilaydi».

**Muhokama.** Bolada ijtimoiy kompetentsiyani shakllantirish jarayonini boshqarish — bu pedagogning kognitiv qiziqishni faollashtirish orqali amalga oshiradigan faoliyati boʻlib, bunda kelayotgan maʼlumotlar tanlanadi va didaktik ishlov beriladi, bolalar faoliyati tashkil etiladi, nazorat qilinadi va ragʻbatlantiriladi. Shu jarayonda oʻquvchilar tarbiyalanadi, yangi bilim va ijtimoiy tajriba beriladi. Bilim berish jarayoni dastlab pedagogning oldidagi vazifalar bilan belgilanishi lozim, lekin bolalarning qiziqishlari ham inobatga olinadi. Taʼlim muassasasida kognitiv qiziqishni faollashtirish pedagogning maqsadli faoliyati sifatida aniqlanishi mumkin, bunda oʻquv dasturi materiallarini yetkazish va tarbiyaviy taʼsir koʻrsatish usullari qoʻllanilib, bolada oʻrganishga boʻlgan qiziqish uygʻotiladi, oʻquv jarayoniga ijobiy munosabat shakllanadi va bolalar jamoasidagi ijtimoiy muhit yaxshilanadi.

Katta maktabgacha yoshda ongli bilishning asosiy poydevori — bu yoshdagi psixikada paydo boʻlgan oʻz harakatlari, his-tuygʻulari va xulqini nazorat qilish qobiliyatidir. Bu bolaning bilishni ongli va nazorat qilinadigan tarzda amalga oshirishiga imkon beradi, kelajakdagi maktab hayotiga tayyorlaydi.

N.V. Miklyayeva taʼkidlaydi: «Qoidalarini bilish va ularni amalda qoʻllash uygʻun boʻlishi uchun, bu qoidalar ichki ragʻbatga, ijtimoiy xulq motiviga yoki bolaning qoidani adolatli, zarur, maqsadga muvofiq va foydali deb qabul qilishiga aylanishi kerak. Bilimlarni mustahkamlashning samarali yoʻli — bolaning emotsional sohasini qabul qilish jarayonlariga jalb qilish».

E.V. Solganova oʻz tadqiqotlarida xulosaga keladi: «Katta maktabgacha yoshdagi bolaning yetakchi xotirasi — bu vizual-obrazli xotira, shuningdek, soʻzli-mantiqiy xotira ham yaxshi rivojlanadi. Bola predmet nomlarini eslab qolishni oʻrganadi va xotirasida predmetlarni eng muhim belgilar boʻyicha soʻzlar bilan bogʻlaydi. Xotira alohida predmetlar tasvirlari bilan boyitiladi, soʻz va fikrlash bilan uygʻunlashadi va intellektual xarakter kasb etadi».

Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda fikrlashda tasavvur muhim rol oʻynaydi, u odatda bexohlidir. Bola asta-sekin oʻz tasavvurini boshqarishni oʻrganadi — tasavvur asta-sekin ijodga aylanadi, bu esa keyingi faoliyatga asos boʻladi. Tasavvur rivojlanishi bilan bolaning xotirasi ham rivojlanadi. L.A. Rodionova va S.V. Pazukhina taʼkidlaydi: «Bola tasavvur va xotira yordamida haqiqat tasvirlarini ongida qayta yaratadi, oʻz dunyoqarashini shakllantiradi va uni yangi tajribaga qarab doimiy ravishda toʻgʻrilaydi».

Zh.A. Kochumbetova yozadi: «Katta maktabgacha yoshdagi bolaning fikrlashi hali vizual-obrazli, lekin soʻzli-mantiqiy fikrlash va tushunchalar orqali dunyoni bilish jarayoni rivojlana boshlaydi. Fikrlash bogʻlangan mulohaza xarakterini oladi, u qisman predmetlar bilan bevosita harakatlardan mustaqil boʻladi». Katta maktabgacha yoshdagi bolaga oʻz vataniga, millatiga va madaniyatiga nisbatan murakkab his – shaxsiy aloqadorlik tuygʻusini shakllantirish muhimdir. Buning asosi bolaning oilasiga boʻlgan munosabatida yotadi. Dastlab bola oilasining aʼzosi ekanligini, oilasi uni sevishini va gʻamxoʻrlik qilishini tushunadi. Keyin esa bola oilasi ham oldingi avloddan kelganini, ular ham uning ota-onasiga va oʻziga gʻamxoʻrlik qilishini angʻlaydi. Shu jarayon boshqa bolalarning oilalarida ham sodir boʻladi. Shaxsiy aloqadorlik shakllanishi asosida bolaning bogʻcha guruhiga, yaʼni kichik kollektivga boʻlgan aloqadorligi yaratiladi. Bu kollektivda ota rolida — kattalar, yaʼni tarbiyachi, bolaga gʻamxoʻrlik qiladi va rahbarlik qiladi. Keyingi bosqichda bola oʻzining maʼlum bir madaniy birligiga — oʻz xalqiga tegishli ekanligini tushunishi kerak, bu xalq esa butun davlat bilan bogʻlangan va davlat tomonidan himoyalangan. Shu tushuncha asosida milliy va fuqarolik gʻoyalari asoslangan vatanparvarlik hislari shakllanadi va ragʻbatlantiriladi, bu esa bolaga oʻzini ijtimoiy dunyoning bir qismi sifatida anglashga yordam beradi.

N.P.Ivanova va O.V.Zavodilkina taʼkidlaydilar: «Katta maktabgacha yoshdagi bolalarda atrofda dunyo haqidagi tasavvurlar shakllanadi, bu esa, avvalo, bolani oʻzining ijtimoiy muhitining anʼanalariga tanishtirish orqali amalga oshadi — hududning tarixiy-madaniy, milliy, geografik va tabiiy xususiyatlari bilan».

Bolalar hali oʻz bilish faoliyatida mustaqil emas. Bu normal hol, chunki ularning psixikasi qaror qabul qilish va tanlov qilishga tayyor emas, kattalar yordamiga ehtiyoji bor, bu haqda L.S.Vygotskiy ham yozgan. Maktabning boshlangʻich bosqichida kattalarning psixologik-pedagogik qoʻllab-quvvatlashi koʻproq kommunikativ koʻnikmalarni rivojlantirishga qaratilgan, bilish qobiliyatlarini rivojlantirishga emas. Tuzatish tadbirlari esa odatda bolaning shaxsiga eʼtibor berish bilan bogʻlanmaydi. Bizning fikrimizcha, maktabgacha yoshdagi bolaning kognitiv sohasiga «trenting» qilinmasdan, muloyim va mehribon qoʻllab-quvvatlash kerak, bu koʻpincha taʼlim muassasalarida yetarli darajada amalga oshirilmaydi. Kognitiv va shaxsiy sohalar dastlab alohida rivojlantiriladi. Bolaning bilish faoliyatini oshirishning ijobiy taʼsiri faqat kompleks yondashuv orqali erishiladi, bunda rivojlanish prinsipi tabiiy va ijtimoiy birlik bilan, shuningdek psixikaning ijtimoiy

belgilanishi prinsipi bilan uyg'unlashadi. Bu esa shuni anglatadiki, bolaning qo'llab-quvvatlanishi, hatto kognitiv sohasini rivojlantirish haqida bo'lsa ham, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim tashkil etilmasa samarali bo'lmaydi, bunda bolaning subyekt pozitsiyasi ta'minlanadi.

**Xulosa.** Katta maktabgacha yoshdagi bolaga o'zining nafaqat ma'lum odamlar bilan, balki tabiat, jamiyat va davlat bilan bog'liqligini tushuntirish muhimdir. L.Y. Ignatova va M.V.Semicheva ta'kidlaydilar: «Ijtimoiy dunyo qabul qilinishiga bolaning jinsi ham ta'sir qiladi». O'g'il va qiz bolalar bir voqeani tomosha qilganda turlicha qabul qiladi, turlicha eslab qoladi. Masalan, tarbiyachi harakatlanayotgan transportga e'tibor qaratishni so'raydi. O'g'il bolalar mashinalarning markasi, o'lchami va tezligini kuzatadi, qiz bolalar esa avtomobil rangi, haydovchi ayol, tez yordam mashinasini ajratib ko'radi.

Katta maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiy hodisalarni ongli qabul qila oladi. Ammo bu qobiliyat eng yaxshi tarzda faqat bilim olish jarayoni bolani qiziqish, ijodkorlik, hissiyotlarni ifoda etish va faoliyatga rag'batlantirganda namoyon bo'ladi. Shu bilan ijtimoiy haqiqat bolaga bolalar tasavvurlarini aniq belgilash va hissiyotlarni shakllantirish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Адамова, П.А. Развитие социального интеллекта детей старшего дошкольного возраста: способы реализации / П.А. Адамова, В.В. Винникова, Т.А. Газарова, Л.Ю. Борохович // Образование и воспитание. – 2017. – №2. – С. 21-24.

2. Акулова, О.А. Формирование социальных навыков у старших дошкольников посредством экскурсии / О.А. Акулова // «Вестник дошкольного образования». – 2018. - № 11 (13). – С. 6 – 7.

3. Алиева, Ш.Г. Социальное развитие дошкольников / Ш.Г. Алиева // Молодой ученый. – 2014. – №2. – С. 711-715.

4. Артеменко, А.Б. Проблемы социализации дошкольников / А.Б. Артеменко, Т.Ю. Федорова // Материалы VI Международной студенческой научной конференции «Студенческий научный форум». – 2018. – № 5. – С. 134-136.

5. Ахтырская, Ю.В. Организация виртуальных экскурсий в детском саду: современные тенденции и ближайшие перспективы / Ю.В. Ахтырская // В мире науки и искусства: вопросы филологии, искусствоведения и культурологии: сб. ст. по матер. XIX междунар. науч.-практ. конф. Часть I. – Новосибирск: СибАК, 2013. – С. 178-181.

6. Барыс, И.С. Нетрадиционная форма социализации детей раннего возраста в условиях дошкольного образовательного учреждения / И.С. Барыс // Вопросы дошкольной педагогики. – 2016. – №3. – С. 81-84.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARINING MORFOFUNKSIONAL HOLATINI RIVOJLANTIRISHDA MILLIY O‘YINLARDAN FOYDALANISH USULLARI

*Latipov Rahmon Ravshanovich,  
Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining morfofunktsional holatini rivojlantirishda milliy o‘yinlardan foydalanish usullari tahlil qilingan. Unda bolalar organizmining morfologik va funksional rivojlanish xususiyatlari, milliy harakatli o‘yinlarning ushbu jarayonga ta‘siri ilmiy asosda yoritilgan. Shuningdek, jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarida milliy o‘yinlardan samarali foydalanishning metodik jihatlari ko‘rsatib berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** morfofunktsional rivojlanish, milliy o‘yinlar, boshlang‘ich sinf, jismoniy tarbiya, harakat faoliyati, sog‘lom turmush tarzi.

## МЕТОДЫ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИГР В РАЗВИТИИ MORFOFUNKSIONALNOGO СОСТОЯНИЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*В данной статье анализируются методы использования национальных игр для развития морфофункционального состояния учащихся начальных классов. В ней на научной основе освещаются особенности морфологического и функционального развития детского организма и влияние на этот процесс национальных подвижных игр. Также показаны методические аспекты эффективного применения национальных игр на занятиях по физической культуре.*

**Ключевые слова:** морфофункциональное развитие, национальные игры, начальные классы, физическая культура, двигательная активность, здоровый образ жизни.

## METHODS OF USING NATIONAL GAMES TO DEVELOP THE MORPHOFUNCTIONAL STATE OF PRIMARY SCHOOL STUDENTS

*This article analyzes methods for using national games to develop the morphofunctional state of primary school students. It provides a scientific explanation of the characteristics of the morphological and functional development of a child's body and the impact of national active games on this process. Furthermore, it outlines the methodological aspects of effectively using national games in physical education classes.*

**Keywords:** morphofunctional development, national games, primary school, physical education, physical activity, healthy lifestyle.

**Kirish.** Hozirgi kunda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining sog‘lom rivojlanishini ta‘minlash va ularning jismoniy tayyorgarligini oshirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, bolalarning morfofunktsional holatini rivojlantirish, ya‘ni organizmning tuzilishi va funksional imkoniyatlarini takomillashtirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar organizmi faol o‘sinh va rivojlanish bosqichida bo‘lib, bu davrda to‘g‘ri tashkil etilgan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari ularning sog‘lig‘ini mustahkamlashda muhim rol o‘ynaydi. Shu nuqtayi nazardan milliy harakatli o‘yinlar bolalarning tabiiy harakat ehtiyojlarini qondirish bilan birga, ularning jismoniy va funksional rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Morfofunktsional holat - bu inson organizmining morfologik (tuzilish) va funksional (faoliyat) ko‘rsatkichlarining yig‘indisi bo‘lib, u jismoniy rivojlanish darajasini belgilaydi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida ushbu ko‘rsatkichlar tez o‘zgaruvchan bo‘lib, ular jismoniy faoliyat orqali samarali rivojlanadi.

**Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.** Abdullayeva M, Abdumalikov R, Abduraxmonov I.R, J.T. Ermetov o‘z tadqiqotlarida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy va funksional rivojlanishida milliy harakatli o‘yinlarning ahamiyatini ilmiy asosda tahlil qilganlar. Ularning ishlarida milliy o‘yinlar bolalarning jismoniy faolligini oshirishi, yurak urish tezligini kuchaytirishi hamda ijtimoiy ko‘nikmalarni rivojlantirishi eksperimental tarzda isbotlangan. Shuningdek, A. Abdullayev va Sh. Xonkeldiyev jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasini ishlab chiqishda muhim hissa qo‘shgan. Ular jismoniy mashg‘ulotlar va o‘yinlar orqali bolalar organizmining funksional imkoniyatlarini rivojlantirish, yuklamani to‘g‘ri taqsimlash va dars samaradorligini oshirish masalalarini yoritgan.

Milliy o‘yinlarning mazmuni va ularning tarbiyaviy hamda rivojlantiruvchi ahamiyatini o‘rganishda K.M. Mahkamjonov va Z. G‘afforovning ilmiy ishlari muhim o‘rin tutadi. Ular o‘zbek xalq o‘yinlarini tizimlashtirib, ularning bolalar jismoniy rivojlanishi, jumladan morfofunksional holatiga ijobiy ta‘sirini asoslab bergan.

Pedagogik-psixologik jihatdan milliy o‘yinlarning ta‘sirini o‘rganishda U.L. Qo‘chqorov va boshqa tadqiqotchilar xalq o‘yinlari orqali bolalarning psixik faoliyati, mustaqil fikrlashi va harakat faolligi rivojlanishini ko‘rsatib bergan.

Xorijiy olimlardan L.S. Vygotskiy va D.B. Elkonin o‘yin faoliyatining bolalar rivojlanishidagi o‘rni, ayniqsa, o‘yin orqali psixik va funksional rivojlanish mexanizmlarini asoslab bergan. Ularning nazariyalari milliy harakatli o‘yinlarni jismoniy tarbiya jarayoniga tatbiq etishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Bundan tashqari, tarixiy manbalarda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino jismoniy mashqlar, harakat faoliyati va sog‘lom turmush tarzining inson organizmi rivojlanishidagi o‘rnini alohida ta‘kidlab o‘tgan. Uning qarashlari bugungi kunda morfofunksional rivojlanish nazariyasining shakllanishiga asos bo‘lib xizmat qiladi.

Jismoniy madaniyat tizimidagi barcha soha va bosqichlarning birdan bir va yagona maqsadi-insonni to‘g‘ri yashashga tayyorlashdir. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasining vazifalari bolalarning yoshiga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlanadi, lekin bunda jismoniy madaniyatning umumiy maqsadi ko‘zdan qochirilmaydi.

Maktabda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasida sog‘lomlashtirish, ta‘lim berish va tarbiya berish vazifalarini amalga oshirish ko‘zda tutiladi. Xalq milliy o‘yinlari orqali bu vazifalarni yaxlit holda bajarish imkoniyatlari ko‘proq ko‘rinadi.

Sog‘lomlashtirish vazifalari. 9-10 yoshli ya‘ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasining eng asosiy vazifasi bola hayotini muhofaza qilish va uning sog‘ligini mustahkamlash, uning organizmini chiniqtirish yo‘li bilan o‘zini himoya qilish va turli kasalliklarga chidamlilik xislatlarini oshirish, tashqi muhitning noqulay sharoitlariga bardosh berishga o‘rgatishdan iborat. Bulardan tashqari bolalarda har qanday ishga layoqatlilik xususiyatini oshirish juda muhim ahamiyatga ega.

Bola organizmining rivojlanishi o‘ziga xos xususiyatga ega bo‘lgani sababli, uning vazifalari ancha aniqroq shaklda ifodalanadi: bola suyagining bexato va o‘z vaqtida qotishiga, orqa umurtqadagi egik joylarning shakllanishiga, tovon yuzasining yaxshi rivojlanishiga, pay bo‘g‘in aparatlarini pishitishga yordam ko‘rsatiladi (o‘yinlar); gavda qisimlarining o‘zaro to‘g‘ri rivojlanishiga imkon yaratiladi (o‘yinlar); barcha mushak guruhlarini rivojlantiradi.

Shuningdek, yurak qon tomir tizimi faoliyatini takomillashtirishga imkon yaratish lozim: qonning yurakka qarab oqishini kuchaytirish, yurakning bir me‘yorda ishlashini yaxshilash va uning kutilmaganda o‘zgargan yuklamaga moslashish layoqatini rivojlantirish; ko‘krak qafasi harakatchanligini kuchaytirish, chuqur-chuqur nafas olish va bu faoliyatining uzoq vaqt turg‘un bo‘lishini ta‘minlash, o‘pkaning hayotiy sig‘imini kengaytirish, burun bilan nafas olishni yaxshilash, ichki a‘zolarining to‘g‘ri ishlashini ta‘minlash, markaziy asab tizimini takomillashtirish; hayajonlanish va tormozlanish holatlarining harakatchanligini bir me‘yorda bo‘lishini ta‘minlash, shuningdek, harakatlantiruvchi analizatorni va his-tuyg‘u organlarni kamolotga yetkazish lozim.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Ta‘lim berish vazifalari. 9-10 yoshli o‘quvchilar bilan milliy xalq o‘yinlarini o‘tkazish jarayonida ta‘lim berish vazifalarini bajarish ham muhim ahamiyatga ega.

Bu vazifalar: harakat malakalari va layoqatlarini shakllantirish, jismoniy fazilatlar (chaqqonlik, tezlik, qayishqoqlik, muvozanatni saqlash, epchillik, baquvvatlik, chidamlilik) ni rivojlantirish, gavdani to‘g‘ri tutishni, jismoniy tarbiya haqidagi bilimlarni o‘zlashtirishdan iborat. (36,37)

Asab tizimining qayishqoqligi tufayli bolalarda harakat malakalari kattalarga nisbatan osonroq shakllanadi. Bu malakalarning ko‘pchiligi (yurish, yugurish, sakrash) dan bolalar kundalik hayotda harakatlanuvchi vositalar sifatida foydalanadilar.

Harakat malakalari bolaning atrof-muhit bilan muloqot qilishini yengillashtiradi va uni idrok qilishiga ko‘maklashadi.

Tanlab olingan xalq milliy o‘yinlarini to‘g‘ri bajarish bola mushaklari, paylari, bo‘g‘imlari, suyuk tizimining rivojlanishiga samarali ta‘sir ko‘rsatadi. Puxta shakllantirilgan harakat malakalarini amalda qo‘llash bilan, o‘yinlarni bajarish chog‘ida bola kuchini tejashda va uning etiborini o‘yin faoliyati paytida tasodifan sodir bo‘luvchi turli-tuman vazifalarni idrok qilishga imkon yaratadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga jismoniy madaniyat bilan bevosita bog‘liq bo‘lgan bilimlar (o‘yinlarning foydali tomoni, jismoniy mashg‘ulotlarning ahamiyati va texnikaviy ijrosi, ularni bajarish usullari, xalq milliy o‘yinlarning qoidalari va boshqalar) xaqida ma‘lumot berish katta ahamiyatga ega.

O‘quvchilar olgan bilim qancha chuqur bo‘lsa, ular xalq o‘yinlaridan shuncha oqilona foydalanishlari, o‘yinlar bilan shuncha samarali shug‘ullanishlari hamda maktab va oila muhitida jismoniy madaniyat qurollarini mustaqil ishlata bilishlari mumkin.

Tarbiya berish vazifalari. Jismoniy madaniyat bilan shug‘ullanish tanda, bolalarda joriy qilingan tartibga rioya qilish odatini hamda xalq o‘yinlari bilan iloji bo‘lsa har kuni muntazam ravishda shug‘ullanish ishtiyoqini uyg‘otish, ularda maktab va uyda shu o‘yinni bilan mustaqil shug‘ullana olish layoqatini rivojlantirish, ularni o‘z tengqurlari va o‘zlaridan kichik bo‘lgan bolalar jamoasida o‘yinlarni tashkil qilish, ularni birgalikda bajarishga o‘rgatish lozim.

O‘quvchilarda xalq milliy o‘yinlariga mehr bilan, shu o‘yin natijalariga qiziqish bilan va sportchilar erishadigan g‘alabalariga havas bilan qarash tuyg‘usini tarbiyalash lozim.

Milliy xalq o‘yinlarini o‘rganish jarayonida axloqiy, aqliy, estetik va mehnat tarbiyalarini amalga oshirish uchun katta imkoniyatlar vujudga keladi. Xalq o‘yinlarini bajarish chog‘ida bolalar harakatida ijobiy (hamjihatlik, intizomlik, kamtarinlik, mehribonlik) va ma‘naviy fazilatlar (halollik, odillik, do‘stlik tuyg‘usi hamkorlik, zamon bilan hamnafas bo‘lib ishlay olish qobiliyati, topshiriqlarni mas‘uliyat bilan bajarish) ni tarbiyalash, shuningdek, irodaviy xususiyatlar (jasorat, qat‘iylik, o‘z kuchiga ishonch, qiyinchiliklarni sobitlik bilan yengish, chidamlilik va hokazolar) ni namoyon qilish uchun eng yaxshi sharoit va imkoniyatlar vujudga keladi.

To‘g‘ri tashkil qilingan milliy xalq o‘yinlari bolalar aqlining rivojlanishiga qulay imkoniyatlar yaratadi, zero, bunday vaziyatda asab tizimining ham, boshqa barcha a‘zolar tizimlarning ham faoliyat ko‘rsatishi uchun qulay sharoitlar paydo bo‘lishi, shubhasiz.

Xalq milliy o‘yinlarini o‘rgatish jarayonida o‘quvchilar xalqona an‘analariga sodiq holda yaxshi tarbiya ko‘radi, o‘rgangan narsalarini puxta eslab qoladi. Bolalarda ruhiy jarayonlar (tarbiya, tafakkur, xotira, tasavvur va boshqalar) ning, shuningdek, fikrlash faoliyatlari (kuzatish, taqqoslash, tahlil qilish, sintezlash, umumlashtirish va hokozolar) ning, barchasi rivojlana boshlaydi.

Milliy o‘yinlar jarayonida erishilgan ilm va malakalardan ijodiy foyjalanish layoqatini bolalarda tarbiyalashga e‘tibor qaratish lozim, chunki bunday layoqatga bolalar o‘zlaridagi ishchanlik, mustaqillik, ziyraklik, topqirlik, hozirjavoblik kabi ezgu fazilatlar tufayli erishadilar.

Bolalarda ijobiy hissiyotlarni, odamlar bilan samimiy va quvnoq munosabatda bo‘lish tuyg‘ularini tarbiyalash, shuningdek, yuz bergan salbiy ruhiy holatlarni tez bartaraf qila olish layoqatini rivojlantirish nihoyatda muhim ahamiyatga ega.

Buning zarurligi ijobiy hissiyotlar organizmdagi barcha a‘zolariga foydali ta‘sir ko‘rsatishida, harakat malakalarining jadal va mustahkam shakllanishini ta‘minlashida ko‘rinadi.

Milliy xalq o‘yinlariga asoslangan jismoniy madaniyat estetik tarbiyani amalga oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Xalq o‘yinlarini bajarish jarayonida estetik zavqni idrok qilish va o‘ziga singdirishni, go‘zallik, nafosat, ma‘nodorlik, qad-qomat, liboslar bejirimligi, o‘z atrofidagi barcha narsalarni tushunish, to‘g‘ri qadrlashni rivojlantirish, estetikaga va o‘z xulq-atvoriga gard yuqirtmaslikka bo‘lgan moyillikni, qilayotgan ishi, aytayotgan gapi va barcha xatti-harakatida qo‘rslik, dag‘allikka aslo yo‘l qo‘yilmaslikni rivojlantirish lozim bo‘ladi.

**Muhokama.** Milliy o‘yinlar bilan shug‘ullanish jarayonida mehnat tarbiyasi amalga oshiriladi. Bolalarning salomatligi yaxshilanadi, ularda harakat malakalari shakllanadi, mehnat faoliyati uchun zarur bo‘lgan jismoniy fazilatlar rivojlanadi. Bolalarni mehnatga tayyorlashda jismoniy madaniyatning, jumladan, xalq milliy o‘yinlarining tutgan o‘rnini ularga tushuntirish va bu tushunchani ularning ongida shakllantirish g‘oyat muhim ahamiyatga ega.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy tarbiyasining quyidagi asosiy vazifalarini bajarishda ham xalq milliy o‘yinlarining roli va o‘rni nihoyatda katta ekanligi ko‘rinadi:

1. Sog‘liqni mustahkamlash, o‘quvchilarni to‘g‘ri jismoniy rivojlantirishga va chiniqtirishga yordam berish.

2. O‘quvchilarga jismoniy madaniyat va sportga oid maxsus bilimlar berish, ularga gigienik bilim va ko‘nikmalarni singdirish.

3. O‘quvchilarda harakat malakalarini va ko‘nikmalarini shakllantirish va takomillashtirish, yangi harakat turlariga va harakat faoliyatiga o‘rgatish.

4. Yoshga muvofiq ravishda asosiy harakat sifatlarini (kuch, tezkorlik, ephillik, chidamlilik va boshqalar) rivojlantirish.

5. Botirlik, qat‘iylik, nizomlilik, jamoaga birlashish, do‘stlik hissini madaniy xulq ko‘nikmalarini, mehnatga munosabatini tarbiyalash.

6. Turganda va yurganda qomatni to‘g‘ri tutish ko‘nikmalarini shakllantirish.

7. O‘quvchilarda jismoniy madaniyat va sport bo‘yicha muntazam mashg‘ulotlarga barqaror qiziqish va ko‘nikmalarini tarbiyalash.

8. O‘quvchilarga tashkilotchilik malakalarini singdirish, jamoatchi jismoniy madaniyat faolini tayyorlash.

9. O‘quvchilar jismoniy tarbiyasining vazifalari doimo, jumladan, milliy xalq o‘yinlarini o‘rganish va o‘rgatish jarayonida ham uyg‘un holda hal etiladi.

Bu vazifalar butun jismoniy madaniyat tizimining bolalarga ta‘sir etishi tufayligina muvaffaqiyatli bajarilishi mumkin. Buning uchun maktabning butun pedagogika jamoasi birgalikda ahil harakat qilishi, maktabda mashg‘ulotlarni tashkil etishning turli shakl va usullaridan, ayniqsa, milliy xalq o‘yinlarida, barcha vositalari yaxlitligi (kompleksi) dan foydalanish talab etiladi.

**Xulosa** qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining morfofunktsional holatini rivojlantirishda milliy harakatli o‘yinlardan foydalanish samarali pedagogik vosita hisoblanadi. Ular bolalarning jismoniy rivojlanishini ta‘minlash bilan birga, sog‘lig‘ini mustahkamlaydi va faol hayot tarzini shakllantiradi. Milliy o‘yinlarni ilmiy asosda tanlash va to‘g‘ri qo‘llash orqali jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkin. Shu sababli, jismoniy tarbiya darslarida milliy o‘yinlardan keng foydalanish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Abdullayeva M. Bolalar o‘yinlarida o‘zaro munosabatlar //Boshlang‘ich ta‘lim.- Toshkent, 2000. - №3.-B. 47-48 .
2. Abdumalikov R. Jismoniy harakatlarini kengaytirish yo‘llari. –T.: Meditsina .1988.- 131 b.
- 3.Абдурахмонов И.Р. Узбекские народные игры.: Т.: Автореф.дис.... канд. фил. наук.- Т., 1997. - 24 s.
- 4.Абдуқодиrow А.. А., Fozilov F.N., Umirzoqov T.N. Hisoblash matematikasi va dasturlash.- Т., O‘qituvchi, 1996.- 218 b.

## 6–7 YOSHLI BOLALARDA “MEN” KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI

*Yuldasheva Gulnora Saparbayevna,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti  
“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida o‘qituvchisi*

*Mazkur ilmiy maqolada 6-7 yoshli maktabgacha yoshdagi bolalarda “Men” konsepsiyasini shakllantirish jarayonida interfaol metodlardan foydalanishning pedagogik va psixologik asoslari tahlil etiladi. Tadqiqotning asosiy maqsadi bolalarda o‘zini anglash, shaxsiy “Men” obrazini rivojlantirish hamda ijtimoiy moslashuv jarayonida interfaol metodlarning tutgan o‘rnini aniqlashdan iborat. Shu maqsadda turli interfaol o‘yinlar, rolli mashg‘ulotlar, muammoli vaziyatlar orqali bolalarning o‘z fikrini erkin ifoda etish, o‘ziga va boshqalarga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish xususiyatlari o‘rganildi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, interfaol metodlar bolalarda shaxsiy identifikatsiya, o‘zini qadrlash, ijtimoiy-emotsional rivojlanish va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu metodlar pedagogga bola shaxsini yaxlit holda anglash, uning qobiliyatlari, ehtiyojlari va emotsional holatini inobatga olgan holda ta‘lim-tarbiyaviy jarayonni individuallashtirish imkonini beradi. Natijada “Men” konsepsiyasining shakllanishi jarayoni tizimli, izchil va rivojlantiruvchi xarakter kasb etadi.*

***Kalit so‘zlar:** “Men” konsepsiyasi, interfaol metodlar, maktabgacha ta‘lim, shaxs rivoji, o‘zini anglash, ijtimoiy-emotsional rivojlanish, shaxsiy identifikatsiya.*

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В ФОРМИРОВАНИИ КОНЦЕПЦИИ «Я» У ДЕТЕЙ 6-7 ЛЕТ

*В данной научной статье анализируются педагогические и психологические основы использования интерактивных методов в процессе формирования «Я-концепции» у детей дошкольного возраста 6-7 лет. Основная цель исследования — определить роль интерактивных методов в самопознании детей, развитии образа личного «Я» и процессе социальной адаптации. С этой целью через различные интерактивные игры, ролевые упражнения и проблемные ситуации изучались особенности свободного самовыражения детей, формирования позитивного отношения к себе и окружающим. Результаты исследования показали, что интерактивные методы служат эффективным инструментом развития личностной идентификации, самооценки, социально-эмоционального развития и коммуникативных компетенций у детей. Данные методы позволяют педагогу воспринимать личность ребёнка целостно, индивидуализировать учебно-воспитательный процесс с учётом его способностей, потребностей и эмоционального состояния. В результате процесс формирования «Я-концепции» приобретает системный, последовательный и развивающий характер.*

***Ключевые слова:** «Я-концепция», интерактивные методы, дошкольное образование, развитие личности, самопознание, социально-эмоциональное развитие, личностная идентификация.*

## THE EFFECTIVENESS OF USING INTERACTIVE METHODS IN THE FORMATION OF THE “SELF-CONCEPT” IN CHILDREN AGED 6–7

*This scientific article analyzes the pedagogical and psychological foundations of using interactive methods in the process of forming the “Self-concept” in preschool children aged 6–7. The main objective of the study is to determine the role of interactive methods in children's self-awareness, the development of the personal “Self-image”, and the process of social adaptation. To this end, the features of children's free self-expression and the formation of a positive attitude towards themselves and others were studied through various interactive games, role-playing exercises, and problem-solving situations. The research results showed that interactive methods serve as an effective tool for developing personal identification, self-esteem, socio-emotional development, and communicative competencies in children. These methods allow the educator to understand the child's personality as a whole and individualize the educational process, taking into account their abilities, needs, and emotional state. As a result, the process of forming the “Self-concept” becomes systematic, consistent, and developmental in nature.*

***Keywords:** “Self-concept”, interactive methods, preschool education, personality development, self-awareness, socio-emotional development, personal identification.*

**Kirish.** Mamlakatimizda ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish, ayniqsa maktabgacha ta’lim sifatini oshirish davlat siyosatining ustuvor yo’nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Jumladan, O’zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to’g’risida”gi Qonunida maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning shaxsiy sifatlarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri sifatida ko’rsatib o’tilgan [1].

Shuningdek, Shavkat Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *“Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, yuksak ma’naviyatli insonlar etib tarbiyalash – eng muhim vazifamizdir”* [2]. Ushbu fikr maktabgacha ta’lim bosqichida bolalarda o’zini anglash va “Men” konsepsiyasini shakllantirish zaruratini yanada dolzarblashtiradi.

Maktabgacha yosh, ayniqsa 6 –7 yosh davri bolaning o’z “Men”ini anglash, o’ziga baho berish va ijtimoiy muhitda o’z o’rnini belgilash jarayonlari intensiv rivojlanadigan bosqich hisoblanadi [3]. Shu davrda bolaning shaxsiy identifikatsiyasi shakllanib, uning keyingi ta’lim bosqichidagi muvaffaqiyatiga zamin yaratiladi [4]. Biroq, amaliyotda an’anaviy ta’lim metodlari bolalarning o’zini erkin ifodalashi va mustaqil fikrlashini yetarli darajada rivojlantira olmayotgani kuzatilmoqda [5]. Shu sababli interfaol metodlardan foydalanish orqali bolalarda “Men” konsepsiyasini samarali shakllantirish muammosi dolzarb ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Psixologik va pedagogik adabiyotlarda “Men” konsepsiyasi shaxsning o’zini anglash tizimi sifatida keng o’rganilgan. Ushbu tushuncha individning o’ziga bo’lgan munosabati, o’z imkoniyatlarini baholashi va ijtimoiy muhitdagi o’rnini anglash jarayonlarini qamrab oladi [7].

Robert Burns tomonidan “Men” konsepsiyasi shaxsning o’ziga oid tasavvurlari tizimi sifatida talqin etilib, uning shakllanishi ijtimoiy tajriba va tarbiya jarayoni bilan bog’liqligi asoslab berilgan [7].

Carl Rogers o’zining gumanistik yondashuvida “Men” konsepsiyasini shaxs rivojining markaziy elementi sifatida baholab, ijobiy pedagogik muhit uning rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ta’kidlaydi [8].

Maktabgacha yosh davrining psixologik xususiyatlari Lev Vygotsky tomonidan ilmiy asoslangan bo’lib, u bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqotning ustuvor rol o’ynashini ko’rsatadi [9]. Ayniqsa, 6 – 7 yosh davrida bola o’z “Men”ini anglash, o’z xatti-harakatlarini baholash va boshqalar bilan taqqoslash ko’nikmalarini egallaydi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda interfaol metodlar ta’lim samaradorligini oshiruvchi muhim vosita sifatida e’tirof etilmoqda. Xususan, mahalliy olimlar interfaol metodlar o’quvchilarning faolligini oshirishi, mustaqil fikrlashini rivojlantirishi va refleksiv ko’nikmalarini shakllantirishini qayd etadilar [10].

Pedagogik texnologiyalar sohasidagi izlanishlar interfaol metodlarning bolaning shaxsiy rivojiga, xususan, o’zini anglash va o’ziga baho berish jarayonlariga ijobiy ta’sir ko’rsatishini tasdiqlaydi [11].

Shu bilan birga, mavjud ilmiy manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, “Men” konsepsiyasining nazariy asoslari yetarli darajada o’rganilgan bo’lsa-da, uni aynan maktabgacha yoshdagi bolalarda interfaol metodlar asosida shakllantirish masalasi yetarli darajada yoritilmagan. Bu esa mazkur yo’nalishda qo’shimcha ilmiy tadqiqotlar olib borishni taqozo etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot maktabgacha ta’lim tashkilotida 6 –7 yoshli bolalar ishtirokida olib borildi. Tadqiqotning asosiy maqsadi interfaol metodlar asosida bolalarda “Men” konsepsiyasini shakllantirish samaradorligini aniqlashdan iborat bo’ldi [12].

Tadqiqot pedagogik eksperiment metodiga tayangan holda tashkil etilib, u uch bosqichda amalga oshirildi:

1. aniqlovchi bosqich
2. shakllantiruvchi bosqich
3. nazorat bosqichi [13]

Aniqlovchi bosqichda bolalarning “Men” konsepsiyasi holati quyidagi mezonlar asosida diagnostika qilindi:

- ✓ o’zini anglash darajasi
- ✓ o’ziga baho berish ko’rsatkichlari
- ✓ ijtimoiy faollik darajasi [14]

Mazkur mezonlar asosida bolalarning dastlabki holati aniqlanib, tajriba va nazorat guruhleri shakllantirildi.

Shakllantiruvchi bosqichda tajriba guruhida interfaol metodlar tizimli ravishda qo’llanildi. Xususan:

- ✓ rolli o’yinlar (“Men kimman?”)
- ✓ muammoli vaziyatlarni hal etish
- ✓ kichik guruhlarda ishlash
- ✓ refleksiya va o’z-o’zini baholash mashqlari [15]

Ushbu metodlar bolalarning faol ishtirokini ta’minlab, ularning o’zini anglash jarayonini faollashtirishga xizmat qildi.

Nazorat guruhida esa an’anaviy tushuntirish, ko’rsatma berish va reproduktiv metodlar asosida mashg’ulotlar olib borildi.

Tadqiqot davomida quyidagi ilmiy-metodik usullar qo’llanildi:

- ✓ kuzatish metodi
- ✓ suhbat metodi
- ✓ test va diagnostik topshiriqlar
- ✓ pedagogik tajriba-sinov metodi [16]

Olingan natijalar matematik-statistik tahlil asosida qayta ishlanib, tajriba va nazorat guruhlarida o’rtasidagi farqlar aniqlab berildi. Bu esa interfaol metodlarning samaradorligini obyektiv baholash imkonini berdi [17].

**Natijalar.** Tadqiqot yakunida tajriba va nazorat guruhlarida “Men” konsepsiyasining shakllanganlik darajasi qayta diagnostika qilindi. Olingan natijalar interfaol metodlarning samaradorligini yaqqol ko’rsatdi.

Shakllantiruvchi bosqichdan so’ng tajriba guruhida sezilarli ijobiy o’zgarishlar kuzatildi. Xususan, bolalarning o’zini anglash darajasi, o’ziga baho berishi va ijtimoiy faolligi oshganligi aniqlandi.

**1-jadval. Tajriba yakuniy natijalari (%)**

Daraja	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
<b>Yuqori</b>	30%	65%
<b>O’rta</b>	50%	30%
<b>Past</b>	20%	5%

Natijalardan ko’rinadiki, tajriba guruhida yuqori daraja 65% ga yetgan bo’lib, bu boshlang’ich ko’rsatkichga nisbatan sezilarli o’sishni bildiradi. Nazorat guruhida esa o’zgarishlar nisbatan sust kechgan.

**Natijalar tahlili.** Olingan ma’lumotlar shuni ko’rsatadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg’ulotlar bolalarda “Men” konsepsiyasining barcha komponentlarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko’rsatadi [17].

Tajriba guruhida quyidagi o’zgarishlar kuzatildi:

- ✓ bolalar o’z fikrini erkin ifoda eta boshladi
- ✓ o’z imkoniyatlarini to’g’ri baholash ko’nikmasi shakllandi
- ✓ guruhda muloqot qilish faolligi oshdi
- ✓ o’ziga ishonch darajasi kuchaydi

Nazorat guruhida esa an’anaviy metodlar qo’llanilgani sababli o’zgarishlar sekin kechdi va yuqori darajaga chiqish ko’rsatkichi past bo’lib qoldi. Tadqiqot natijalari shuni ko’rsatadiki, interfaol metodlar bolaning faol subyekt sifatida ishtirokini ta’minlab, uning reflektiv faoliyatini faollashtiradi. Bu esa “Men” konsepsiyasining shakllanish jarayonini tezlashtiradi va barqarorlashtiradi. Interfaol metodlardan foydalanish 6–7 yoshli bolalarda “Men” konsepsiyasini shakllantirishda an’anaviy metodlarga nisbatan ancha samarali ekanligi isbotlandi.

**Xulosa.** Olib borilgan nazariy tahlil va tajriba-sinov ishlari natijasida 6–7 yoshli bolalarda “Men” konsepsiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari bo’yicha quyidagi ilmiy xulosalarga kelindi:

1. Metodik samaradorlik: Maktabgacha yoshdagi davr shaxs identifikatsiyasining asosi hisoblanib, bu jarayonda interfaol metodlar (rolli o’yinlar, keys-stadi, proyektiv metodikalar) bolaning subyektiv tajribasini faollashtiruvchi eng samarali vosita ekanligi isbotlandi. An’anaviy ta’limdan farqli o’laroq, interfaol muhitda bola tayyor bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki o’z “Men”ini anglovchi faol subyekt sifatida namoyon bo’ladi.

2. Psixologik transformatsiya: Tajriba guruhi natijalari shuni ko’rsatdiki, interfaol yondashuv bolalarda adekvat o’z-o’ziga baho berish (*self-esteem*) va reflektiv ko’nikmalarni 25-30% ga oshiradi. Bolalarning emotsional intellekti rivojlanishi natijasida ijtimoiy moslashuv darajasi ko’tarilib, tengdoshlar bilan muloqotda o’zaro ishonch va mustaqil fikr bildirish ko’rsatkichlari sezilarli darajada ijobiy dinamika kasb etdi.

3. Tizimli yondashuv: Tadqiqot jarayonida aniqlanishicha, “Men” konsepsiyasining shakllanishi faqatgina intellektual rivojlanish bilan cheklanmay, balki shaxsning ijtimoiy-emotsional va kommunikativ kompetensiyalari bilan uzviy bog’liqdir. Interfaol metodlar orqali yaratilgan muammoli vaziyatlar bolaga o’z imkoniyatlarini sinab ko’rish va shaxsiy “Men” obrazini korreksiya qilish imkonini berdi.

4. Amaliy tavsiyalar: Tadqiqot natijalari maktabgacha ta’lim tashkilotlari (MTT) o’quv-tarbiya jarayoniga shaxsga yo’naltirilgan yondashuvni joriy etish zarurligini ko’rsatadi. Pedagoglarning interfaol texnologiyalar bo’yicha metodik tayyorgarligini oshirish, bolaning individual-psixologik xususiyatlariga

tayangan holda “Men” konsepsiyasini rivojlantiruvchi maxsus modullarni o‘quv dasturlariga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib aytganda, interfaol metodlar 6–7 yoshli bolalarda shaxsiy identifikatsiya jarayonini tizimli, izchil va rivojlantiruvchi xarakterda tashkil etishning fundamental asosi bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa kelgusida bolaning maktab ta‘limiga psixologik jihatdan tayyor bo‘lishini va ijtimoiy muhitda o‘z o‘rnini topishini kafolatlaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi **amaliy tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida bolalarda “Men” konsepsiyasini rivojlantirish uchun interfaol metodlarni tizimli ravishda joriy etish lozim.

2. Tarbiyachilar uchun “Men” konsepsiyasini shakllantirishda interfaol metodlar” mavzusida maxsus metodik seminar va treninglar tashkil etish maqsadga muvofiq.

3. Mashg‘ulotlarda rolli o‘yinlar, muammoli vaziyatlar va refleksiya elementlaridan keng foydalanish tavsiya etiladi.

4. Har bir bola bilan individual yondashuv asosida o‘zini anglash darajasini rivojlantiruvchi pedagogik topshiriqlar ishlab chiqish kerak.

5. Ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish, uy sharoitida bolada ijobiy “Men” obrazini shakllantirishga yo‘naltirilgan tavsiyalar berish lozim.

6. Maktabgacha ta‘lim dasturlariga interfaol metodlarga asoslangan maxsus mashg‘ulot bloklarini kiritish tavsiya etiladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Nutq va ma‘ruzalar to‘plami. – T.: O‘zbekiston, 2020.
3. Выготский Л.С. Психология развития ребёнка. – М.: Педагогика, 1984.
4. Burns R.B. Self-concept development and education. – London: Holt, Rinehart & Winston, 1982.
5. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
6. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2012.
7. Burns R.B. Self-concept development and education. – London: Holt, Rinehart & Winston, 1982.
8. Rogers C.R. On Becoming a Person: A Therapist’s View of Psychotherapy. – Boston: Houghton Mifflin, 1961.
9. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2012.
10. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. –T.: Fan, 2010.
11. Подласый И.П. Педагогика: учебник для вузов. – М.: Владос, 2003. – 576 с.
12. Davletshin M.G. Umumiy psixologiya. – T.: O‘qituvchi, 2002. – 312 b.
13. Nishonova Z.T. Rivojlanish psixologiyasi. – T.: Fan va texnologiya, 2006. – 280 b.
14. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T.: Fan, 2012. – 144 b.
15. Кравцов Г.Г. Психологические основы диагностики развития ребёнка. – М.: Просвещение, 2004. – 240 с.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA JISMONIY TARBIYA MASHG‘ULOTLARINI O‘TKAZISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Raimov O‘lmasjon Ikrom o‘g‘li,*

*Buxoro davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti*

*Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslari yoritilgan. Unda bolalarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olgan holda jismoniy mashg‘ulotlarni rejalashtirish, ularning sog‘lom rivojlanishiga ta‘sir etuvchi omillar hamda samarali pedagogik yondashuvlar tahlil qilingan. Shuningdek, jismoniy tarbiya darslarida qo‘llaniladigan metod va vositalarning o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishdagi o‘rni ochib berilgan. Tadqiqot natijalari boshlang‘ich ta‘lim tizimida jismoniy tarbiya samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.*

**Kalit so‘zlar:** jismoniy tarbiya, boshlang‘ich sinf, pedagogik yondashuv, jismoniy rivojlanish, metodika, sog‘lom turmush tarzi.

## ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПРОВЕДЕНИЯ ЗАНЯТИЙ ПО ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЕ ДЛЯ УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНОЙ ШКОЛЫ

*В данной статье рассматриваются теоретические основы организации уроков физкультуры для учащихся начальной школы. Анализируется планирование уроков физкультуры с учётом возраста и индивидуальных особенностей детей, факторов, влияющих на их здоровое развитие, и эффективных педагогических подходов. Также раскрывается роль методов и инструментов, используемых на уроках физкультуры, в развитии физических качеств учащихся. Результаты исследования служат повышению эффективности физкультуры в системе начального образования.*

**Ключевые слова:** физкультура, начальная школа, педагогический подход, физическое развитие, методика, здоровый образ жизни.

## THEORETICAL BASIS OF CONDUCTING PHYSICAL EDUCATION EXERCISES FOR ELEMENTARY STUDENTS

*This article covers the theoretical foundations of organizing physical education classes for primary school students. It analyzes the planning of physical education classes, taking into account the age and individual characteristics of children, factors affecting their healthy development, and effective pedagogical approaches. It also reveals the role of methods and tools used in physical education classes in developing students' physical qualities. The results of the study serve to increase the effectiveness of physical education in the primary education system.*

**Keywords:** physical education, primary school, pedagogical approach, physical development, methodology, healthy lifestyle.

**Kirish.** Hozirgi kunda yosh avlodni har tomonlama barkamol etib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining jismoniy rivojlanishini ta‘minlash, ularda sog‘lom turmush tarziga oid ko‘nikmalarni shakllantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaraladi. Shu jihatdan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini ilmiy asoslangan holda tashkil etish alohida ahamiyat kasb etadi. Boshlang‘ich maktab yoshidagi bolalar organizmi tez rivojlanish bosqichida bo‘lib, ularning jismoniy, psixologik va funksional xususiyatlari o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Bu esa jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishda maxsus yondashuvni talab qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi va adabiyotlarning tahlili.** Mazkur tadqiqotda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etishning nazariy asoslarini o‘rganish uchun kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot jarayonida pedagogik, psixologik va fiziologik yo‘nalishlardagi ilmiy manbalar tahlil qilindi hamda ularning o‘zaro bog‘liqligi asosida umumlashtiruvchi xulosalar chiqarildi.

R.S. Salomova jismoniy tarbiya nazariyasi va uslubiyati sohasida muhim ilmiy ishlar olib borgan bo‘lib, uning tadqiqotlarida jismoniy tarbiya jarayonining ilmiy asoslari, metodlari va vositalari keng yoritilgan. Shuningdek, F.Q. Ahmedov tomonidan yaratilgan o‘quv-uslubiy qo‘llanmalarda boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish, dars tuzilishi va mashqlar tizimi batafsil bayon etilgan.

Mashg‘ulotlar nafaqat bolalarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish, balki ularning intizomi, irodasi va jamoaviylik kabi ijtimoiy fazilatlarini shakllantirishga ham xizmat qilishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini tashkil etish pedagogika va fiziologiya fanlarining muhim

yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu jarayon bolalarning yosh xususiyatlari, jismoniy rivojlanish darajasi hamda individual imkoniyatlarini hisobga olgan holda olib borilishi lozim. Ayniqsa, 7–10 yoshdagi bolalarda harakat faoliyati yuqori darajada rivojlanishga moyil boʻlib, bu davr jismoniy sifatlarni shakllantirish uchun eng qulay bosqich sanaladi.

Jismoniy tarbiya mashgʻulotlarining nazariy asoslari, avvalo, didaktik tamoyillarga tayanadi. Bular tizimlilik, izchillik, ongli va faol ishtirok, koʻrgazmalilik hamda individual yondashuv tamoyillaridir. Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan mashgʻulotlar oʻquvchilarning jismoniy rivojlanishini samarali taʼminlaydi. Masalan, mashqlarni oddiydan murakkabga qarab bosqichma-bosqich oʻrgatish bolalarda harakat koʻnikmalarining mustahkam shakllanishiga xizmat qiladi. Boshlangʻich sinflarda jismoniy tarbiya mashgʻulotlarida harakatli oʻyinlardan keng foydalanish tavsiya etiladi. Chunki oʻyin faoliyati bu yoshdagi bolalar uchun eng tabiiy va samarali oʻqitish vositasidir.

Harakatli oʻyinlar orqali oʻquvchilarda chaqqonlik, tezkorlik, kuch va chidamlilik kabi jismoniy sifatlari rivojlanadi. Shu bilan birga, oʻyinlar bolalarda jamoada ishlash, oʻzaro hurmat va intizom kabi ijtimoiy koʻnikmalarni ham shakllantiradi. Jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini tashkil etishda oʻqituvchining roli alohida ahamiyatga ega. Oʻqituvchi nafaqat mashqlarni toʻgʻri tanlashi, balki ularni tushunarli va qiziqarli tarzda yetkazib berishi zarur. Shuningdek, oʻquvchilarning salomatlik holatini nazorat qilish, ortiqcha yuklama berilishini oldini olish ham muhim vazifalardan biridir. Zamonaviy taʼlim sharoitida jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini tashkil etishda innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham dolzarb masalalardan biridir. Masalan, interfaol metodlar, musobaqa elementlari, differensial yondashuv kabi usullar mashgʻulot samaradorligini oshiradi. Shu orqali oʻquvchilarning jismoniy faolligi ortadi va mashgʻulotlarga boʻlgan qiziqishi kuchayadi.

Mazkur maqolaning maqsadi — boshlangʻich sinf oʻquvchilarida jismoniy tarbiya mashgʻulotlarini oʻtkazishning nazariy asoslarini tahlil qilish, samarali metod va vositalarni aniqlash hamda ularni amaliyotga tatbiq etish boʻyicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berishning asosiy maqsadi yosh avlodni istiqbol mafkurasi asosida sogʻlom, har tomonlama rivojlangan shaxs sifatida tarbiyalash va maktab taʼlimiga tayyorlashdan iboratdir.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Boshlangʻich sinf oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berishning asosiy vazifalari bolalarni jismoniy, aqliy va maʼnaviy jihatdan rivojlantirishdan, ularning tugʻma layoqati, qiziqish, ixtiyoji va imkoniyatlarini hisobga olgan holda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida muntazam taʼlim olishga tayyorlashdan iborat. Boshlangʻich sinf oʻquvchilarni rivojlantirish va maktabga tayyorlash jarayoni oldiga qoʻyilgan maqsad va vazifalarning bajarilishi ushbu Boshlangʻich sinf oʻquvchilar taʼlim-tarbiyasiga qoʻyiladigan davlat talablari orqali nazorat qilinadi. Davlat talablarida Boshlangʻich sinf oʻquvchilarga beriladigan taʼlim-tarbiya mazmunining asosiy yoʻnalishlari hamda ularning maktabga tayyorgarlik darajasiga qoʻyiladigan minimal talablar belgilab berilgan boʻlib, u davlat xujjati sifatida eʼtirof etiladi.

Davlat talabi koʻrsatkichlarini belgilashda davlat va jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, boshlangʻich sinf oʻquvchilarning jismonan sogʻlomligi, qobiliyati, ixtiyoji va imkoniyatlari, yaʼni bola shaxsining ustuvorligidan kelib chiqilgan. Taʼlim-tarbiya mazmunining asosiy yoʻnalishlarida bolalarni jismoniy rivojlantirishga katta ahamiyat berilgan.

Bolalarni jismoniy rivojlantirish.

Bolalarni maktabga tayyorlashni belgilovchi muhim koʻrsatkichlardan biri ularning jismoniy jihatdan rivojlanganlik darajasidir. Bolalar oʻz yoshlariga mos boʻlgan harakatli, shu jumladan milliy oʻyinlar nomlarini, qoidalarini bilishi va ularda faol ishtirok etish, yugurish va sakrash, yoshiga mos holda belgilangan meʼyorlarni bajarish kabilarga oʻrgatish boshlangʻich sinf oʻquvchilarning jismoniy rivojlanishini taminlovchi taʼlim-tarbiya mazmunining asosini tashkil etadi.

Bolalarning maktabga tayyorgarlik darajasiga quyilgan minimal talablar,

Jismoniy rivojlanganlik darajasi:

- mustaqil holda jismoniy mashqlar bajara olishi,
- buyruqqa asosan yugurish,
- narvonda tepaga chiqish va tushish,
- 5 soniya davomida orqonga osilib turish,
- argʻimchoq uchish,
- cheklangan chiziq boʻylab yugurish,
- qiya quyilgan taxta ustida yurish,
- bir oyoqda «qaldirgʻoch» boʻlib turish,
- oyoq uchlari bilan buyumlarni qisib koʻtarish, tushurish va bir joydan boshqa joyga koʻchirish,
- joyda turib 15-20 marta sakrash,

- 70 sm uzunlikka sakrash,
- 30 sm balandlikdagi to‘siqdan sakrab o‘tish,
- to‘xtamasdan 2-3 daqiqa davomida yugurish,
- 100 m masofani yugurib o‘tish,
- 10 m masofani emaklab tushish,
- safda to‘g‘ri turish va safni buzmasdan yurish,
- saflanish va qayta saflana olish,
- musiqa ohangiga mos holda harakat qilish,
- koptokni irg‘itish va ilib olish,
- ilon izi shaklida yurish,
- to‘p-to‘p bo‘lib, aylana bo‘ylab yurish,
- chiniqtirish mashqlarini bajarish,
- xalq o‘yinlari “Kim chaqon”, “Oq terakmi, ko‘k terak”, “Chittigul” kabi harakatli o‘yinlarda ishtirok eta olishdan iborat.

O‘zbek xalqining milliy an‘analari, qadriyatlari, xalq ijodiyotining o‘ziga xosligi, tilda o‘z aksini topuvchi tafakkur xususiyatlari, xalq pedagogikasining ulkan tajribasi, milliy (o‘z an‘analari, qadriyatlari) xalq ijodiyotining o‘ziga xosligi, o‘z-o‘zini anglash masalasi alohida o‘rin egallaydi.

“Maktabgacha tarbiya kontseptsiyasida” jismoniy tarbiya, gigiyena va salomatlikka alohida e‘tibor berilgan.

**Muhokama.** Mehnat va ijodiy faoliyatga qodir ijtimoiy vazifalarni to‘laqonli bajaruvchi ham jismonan ham ma‘nan etuk kishigina sog‘lom deyin mumkin. Tarbiyachi Boshlang‘ich sinf o‘quvchilar jamoasida bo‘lib, ta‘lim va tarbiya dasturini egallaydi, xilma-xil o‘yin, o‘quv va mehnat faoliyatini amalga oshiradi. “Salomatlik” tushunchasining tarkibiy qismi bo‘lgan jismoniy va ruhiy beshikastlik bolaning o‘sish va rivojlanishining normal kechishini nazarda tutadi. Bolalarning gigienik va jismoniy sog‘lomliklari ko‘p jihatdan sog‘liqni saqlash va xalq ta‘limi tizimlarining hamkorlikdagi intilishlariga bog‘liq bo‘ladi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini o‘tkazish metodikasi bo‘yicha ko‘pgina ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Tulenova X.B. “Maktabgacha tarbiya muassasalarida 5-6 yoshli bolalarni jismoniy tarbiyasini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot bolalarga jismoniy tarbiya berish yo‘llarini va usullarini takomillashtirish yo‘llarini ishlab chiqqan. Yuldashev F.K. jismoniy tarbiyani o‘qitish jarayonida “Ibn Sinoning merosidan foydalanish” mavzusidagi tadqiqot ishida Ibn Sinoning badan tarbiyasi, sog‘liqni saqlash va uni asrash haqidagi ta‘limotini o‘rganib, tahlil qilib chiqqan. K.M.Mahkamjonov, F.N.Nasriddinovlar “O‘zing bajarishga o‘rgan” kitobida salomatlikni saqlash, jismoniy mashqlar, mashg‘ulotlarni tashkil etish va o‘tkazishda amaliy ko‘nikmalarni orttirish yo‘llarini ko‘rsatib berishgan.

D.J.Sharipova, L.M.Salimova, S.Muhammadiyeva, T.Arbusova “Kichkintoylarni gigienik tarbiyalash” qo‘llanmasida boshlang‘ich sinf o‘quvchilarni sog‘lom qilib voyaga yetkazishda gigienik tarbiyaning roliga alohida e‘tibor qaratiladi hamda gigienik tarbiya yuzasidan foydali maslahatlar beriladi. V.G.Frolov “Sayrda jismoniy tarbiya mashg‘ulotlari, o‘yinlari va mashqlari”, ochiq havoda o‘tkaziladigan jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini ahamiyatini ochadi. E.Ya.Stepanenkova “Jismoniy tarbiya nazariyasi, metodikasi va bolaning rivojlanishi” darsligida gimnastika, harakatli o‘yinlar va ularning tarbiyaviy ta‘siri ochilgan.

**Xulosa** qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida jismoniy tarbiya mashg‘ulotlarini samarali tashkil etish ularning jismoniy va ruhiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi. Mashg‘ulotlarni ilmiy-nazariy asoslar, didaktik tamoyillar hamda yosh xususiyatlariga mos holda tashkil etish yuqori natijalarga erishish imkonini beradi. Shuningdek, harakatli o‘yinlar, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va individual yondashuvni qo‘llash orqali o‘quvchilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirish bilan birga, ularda sog‘lom turmush tarziga bo‘lgan ijobiy munosabatni shakllantirish mumkin. Bu esa kelajakda sog‘lom va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omili hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Islomov A. O‘zbek xalq o‘yinlari va ularning darsda qo‘llanishi // Xalq ta‘limi. – Toshkent.1992.-4-5. B.13-14.
2. Islomov U. Milliy o‘yinlar xalq mulki // Boshlang‘ich ta‘lim. Toshkent. 1993.- №3-4 .B.20-22 .
3. Yuldosheva R. O‘zbek xalq o‘yinlarining tarbiyaviy ahamiyati. - T.: O‘qituvchi. 1992 .-78 b.
4. Кадилов Р.Х. Взаимосвязь школы и семьи как средство совершенствования физического воспитания детей. Дис... канд.пед.наук.- Т.: 1994.
5. Кадилов Р. Х. Народные подвижные игры - как средство совершенствования содержания уроков физической культуры. Тез. респ. науч.прак. конф.- Джизак. 1991.-С. 63-64 .
6. Казанков М. Повышение эффективности основных форм физического воспитания учащихся на основе национальных игр. Автореф.дис....пед.наук.-М.:–1993.-22 с.

## BOSHLANG‘ICH SINIF TARBIYA DARSLARIDA MILLIY O‘ZLIKNI ANGLASHNING SHAKLLARI

*Navruzova Muyassar G‘aybullayevna,*

*Buxoro davlat universiteti dotsenti, f.f.f.d.(PhD)*

*Shermatova Munojotxon Marifovna,*

*Osiyo xalqaro universiteti*

*Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi*

*(boshlang‘ich ta‘lim) yo‘nalishi 2-bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada boshlang‘ich sinf “Tarbiya” darslarida o‘quvchilarning milliy o‘zlikni anglashini shakllantirish usullari va vositalari yoritilgan. Milliy qadriyatlar, xalq og‘zaki ijodi hamda ajdodlar merosi orqali bolalarda milliy g‘urur va ma‘naviy ongni rivojlantirish shakllari tahlil qilingan. Shuningdek, dars jarayonida milliy o‘zlikni anglashni shakllantirishning samarali pedagogik texnologiyalari bo‘yicha tavsiyalar berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *milliy o‘zlikni anglash, Tarbiya darsi, boshlang‘ich sinf, milliy qadriyatlar, ma‘naviy tarbiya, vatanparvarlik, ajdodlar merosi, pedagogik texnologiya.*

## ФОРМЫ ОСОЗНАНИЯ НАЦИОНАЛЬНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ НА УРОКАХ ВОСПИТАНИЯ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

*В данной статье рассматриваются формы и методы формирования национального самосознания учащихся на уроках «Воспитания» в начальных классах. Анализируются способы развития национальной гордости и духовного сознания детей через национальные ценности, фольклор и наследие предков. Также представлены рекомендации по использованию эффективных педагогических технологий для формирования основ национальной идентичности в учебном процессе.*

**Ключевые слова:** *национальное самосознание, урок воспитания, начальные классы, национальные ценности, духовное воспитание, патриотизм, наследие предков, педагогические технологии.*

## FORMS OF DEVELOPING NATIONAL IDENTITY AWARENESS IN PRIMARY SCHOOL “EDUCATION” LESSONS

*This article explores the forms and methods of developing national identity among primary school students during “Education” lessons. It analyzes ways to foster national pride and spiritual awareness in children through national values, folklore, and the heritage of ancestors. Furthermore, the article provides recommendations on effective pedagogical technologies for shaping the foundations of national self-awareness in the educational process.*

**Keywords:** *national identity, upbringing lesson, primary school, national values, spiritual education, patriotism, ancestral heritage, pedagogical technologies.*

**Kirish.** Bugungi globallashuv davrida yosh avlod ma‘naviyatini yuksaltirish, ularda milliy g‘urur va o‘zlikni anglash tuyg‘usini shakllantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biriga aylandi. Boshlang‘ich sinf davri bolaning shaxs sifatida shakllanishi, dunyoqarashi va qadriyatlar tizimi poydevori qo‘yiladigan eng muhim bosqich hisoblanadi.

Aynan “Tarbiya” darslari o‘quvchilarda "Biz kimmiz?", "Bizning ajdodlarimiz kim bo‘lgan?" va "Vatan oldidagi burchimiz nimadan iborat?" degan fundamental savollarga javob topishga xizmat qiladi. Milliy o‘zlikni anglash faqatgina tarixni bilish emas, balki milliy til, urf-odatlar, an‘analar va umuminsoniy qadriyatlarni dildan his etishdir. Mazkur maqolada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining ma‘naviy-axloqiy dunyosini boyitishda qo‘llaniladigan milliy o‘zlikni anglashning asosiy shakllari va ularning pedagogik ahamiyati tadqiq etiladi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Ta‘limning bugungi vazifasi o‘quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot - ta‘lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko‘rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o‘rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyati va sharoitini yaratib berish zarur.

Ta’limning samaradorligini oshirish va bilimlarni to’la egallashlariga erishish, shaxsning ta’lim diqqat markazida bo’lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta’minlash uchun ta’lim muassasalariga yaxshi tayyorgarlik ko’rgan va o’z sohasidagi bilimlarni mustahkam egallashdan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni va interfaol usullarni biladigan, ulardan o’quv va tarbiyaviy mashg’ulotlarni tashkil etishda foydalana oladigan o’qituvchilarga ehtiyoj oshmoqda. Ayniqsa, boshlang’ich sinf o’qituvchilarini innovatsion pedagogik texnologiyalar va interfaol usullar bilan qurollantirish hamda olgan bilimlarini o’quv-tarbiyaviy mashg’ulotlarda qo’llash malakalarini oshirib borish lozim. Pedagoglar o’z mutaxassisliklari bo’yicha egallagan bilimlari qatorida pedagogik va psixologik bilimlarni hamda texnologik yondashuv asosidagi o’qitish uslubiyotlarini ham egallagan bo’lishlari zarur. Ana shularni e’tiborga olgan holda, yosh o’qituvchilarning mahoratini oshirishda quyidagi masalalarni muhim deb belgiladik:

- ta’lim berish jarayonining samaradorligini ta’minlovchi pedagogik malakalarni shakllantirish;
- o’qituvchi faoliyatining nazariy metodologik asosi sifatida pedagogik bilimlarni ilmiy jihatdan tizimli egallash;
- o’qituvchilarning ta’lim berishda foydalanadigan uslublarni sifatli qo’llay olish kompetensiyasini egallash.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Respublikamizning ta’lim muassasalarida faoliyat ko’rsatayotgan yosh istiqbolli kadrlarga zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol usullarni o’rgatish, pedagogika va psixologiya fanlariga oid bilimlarini yanada mustahkamlash va olgan bilimlarini o’quv-tarbiya jarayonida qo’llay olishlariga erishish, shuningdek, ularga pedagogik mahorat sirlarini ochib berish, pedagogik va axborot texnologiyalarni amaliyotga joriy etishda pedagog-o’qituvchilarning kasbiy kompetentligi va mahoratini oshirishga amaliy yordam ko’rsatish. O’quvchilarni o’qishga bo’lgan qiziqishni orttirish, didaktik-o’yin, o’quv munozaralari, o’quvchilarning ta’lim olishdagi burch va ma’suliyatini shakllantirish quyidagi uslublariga mansub:

a) o’qishga bo’lgan qiziqishini orttirish uslubi o’quvchilarda ijobiy hissiyotni vujudga keltirish, qiziqarli analogiyalardan foydalanish, taajublanish effekti, bilish quvonchini vujudga keltirish, o’quvchilarni rag’batlantirish va tanbeh berish uslubi;

b) didaktik-o’yin metodi o’yin syujetini tanlash, o’yin vaziyatlarini vujudga keltirish, o’quv-bilishga oid o’yinlarni tanlash, o’quvchilarni rag’batlantirish uslubi.

v) o’quv munozaralari metodi o’quv baxslarini keltirib chiqaradigan vaziyatni yaratish, ilmiy baxslarni vujudga keltirish. O’quvchilarni muvaffaqiyatlarga yo’llash, o’quvchilar fikrini bayon qilish, ular javobidagi xatolarni to’g’rilash, o’quvchilarni rag’batlantirish uslubi.

d) o’quvchilarning ta’lim olishdagi burch va ma’suliyatini shakllantirish metodi ta’lim-tarbiyaning ijtimoiy ahamiyatini tushuntirish, o’qishning shaxsiy ahamiyatini tushuntirish, o’quv talablarini qo’yish, o’qitishda rag’batlantirish va tanbeh berish kabi uslublarni mujassamlashtiradi.

O’quvchi faoliyatini faollashtirishga qaratilgan texnologiyalardan biri didaktik ijodiy-ta’limiy o’yin texnologiyalaridir. Ular o’quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro’yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Didaktik ijodiy-ta’limiy o’yinlarning asosiy turlari:

-intellektual (aqliy)

-harakatli

-aralash o’yinlardan iborat.

Bu o’yinlar ishtirokchilarda aqliy, jismoniy, axloqiy, psixologik, estetik, badiiy, tadbirkorlik va boshqa ko’nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.

*Didaktik ijodiy-ta’limiy o’yin* o’yin texnologiyalari o’quvchi faoliyatini faollashtirishga asoslangan bo’lib, uning asosiy maqsadi o’quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro’yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirishda katta ahamiyatga ega.

Ta’lim-tarbiya jarayonida asosan o’quvchilarda ta’lim olish motivlarini, ularning turli yo’nalishdagi qobiliyat va qiziqishlarini oshiradigan, biror kasbga moyilliklarini ko’rsatadigan didaktik ijodiy-ta’limiy o’yinlardan foydalaniladi.

Didaktik ijodiy-ta’limiy o’yinlar nazariy, amaliy, jismoniy, rolli, ishchanlik va boshqa yo’nalishlar bo’yicha turlarga ajratiladi. Didaktik ijodiy-ta’limiy o’yinlar o’quvchilarda hamkorlikda guruh yoki jamoa tarkibida ishlash ishlash, muammolarni hal qilish, vaziyatni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, matematik savodxonlik kompetensiyasini shakllantirish, mustaqil qaror qabul qilish,, axloq-odob o’rgatish, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo’naltirilgan o’yinlarga ajratiladi.

Didaktik ijodiy-ta’limiy o’yinlardan amalda foydalanish orqali boshqa usullar yordamida erishish qiyin bo’lgan ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarni amalga oshirish ko’zda tutiladi. Turli o’quv fanlariga oid

didaktik o‘yinlar mavjud bo‘lib, ular shu fanlarni sifatli o‘rgatish maqsadlariga xizmat qiladi. Umumiy o‘yinlar nazariyasiga ko‘ra, mavjud barcha o‘yin turlarini tasniflashda ularni funksional, mavzuli, konstruktiv, didaktik, sport va harbiy o‘yinlarga ajratiladi. Bularning orasida didaktik ijodiy-ta’limiy o‘yinlar ta’lim-tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyatini berishi bilan alohida o‘ringa ega. O‘yinlar maktabgacha yoshdagi bolalarning asosiy faoliyat shakli hisoblanadi. Bu esa pedagog va psixolog olimlar tomonidan shu yosh davridagi o‘yinlarning ta’lim-tarbiyaviy ahamiyatini o‘rganish va yanada oshirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borilishiga asos bo‘ladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** *O‘yin* - tarbiyalash va hordiq chiqarish vositalaridan biri. O‘yin insoniyatning butun tarixi mobaynida diniy marosim, sport, harbiy va boshqalar mashqlar, shuningdek, san’at, ayniqsa uning ijro shakllari bilan qo‘shilib kelgan.

Ma’lumki, inson o‘z hayotida o‘yin, o‘qish, mehnat, dam olish kabi mashg‘ulotlar bilan band bo‘ladi. Inson hayotining dastlabki davrlarida o‘yin asosiy faoliyat hisoblanadi, keyin esa u o‘qish bilan baravar davom etadi, undan so‘ng esa o‘yin kamayib, uning o‘rnini o‘qish va mehnat egallaydi. Odamzod tarixining dastlabki davrlarida o‘yinlar hayotda muhim o‘rin tutgan. O‘yinlar yordamida insoniyat o‘sgan, ulg‘aygan, chiniqqan, jismonan baquvvat bo‘lgan, aqlan, ruhan rivojlangan, ma’naviy kamol topgan.

Dars jarayonida ijodiy-ta’limiy o‘yinlarni o‘ynashdan asosiy maqsad o‘quvchilarga bilimlarni tez va osonroq o‘zlashtirishga imkoniyat yaratishdan iboratdir. Ijodiy-ta’limiy o‘yinlarning eng muhim ahamiyati ham ana shundadir.

Didaktik o‘yinlar o‘yin usullarini cheksiz takrorlash va o‘zgartirish, o‘yinga turli narsalar kiritish imkonini beradi. Didaktik o‘yinlar o‘qitish vazifasiga xizmat qiladi va qiziqarli, maroqli, tushunarli darajada olib boriladi. O‘quvchilar g‘olib chiqish maqsadida jonu dila bilan mashq qiladilar, berilgan har bir topshiriqni albatta bajarishga odatlanib qoladilar, natijada ularda didaktik topshiriqlarni bajarishga bo‘lgan qiziqish orta boradi.

Ijodiy-ta’limiy o‘yinlar har bir darsning maqsadini, har bir mashqning maqsad va vazifalarini yaxshiroq tushunib olishga yordam beradi. Didaktik o‘yinlar ta’limning ko‘rgazmaliligini, o‘qituvchining nutqini va bolalar harakatini o‘z ichiga oladi, buning natijasida idrokda (ko‘rish, eshitish, teri sezgisi belgilarida) birlik tug‘iladi. Bu esa o‘qituvchining aytganlarini bolalarning o‘ylab olishiga va o‘sha aytilganlarni ifodalab berishlariga, ya’ni didaktik o‘yinlar qoidalarini o‘quvchilarning o‘zlari bajarishlariga imkon beradi. Ijodiy-ta’limiy o‘yinlarning bu tarzda tuzilish xususiyatlari o‘quvchilar faoliyatini tahlil qilish imkoniyatini beradi. Shuning uchun ham barcha o‘quvchilar o‘yin vaqtida qiziqish bilan harakat qiladilar. Ijodiy-ta’limiy o‘yinlar bolaning his-tuyg‘usiga ta’sir etib, unda qishga ijobiy munosabat va qiziqish xislatini tarkib toptiradi. O‘quvchilar o‘yinni zo‘r mamnuniyat bilan ijro etadi. O‘yin boshlanishini esa sabrsizlik bilan kutadilar, ularning ongida beixtiyor ertangi o‘quv kunining quvonchli manzarasi gavdalanadi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, ijodiy-ta’limiy didaktik o‘yinlar o‘quvchilarda hamjihatlik va intizomlilikni tarbiyalashga yordam beradi, chunki har bir o‘yin g‘alaba qozonishga intilish bilan bog‘liq bo‘lib, o‘yin shartlari va qoidalariga qat’iy va izchil rioya qilishni talab etadi. O‘quvchilarda hamkorlik, bir-birini tushunish, do‘stlik, birodarlik, mehnatni sevish kabi ko‘nikmalar tarbiyalanadi. Bu jarayoda o‘qituvchi bolalarga yaqinlashadi, o‘qituvchi o‘quvchilar uchun oddiy mehribon do‘stga aylanadi. Natijada ijodiy-ta’limiy o‘yinlarni o‘ynash jarayonida o‘quvchilarda o‘qituvchi va o‘qishga nisbatan ijobiy munosabat yuzaga keladi. O‘yin texnologiyalari nazariy bilimlarni mustahkamlab, amaliy ko‘nikmalarning malakalarga aylanishini ta’minlab qolmay, o‘quvchilarda muayyan axloqiy, irodaviy sifatlarni ham tarbiyalaydi.

Pedagogik amaliyotda qo‘llaniladigan ijodiy-ta’limiy o‘yinlar faol o‘qitish metodlari sirasiga kiradi, chunki unda, talab, o‘quvchining mahsuldor-ta’limiy faoliyatini rivojlantirish talab etiladi:

-yechimning ko‘p variantlilik va muqobilliligi, ulardan birmuncha samaralisini tanlashni amalga oshirish talab etiladi;

-noaniqlik sharoitida va shartli amaliyot muhitida yechimni qabul qilish zarurati;

-standart holatdan farq qiladigan o‘yinni o‘tkazish shartlarining xilma-xilligi, ularning mutaxassisning bo‘lajak faoliyatida uchrashi;

-qisqa muddatda o‘yinning o‘tkazilishi, vaziyatlarni bir necha qayta takrorlash imkoniyati;

-qabul qilinayotgan yechim natijalarining ko‘rsatmaliligini;

-nazariy bilimlarni amaliy kasbiy faoliyat bilan integratsiyasi, mutaxassislik bo‘yicha malakalarning hosil qilinishi;

-individual o‘qitish imkoniyatlarining mavjudligi.

Ijodiy - ta’limiy o‘yinda o‘quvchilarning mahsuldor ijodiy izlanish tafakkuri umumiy holda emas, balki bo‘lajak kasbiy faoliyatini bajarishga nisbatan rivojlanadi. o‘yin davomida yechim maqbul deb topilsa, uni almashtirish imkoniyati mavjud, bu uchun orqaga qaytilib zaruri qabul qilinadi, uning afzalliklari va kamchiliklarini aniqlash uchun sinalgan usul bilan taqqoslanadi.

Bunda o‘quvchilarga turli rollarda bo‘lish va o‘z yechimlarini taklif qilishlari uchun imkoniyat berish maqsadida o‘yin vaziyat bir necha marta qayta takrorlanadi.

Ijodiy - ta’limiy o‘yinlari o‘quvchilarda mustaqil ishlash ko‘nikmasi, ijodiy fikrlash qobiliyati va jamoani boshqarish, yechim qabul qilish hamda uni bajarishni tashkil etish malakalarini rivojlantiradi va mustahkamlaydi. Ijodiy - ta’limiy o‘yinlar davomida o‘quvchilarda quyidagi ko‘nikma va malakalar hosil qilinadi:

- yechim qabul qilish uchun zarur axborotlarni yig‘ish va tahlil qilish;
- to‘liq bo‘lmagan yoki ishonchli axborotlar yetarli bo‘lmagan sharoitda yechim qabul qilish, qabul qilingan yechim samarasini baholash;
- muayyan turdagi masalalarni tahlil qilish; bo‘lajak kasbiy faoliyatning turli sohalari o‘rtasida bog‘lanishlar o‘rnatish;
- jamoada ishlash, guruhli fikrlash usullaridan foydalanib, birgalikda kelishilgan yechim ishlab chiqish;
- jarayon va hodisalarni tatqiq qilishda tizimli yondashuvdan samarali ijodi Ijodiy - ta’limiy o‘yinli o‘qitish metodi ko‘p funktsionall va insonning turli psixologik xususiyati va sifatlarini shakllantirish hamda rivojlantirish uchun qo‘llanishi mumkin:
- kasbga yo‘naltirilganlik, aqliy mustaqillik u yoki bu faoliyat sohasidagi bilim, ko‘nikma va malakalar:
- bilish va kasbga oid masalalarni ijodiy uchish, tashkilotchilik va kommunikativ sifatlarini baholash va o‘z-o‘zini baholash.

O‘yinli o‘qitish vazifalari ichida quyidagilarni alohida tahkidlash lozim:

- instrumentalli-ko‘nikma va malakalarni shakllantirish;
- gnostik-bilim va tafakkurni shakllantirish;
- ijtimoiy-psixologik-o‘quvchida kommunikativ sifatlarini shakllantirish.

Ta’kidlab o‘tilgan bir qator o‘yinli o‘qitishning diagnostik, motivatsion, modellashtiruvchi, tashkiliy va kreativ, nazorat va tuzatish funksiyalari joriy etiladi.

**O‘yinli o‘qitish metodi** - nafaqat qatnashchilarning faolligi bilan, balki ana’naviy metodlarga nisbatan o‘quvchilarning katta intellektual va psixologik muhit bilan ham farqlanib turadi. O‘qituvchi o‘yinli mashg‘ulot ishlab chiqib, rejalashtirishi asosida uning didaktik xususiyatlarini aniq tasavvur qilishi va hisobga olishlari zarur.

**Muhokama.** O‘qituvchi uchun didaktik o‘yinlar ko‘p mehnat talab qiladigan mashg‘ulot turidir. Ularni o‘tkazishga tayyorlanish o‘qitish jarayonini chuqur anglash orqali pedagogdan ko‘p vat sarflashini talab etadi. Pedagogik tajribalar tahlili, 15 kishilik guruh bilan 1 soat muayyan vaziyatlar ustida ishlash o‘rtacha murakkablikda 12-15 soat tayyorgarlik ishlarini talab etadi. Savol tug‘iladi: o‘yin metodlari murakkabligi bilan, ishlab chiqishga ko‘p vaqt va kuch sarflanishi bilan sermashaqqat emasmi? Ana’naviy tarzda ma’ruzalar o‘qish, amaliy mashg‘ulotlarni o‘tish yengil-ku? Agar o‘yinning barcha afzalliklarini taroziga qo‘ysak, unda ularni qo‘llashdan keladigan foyda, ishlab chiqarishdagi xarajatlarni sezilarli darajada qoplashi mumkin. Albatta, o‘yinlarni ishlab chiqishning maqbulligi o‘quv fanlarining hajmi, ularni o‘rganishda yechiladigan maqsad va vazifalarga, o‘quvchilarni kasbiy tayyorlash hissasiga bog‘liq bo‘ladi. O‘yinlarni o‘tkazish metodi sifatida baholashda quyidagi holatlar hisobga olinishi zarur:

-birinchidan, o‘yinlar boshqa o‘qitish metodlariga nisbatan bitta rad etib bo‘lmaydigan afzallikka ega: olingan bilimlarni tanlagan kasbga muvofiqligini ta’minlash xususiyati;

-ikkinchidan, bir marta ishlangan namunali o‘yin qator yillar davomida o‘qitishning samarali instrumenti sifatida o‘quvchilarning bir necha avlodlariga xizmat qilishi mumkin. Albatta, o‘yinlar mazmuni fanning mazmuni o‘zgarishiga mos ravishda yangilanib borishi lozim;

-uchinchidan, o‘qitishning o‘yin metodlari o‘quvchining kasbiy faoliyatni egallashi va bilimlarni to‘g‘ridan to‘g‘ri aralashsuz yoki pedagog yordamisiz o‘zlashtirishni tahminlaydi, bu faoliyat mazmuni qiziqitirishning kuchli vositasi hisoblanadi;

-to‘rtinchidan, shartli amaliyot holatida mas’uliyatli yechim qabul qilish ko‘nikmasini egallashning maqsadli ekanigini baholash qiyin. O‘yinda bo‘lajak mutaxassislarining mustaqil kasbiy faoliyatga o‘tishda yuzaga keladigan faol xatoliklarini yo‘qotish mumkin;

-beshinchidan, o‘yinda o‘qitish jarayoni tadaqiqot vazifalari bilan samarali birlashtirilishi mumkin, bu holat o‘quvchilarga harakatdagi tadqiqotchilik metodikasini namoyish qilishga imkon beradi. Shu boisdan o‘yinni o‘tkazish rejasini ishlab chiqishda tadqiqotga tegishli bo‘lgan qator savol(muammo)lar, shuningdek, o‘yin qatnashchilaridan alohida guruhni ajratish va unga xususiy natijalarni o‘lchash va qayd etish vazifasini yuklash oldindan qaraladi;

-oltinchidan, bo'lajak mutaxassis uchun muammoni qo'yish, yechimni guruh bo'lib tanlashda individual ustuvorligi va uni joriy etishni kelishish tajribasini egallash alohida ahamiyat kasb etadi;

-yettinchidan, o'yin guruhli tafakkurlashni rivojlantiradi, jamoa tarkibida harakatlanish ko'nikmasini tarkib toptiradi;

-sakkizinchidan, o'yinlar(sinov stendida tekshirayotgan kabi) boshqarishning yangi shakl va qoidalari tuzilmasini, me'yori va metodikasini sinovdan o'tkazishga sharoit yaratadi.

Shunday qilib o'yinlar keng didaktik imkoniyatlarga ega. Ular yordamida favqulodda keng spektrdagi ko'nikma, malaka va kasbiy shaxs sifatlarini shakllantirish mumkin. Bu esa o'yinga tayyorgarlik va o'tkazishning qanday tashkil etishiga, uning asosida o'qituvchi(yoki ishlab chiqaruvchi) tomonidan qanday motivlar qo'yilishiga bog'liq.

**Xulosa.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarining tarbiya darslarida milliy o'zlikni anglashning shakl va usullari muammosini nazariy o'rganish jarayonida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarining milliy o'zlikni anglash tushunchalarini tahlil qilish, uni nafaqat milliy qadriyatlarni anglash, balki ularga amal qilishlariga baholovchi munosabat, axloqiy va milliy munosabatni o'z ichiga olgan murakkab tuzilgan ma'naviy ta'lim sifatida aniqlash imkonini berdi. Kichik maktab o'quvchisining milliylik xulq-atvorini belgilaydigan ichki asos bo'lib xizmat qiladi. Uning ijtimoiy dunyoda o'ziga xos bo'lgan, ajdodlardan meros bo'lgan milliy qadriyatlarining mavjudligi doirasiga to'g'ri keladi.

2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy o'zlikni real borliqda bir vaqtning o'zida anglashi bir qancha o'ziga xos, kognitiv-o'zgartiruvchi, qadriyat-me'yoriy, huquq-ijtimoiylashtiruvchi va kommunikativ funksiyalarni bajaradi. Ularning asosiy tushunchasi, birinchi navbatda, bolaning zarur axloqiy va milliy qadriyatlarni egallashi, katta avloddan milliy tajriba olish, O'zbekistonning milliy madaniyatini yuqori darajada o'rgatishga doir mexanizmlarini qo'llab-quvvatlash va uning ta'siriga bog'liq.

3. Boshlang'ich sinf o'quvchisining milliy o'zlikni shakllantirish uch bosqichda namoyon bo'ladi: boshlang'ich (oilada rivojlangan milliy tuyg'usining mavjudligi), ta'lim dargohida, jamiyatda qabul qilingan milliy qadriyatlar vositasida.

#### Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Ta'lim to'g'risida". – Toshkent, 2020-yil 23-sentabr.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
3. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', kelajagi yorug' bo'ladi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2019.
4. "Tarbiya" fani konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagi 422-son qarori bilan tasdiqlangan.
5. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2008.
6. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. – Toshkent: "O'qituvchi", 2008.
7. Ziyomhammadov B. Pedagogika. – Toshkent: "Turan-Iqbol", 2006.
8. Mavlonova R., Vohidova N., Rahmonqulova N. Pedagogika. (Darslik). – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2010.
9. Musurmanova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. – Toshkent: "O'qituvchi", 1996.
10. Boshlang'ich sinf "Tarbiya" darsligi. (O'qituvchi kitobi bilan). – Toshkent: Respublika ta'lim markazi nashrlari (oxirgi chop etilgan yili).

## TARBIYALANUVCHILARDA “MEN” KONSEPSIYASINI SHAKLLANTIRISHNING AYNI KUNDAGI HOLATI

*Yuldasheva Gulnora Saparbayevna,*

*Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti  
Boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishi o‘qituvchisi*

*Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarda “Men” konsepsiyasini shakllantirishning fundamental-nazariy asoslari va zamonaviy ta‘lim paradigmasidagi holati kompleks tahlil qilinadi. Tadqiqotda ushbu fenomenning pedagogik va psixologik determinantalari, xususan, bolaning o‘z-o‘zini anglash darajasi, shaxsiy identifikatsiyasi va kognitiv-emotsional rivojlanish qonuniyatlari ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shuningdek, globallashuv va raqamlashuv sharoitida maktabgacha ta‘lim muhitining transformatsion xususiyatlari, bolaning individual-psixologik trayektoriyasini shakllantirishdagi mavjud metodik muammolar hamda ularni bartaraf etishning innovatsion mexanizmlari yoritilgan. Maqolada ijobiy “Men” obrazini shakllantirish orqali bolalarning ijtimoiy moslashuv darajasini oshirish va ta‘lim jarayonini subyekt-subyekt munosabatlari asosida takomillashtirishga oid metodik tavsiyalar ilgari surilgan.*

***Kalit so‘zlar:** “Men” konsepsiyasi, shaxs rivoji, o‘zini anglash, maktabgacha ta‘lim, ijtimoiylashuv, pedagogik yondashuv, individual trayektoriya, subyekt-subyekt munosabatlari, kognitiv-emotsional rivojlanish.*

## СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ «Я-КОНЦЕПЦИИ» У ВОСПИТАННИКОВ

*В данной статье комплексно анализируются фундаментально-теоретические основы формирования концепции «Я» у детей дошкольного возраста и её состояние в современной образовательной парадигме. В исследовании научно обоснованы педагогические и психологические детерминанты данного феномена, в частности, уровень самосознания ребёнка, его личностная идентификация и закономерности когнитивно-эмоционального развития. Освещены трансформационные особенности среды дошкольного образования в условиях глобализации и цифровизации, методические проблемы формирования индивидуально-психологической траектории ребёнка и инновационные механизмы их устранения. В статье выдвинуты методические рекомендации по повышению уровня социальной адаптации через формирование позитивного образа «Я» и совершенствованию образовательного процесса на основе субъект-субъектных отношений.*

***Ключевые слова:** концепция «Я», развитие личности, самосознание, дошкольное образование, социализация, педагогический подход, индивидуальная траектория, субъект-субъектные отношения, когнитивно-эмоциональное развитие.*

## THE CURRENT STATE OF FORMING THE “SELF-CONCEPT” IN LEARNERS

*This article provides a comprehensive analysis of the fundamental theoretical foundations of "Self-concept" formation in preschool children and its current state within the modern educational paradigm. The research scientifically substantiates the pedagogical and psychological determinants of this phenomenon, specifically focusing on the child's level of self-awareness, personal identification, and patterns of cognitive-emotional development. Furthermore, the paper highlights the transformational characteristics of the preschool education environment in the context of globalization and digitalization, methodological challenges in shaping a child's individual-psychological trajectory, and innovative mechanisms for addressing them. The article proposes methodological recommendations aimed at increasing the level of social adaptation through the formation of a positive "Self-image" and improving the educational process based on subject-subject relationships.*

***Keywords:** self-concept, personality development, self-awareness, preschool education, socialization, pedagogical approach, individual trajectory, subject-subject relationships, cognitive-emotional development.*

**Kirish.** Bugungi kunda ta‘lim tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni ustuvor yo‘nalish sifatida belgilab bermoqda. Xususan, maktabgacha ta‘lim bosqichida bolalarning shaxs sifatida shakllanishi, ularning o‘zini anglash darajasini rivojlantirish muhim pedagogik vazifa sifatida qaralmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta‘lim va tarbiya to‘g‘risida”gi

Qonunida bolalarni har tomonlama rivojlantirish, ularning individual xususiyatlarini hisobga olish asosiy maqsadlardan biri etib belgilangan [1].

Zamonaviy ta’lim tizimi inson kapitalini rivojlantirishga yo’naltirilgan bo’lib, unda shaxsning mustaqil fikrlashi, ijtimoiy faolligi va o’zini anglash darajasi ustuvor ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, maktabgacha ta’lim bosqichi shaxs rivojining eng muhim davri sifatida qaraladi. Shu davrda bola nafaqat atrof-muhitni anglay boshlaydi, balki o’zini shaxs sifatida idrok etish jarayoniga kirishadi. “Men” konsepsiyasi bolaning o’ziga nisbatan shakllangan tasavvurlar tizimi bo’lib, u uning keyingi rivojlanishiga asos yaratadi. Ushbu konsepsiyaning to’g’ri shakllanishi bolaning o’ziga bo’lgan ishonchi, ijtimoiy moslashuvi va ta’lim faoliyatidagi muvaffaqiyatini belgilaydi.

Zamonaviy jamiyatda shaxsning o’zini anglash darajasi uning ijtimoiy faolligi, mustaqil fikrlashi va qaror qabul qilish qobiliyatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Shu bois tarbiyalanuvchilarda “Men” konsepsiyasini shakllantirish masalasi nafaqat pedagogik, balki ijtimoiy-psixologik ahamiyatga ham ega bo’lib bormoqda. Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev ta’kidlaganidek: *”Mustaqil fikrlaydigan, barkamol avlodni tarbiyalash bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir”* [2].

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Psixologik adabiyotlarda “Men” konsepsiyasi shaxsning o’ziga nisbatan shakllangan tasavvurlari, baholari va munosabatlari tizimi sifatida talqin etiladi. Ushbu tushuncha individning o’z imkoniyatlarini anglash, o’zini baholash va jamiyatdagi o’rnini belgilash jarayonlarini o’z ichiga oladi [3]. R. Burns “Men” konsepsiyasini shaxsning o’ziga oid tasavvurlar tizimi sifatida izohlab, uning shakllanishi ijtimoiy muhit bilan uzviy bog’liqligini asoslab bergan [4]. C. Rogers esa ushbu konsepsiyani shaxs rivojining markaziy elementi sifatida baholab, ijobiy muhit uning shakllanishida hal qiluvchi rol o’ynashini ta’kidlaydi [5]. 6–7 yosh davri bolaning o’zini anglash jarayonida muhim bosqich hisoblanadi. Bu davrda:

- ✓ bola o’zining individual xususiyatlarini anglay boshlaydi
- ✓ o’z yutuq va kamchiliklarini sezadi
- ✓ ijtimoiy rollarni idrok etadi
- ✓ tengdoshlari bilan o’zini taqqoslaydi

Shu bilan birga, bolaning o’ziga bergan bahosi hali barqaror emas va u kattalar fikriga sezilarli darajada bog’liq bo’ladi. Shu sababli pedagog va ota-onalarning munosabati hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida quyidagi yondashuvlar ustuvor hisoblanadi:

- ✓ shaxsga yo’naltirilgan ta’lim
- ✓ kompetensiyaviy yondashuv
- ✓ interfaol metodlar
- ✓ ijtimoiy-hissiy rivojlanishga e’tibor

Bu yondashuvlar bolani faol subyekt sifatida shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, interfaol metodlar bolaning o’z fikrini ifodalash, o’zini anglash va refleksiya qilish imkoniyatlarini kengaytiradi.

Interfaol metodlar – bu bolani faol ishtirokchi sifatida jalb etuvchi pedagogik usullardir. Ular quyidagi afzalliklarga ega:

- ✓ o’quv jarayonini faollashtiradi
- ✓ mustaqil fikrlashni rivojlantiradi
- ✓ ijtimoiy muloqotni kuchaytiradi
- ✓ o’zini anglashni chuqurlashtiradi

Ayniqsa quyidagi metodlar samarali hisoblanadi:

- ✓ rolli o’yinlar
- ✓ muammoli vaziyatlar
- ✓ guruhli ishlash
- ✓ refleksiya mashg’ulotlari

Amaliyotda quyidagi muammolar kuzatilmoqda:

- ✓ Individual yondashuvning yetarli emasligi
- ✓ Pedagoglarning metodik tayyorgarligi pastligi
- ✓ Raqamli muhit ta’siri (“virtual Men”)
- ✓ Oilaviy tarbiyada nomuvofiqlik

Bu muammolar bolaning o’zini noto’g’ri baholashiga yoki past o’zini anglash darajasiga olib kelishi mumkin.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, “Men” konsepsiyasining shakllanishi ko’p omilli jarayon bo’lib, u quyidagilarga bog’liq:

- ✓ pedagogik muhit

- ✓ ijtimoiy munosabatlar
- ✓ faoliyat turi
- ✓ muloqot sifati

Interfaol metodlar aynan shu omillarni uyg'unlashtiradi va bolaning ichki rivojlanish jarayonini faollashtiradi. Quyidagi yo'nalishlarda ish olib borish maqsadga muvofiq:

- ✓ interfaol metodlarni keng joriy etish
- ✓ refleksiv faoliyatni rivojlantirish
- ✓ pedagoglar malakasini oshirish
- ✓ ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish
- ✓ ijobiy psixologik muhit yaratish

**Tadqiqot metodologiyasi.** Davlat o'quv dasturining bosh mavzusi hisoblanadi. Fikrimiz dalili sifatida Davlat o'quv dasturining 3-bobi maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv bo'lib, 3-bobning 1-paragrafi Maktabgacha yoshdagi (6-7 yosh) bolaning tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishni ko'zda tutadi va unda 4 ta asosiy kompetensiyalar kommunikativ, ijtimoiy, shaxsiy (“Men” konsepsiyasini qurish), bilish kompetensiyalari keltirib o'tilgan.

Davlat o'quv dasturining 3-bobining 2-paragrafi bolaning rivojlanish sohalari kompetensiyalari, Davlat o'quv dastur bunda 5 ta rivojlanish sohalarning kompetensiyalari ko'rsatib o'tilgan. “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi kompetensiyalarida quyidagilar nazarda tutilgan:

- o'z “Men”i va boshqa insonlarning hayotiy faoliyat muhitidagi roli to'g'risida tasavvurga ega bo'ladi;
- o'z hissiyotlarini boshqaradi va ularni vaziyatga mos ravishda ifodalaydi;
- o'zgalarning hissiyotlarini farqlaydi va ularga mos ravishda javob beradi;
- kattalar va tengdoshlar bilan vaziyatga mos ravishda muloqot qiladi;
- murakkab vaziyatlardan chiqishning amaliy yo'llarini topadi. [6].

Ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan davlat talablarining 3-bobi davlat talablarining asosiy prinsiplari bo'lib, unda “Men” konsepsiyasi va shaxsiy ta'limini yaratishda bolaning faol roli asosiy prinsiplardan biri sifatida keltirib o'tilgan. Shuningdek, davlat talablarining 4-bobi tarkibiy qismida 5 ta rivojlanish sohasining ikkinchi sohasi “Ijtimoiy-hissiy rivojlanish” sohasi quyidagi kichik sohalardan iborat.”

1. “Men” konsepsiyasi;
2. Hissiyotlar va ularni boshqarish;
3. Ijtimoiylashuv, kattalar va tengdoshlar bilan muloqot.

Tarbiyalanuvchilarda “Men” konsepsiyasini shakllantirish o'z-o'zidan va yakka holda amalga oshiriladigan ish emas, shu bilan birga hech bir rivojlanish sohasi yakka holda rivojlanmaydi, har bir rivojlanish sohasi va uning kichik sohasini rivojlanishida boshqa rivojlanish sohalarning kichik sohasini ham rivojlanganligi juda katta ahamiyatga ega. Yuqoridagi ma'lumotlarga asosan Davlat talablari va Davlat o'quv dasturlari tarbiyalanuvchilarda “Men” konsepsiyasi shakllantirish uchun me'yoriy –huquqiy hujjat hisoblanadi va ana shu hujjatlarga asosan shaxsni har tomonlama kamol toptirish uchun amaliy faoliyatda samaradorlikka erishish uchun ilmiy tadqiqotlar amalga oshiriladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Hozirgi davrda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, tarbiyalanuvchilarda “Men” konsepsiyasini shakllantirish jarayoni an'anaviy yondashuvlardan zamonaviy interfaol va innovatsion metodlarga o'tish bilan tavsiflanadi. Ayniqsa, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari, refleksiya, muammoli vaziyatlar va o'yin faoliyati orqali bolalarda o'zini anglash jarayoni samaraliroq kechadi [7]. Biroq amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ba'zi ta'lim muassasalarida bolalarning individual fikri yetarli darajada e'tiborga olinmaydi, bu esa ularning o'ziga bo'lgan ishonchini pasaytiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar ta'sirida shakllanayotgan “virtual Men” obrazlari bolalarning real o'zlik tasavvurlari bilan nomutanosiblikni yuzaga keltirishi mumkin. Bu esa psixologik ziddiyatlarga olib keladi. L.S. Vygotskiy ta'kidlaganidek, bolaning rivojlanishida ijtimoiy muhit va muloqot hal qiluvchi omil hisoblanadi [8]. Shu sababli tarbiyalanuvchilarda “Men” konsepsiyasini shakllantirish jarayonida kommunikativ faoliyatni rivojlantirish, ijobiy psixologik muhit yaratish muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik yondashuvlar tahlili shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlardan foydalanish bolalarning o'zini anglash darajasini oshiradi, ularning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi va ijtimoiy faolligini kuchaytiradi.

Ayniqsa, rolli o'yinlar, guruhiy ishlash va refleksiya mashg'ulotlari bolalarda o'z “Men”ini anglash jarayonini faollashtiradi [9]. Interfaol metodlar bolalarning faol ishtirokini ta'minlab, ularni ta'lim jarayonining subyekti sifatida namoyon etadi. Masalan, rolli o'yinlar orqali bola turli ijtimoiy rollarni bajarib, o'zini anglash imkoniyatiga ega bo'ladi. Guruhiy ishlash esa bolalarda hamkorlik, muloqot va o'z

fikrini himoya qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Refleksiya mashg‘ulotlari esa bolaning o‘z faoliyatini tahlil qilishiga yordam beradi.

Biroq amaliyotda ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan, ba’zi ta’lim muassasalarida bolalarning individual fikri yetarli darajada e’tiborga olinmaydi, bu esa ularning o‘ziga bo‘lgan ishonchini pasaytiradi. Shuningdek, pedagoglarning hammasi ham zamonaviy metodlarni to‘liq qo‘llay olmaydi. Bu esa “Men” konsepsiyasining to‘laqonli shakllanmasligiga olib keladi.

Yana bir dolzarb masala – raqamli texnologiyalar ta’siridir. Bugungi bolalar erta yoshdan internet va ijtimoiy tarmoqlar bilan tanish bo‘lmoqda. Natijada “virtual Men” tushunchasi shakllanmoqda. Bu holat ayrim hollarda bolaning real o‘zligini noto‘g‘ri baholashiga sabab bo‘lishi mumkin. Shu bois pedagog va ota-onalar bolalarni to‘g‘ri yo‘naltirishi zarur.

Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ijobiy psixologik muhit yaratilgan ta’lim jarayonida bolalarda o‘ziga ishonch, tashabbuskorlik va mustaqil fikrlash darajasi yuqori bo‘ladi. Aksincha, tanqid va bosim ustun bo‘lgan muhitda bolalarda past o‘zini baholash va ijtimoiy passivlik kuzatiladi.

Shu sababli tarbiyalanuvchilarda “Men” konsepsiyasini shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda amalga oshirilishi maqsadga muvofiq:

- shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish;
- interfaol metodlardan keng foydalanish;
- ijobiy psixologik muhit yaratish;
- ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish;
- pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish.

Tadqiqotlar natijalariga ko‘ra, zamonaviy ta’lim muhitida “Men” konsepsiyasini shakllantirish quyidagi yo‘nalishlarda samarali amalga oshirilmoqda: shaxsga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish, ijobiy psixologik muhit yaratish, interfaol metodlardan keng foydalanish hamda ota-onalar bilan hamkorlikni kuchaytirish. Shu bilan birga, mazkur jarayonni takomillashtirish uchun pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirish ham muhim ahamiyatga ega.

**Xulosa** qilib aytganda, tarbiyalanuvchilarda “Men” konsepsiyasini shakllantirishning ayni kundagi holati ijobiy tendensiyalar bilan birga muayyan muammolarni ham o‘z ichiga oladi. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo‘llash, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvni kuchaytirish va bolalarning individual xususiyatlarini hisobga olish zarur. Bu esa kelajakda barkamol, mustaqil fikrlaydigan va ijtimoiy faol shaxsni tarbiyalashga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni. – T., 2019.
2. Mirziyoyev Sh.M. Nutq va ma’ruzalar to‘plami. – T.: O‘zbekiston, 2020.
3. G‘oziyev E.G‘. Umumiy psixologiya. – T., 2019.
4. Burns R.B. Self-concept development and education. – London, 1982.
5. Rogers C.R. On Becoming a Person. – Boston, 1961.
6. “Ilk qadam” maktabgacha ta’lim tashkilotining davlat o‘quv dasturi. Toshkent.2022-y.17-bet <https://www.unicef.org/uzbekistan/media/3771/file/yil>
7. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – T., 2012.
8. Выготский Л.С. Психология развития ребёнка. – М., 1984.
9. Tolipov O‘., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar. – T., 2010.

## TILLARNI O‘QITISH TEXNOLOGIYALARI

### INGLIZ TILIDA XUSHMUOMALALIKNI O‘RGATISHDA NUTQ AKTI NAZARIYASIDAN FOYDALANISH

*Niyazova Feride Seyful qizi,*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti*  
*Xorijiy til nazariyasi kafedrasida katta o‘qituvchisi*  
*Toshtemirova Sabrina Toshpulat qizi,*  
*Shahrisabz davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti*  
*Xorijiy til va adabiyoti (Ingliz tili) yo‘nalishi 4-bosqich talabasi*  
*toshtemirovas303@gmail.com*

*Ushbu maqolada ingliz tilini o‘qitishda maktab o‘quvchilarining xushmuomalalik (politeness) kompetensiyasini rivojlantirishda nutq akti nazariyasidan foydalanish samaradorligi o‘rganildi. Tadqiqotda Austin va Searle tomonidan ishlab chiqilgan nutq akti nazariyasi hamda Brown va Levinsonning xushmuomalalik modeli nazariy asos sifatida olindi. Mazkur yondashuv orqali o‘quvchilarning real kommunikativ vaziyatlarda til birliklarini to‘g‘ri va maqsadga muvofiq qo‘llash ko‘nikmalarini shakllantirish imkoniyatlari tahlil qilindi. Tadqiqot 8-sinf o‘quvchilari ishtirokida kvazi-eksperimental dizayn asosida amalga oshirildi. O‘quv jarayonida rol o‘yinlari, situatsion dialoglar va nutq aktlariga asoslangan mashg‘ulotlar qo‘llanildi. Natijalar nutq aktiga asoslangan yondashuv o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini, xususan, iltimos, kechirim so‘rash, taklif va rad etish kabi nutq harakatlarini to‘g‘ri qo‘llash qobiliyatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.*

***Kalit so‘zlar:** nutq akti, xushmuomalalik, pragmatika, lingvistik, ingliz tili o‘qitish, o‘qitish metodlari, pragmatik kompetensiya, kommunikativ kompetensiya.*

### ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕОРИИ РЕЧЕВЫХ АКТОВ ДЛЯ ОБУЧЕНИЯ ВЕЖЛИВОСТИ В АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКЕ

*В данной статье рассматривается эффективность использования теории речевых актов в развитии компетенции вежливости у школьников при обучении английскому языку. В качестве теоретической основы исследования использованы теория речевых актов, разработанная Остином и Серлем, а также модель вежливости Брауна и Левинсона. В работе анализируются возможности формирования у учащихся навыков уместного и целенаправленного использования языковых средств в реальных коммуникативных ситуациях. Исследование было проведено на основе квази-экспериментального дизайна с участием учащихся 8-х классов. В процессе обучения применялись ролевые игры, ситуативные диалоги и задания, основанные на речевых актах. Полученные результаты показали, что подход, основанный на теории речевых актов, способствует значительному повышению уровня прагматической компетенции учащихся, в частности, их способности корректно использовать просьбы, извинения, приглашения и отказ в различных ситуациях общения.*

***Ключевые слова:** речевой акт, вежливость, прагматика, лингвистика, преподавание английского языка, методы обучения, прагматическая компетенция, коммуникативная компетенция.*

### USING SPEECH ACT THEORY TO TEACH POLITENESS IN ENGLISH

*This article examines the effectiveness of using speech act theory in developing politeness competence among school students in English language teaching. The theoretical framework of the study is based on the speech act theory developed by Austin and Searle, as well as Brown and Levinson’s politeness model. The study analyzes the possibilities of developing learners’ ability to use language appropriately and purposefully in real communicative situations. The research was conducted using a quasi-experimental design involving 8th-grade students. During the instructional process, role plays, situational dialogues, and speech act-based activities were applied. The results demonstrated that the speech act-based approach*

*significantly improves students' pragmatic competence, particularly their ability to appropriately use requests, apologies, invitations, and refusals in different communicative contexts.*

**Keywords:** *speech act, politeness, pragmatics, linguistics, English language teaching, teaching methods, pragmatic competence, communicative competence.*

**Kirish.** Globallashuv jarayonining jadallashuvi va xalqaro kommunikatsiyaning kengayishi ingliz tilini o'qitishda nafaqat lingvistik bilimlarni, balki pragmatik va sotsiolingvistik kompetensiyalarni ham shakllantirish zaruratini keltirib chiqarmoqda. Hozirgi zamon ta'lim tizimida o'quvchilarning chet tilida erkin muloqot qila olishi, fikrini madaniy va vaziyatga mos ravishda ifoda etishi muhim ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi [1]. Shu nuqtayi nazardan, xushmuomalalik (politeness) kompetensiyasi chet tilini o'qitish jarayonining ajralmas tarkibiy qismi sifatida e'tirof etiladi. Ingliz tilida xushmuomalalikni to'g'ri qo'llash kommunikativ muvaffaqiyatni ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Chunki bir xil mazmundagi fikr turli shakllarda ifodalanishi mumkin va uning qaysi shaklda qo'llanishi muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi munosabatga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Masalan, “Open the door” va “Could you please open the door?” gaplari semantik jihatdan bir maqsadni ifodalasa-da, pragmatik nuqtayi nazardan ular orasida sezilarli farq bor. Ikkinchi variant xushmuomalalik strategiyalariga mos bo'lib, suhbatdoshning ijtimoiy mavqeini va kommunikativ vaziyatni hisobga oladi [2].

Tilshunoslikda bunday hodisalarni o'rganishda nutq akti nazariyasi muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Ushbu nazariya ilk bor J. L. Austin tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u til birliklarini nafaqat axborot uzatuvchi vosita, balki muayyan harakatni amalga oshiruvchi vosita sifatida talqin etgan [3]. Keyinchalik J. Searle ushbu nazariyani rivojlantirib, nutq aktlarini iltimos, buyruq, taklif, kechirim, va'da kabi turlarga ajratgan [4]. Mazkur tasnif ingliz tilini o'qitishda o'quvchilarga real kommunikativ vaziyatlarda maqsadga muvofiq nutq birliklarini tanlashni o'rgatishda katta ahamiyatga ega. Bundan tashqari, Brown va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan xushmuomalalik nazariyasi nutq jarayonida “face” tushunchasi, ya'ni suhbatdoshning shaxsiy hurmati va ijtimoiy maqomini saqlash strategiyalarini yoritib beradi [5]. Ushbu nazariya asosida xushmuomalalikning ijobiy va salbiy strategiyalari farqlanadi hamda ularni ingliz tilini o'qitishda qo'llash imkoniyatlari kengdir. Maktab o'quvchilari orasida ingliz tilida xushmuomalalik formulalarini to'g'ri qo'llash ko'nikmasini shakllantirish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Ko'pincha o'quvchilar grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzalarda, pragmatik nuqtayi nazardan noo'rin ifodalarni qo'llab, kommunikativ noqulayliklarga sabab bo'lishi mumkin. Shu bois, nutq akti nazariyasiga asoslangan o'qitish metodlari orqali o'quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirish ilmiy va amaliy jihatdan muhimdir.

Mazkur tadqiqotning maqsadi - 8-sinf o'quvchilarida ingliz tilida xushmuomalalik kompetensiyasini rivojlantirishda nutq akti nazariyasidan foydalanish samaradorligini aniqlash va ushbu yondashuvning amaliy natijalarini tahlil qilishdan iborat.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Ingliz tilida xushmuomalalikni o'rgatish masalasi tilshunoslik va metodika sohasida keng o'rganilgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda olib borilgan tadqiqotlar asosan pragmatik kompetensiyani rivojlantirish, nutq aktlari va xushmuomalalik strategiyalarini o'rganishga qaratilgan.

Nutq akti nazariyasi ilk bor J. L. Austin tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u til birliklarini faqat axborot uzatuvchi vosita emas, balki muayyan harakatni amalga oshiruvchi vosita sifatida talqin etadi [2]. Austin nutqni uch darajaga - lokutsion, illokutsion va perlokutsion aktlarga ajratadi. Ushbu yondashuv keyinchalik J. Searle tomonidan rivojlantirilib, nutq aktlari iltimos, buyruq, taklif, kechirim va va'da kabi funksional turlarga ajratilgan [3]. Searle nazariyasi ayniqsa til o'qitish metodikasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, u o'quvchilarga nutqning kommunikativ maqsadini tushunishga yordam beradi.

Xushmuomalalik nazariyasi esa P. Brown va S. Levinson tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, u muloqot jarayonida “face” tushunchasiga asoslanadi [4]. Unga ko'ra, har bir inson o'zining ijtimoiy qadr-qimmatini saqlashga intiladi va kommunikatsiyada turli xushmuomalalik strategiyalaridan foydalanadi. Brown va Levinson xushmuomalalikni ijobiy va salbiy strategiyalarga ajratib, ularning turli kommunikativ vaziyatlarda qo'llanishini izohlaydi.

Keyingi tadqiqotlarda G. Leech pragmatik prinsiplar va xushmuomalalik qoidalarini yanada kengaytirib, nutqiy odob normalarini tizimli ravishda tahlil qilgan [6]. Uning ishlari xushmuomalalikni tilning muhim pragmatik komponenti sifatida qarash imkonini beradi.

Til o'qitish jarayonida pragmatik kompetensiyani rivojlantirish masalasi D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya tushunchasi bilan chambarchas bog'liqdir [1]. Hymes fikriga ko'ra, til o'rganish nafaqat grammatik qoidalarni bilish, balki ularni qachon va qanday qo'llashni bilishni ham o'z ichiga oladi.

Zamonaviy tadqiqotlarda pragmatik kompetensiyani o‘rgatish imkoniyatlari K. Bardovi-Harlig va G. Kasper tomonidan chuqur o‘rganilgan [10; 11]. Ular o‘z ishlarida pragmatik kompetensiyani maxsus o‘qitish orqali rivojlantirish mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab bergan. Shuningdek, Rose va Kasper (2001) pragmatikani o‘qitish bo‘yicha metodik tavsiyalarni ishlab chiqqan [12].

Yule (1996) va Cutting (2002) kabi olimlar esa pragmatika va nutqiy muloqotning nazariy asoslarini yoritib, nutq aktlari va xushmuomalalik kategoriyalarini tushuntirishda muhim hissa qo‘shgan [7; 8].

Shu bilan birga, ingliz tilini o‘qitish metodikasida kommunikativ yondashuvni rivojlantirish bo‘yicha Richards va Rodgers tomonidan olib borilgan tadqiqotlar ham muhim ahamiyat kasb etadi [9]. Ular o‘qitish jarayonida real kommunikativ vaziyatlarga asoslangan metodlardan foydalanish zarurligini ta’kidlaydi.

Yuqoridagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, nutq akti nazariyasi va xushmuomalalik strategiyalarini o‘qitish o‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Biroq, maktab sharoitida, ayniqsa o‘rta sinf o‘quvchilari bilan olib borilgan amaliy tadqiqotlar yetarli darajada emas. Shu sababli, mazkur tadqiqot aynan maktab o‘quvchilari misolida nutq akti nazariyasini qo‘llash samaradorligini aniqlashga qaratilganligi bilan ahamiyatlidir.

**Metodlar.** Tadqiqot kvazi-eksperimental dizayn asosida amalga oshirildi. Ikki guruh - eksperimental va nazorat guruhlari ishtirok etdi. Har bir guruhda 8-sinf umumta’lim maktabi o‘quvchilaridan 20 nafardan, jami 40 nafar o‘quvchi qatnashdi.

**Ishtirokchilar.** Ishtirokchilar Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi 82-umumta’lim maktabining 8-sinf o‘quvchilari bo‘lib, ularning ingliz tili darajasi A2–B1 oralig‘ida edi. O‘quvchilar 13–14 yosh oralig‘ida bo‘lib, til bilish darajasi oldindan tekshirib tenglashtirilgan.

**Materiallar.** Tadqiqot jarayonida quyidagi materiallardan foydalanildi: Kundalik hayotiy vaziyatlarga asoslangan dialoglar Rol o‘yinlari uchun ssenariylar Nutq akti kartochkalari (request, apology, refusal, invitation) Vizual materiallar (rasmlar va slaydlar) Pre-test va post-test topshiriqlari.

**Jarayon.** Tadqiqot hafta davom etdi:

1-hafta: O‘quvchilarning boshlang‘ich pragmatik kompetensiyasi pre-test orqali baholandi.

2-hafta: Eksperimental guruhda nutq akti nazariyasiga asoslangan interaktiv mashg‘ulotlar o‘tkazildi. O‘quvchilar real hayotiy vaziyatlarda xushmuomalalik strategiyalarini qo‘llashni mashq qildilar. Nazorat guruhi esa an’anaviy darslik asosida o‘qitildi.

3-hafta: Post-test o‘tkazildi va natijalar taqqoslandi. Ma’lumotlarni tahlil qilish. Natijalar miqdoriy va sifat tahlili asosida qayta ishlandi. O‘quvchilarning pragmatik kompetensiyasi 10 ballik tizimda baholandi. O‘rtacha ball va foiz ko‘rsatkichlari asosida guruhlar taqqoslandi.

**Natijalar.** Tadqiqot natijalari quyidagi jadvalda aks ettirilgan:

Guruh	Pre-test (o‘rtacha)	Post test (o‘rtacha)	O‘sish (%)
Eksperimental	4.7	8.4	78.7%
Nazorat	4.8	6.2	29.1%

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, eksperimental guruhda sezilarli o‘sish kuzatildi. Qo‘shimcha natijalar:

- 87% o‘quvchi dialoglarda xushmuomalalik iboralarini to‘g‘ri qo‘llay oldi.
- 80% o‘quvchi real vaziyatlarda o‘zini ishonchliroq his qildi.
- Rol o‘yinlarida faollik 2 barobar oshdi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari nutq akti nazariyasiga asoslangan o‘qitish yondashuvi maktab o‘quvchilarida ingliz tilida xushmuomalalik kompetensiyasini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega ekanligini ko‘rsatdi. Eksperimental guruhda kuzatilgan sezilarli o‘sish o‘quvchilarning nafaqat lingvistik bilimlari, balki pragmatik ko‘nikmalarining ham rivojlanganini tasdiqlaydi. Bu holat nutq akti nazariyasining tilni kommunikativ faoliyat sifatida talqin qiluvchi yondashuviga to‘liq mos keladi [3; 4].

Natijalarga ko‘ra, o‘quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarda nutq aktlari (iltimos, kechirim so‘rash, taklif, rad etish) vaziyatga mos holda qo‘llashni o‘zlashtira boshlagan. Bu esa ularning muloqot jarayonida suhbatdoshning ijtimoiy maqomi, masofa darajasi va vaziyat xususiyatlarini hisobga olish ko‘nikmasi shakllanganini ko‘rsatadi. Mazkur natijalar Brown va Levinsonning xushmuomalalik strategiyalari haqidagi nazariy qarashlari bilan hamohangdir [5]. Shuningdek, rol o‘yinlari va situatsion dialoglar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar o‘quvchilarning faol ishtirokini ta’minladi va ularning o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyasini oshirdi. Bunday interaktiv metodlar orqali o‘quvchilar til birliklarini mexanik tarzda emas, balki real hayotiy kontekstda qo‘llashni o‘rgandilar. Bu esa kommunikativ yondashuvning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi [9].

Eksperimental guruhdagi yuqori natijalarni yana shunday izohlash mumkinki, nutq akti asosida tashkil etilgan darslarda o‘quvchilar aniq kommunikativ maqsad bilan faoliyat olib bordilar. Ya’ni ular gapni grammatik jihatdan to‘g‘ri tuzish bilan cheklanmay, uning qanday vaziyatda va qanday shaklda qo‘llanishini ham anglay boshladilar. Bu esa pragmatik kompetensiyaning asosiy komponenti hisoblanadi. Biroq, tadqiqot

natijalarini umumlashtirishda ayrim cheklovlarni ham inobatga olish zarur. Xususan, tadqiqotning qisqa muddatda (3 hafta) o‘tkazilgani o‘quvchilarning uzoq muddatli rivojlanishini to‘liq aks ettirmasligi mumkin. Shuningdek, ishtirokchilar sonining cheklanganligi ham natijalarning umumlashtirilish darajasiga ta‘sir ko‘rsatadi. Bundan tashqari, tadqiqot faqat bitta maktab sharoitida o‘tkazilganligi sababli turli hududlardagi o‘quvchilar natijalari bilan taqqoslash imkoniyati mavjud emas. Shunga qaramay, olingan natijalar nutq akti nazariyasini ingliz tilini o‘qitish jarayoniga integratsiya qilish o‘quvchilarning kommunikativ va pragmatik kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini ko‘rsatadi. Bu esa mazkur yondashuvni amaliyotda kengroq qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitishda nutq akti nazariyasiga asoslangan yondashuv maktab o‘quvchilarining xushmuomalalik (politeness) kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita ekanligini tasdiqladi. Eksperimental guruhda kuzatilgan yuqori ko‘rsatkichlar o‘quvchilarning nafaqat grammatik va leksik bilimlari, balki pragmatik ko‘nikmalari ham sezilarli darajada rivojlanganini ko‘rsatdi. Xususan, o‘quvchilar turli kommunikativ vaziyatlarda iltimos qilish, kechirim so‘rash, taklif bildirish va rad etish kabi nutq aktlarini vaziyatga mos ravishda qo‘llashni o‘zlashtirdilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nutq akti nazariyasini o‘quv jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini yanada kompleks rivojlantirish mumkin. Bu yondashuv o‘quvchilarda til birliklarini nafaqat formal jihatdan to‘g‘ri qo‘llash, balki ularni kommunikativ niyat va ijtimoiy kontekstga moslashtirish ko‘nikmasini ham shakllantiradi. Shu jihatdan, mazkur metod zamonaviy kommunikativ yondashuv tamoyillariga to‘liq mos keladi.

Amaliy nuqtayi nazardan, tadqiqot natijalari ingliz tili o‘qituvchilariga dars jarayonida nutq aktlariga asoslangan mashg‘ulotlardan keng foydalanishni tavsiya etadi. Ayniqsa, rol o‘yinlari, situatsion dialoglar va real hayotiy kommunikativ vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar o‘quvchilarning faolligini oshirish va ularning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Shu bilan birga, kelgusidagi tadqiqotlarda ushbu yondashuvni turli yosh guruhlari, turli ta‘lim muassasalari va uzoq muddatli o‘quv jarayonlari doirasida o‘rganish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, raqamli ta‘lim texnologiyalari va interaktiv platformalar bilan integratsiya qilish orqali nutq akti nazariyasining amaliy samaradorligini yanada oshirish imkoniyatlari mavjud. Umuman olganda, nutq akti nazariyasiga asoslangan o‘qitish modeli ingliz tilini o‘rganishda o‘quvchilarning pragmatik va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi hamda uni zamonaviy ta‘lim jarayoniga tatbiq etish ilmiy va amaliy jihatdan dolzarb hisoblanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence.
2. Austin, J. L. (1962). How to Do Things with Words. Oxford University Press.
3. Searle, J. R. (1969). Speech Acts. Cambridge University Press.
4. Brown, P., & Levinson, S. C. (1987). Politeness: Some Universals in Language Usage.
5. Krashen, S. (1985). The Input Hypothesis.
6. Leech, G. (1983). Principles of Pragmatics.
7. Yule, G. (1996). Pragmatics.
8. Thomas, J. (1995). Meaning in Interaction.
9. Richards, J. C., & Rodgers, T. (2001). Approaches and Methods in Language Teaching.
10. Kasper, G. (1997). Can Pragmatic Competence Be Taught?
11. Bardovi-Harlig, K. (2001). Pragmatics in SLA.
12. Rose, K., & Kasper, G. (2001). Pragmatics in Language Teaching.
13. Cohen, A. D. (2005). Strategies in Learning and Using Language.
14. Cutting, J. (2002). Pragmatics and Discourse.

## O‘ZBEK VA XORIJIY TILLARNING O‘ZARO INTEGRATSIYASI

*Xidirov Xolmurod Norimovich,*

*O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti dotsenti,  
siyosiy fanlar nomzodi*

*Xidirova Sarvinoz Mahmudjon qizi,*

*Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti*

*Ushbu maqolada o‘zbek va xorijiy tillarning ta’lim amaliyotida o‘zaro integratsiya qilinishi, uning o‘quvchilarning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda zamonaviy ta’lim jarayonidagi o‘rni tahlil qilinadi. Bugungi globallashtirish sharoitida ona tilini chuqur o‘rganish bilan bir qatorda xorijiy tillarni egallash ham muhim zaruratga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, o‘zbek tili va xorijiy tillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni ta’lim jarayonida to‘g‘ri tashkil etish o‘quvchilarning lug‘at boyligi, nutqiy faolligi, madaniyatlararo muloqot ko‘nikmalari va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Maqolada tillar integratsiyasining nazariy asoslari, amaliy imkoniyatlari, dars jarayonida qo‘llaniladigan metodlar va ularning samaradorligi haqida fikr yuritiladi.*

***Kalit so‘zlar:** ko‘p tilli ta’lim, zamonaviy metodika, til o‘qitish, integratsiya, o‘zbek tili, xorijiy tillar, ta’lim amaliyoti, til kompetensiyasi, madaniyatlararo muloqot, kommunikativ yondashuv.*

## ВЗАИМНАЯ ИНТЕГРАЦИЯ УЗБЕКСКОГО И ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ

*В данной статье анализируется интеграция узбекского и иностранных языков в образовательном процессе, её значение в развитии языковой компетенции обучающихся, а также её роль в современной системе образования. В условиях глобализации наряду с глубоким освоением родного языка овладение иностранными языками становится важной необходимостью. В этой связи эффективная организация взаимосвязи между узбекским и иностранными языками в образовательном процессе способствует расширению словарного запаса обучающихся, развитию их речевой активности, формированию навыков межкультурной коммуникации и совершенствованию критического мышления. В статье освещаются теоретические основы интеграции языков, её практические возможности, а также инновационные методы, применяемые в учебном процессе, и их эффективность.*

***Ключевые слова:** многоязычное образование, современная методика, обучение языкам, интеграция, узбекский язык, иностранные языки, образовательная практика, языковая компетенция, межкультурная коммуникация, коммуникативный подход.*

## MUTUAL INTEGRATION OF THE UZBEK AND FOREIGN LANGUAGES

*This article analyzes the integration of the Uzbek and foreign languages in the educational process, its significance for the development of students' linguistic competence, and its role in the modern education system. In the context of globalization, alongside mastering the native language, acquiring foreign languages has become an essential necessity. From this perspective, the effective organization of the interrelation between the Uzbek and foreign languages in the educational process contributes to the expansion of students' vocabulary, the development of their communicative activity, the formation of intercultural communication skills, and the enhancement of critical thinking abilities. The article highlights the theoretical foundations of language integration, its practical opportunities, as well as innovative methods applied in the teaching process and their effectiveness.*

***Keywords:** multilingual education, modern methodology, language teaching, integration, Uzbek language, foreign languages, educational practice, linguistic competence, intercultural communication, communicative approach.*

***Kirish.** Aytish mumkinki, bugungi kunda ta’lim tizimi oldida turgan muhim vazifalardan biri – yosh avlodni nafaqat milliy qadriyatlar va ona tiliga hurmat ruhida tarbiyalash, balki ularni jahon ilm-fani, madaniyati va axborot makoniga olib kirishdan iboratdir. Bu jarayonda o‘zbek tili va xorijiy tillarni o‘qitishning o‘zaro bog‘liq holda tashkil etilishi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir til inson tafakkuri, madaniyati va dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim vosita hisoblanadi.*

O‘zbek tili ta’lim jarayonida o‘quvchilarning milliy o‘zligini anglashi, fikrni aniq va mantiqiy ifodalashi, adabiy til me’yorlariga amal qilishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Xorijiy tillar esa o‘quvchilarga boshqa xalqlarning madaniyati, ilmiy yutuqlari va ijtimoiy hayoti bilan tanishish imkonini beradi. Shu sababli ona tili va xorijiy tillarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro integratsiyalashgan tarzda o‘qitish zamonaviy pedagogikaning dolzarb yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ta’lim amaliyotida tillar integratsiyasi o‘quvchilarning til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishini oshiradi, ularni mustaqil fikrlashga, solishtirishga, tahlil qilishga va muloqotga faol kirishishga undaydi. Masalan, o‘zbek va ingliz tillaridagi so‘z yasalishi, gap tuzilishi, iboralar yoki madaniy tushunchalarni qiyosiy o‘rganish orqali o‘quvchilar ikki tilning o‘xshash va farqli jihatlarini anglab boradilar. Bu esa nafaqat lingvistik bilimlarni mustahkamlaydi, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi.

O‘zbek va xorijiy tillarning ta’lim amaliyotidagi integratsiyasi bugungi kunda til o‘qitish metodikasining muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki zamonaviy ta’lim jarayonida til faqat aloqa vositasi sifatida emas, balki o‘quvchining tafakkuri, madaniy dunyoqarashi, ijtimoiy moslashuvi va akademik rivojlanishini ta’minlovchi asosiy omillardan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, ko‘p tilli jamiyatlarda ona tili va xorijiy tillarni bir-biridan ajratilgan holda emas, balki o‘zaro bog‘liq tarzda o‘qitish ta’lim samaradorligini oshiradi. UNESCO tomonidan ilgari surilgan ko‘p tilli ta’lim tamoyillarida ham ona tilida ta’lim olish va global tillarni o‘rganish o‘rtasida muvozanatni saqlash zarurligi ta’kidlanadi. Bu yondashuv o‘zbek va xorijiy tillarni integratsiyalashgan holda o‘qitishning nazariy asoslarini mustahkamlaydi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Til ta’limida integratsiya tushunchasi faqat ikki tilni yonma-yon o‘qitish degani emas. U o‘quvchining ona tilida shakllangan bilimlari, grammatik tushunchalari, lug‘aviy boyligi va madaniy tajribasidan xorijiy tilni o‘rganishda samarali foydalanishni anglatadi. Ba’zi tilshunos olimlarning fikricha lingvistik o‘zaro bog‘liqlik nazariyasiga ko‘ra, birinchi tilda rivojlangan akademik va kognitiv ko‘nikmalar ikkinchi tilni o‘zlashtirish jarayoniga ijobiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Demak, o‘quvchining o‘zbek tilidagi bilimlari xorijiy tilni o‘rganishda to‘siq emas, aksincha, muhim tayanch vazifasini bajaradi.

O‘zbek tili o‘quvchining milliy tafakkuri, madaniy o‘zligi va nutqiy tajribasini shakllantiruvchi asosiy til sifatida muhim ahamiyatga ega. Xorijiy tillar esa o‘quvchiga boshqa xalqlarning madaniyati, ijtimoiy hayoti, ilmiy yutuqlari va kommunikativ an’analari bilan tanishish imkonini beradi. Shu sababli o‘zbek va xorijiy tillarni ta’lim jarayonida bog‘lab o‘qitish o‘quvchilarda nafaqat lingvistik, balki madaniyatlararo kompetensiyani ham rivojlantiradi. “Council of Europe” tomonidan ishlab chiqilgan “CEFR Companion Volume” hujjatida ham til o‘rganishda plurilingual va pluricultural kompetensiyalar, ya’ni bir nechta til va madaniyatdan ongli foydalanish ko‘nikmalari muhim ekani ko‘rsatiladi.

Kommunikativ yondashuv nuqtayi nazaridan til o‘qitishning asosiy maqsadi o‘quvchini real muloqotga tayyorlashdir. Kanadalik lingvist olim Merrill Swain kommunikativ kompetensiyani faqat grammatik bilim bilan cheklamagan holda, ijtimoiy vaziyatga mos nutq qurish, muloqot strategiyalaridan foydalanish va til birliklarini mazmunli qo‘llash bilan bog‘laydi. Bu fikr o‘zbek va xorijiy tillarni integratsiyalashgan holda o‘qitish uchun muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Chunki o‘quvchi xorijiy tildagi ifodani o‘z ona tilidagi ma’no, vaziyat va madaniy kontekst bilan qiyoslaganda, uni chuqurroq tushunadi.

Masalan, ingliz tilidagi “respect”, “politeness”, “family values”, “hospitality” kabi tushunchalarni o‘zbek tilidagi “hurmat”, “xushmuomalalik”, “oila qadriyatlar”, “mehmondo‘stlik” kabi tushunchalar bilan solishtirish o‘quvchilarda madaniy sezgirlikni kuchaytiradi. Bunday qiyoslash orqali o‘quvchilar til faqat so‘z va grammatik qoidalardan iborat emasligini, balki har bir til ortida muayyan xalqning dunyoqarashi, qadriyatlar va ijtimoiy odatlari mavjudligini anglaydilar. Shu jihatdan integratsion yondashuv madaniyatlararo muloqotga tayyorlashning muhim vositasi sifatida namoyon bo‘ladi.

Adabiyotlarda xorijiy til darslarida ona tilidan foydalanish masalasi turlicha talqin qilinadi. An’anaviy grammatik-tarjima metodida ona tili asosiy tushuntirish vositasi sifatida ishlatilgan. Keyingi metodlarda, ayniqsa to‘g‘ridan-to‘g‘ri metod va audiolingval yondashuvda ona tilidan foydalanish cheklangan. Biroq zamonaviy tadqiqotlarda ona tilidan butunlay voz kechish emas, balki undan maqsadli va me’yorida foydalanish samarali ekanligi qayd etiladi. Britaniyalik lingvist olim V.Kuuk xorijiy til sinfidagi birinchi tilni mutlaqo chetga chiqarish haqidagi qarashni qayta ko‘rib chiqish zarurligini ta’kidlaydi

Ona tilidan to‘g‘ri foydalanish o‘quvchilarning murakkab grammatik mavzularni tezroq tushunishiga, yangi so‘zlarni mazmunan anglashiga va xorijiy til materialini o‘z tajribasi bilan bog‘lashiga yordam beradi. Masalan, ingliz tilidagi zamon shakllarini o‘rganishda o‘zbek tilidagi fe’l zamonlari bilan qiyoslash, egalik olmoshlarini o‘rganishda o‘zbek tilidagi egalik qo‘shimchalari bilan solishtirish yoki so‘z tartibini tushuntirishda ikki tilning sintaktik farqlarini ko‘rsatish o‘quvchilarning metalingvistik ongini, ya’ni til

birliklarini shunchaki muloqot vositasi sifatida emas, balki tahlil ob’ekti sifatida anglash, ular haqida fikr yuritish va ularni boshqara olish qobiliyatini rivojlantiradi. Va bu o’z navbatida o’quvchining til tizimini ongli ravishda tahlil qilish, qoidalarni tushunish va xatolarni o’zi aniqlash qobiliyatini kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Translanguaging nazariyasi, ya’ni ikki yoki undan ortiq tilni biladigan shaxslarning o’zlaridagi barcha til resurslaridan integratsiyalashgan holda, erkin va samarali foydalanish jarayoni ham tillarni ajratilgan tizimlar sifatida emas, balki o’quvchining umumiy kommunikativ resursi sifatida ko’rishga undaydi. Zero britaniyalik lingvist Li Wey translanguaging yondashuvini ikki yoki undan ortiq til resurslaridan tabiiy va mazmunli foydalanish jarayoni sifatida izohlaydi.

Bu yondashuvga ko’ra, o’quvchi dars jarayonida o’zbek tili, ingliz tili yoki boshqa xorijiy til elementlarini bir-biri bilan bog’lab fikrlashi mumkin. Bunday jarayon noto’g’ri deb baholanmasligi, aksincha, o’quvchining til resurslaridan faol foydalanish ko’nikmasi sifatida qaralishi lozim.

O’zbek va xorijiy tillarning integratsiyasi lug’at o’rgatish jarayonida ham muhim ahamiyatga ega. Tilshunos olim Paul Nation lug’at o’rganishda so’zning shakli, ma’nosi va qo’llanishini birgalikda o’zlashtirish muhimligini ta’kidlaydi. Shu nuqtayi nazardan, xorijiy tildagi yangi so’zlarni faqat tarjima qilish bilan cheklanmasdan, ularni o’zbek tilidagi ekvivalentlari, kontekstdagi ma’nosi, sinonimlari, antonimlari va madaniy qo’llanishi bilan birga o’rgatish maqsadga muvofiqdir. Masalan, ingliz tilidagi “home” va “house” so’zlarini o’zbek tilidagi “uy”, “xonadon”, “oila muhiti” kabi tushunchalar bilan solishtirish o’quvchiga so’zlarning semantik nozikliklarini anglashga yordam beradi.

Grammatikani o’qitishda ham integratsion yondashuv samarali hisoblanadi. O’zbek tilida so’z tartibi nisbatan erkin bo’lsa, ingliz tilida gap qurilishi ko’proq qat’iy tartibga asoslanadi. Masalan, “Men kitob o’qiyman” gapida o’zbek tilida ega, to’ldiruvchi va kesim tartibi mavjud bo’lsa, ingliz tilida “I read a book” shaklida ega, fe’l va to’ldiruvchi ketma-ketligi muhim ahamiyatga ega. Bunday qiyosiy tushuntirishlar o’quvchilarning xorijiy tilda gap tuzishdagi xatolarini kamaytiradi. Shuningdek, ikki til o’rtasidagi farqlarni anglash o’quvchilarda analitik fikrlashni ham rivojlantiradi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tahlillar natijalariga asoslanib aytish mumkinki, integratsion yondashuv dars jarayonini yanada jonli, mazmunli va interaktiv qiladi. O’quvchilar ikki tilni solishtirish orqali mavzuga faolroq kirishadilar, savollar beradilar, o’z fikrlarini bildiradilar va misollar keltiradilar. Bu esa kommunikativ yondashuv tamoyillariga mos keladi. Ba’zi olimlar kommunikativ kompetensiyani faqat grammatik to’g’rilik bilan emas, balki tilni ijtimoiy vaziyatga mos holda qo’llash, muloqot strategiyalaridan foydalanish va mazmunli fikr bildirish qobiliyati bilan bog’laydi. Demak, o’zbek va xorijiy tillarni integratsiyalashgan holda o’qitish o’quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini kengroq shakllantirishga imkon beradi.

Integratsion yondashuvning yana bir afzalligi shundaki, u o’quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi. Ikki tilni solishtirish jarayonida o’quvchi “nima uchun bu tilda bunday ifodalanadi?”, “nima uchun bu so’zning tarjimasi doim bir xil emas?”, “qaysi vaziyatda qaysi ifoda mos keladi?” kabi savollar ustida fikr yuritadi. Bu esa o’quvchini passiv yodlovchi emas, balki faol tahlil qiluvchi shaxs sifatida shakllantiradi. Shu jihatdan, integratsion yondashuv grammatik, kommunikativ, tarjimaviy, madaniyatlararo va reflektiv metodlarni birlashtirish imkonini beradi.

Biroq tahlillar jarayonida ayrim cheklovlar ham ko’zga tashlanadi. Birinchidan, barcha o’qituvchilar ham tillararo integratsiyani samarali tashkil etish bo’yicha yetarli metodik tayyorgarlikka ega bo’lmashligi mumkin. Ikkinchidan, darsliklarda o’zbek tili va xorijiy tilni qiyosiy o’rganishga yo’naltirilgan topshiriqlar yetarli darajada berilmagan bo’lishi mumkin. Uchinchidan, vaqt cheklovi sababli o’qituvchi har bir mavzuda chuqur qiyosiy tahlil o’tkazishga ulgurmasligi mumkin. To’rtinchidan, o’quvchilarning til darajasi turlicha bo’lgani uchun integratsion topshiriqlarni ularning yoshiga va bilim darajasiga moslashtirish talab etiladi.

Shunga qaramay, o’zbek va xorijiy tillarning ta’lim amaliyotidagi integratsiyasi samarali tashkil etilsa, u ta’lim jarayonining sifatini oshiradi. Buning uchun o’qituvchi ona tilidan to’g’ri foydalanish me’yorlarini bilishi, qiyosiy misollarni oldindan tayyorlashi, tarjima mashqlarini faqat so’zma-so’z tarjima sifatida emas, balki ma’no va kontekst tahlili sifatida tashkil etishi zarur. Shuningdek, madaniy tushunchalarni solishtirish, ikki tildagi iboralarni taqqoslash, kommunikativ vaziyatlarda turli til birliklarini qo’llash kabi mashqlar o’quvchilarning chuqurroq o’rganishiga yordam beradi.

Shuningdek, o’zbek va xorijiy tillarni integratsiyalashgan holda o’qitish o’qituvchidan puxta metodik tayyorgarlikni ham talab qiladi. O’qituvchi faqat ikki tilni bilishi bilan cheklanmasdan, ularning grammatik, leksik, madaniy va kommunikativ xususiyatlarini qiyosiy tahlil qila olishi kerak. Dars jarayonida qiyosiy misollar, tarjima mashqlari, ikki tilli dialoglar, madaniy solishtirishlar, muammoli vaziyatlar va kommunikativ topshiriqlardan samarali foydalanish zarur. Bunday faoliyat o’quvchilarning darsdagi faolligini oshiradi va til o’rganishga bo’lgan qiziqishini kuchaytiradi.

Kelgusida ushbu yoʻnalishda yanada kengroq amaliy tadqiqotlar olib borish maqsadga muvofiqdir. Xususan, oʻzbek va ingliz, oʻzbek va nemis, oʻzbek va fransuz tillarini qiyosiy oʻqitish boʻyicha maxsus topshiriqlar tizimini ishlab chiqish, darsliklarni integratsion yondashuv asosida takomillashtirish, oʻqituvchilar uchun metodik qoʻllanmalar yaratish va oʻquvchilarning natijalarini eksperimental asosda tahlil qilish muhim hisoblanadi.

**Xulosa** sifatida aytish mumkinki, oʻzbek va xorijiy tillarning taʼlim amaliyotidagi integratsiyasi nafaqat til oʻqitish samaradorligini oshiradi, balki oʻquvchilarning madaniy, intellektual va kommunikativ rivojlanishiga ham xizmat qiladi. Bu yondashuv oʻquvchining ona tilidagi bilimlarini qadrlaydi, xorijiy tilni ongli oʻzlashtirishga yordam beradi va taʼlim jarayonini yanada mazmunli, interaktiv hamda hayotiy qiladi. Shu sababli oʻzbek va xorijiy tillarni integratsiyalashgan holda oʻqitish zamonaviy taʼlim amaliyotida keng qoʻllanishi lozim boʻlgan samarali metodik yoʻnalishlardan biridir.

#### Adabiyotlar:

1. Council of Europe. Common European Framework of Reference for Languages: Learning, teaching, assessment - Companion volume. Strasbourg: Council of Europe Publishing. (2020).
2. Swain, M. Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. *Applied Linguistics*, 1(1), 1–47. (1980).
3. Cook, V. Using the first language in the classroom. (2001). *The Canadian Modern Language Review*, 57(3), 402–423.
4. UNESCO. Education in a multilingual world. Paris: UNESCO. (2003).
5. Nation, I. Learning vocabulary in another language. Cambridge: Cambridge University Press. (2001).
6. Li Wei. Translanguaging: Language, bilingualism and education. London: Palgrave Macmillan. (2014).

## ELEKTRON KORPUSLAR VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA INGLIZ TILINI O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Raxmatova Madina Abdumo‘min qizi,*

*O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

*FayzullayevaMadina007@gmail.com*

*Xolbo‘tayeva Moxinur Temirboy qizi,*

*O‘zbekiston Milliy pedagogika universiteti tayanch doktoranti*

*mohinurxolbotayeva3@gmail.com*

*Mazkur maqolada elektron korpuslar va raqamli texnologiyalar asosida ingliz tili grammatikasi, yozuv va leksikasini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi yoritiladi. Tadqiqotda korpusga asoslangan yondashuv, ma‘lumotlarga asoslangan o‘rganish, raqamli yozuv platformalari hamda elektron fikr-mulohaza vositalarining didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Grammatika, yozuv va leksikani integrallashgan holda o‘qitish talabalar grammatik aniqligi, yozma nutq sifati, leksik tanlovi va mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini rivojlantirishi asoslanadi. Maqolada mazkur yondashuvning metodik afzalliklari va amaliy qo‘llash istiqbollari ko‘rsatib beriladi.*

***Kalit so‘zlar:** elektron korpus, raqamli texnologiyalar, ingliz tili, grammatika, yozuv ko‘nikmasi, leksika, ma‘lumotlarga asoslangan o‘rganish, integrallashgan o‘qitish, raqamli feedback, metodika.*

## УСОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ АНГЛИЙСКОГО ЯЗЫКА НА ОСНОВЕ ЭЛЕКТРОННЫХ КОРПУСОВ И ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ

*В данной статье рассматривается совершенствование методики обучения грамматике, письму и лексике английского языка на основе электронных корпусов и цифровых технологий. В исследовании анализируются дидактические возможности корпусно-ориентированного подхода, обучение на основе данных, цифровых платформ для письма и электронных средств обратной связи. Обосновывается, что интегрированное обучение грамматике, письму и лексике способствует развитию грамматической точности, качества письменной речи, лексического выбора и навыков самостоятельного обучения студентов. В статье также раскрываются методические преимущества данного подхода и перспективы его практического применения.*

***Ключевые слова:** электронный корпус, цифровые технологии, английский язык, грамматика, письмо, лексика, обучение на основе данных, интегрированное обучение, цифровая обратная связь, методика.*

## IMPROVING ENGLISH TEACHING METHODOLOGY BASED ON ELECTRONIC CORPUSES AND DIGITAL TECHNOLOGIES

*This article examines the improvement of teaching English grammar, writing, and lexis through electronic corpora and digital technologies. The study analyzes the didactic potential of corpus-based instruction, data-driven learning, digital writing platforms, and electronic feedback tools. It argues that the integrated teaching of grammar, writing, and lexis contributes to the development of grammatical accuracy, writing quality, lexical choice, and students' autonomous learning skills. The article also highlights the methodological advantages of this approach and outlines its practical potential for more effective English language teaching in higher education.*

***Keywords:** electronic corpus, digital technologies, English language, grammar, writing skills, lexis, data-driven learning, integrated instruction, digital feedback, methodology.*

**Kirish.** Bugungi kunda oliy ta‘lim tizimini modernizatsiya qilish, ta‘lim sifati va natijadorligini oshirish, shuningdek, bo‘lajak mutaxassislarning xalqaro ta‘lim va kasbiy makonda raqobatbardoshligini ta‘minlash masalalari xorijiy tillarni o‘qitish metodikasiga yangicha yondashishni talab etmoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o‘qitishda grammatika, yozuv va leksik kompetensiyani alohida komponentlar sifatida emas, balki o‘zaro uzviy bog‘liq va bir-birini to‘ldiruvchi metodik tizim sifatida shakllantirish zarurati kuchaymoqda. Bu ehtiyoj, bir tomondan, akademik va kasbiy kommunikatsiyada grammatik to‘g‘rilik,

mazmun aniqligi va leksik moslikning muhimligi bilan, ikkinchi tomondan esa raqamli ta’lim vositalari hamda korpusga asoslangan o’qitish yondashuvlarining amaliy imkoniyatlari bilan belgilanadi [1].

O‘zbekiston Respublikasida ham ta’lim tizimini tubdan yangilash, oliy ta’lim mazmunini zamonaviy talablar asosida takomillashtirish va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son Farmoni bilan tasdiqlangan Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida ta’lim sifatini oshirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni kuchaytirish hamda ta’lim jarayoniga zamonaviy pedagogik texnologiyalarni tatbiq etish vazifalari ilgari surilgan [2]. Mazkur konsepsiya xorijiy tillarni o’qitishda ham mazmun, metod va vositalarni yangilash zaruratini kuchaytirdi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda sun‘iy intellekt va ma’lumotlarga asoslangan raqamli yechimlarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilayotgani ham mazkur mavzuning dolzarbligini oshirmoqda. Jumladan, Prezidentning 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-son qarori bilan sun‘iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi tasdiqlandi [3]. 2025-yil 10-iyuldagi 425-son qaror esa 2025–2026-yillarda sun‘iy intellekt texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha ustuvor loyihalarni belgilab berdi. Mazkur hujjatlar bevosita xorijiy til metodikasiga qaratilmagan bo‘lsa-da, ta’limda ma’lumotga asoslangan tahlil, raqamli platformalar, avtomatlashtirilgan tekshiruv va individual ta’lim trayektoriyalarini yaratish kabi yo‘nalishlarni kengaytirish uchun muhim konseptual zamin yaratadi. Shu ma’nodan elektron korpuslar va raqamli vositalar asosida ingliz tilini o’qitish metodikasini takomillashtirish bugungi raqamli pedagogika talablariga hamohangdir. Xalqaro metodik adabiyotlarda ham elektron korpuslarning ikkinchi tilni o’qitishdagi o‘rni tobora ortib borayotgani qayd etiladi. Ute Römer korpuslarning o‘quv materiallari yaratish, sillabus tuzish va auditoriyada bevosita ishlatishdagi metodik salohiyatini ko‘rsatadi [4]. Alex Boulton va Tom Cobbning 2017-yilgi meta-tahlili korpusga asoslangan data-driven learning yondashuvi turli o‘quv sharoitlarida ijobiy samara berishini umumlashtiradi. Ken Hyland esa ikkinchi til yozuvini grammatik to‘g‘rilik, maqsadga muvofiq leksik tanlov, matn tuzilishi, tahrir va refleksiya bilan chambarchas bog‘liq ko‘p bosqichli faoliyat sifatida talqin qiladi. Shundan kelib chiqib, elektron korpuslar yordamida tipik grammatik konstruksiyalar, kollokatsiyalar va kasbiy birliklarni autentik kontekstda o‘rgatish, raqamli platformalar orqali esa yozuv, tahrir va qayta ishlash jarayonlarini tashkil etish metodik jihatdan samarali yo‘nalish hisoblanadi.

Demak, O‘zbekistonda oliy ta’limni raqamlashtirish, xorijiy tillarni o’qitish sifatini oshirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan islohotlar, shuningdek, korpus lingvistikasi va ikkinchi til yozuvi bo‘yicha xalqaro ilmiy qarashlar elektron korpuslar va raqamli texnologiyalar asosida ingliz tili grammatika, yozuv va leksikasini o’qitish metodikasini takomillashtirish masalasini dolzarb ilmiy-amaliy muammo sifatida belgilaydi. Shu bois mazkur maqolada elektron korpuslar va raqamli vositalarning ingliz tilini integrallashgan holda o’qitishdagi metodik imkoniyatlarini yoritish maqsad qilib qo‘yiladi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Mazkur mavzuning dolzarbligi, avvalo, O‘zbekistonda oliy ta’limni modernizatsiya qilish, ta’limni raqamlashtirish va xorijiy tillarni o’qitish sifatini oshirish bo‘yicha olib borilayotgan izchil islohotlar bilan belgilanadi. PF-5847-son Farmon asosida oliy ta’limni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi ta’lim sifati va raqobatbardosh kadrlar tayyorlashni ustuvor vazifa sifatida belgilagan, [2] PF-6079-son Farmon bilan “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi doirasida raqamli ta’limni rivojlantirish yo‘lga qo‘yilgan, PQ-5117-son qaror esa xorijiy tillarni o’qitishni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqishni nazarda tutgan. Shu bilan birga, so‘nggi ilmiy tadqiqotlar korpusga asoslangan o’qitish va data-driven learning grammatika, yozuv va leksik kompetensiyani rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatmoqda. Shu sababli elektron korpuslar va raqamli texnologiyalar asosida ingliz tili grammatika, yozuv va leksikasini o’qitish metodikasini takomillashtirish bugungi kunning dolzarb ilmiy-amaliy masalasi hisoblanadi.

**Materiallar va tadqiqot usullari.** Mazkur maqola tahliliy-konseptual xarakterga ega bo‘lib, unda elektron korpuslar va raqamli texnologiyalar asosida ingliz tili grammatika, yozuv va leksikasini o’qitish metodikasini takomillashtirish masalasi zamonaviy ilmiy manbalar asosida yoritildi. Tadqiqot materiali sifatida, avvalo, 2023–2025-yillarda korpusga asoslangan o’qitish, data-driven learning, raqamli yozuvni qo‘llab-quvvatlash, akademik kollokatsiyalar va sun‘iy intellektga asoslangan yo‘nalishlarida e’lon qilingan ilmiy ishlar tanlab olindi. Jumladan, Dandan Li va hammualliflar 2025-yilda ingliz tili xorijiy til auditoriyalarida korpusga asoslangan o’qitish bo‘yicha 2011–2024-yillar oralig‘idagi 44 ta empirik tadqiqotni PRISMA mezonlari asosida tizimli tahlil qilib, tadqiqot kontekstlari, nazariy asoslar, sinf faoliyati turlari, qo‘llangan korpus vositalari, afzalliklar va amaliy to‘siqlarni umumlashtirgan. Ularning xulosasiga ko‘ra, korpusga asoslangan o’qitish turli til ko‘nikmalarini rivojlantirish va o‘quvchi avtonomiyasini kuchaytirishda

samarali bo‘lsa-da, undan foydalanish ko‘proq yuqori darajadagi talabalar bilan chegaralanib qolayotgani, korpus interfeyslarining murakkabligi va metodik cheklolvar hanuz dolzarb muammo bo‘lib qolayotgani qayd etilgan [5].

Tadqiqotning nazariy tayanchini belgilashda Niall Curry va Tony McEneryning 2025-yilda taklif etgan ilmiy kun tartibi alohida ahamiyat kasb etdi. Ular korpus lingvistikasini til ta‘limiga chuqurroq integratsiya qilish uchun besh istiqbolli yo‘nalishni ilgari suradi: kontrastiv data-driven learning, milliy o‘quv dasturlarini korpus tadqiqotlari bilan boyitish, sun‘iy intellektdan korpusga tayangan til ta‘limida foydalanish, pedagogik korpuslarni qayta loyihalash va manfaatdor tomonlarni tadqiqot dizayniga faol jalb etish. Mazkur yondashuv ushbu maqolada grammatika, yozuv va leksikani alohida bo‘laklar emas, balki yagona metodik tizim sifatida ko‘rish zarurligini yanada kuchaytiradi. Aynan shu nuqtai nazardan, mavzuni chuqurroq o‘rganish uchun faqat mavjud korpuslardan foydalanish emas, balki o‘quv maqsadiga mos pedagogik korpus yaratish masalasi ham dolzarb deb baholandi [6].

So‘nggi yillardagi meta-tahliliy ishlarda ham korpusga asoslangan o‘qitishning samaradorligi tasdiqlanadi. Shotaro Ueno va Osamu Takeuchi 2023-yildagi meta-tahlilida DDLning ikkinchi til o‘rganishga ta‘sirini qayta baholab, tajriba-nazorat, pre/post va delayed dizaynlar bo‘yicha kichikdan o‘rtachagacha bo‘lgan ijobiy ta‘sir mavjudligini ko‘rsatgan. Shu bilan birga, ular o‘quvchi omillari, tadqiqot dizayni va nashr turining ta‘sir kuchiga sezilarli ta‘sir qilishini aniqlagan [7]. Bu holat ushbu mavzuni o‘rganishda bitta umumiy yondashuv bilan cheklanib qolmasdan, talabaning til darajasi, ta‘lim bosqichi, korpus bilan ishlash tajribasi va topshiriq turini hisobga olgan holda metodik model ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatadi. Boshqacha aytganda, elektron korpuslar bilan ishlash samarasi vositalarning o‘ziga emas, balki uning qanday pedagogik dizaynda qo‘llanishiga chambarchas bog‘liqdir.

Akademik yozuv va leksik kompetensiya nuqtai nazaridan Raniya Alsehibany va Safaa Abdelhalimning 2023-yilgi tadqiqoti muhim manba bo‘lib xizmat qiladi. Ular Saudiya oliy ta‘lim muassasasi talabalarida akademik yozuvdagi leksik xatolarni bartaraf etishda direct corpus consultation yondashuvini o‘rganib, 32 nafar talaba ishtirokidagi aralash metodli tadqiqot orqali korpus bilan bevosita ishlash talabalarining akademik yozuv va leksik tanloviga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini, biroq ayrim qiyinchiliklar ham mavjudligini ko‘rsatgan. Ushbu tadqiqot maqolamiz mavzusi uchun ayniqsa muhim, chunki u yozuv va leksikani bir-biridan ajratib emas, balki real matn yaratish jarayonida bog‘liq holda ko‘rib chiqadi. Shu ma‘noda, elektron korpuslar grammatika va leksikani yozuv faoliyatiga singdirish uchun qulay vosita ekanini amaliy jihatdan tasdiqlaydi [8].

Yozuvning raqamli qo‘llab-quvvatlanishi bo‘yicha so‘nggi ishlar ham ushbu yo‘nalishni kengaytiradi. Mohamed Mekheimer 2025-yilda generativ AI yordamidagi yozuviy fikr-mulohazaning EFL talabalar yozuviga ta‘sirini o‘rganib, Grammarly asosidagi AI-feedbackdan foydalangan guruh an‘anaviy feedback olgan guruhga nisbatan yuqoriroq natija ko‘rsatganini qayd etadi. Tadqiqotda AI vositalari grammatik aniqlik, so‘z tanlovi, qayta tahrir qilish chastotasi, matnning mazmuni va tashkiliy yaxlitligiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatgani, biroq bunday vositalardan pedagogik nazorat bilan foydalanish va talabaning ularga ortiqcha suyanib qolmasligini ta‘minlash lozimligi alohida ta‘kidlangan. Ushbu xulosa elektron korpuslar va AI-vositalarni birgalikda, ammo muvozanatli tarzda qo‘llash zarurligini ko‘rsatadi [9].

Mavzuni samaraliroq o‘rganishda o‘qituvchi omili ham muhim o‘rin tutadi. Gamze Emir va Nesli Cigdem Saral 2025-yilda 2016–2023-yillar oralig‘idagi 38 ta tadqiqotni ko‘rib chiqib, korpus ilovalari lug‘at, grammatika, yozuv, o‘qish va pragmatik ko‘nikmalarga ijobiy ta‘sir ko‘rsatishini aniqlagan, biroq o‘qituvchilarning korpus bilan ishlash tajribasi hamon yetarlicha o‘rganilmayotganini ta‘kidlagan. Ular sifatli va uzoq muddatli tadqiqotlar, shuningdek, o‘qituvchilarning corpus literacy darajasini oshirish zarurligini ko‘rsatadi. Muhammad Abdel Latifning teacher education bo‘yicha longitudinal tadqiqoti ham o‘qituvchilarda korpus savodxonligini shakllantirish ijobiy qabul qilinsa-da, bu jarayon avtomatik tarzda barqaror amaliyotga aylanmasligini ko‘rsatadi. Demak, ushbu mavzuni chuqur o‘rganishda faqat talaba natijalariga emas, balki o‘qituvchining texnologik-pedagogik tayyorgarligiga ham e‘tibor qaratish lozim [10].

Shu bilan birga, elektron korpuslar asosida maxsus yozuv vositalarini ishlab chiqish bo‘yicha izlanishlar ham mavzuning amaliy imkoniyatlarini kengaytiradi. Howard Chen va hammualliflar 2023-yilda akademik yozuvchilar uchun Academic Collocations and Phrases Search Engine (ACOP) nomli korpusga asoslangan qidiruv tizimini ishlab chiqib, yirik akademik korpuslar asosida kollokatsiya va iboralarni qidirish muammosiga yechim taklif qilgan [11]. Bunday vositalar ingliz tilidagi akademik yozuvda ayniqsa leksik moslik, kollokatsion aniqlik va janrga xos iboralarni o‘rgatishda juda foydalidir. Bu yo‘nalish mazkur maqola mavzusini yanada chuqurroq o‘rganishga undaydi, chunki kelajakdagi tadqiqotlarda umumiy korpuslardan tashqari, pedagogika yo‘nalishidagi talabalar uchun ixtisoslashgan korpus vositalari yaratish mumkinligi ko‘rinadi.

Ushbu ilmiy manbalar tahlili asosida maqolada quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanish maqsadga muvofiq deb topildi: nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, ilmiy manbalarni sintezlash, metodik modellashtirish hamda interpretativ umumlashirish. Nazariy tahlil orqali korpusga asoslangan ta’lim, raqamli yozuv, leksik kompetensiya va AI-feedback bo’yicha mavjud ilmiy qarashlar o’rganildi; qiyosiy tahlil yordamida an’anaviy grammatika-yozuv o’qitish modeli bilan korpus va raqamli vositalarga tayangan integrativ modelning ustun jihatlari solishtirildi; metodik modellashtirish orqali esa elektron korpus, yozuv vazifasi, leksik topshiriq va raqamli feedbackni birlashtiruvchi o’quv jarayoni tasavvur etildi. Bunday yondashuv maqola o’quvchisini mazkur muammoni faqat nazariy emas, balki eksperimental, uzoq muddatli va amaliy-didaktik nuqtai nazardan ham chuqurroq o’rganishga undaydi. Mazkur mavzuni yanada samaraliroq o’rganish uchun, birinchidan, umumiy EFL auditoriyasi bilan cheklanmay, aynan pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalari uchun ixtisoslashgan tadqiqotlar olib borish zarur; ikkinchidan, grammatika, yozuv va leksikani alohida o’lchash emas, balki bitta integrallashgan yozma mahsulotda tahlil qilish maqsadga muvofiq; uchinchidan, qisqa muddatli tajribalar bilan birga delayed post-test, portfel tahlili, learner corpus tahlili va yarim tuzilgan intervyularni qo’shgan aralash metodli dizaynlar qo’llanilishi lozim; to’rtinchidan, o’qituvchilarning corpus literacy va TPACK tayyorgarligini ham tadqiqotning alohida o’zgaruvchisi sifatida kiritish foydali bo’ladi. So’nggi tadqiqotlar aynan shunday yo’nalishlar korpusga asoslangan va raqamli vositalarga tayangan til ta’limining keyingi bosqichi uchun eng istiqbolli ekanini ko’rsatmoqda [7].

**Natija va tahlil.** O’rganilgan manbalar tahlili shuni ko’rsatadiki, elektron korpuslar va raqamli texnologiyalar asosida ingliz tili grammatika, yozuv va leksikasini integrallashgan holda o’qitish metodikasi an’anaviy yondashuvga nisbatan kengroq didaktik imkoniyatlarga ega. Xususan, 2025-yildagi sistematik sharh korpusga asoslangan ta’lim bo’yicha 2011–2024-yillardagi 44 ta empirik tadqiqotni umumlashirib, korpusga asoslangan o’qitish EFL auditoriyalarida til ko’nikmalari va o’quvchi avtonomiyasini rivojlantirishda foydali ekanini ko’rsatadi. 2023-yildagi meta-tahlil esa ma’lumotlarga asoslangan o’rganish yondashuvi ikkinchi til o’rganishda kichikdan o’rtachagacha bo’lgan ijobiy ta’sir berishini qayd etadi. Bu holat elektron korpuslarning grammatika, yozuv va leksikani real til qo’llanishi asosida o’rgatishda nazariy hamda amaliy jihatdan istiqbolli vosita ekanini tasdiqlaydi.

Natijalar shuni ham ko’rsatadiki, elektron korpuslar, avvalo, grammatik birliklarni “qoida” sifatida emas, balki autentik kontekstda ishlatiladigan funksional model sifatida o’zlashtirishga xizmat qiladi. Talaba korpusdagi real misollar asosida grammatik konstruksiyalarni kuzatadi, ularning qo’llanish chegaralari va kollokatsion xususiyatlarini tahlil qiladi, so’ng bu birliklarni yozma vazifalarda qo’llaydi. Shuning uchun korpusga asoslangan yondashuv grammatika o’qitishda induktiv fikrlashni, kuzatuvchanlikni va qoidani amaliy vaziyatga ko’chirish ko’nikmasini kuchaytiradi. Mazkur jihat, ayniqsa, bugungi O’zbekiston oliy ta’limida ta’lim sifati va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni kuchaytirishga qaratilgan islohotlar bilan hamohangdir [5].

Yozuv va leksik kompetensiya nuqtai nazaridan tahlil qilingan tadqiqotlar bevosita korpus bilan ishlash akademik yozuvda so’z tanlash aniqligi va leksik xatolarni kamaytirishga yordam berishini ko’rsatadi. Alsehibany va Abdelhalimning tadqiqoti direct corpus consultation talabalarining akademik yozuvdagi lug’aviy xatolarini kamaytirishi va ularning yozuv jarayoniga ongliroq yondashishini kuchaytirishini ko’rsatgan. Shu asosda aytish mumkinki, elektron korpuslar yozuv topshiriqlarini grammatika va leksika bilan tabiiy bog’lash uchun qulay metodik maydon yaratadi [12]. Demak, ingliz tili yozuvini alohida nazorat shakli sifatida emas, balki grammatika va leksik tanlov bilan uzviy bog’liq integrallashgan faoliyat sifatida tashkil etish samaraliroqdir.

Raqamli texnologiyalar, ayniqsa, yozuvni tahrirlash, qayta ishlash va tezkor fikr-mulohaza berish bosqichida kuchli pedagogik ahamiyat kasb etadi. 2025-yildagi tadqiqot generativ AI-assisted feedback, jumladan Grammarly asosidagi fikr-mulohaza EFL talabalarining yozuv sifati, qayta tahrirlash faolligi va umumiy yozuv natijalariga ijobiy ta’sir ko’rsatganini qayd etadi. Biroq ushbu natija AI vositalaridan nazoratsiz foydalanish emas, balki ularni pedagogik rahbarlik, refleksiya va korpusga tayangan tahlil bilan uyg’un qo’llash zarurligini ham ko’rsatadi [9]. Shuning uchun maqola doirasidagi asosiy natijalardan biri shuki, elektron korpus va raqamli feedback vositalari birgalikda qo’llanilganda talabaning grammatik aniqligi, yozma ifodasi va leksik mosligi barqarorroq rivojlanadi.

Tahlil natijasida yana bir muhim xulosa aniqlandi: mavzuni samarali o’rganish uchun umumiy EFL muhitidan ko’ra aynan pedagogika oliy ta’lim muassasalari kontekstiga moslashtirilgan metodik model zarur. 2025-yildagi ilmiy kun tartibi korpus lingvistikasini til ta’limiga chuqurroq integratsiya qilish, pedagogik korpuslar yaratish va sun’iy intellekt bilan uyg’unlashtirishni istiqbolli yo’nalishlar sifatida ko’rsatadi. Shunga ko’ra, ushbu mavzu bo’yicha keyingi izlanishlarda pedagogika yo’nalishi uchun ixtisoslashgan mini-korpus yaratish, o’quvchi korpusi ma’lumotlarini tahlil qilish, portfel va kechiktirilgan sinovdan keyingi holat orqali natijalarni kuzatish, shuningdek, o’qituvchilarning korpus savodxonligi

darajasini ham o‘rganish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Bu tavsiyalar mavzuni yanada chuqurroq va samaraliroq tadqiq etish imkonini beradi [6].

Shu asosda quyidagi metodik tavsiyalarni ilgari surish mumkin. Birinchidan, ingliz tili darslarida grammatika, yozuv va leksikani birlashtiruvchi korpusga asoslangan topshiriqlar tizimi ishlab chiqilishi lozim. Ikkinchidan, yozuv jarayonida korpus konsultatsiyasi va raqamli feedback vositalari bosqichma-bosqich qo‘llanishi kerak. Uchinchidan, pedagogika OTM talabalari uchun kasbiy terminlar, akademik kollokatsiyalar va tipik grammatik konstruksiyalarni o‘z ichiga olgan maxsus o‘quv korpusi yaratish foydali bo‘ladi. To‘rtinchidan, o‘qituvchilar uchun korpus savodxonligi va raqamli yozuv metodikasi bo‘yicha qisqa treninglar joriy etilishi zarur. Aynan shunday yondashuv bugungi ta’limni raqamlashtirish va xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirishga qaratilgan davlat siyosati bilan ham to‘liq mos keladi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, elektron korpuslar va raqamli texnologiyalar asosida ingliz tili grammatika, yozuv va leksikasini o‘qitish metodikasini takomillashtirish bugungi oliy ta’lim uchun dolzarb va istiqbolli ilmiy-amaliy yo‘nalish hisoblanadi. O‘rganilgan manbalar korpusga asoslangan o‘qitish va data-driven learning yondashuvi talabada autentik til namunalari asosida kuzatish, tahlil qilish va mustaqil xulosa chiqarish ko‘nikmalarini rivojlantirishini, raqamli feedback vositalari esa yozuvning sifatini va tahrir jarayonini yaxshilashini ko‘rsatadi. Shu jihatdan qaraganda, grammatika, yozuv va leksikani alohida emas, balki o‘zaro bog‘liq integrallashgan tizim sifatida o‘qitish metodik jihatdan samaraliroqdir [5].

Mazkur yondashuvning amaliy qiymati shundaki, u bir vaqtning o‘zida uch muhim ehtiyojga javob beradi: ta’limni raqamlashtirish, xorijiy tillarni o‘qitish sifatini oshirish va talabalarni akademik-kasbiy yozuvga tayyorlash. O‘zbekiston oliy ta’limni modernizatsiya qilish va xorijiy tillarni ommalashtirish bo‘yicha qabul qilgan strategik hujjatlar ham bunday metodik izlanishlar uchun mustahkam asos yaratadi. Shu sababli kelgusida ushbu yo‘nalishda pedagogika OTM talabalari uchun ixtisoslashgan korpuslar yaratish, aralash metodli tajriba-sinov tadqiqotlarini olib borish va korpus hamda AI vositalarini uyg‘unlashtirgan integrativ modelni amaliyotga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

#### Adabiyotlar:

1. Hyland, K. (2003). *Second Language Writing*. Cambridge: Cambridge University Press.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 08.10.2019 yildagi PF-5847-son.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 14.10.2024 yildagi PQ-358-son.
4. Ute Romer. *Corpus Research Applications in Second Language Teaching*. *Annual Review of Applied Linguistics* (2011), 31, 205–225. Cambridge University Press, 2011
5. Li, D., Noordin, N., Ismail, L., & Cao, D. (2025). A systematic review of corpus-based instruction in EFL classroom. *Heliyon*, 11(2).
6. Curry, N., & McEnery, T. (2025). *Corpus linguistics for language teaching and learning: A research agenda*. // *Language teaching*, 1-20.
7. Ueno, S., & Takeuchi, O. (2023). *Effective corpus use in second language learning: A meta-analytic approach*. // *Applied Corpus Linguistics*, 3(3), 100076.
8. Alsehibany, R. A., & Abdelhalim, S. M. (2023). *Enhancing Academic Writing Vocabulary Use through Direct Corpus Consultation: Saudi English Majors' Perceptions and Experiences*. // *Arab World English Journal*, 14(1).
9. Mekheimer, M. (2025). *Generative AI-assisted feedback and EFL writing: a study on proficiency, revision frequency and writing quality*. // *Discover Education*, 4(1), 170.
10. Emir, G., & Saral, N. Ç. (2025). *Exploring Emerging Issues in Corpus Applications in ELT: A Systematic Review*. // *Participatory Educational Research*, 12(2), 1-19.
11. Chen, H. J. H., Lai, S. L., Lee, K. Y., & Yang, C. T. Y. (2023). *Developing and evaluating an academic collocations and phrases search engine for academic writers*. // *Computer Assisted Language Learning*, 36(4), 641-668.
12. Alsehibany, R. A., & Abdelhalim, S. M. (2023). *Enhancing Academic Writing Vocabulary Use through Direct Corpus Consultation: Saudi English Majors' Perceptions and Experiences*. // *Arab World English Journal*, 14(1).

**ERTAK VA HIKOYALAR VOSITASIDA GRAMMATIK QOIDALARNI  
UYG‘UNLASHTIRIB O‘RGATISH**

*Sharipova Firuza Mexriddinovna,*

*Navoiy davlat pedagogika universiteti 3-bosqich doktoranti*

*Mazkur maqola ingliz tili darslarida grammatika o‘qitishning hikoya asosidagi integrativ metodini tahlil qiladi. Ushbu metod 6-sinf o‘quvchilarida ham grammatik, ham nutqiy kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgan. Grammatikani alohida holda o‘rgatishga asoslangan an’anaviy yondashuvlar ko‘pincha uni real kommunikativ vaziyatlarda samarali qo‘llashni ta‘minlay olmaydi. Taklif etilayotgan metodda shaxs olmoshlari (I, you, he, she, it, we, they) va “to be” fe‘lining hozirgi zamon shakllari (am, is, are) hikoya qahramonlari sifatida taqdim etiladi. Bu esa o‘quvchilarga grammatikani tilning mazmunli va funksional unsurlari sifatida qabul qilish imkonini beradi. Maqolada muallifning yondashuvining nazariy va metodik asoslari bayon etilgan, shuningdek, dialoglar, savol-javob topshiriqlari, rolli o‘yinlar va ritmik takrorlashni o‘z ichiga olgan integrativ mashqlar tizimi keltirilgan. Ushbu metod o‘quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi, grammatik bilimlarning uzoq muddatli o‘zlashtirilishini ta‘minlaydi hamda darslarga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytiradi.*

***Kalit so‘zlar:** hikoya asosida o‘qitish, integrativ grammatika o‘qitish, nutqiy kompetensiya, shaxs olmoshlari, “to be” fe‘li, kommunikativ yondashuv, 6-sinf o‘quvchilari*

**ОБУЧЕНИЕ ГРАММАТИЧЕСКИМ ПРАВИЛАМ ПОСРЕДСТВОМ ИНТЕГРАЦИИ  
СКАЗОК И РАССКАЗОВ**

*Данная статья рассматривает интегративный метод обучения грамматике на основе рассказов на уроках английского языка, направленный на развитие как грамматической, так и речевой компетенции у учащихся 6 класса. Традиционные подходы к обучению грамматике в изоляции часто не обеспечивают её эффективного применения в реальных коммуникативных ситуациях. Предлагаемый метод представляет грамматические единицы, такие как личные местоимения (I, you, he, she, it, we, they) и формы настоящего времени глагола to be (am, is, are), в виде персонажей рассказа, что позволяет учащимся воспринимать грамматику как осмысленные и функциональные элементы языка. В статье описываются теоретические и методические основы авторского подхода, а также представляется интегративная система упражнений, включающая диалоги, задания в формате вопрос-ответ, ролевые игры и ритмическое повторение. Данный метод способствует активному участию в речи, улучшает долговременное усвоение грамматических знаний и повышает мотивацию учащихся на уроках.*

***Ключевые слова:** обучение на основе рассказов, интегративное обучение грамматике, речевая компетенция, личные местоимения, глагол to be, коммуникативный подход, учащиеся 6 класса.*

**TEACHING GRAMMATICAL RULES THROUGH THE INTEGRATION OF FAIRY TALES  
AND STORIES**

*The present article examines a story-based integrative method for teaching grammar in English lessons, aimed at developing both grammatical and speech competence among 6th-grade students. Traditional approaches to teaching grammar in isolation often fail to ensure effective application in real communicative situations. The proposed method presents grammatical units, such as personal pronouns (I, you, he, she, it, we, they) and the present forms of the verb to be (am, is, are), as story characters, allowing students to perceive grammar as meaningful and functional elements of language. The article describes the theoretical and methodological foundations of the author’s approach and presents an integrative system of exercises, including dialogue, question-and-answer tasks, role-playing, and rhythmic repetition. The method fosters active speech participation, enhances long-term retention of grammatical knowledge, and increases students’ motivation in lessons.*

***Key words:** story-based learning, integrative grammar teaching, speech competence, personal pronoun, verb to be, communicative approach, 6th-grade English learners.*

**Kirish.** Bugungi kunda chet tillarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv asosiy metodologik tamoyillardan biri hisoblanadi. Xususan, ingliz tili ta‘limida grammatik bilimlarni shakllantirish bilan bir qatorda o‘quvchilarning nutq kompetentligini rivojlantirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, grammatik materialni an’anaviy, izolyatsiyalangan holda o‘rgatish o‘quvchilarning uni real nutq jarayonida qo‘llash ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Ayniqsa, 6-sinf o‘quvchilari uchun grammatik qoidalarni quruq tushuntirish ularning yosh va psixologik xususiyatlariga to‘liq mos kelmaydi.

Shu sababli dars jarayonida o‘quvchilarning qiziqishini oshiradigan, ularni faol nutqiy faoliyatga jalb etadigan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va metodik yondashuvlardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuvlardan biri grammatik va nutq kompetentligini integrativ asosda rivojlantirishga xizmat qiluvchi ertak-hikoyaviy metod hisoblanadi. Mazkur maqolada ingliz tili darslarida grammatik qoidalarni ertak-hikoyaviy usulda jonlantirishga asoslangan mualliflik metodining nazariy-metodik jihatlari yoritiladi hamda ushbu metod asosida ishlab chiqilgan integrativ mashqlar tizimi tavsiflanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Chet tillarni o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy metodikaning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqotchilar fikriga ko‘ra, grammatik kompetensiyani shakllantirish til o‘rganish jarayonining ajralmas qismi bo‘lib, u kommunikativ kompetensiya bilan uzviy bog‘liqdir (Yuldasheva, 2025). Shu bilan birga, kommunikativ yondashuv tarafdorlari grammatikani alohida emas, balki nutq faoliyati jarayonida o‘rgatish samaraliroq ekanligini ta’kidlaydilar (Numonova, 2025).

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim omil sifatida e’tirof etiladi. Xususan, boshlang‘ich va o‘rta sinf o‘quvchilari uchun grammatik materialni an’anaviy, izolyatsiyalangan tarzda o‘qitish ularning uni real nutqda qo‘llash ko‘nikmalarini yetarli darajada rivojlantirmaydi (Hamroyeva, 2024). Shu bois, interfaol va innovatsion metodlardan foydalanish zarurati ortib bormoqda.

So‘nggi yillarda ertak-hikoyaviy va kontekstga asoslangan o‘qitish metodlari alohida e’tibor qozonmoqda. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, story-based learning yondashuvi o‘quvchilarning nafaqat grammatik bilimlarini, balki nutq kompetentligini ham samarali rivojlantirishga xizmat qiladi (Khalilova, 2025). Bundan tashqari, integrativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslar o‘quvchilarning til materialini yaxlit holda o‘zlashtirishiga yordam beradi (Abulkasimova, 2024).

O‘zbekiston ta’lim tizimida ham ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy metodlar va texnologiyalarni joriy etishga alohida e’tibor qaratilmoqda (Yoqubova, 2025). Biroq grammatik kompetensiyani ertak-hikoyaviy integrativ metod asosida rivojlantirish masalasi yetarli darajada chuqur o‘rganilmagan. Shu sababli mazkur tadqiqot ingliz tili darslarida grammatik qoidalarni ertak-hikoyaviy usulda o‘rgatish orqali o‘quvchilarning grammatik va nutq kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Grammatik kompetentlikni shakllantirishda o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, 6-sinf o‘quvchilari uchun grammatik qoidalarni an’anaviy, quruq shaklda bayon etish ularning nutq faoliyatida ushbu qoidalaridan samarali foydalanishiga yetarli darajada ta’sir ko‘rsatmaydi. Shu bois mazkur metodik yondashuv grammatik materialni ertak-hikoyaviy shaklda jonlantirish orqali o‘quvchilarning grammatik va nutq kompetentligini integrativ asosda rivojlantirishni ko‘zda tutadi. Ushbu mualliflik metodi ingliz tilini o‘rganishni boshlayotgan 6-sinf o‘quvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, unda grammatik birliklar personajlar sifatida tasvirlanadi. Xususan, kishilik olmoshlari va *to be* fe‘lining (*am, is, are*) hozirgi zamon shakllari badiiy obrazlar orqali o‘quvchilarga tushuntiriladi. Bu yondashuv grammatikaning mazmunini o‘quvchi xotirasida uzoq muddat saqlanishiga xizmat qiladi. Metod asosida ingliz tili grammatikasi “majlis” tarzida tasvirlanib, gap tuzish jarayoni mantiqiy ketma-ketlikda ochib beriladi. Dastlab, kishilik olmoshlarining gapdagi ega vazifasi hikoya orqali yoritiladi. *I, you, he, she, it, we, you, they* olmoshlari o‘zaro muloqotga kirishib, ularning ma’nosi va qo‘llanilish holatlari dialogik shaklda tushuntiriladi. Masalan, *I* olmoshining talaffuzi va ma’nosi real hayotiy assotsiatsiyalar orqali izohlanadi, *you* olmoshining birlik va ko‘plikdagi qo‘llanishi esa qiziqarli savol-javoblar orqali mustahkamlanadi.

Mazkur metodda asosiy didaktik yangilik shundaki, o‘quvchilar grammatik qoidani ijro etuvchi subyekt sifatida emas, balki grammatik birliklarning o‘zi ertak qahramonlari sifatida tasvirlanadi. Kishilik olmoshlari va *to be* fe‘llari personajlar ko‘rinishida gavdalanib, o‘z vazifasi va qo‘llanilish doirasini dialogik va hikoyaviy shaklda “namoyish etadi”. Bu esa o‘quvchilarda grammatik birliklarni abstrakt qoida sifatida emas, balki ma’noli va funksional til unsuri sifatida idrok etishga imkon yaratadi.

Keyingi bosqichda *am, is, are* fe‘llari hikoya qahramonlari sifatida sahnaga chiqadi va qaysi kishilik olmoshi bilan birga kelishi dialog asosida ko‘rsatiladi. Jumladan, *I am, he/she/it is, we/you/they are* birikmalari misollar orqali bayon etilib, o‘quvchilar ushbu tuzilmalarni og‘zaki nutqda qo‘llash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu jarayonda grammatik mashqlar bevosita nutq faoliyati bilan bog‘lanadi.

Mazkur metodning integrativligi shundaki, o‘quvchilar nafaqat grammatik qoidani o‘rganadilar, balki savol-javoblar, tasdiq va inkor shakllarini tuzish orqali nutq kompetentligini ham rivojlantiradilar. Masalan, *Am I happy?, Are you a pupil?, Is he happy?* kabi savollarni tuzish va ularga javob berish jarayonida o‘quvchilar grammatikani kommunikativ vaziyatda qo‘llashni o‘rganadilar.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Metodning samaradorligini oshirish maqsadida dars jarayonida qo‘shiq va ritmik takrorlash elementlaridan ham foydalaniladi. “*I am, he is, she is, it is, we are, you are, they*

are” kabi ifodalarni qo‘shiq shaklida muntazam takrorlash o‘quvchilarning eslab qolish qobiliyatini kuchaytiradi va grammatik xatolarning oldini oladi.

Mazkur ertak-hikoyaviy integrativ metod:

- ✓ o‘quvchilarning grammatik qoidalarni tez va oson o‘zlashtirishiga;
- ✓ grammatikani nutq faoliyati bilan uzviy bog‘lashga;
- ✓ o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirishga;
- ✓ grammatik kompetentlik bilan bir qatorda nutq kompetentligini rivojlantirishga xizmat qiladi.

**1-jadval. Integrativ mashqlar jadvali**

(mualliflik metodi asosida)

Grammatik mavzu	Integrativ mashq turi	Nutq faoliyati	Mashq mazmuni	Kutilayotgan natija
Kishilik olmoshlari (I, you, he, she, it, we, you, they)	Hikoyaviy-dialogik mashq	Gapirish, tinglash	Grammatik birliklar (kishilik olmoshlari) ertak qahramonlari sifatida tasvirlanadi va o‘z vazifalarini dialog orqali “namoyon etadi”	Olmoshlarni to‘g‘ri qo‘llash, og‘zaki nutq faolligi
To be (am, is, are)	Savol-javobli mashq	Gapirish	Am, is, are fe‘llari ertak personajlari sifatida qaysi olmosh bilan birga kelishini “o‘zlari aytib beradi”	Grammatikani nutqda qo‘llash
Tasdiq va inkor shakllari	Kommunikativ mashq	Gapirish	O‘quvchilar real holatlarga mos tasdiq/inkor gaplar tuzadilar	Nutq aniqligi, grammatik to‘g‘rilik
To be + sifat	Qo‘shiq va takrorlash	Tinglash, gapirish	“I am happy, we are friends...” qo‘shig‘ini birgalikda kuylash	Uzoq muddatli eslab qolish
To be bilan gap tuzish	Rolli o‘yin	Gapirish	“Grammatika majlisi” sahnalashtiriladi	Kommunikativ kompetensiya rivoji

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, grammatik qoidalarni ertak-hikoyaviy usulda o‘rgatishga asoslangan integrativ metod 6-sinf o‘quvchilarining grammatik va nutq kompetentligini bir vaqtda rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur metod orqali grammatik material o‘quvchilar uchun tushunarli, qiziqarli va esda qolarli shaklda taqdim etiladi hamda ularning nutq faoliyatida faol qo‘llaniladi.

Ushbu metodning afzalligi shundaki, grammatik mashqlar sun‘iy yodlash asosida emas, balki real kommunikativ vaziyatlar orqali o‘zlashtiriladi. Natijada o‘quvchilarda grammatik bilimlar mustahkamlanadi, og‘zaki nutq faolligi ortadi va dars jarayoniga bo‘lgan motivatsiya kuchayadi. Mazkur mualliflik metodi ingliz tili darslarida samarali qo‘llanilishi mumkin bo‘lib, kelgusida boshqa grammatik mavzularni o‘qitishda ham kengaytirish imkoniyatiga ega.

**Adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi. “Chet tillarini o‘qitishning kompetensiyaviy yondashuv konsepsiyasi”. – Toshkent, 2022 y.
2. Khalilova, S. K. (2025). The role of story-based learning method in grammar competence. // Namangan State Institute of Foreign Languages. worldyjournals.com
3. Numonova, M. (2025). Communicative methods of teaching English vocabulary and grammar in context. // Kokand University Herald Journal.
4. Yoqubova, M. S. (2025). O‘quvchilarga ingliz tilini o‘qitishning zamonaviy pedagogik yondashuvlari. // Barqaror taraqqiyot va rivojlanish tamoyillari. uzresearchers.com
5. Yuldasheva, K. E. (2025). Ingliz tilini o‘qitish jarayonida kommunikativ kompetensiyaviy yondashuv. // Ustozlar uchun ilmiy jurnal. journals.org
6. Akhmedova, N. (2025). Yoshlarda ingliz tilini o‘qitish ko‘nikmalarini shakllantirish. // Tamaddun nuri jurnali. jurnal.tamaddunnuri.uz
7. Hamroyeva, M. F. (2024). Ingliz tilini o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlar va texnologiyalar. // Technical Science Research in Uzbekistan. Библиотека
8. Abulkasimova, Y. (2024). An integrative approach to teaching English to students: communicative competence. // Ta’lim, fan va innovatsiya.

## INGLIZ TILINI O‘QITISHDA SPEKULYATIV NUTQ FAOLIYATLARI ORQALI TALABALARNING ANALITIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISH

*Shukurova Shohsanam Qaxramon qizi,  
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti  
Ingliz tili amaliy fanlar N3 kafedrasida katta o‘qituvchisi*

*Mazkur maqolada ingliz tilini o‘qitishda spekulyativ nutq faoliyatlarining talabalarning analitik fikrlashini rivojlantirishdagi o‘rni tadqiq etiladi. Tadqiqot davomida muammoli vaziyatlar, taxminiy fikr yuritish, munozara va argumentativ topshiriqlarning talabalarning mustaqil tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish hamda tanqidiy yondashuv ko‘nikmalarini shakllantirishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, spekulyativ nutq faoliyatlarining kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi samaradorligi ham ilmiy asosda tahlil qilinadi.*

**Kalit so‘zlar:** spekulyativ nutq, analitik fikrlash, ingliz tili ta’limi, kommunikativ kompetensiya, tanqidiy tafakkur, argumentatsiya, muammoli vaziyat, interfaol metodlar, nutq faoliyati, EFL.

## РАЗВИТИЕ АНАЛИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ СТУДЕНТОВ ПОСРЕДСТВОМ СПЕКУЛЯТИВНОЙ РЕЧЕВОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ ПРИ ОБУЧЕНИИ АНГЛИЙСКОМУ ЯЗЫКУ

*В данной статье исследуется роль спекулятивной речевой деятельности в развитии аналитического мышления студентов при обучении английскому языку. Особое внимание уделяется проблемным ситуациям, гипотетическим рассуждениям, дискуссиям и аргументативным заданиям, способствующим формированию навыков самостоятельного анализа, логического мышления и критического подхода. Также рассматривается эффективность спекулятивной речевой деятельности в развитии коммуникативной компетенции студентов.*

**Ключевые слова:** спекулятивная речь, аналитическое мышление, обучение английскому языку, коммуникативная компетенция, критическое мышление, аргументация, проблемные ситуации, интерактивные методы, речевая деятельность, EFL.

## DEVELOPING STUDENTS’ ANALYTICAL THINKING THROUGH SPECULATIVE SPEECH ACTIVITIES IN ENGLISH LANGUAGE TEACHING

*This article examines the role of speculative speech activities in developing students’ analytical thinking in English language teaching. The study highlights the importance of problem-based discussions, hypothetical reasoning, debates, and argumentative tasks in improving students’ independent analysis, logical reasoning, and critical thinking skills. Furthermore, the effectiveness of speculative speech activities in enhancing communicative competence is analyzed from a scientific perspective.*

**Keywords:** speculative speech, analytical thinking, English language teaching, communicative competence, critical thinking, argumentation, problem-solving, interactive methods, speech activity, EFL.

**Kirish.** Bugungi globallashuv va axborot almashinuvi jadallashgan sharoitda xorijiy tillarni o‘qitish jarayoni nafaqat lingvistik bilimlarni egallash, balki talabalarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy tahlil qilish qobiliyati hamda muammoli vaziyatlarga nisbatan analitik yondashuvini shakllantirish bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib bormoqda. Ayniqsa, ingliz tilini o‘qitish tizimida kommunikativ yondashuvning ustuvor ahamiyat kasb etishi natijasida talabalarning faqat grammatik qoidalarni o‘zlashtirishi emas, balki real nutqiy vaziyatlarda erkin fikr yuritishi, taxminiy mulohazalar bildira olishi va argumentlangan xulosalar chiqarishi muhim pedagogik vazifalardan biriga aylandi. Shu jihatdan spekulyativ nutq faoliyatlari zamonaviy til ta’limining samarali vositalaridan biri sifatida e’tibor qozonmoqda. Spekulyativ nutq faoliyati talabaning muayyan vaziyat yoki hodisa yuzasidan taxmin qilish, ehtimoliy yechimlarni ilgari surish, sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish va turli nuqtayi nazarlarni solishtirishga asoslangan nutqiy faoliyat turidir. Mazkur faoliyat turi “agar shunday bo‘lsa...”, “ehtimol”, “faraz qilaylik”, “kelajakda yuz berishi mumkin” kabi konstruksiyalar orqali talabaning fikriy jarayonlarini faollashtiradi. Natijada talaba tayyor ma’lumotni qabul qiluvchi subyekt emas, balki mustaqil ravishda bilim hosil qiluvchi va uni tahliliy asosda qayta ishlovchi faol ishtirokchiga aylanadi. Ayniqsa, ingliz tilidagi debatlar, muammoli savollar, keys-

stadilar, hipotetik dialoglar va argumentativ munozaralar analitik tafakkurning shakllanishida muhim metodik vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Hozirgi pedagogik tadqiqotlarda analitik fikrlash kompetensiyasi XXI asr ko‘nikmalarining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida talqin qilinmoqda. Analitik fikrlash talabning axborotni saralash, dalillarni baholash, mantiqiy bog‘lanishlarni aniqlash, qarama-qarshi fikrlarni qiyoslash hamda asoslangan qaror qabul qilish qobiliyatlarini o‘z ichiga oladi. Chet tilini o‘rganish jarayonida esa ushbu ko‘nikmalar kommunikativ kompetensiya bilan uzviy integratsiyalashadi. Chunki til vositasida fikrni ifodalash jarayonining o‘zi mantiqiy va konseptual operatsiyalarni talab qiladi. Shu sababli spekulativ nutq faoliyatlari til o‘rganishning oddiy reproduktiv modelidan chiqib, talabning intellektual faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, spekulativ topshiriqlar talabalarda ijodiy fikrlash va tanqidiy yondashuvni ham rivojlantiradi. An’anaviy savol-javob yoki matnni qayta hikoya qilishga asoslangan metodlardan farqli ravishda, spekulativ faoliyatlar talabani noaniq vaziyatlar ustida mulohaza yuritishga undaydi. Bu esa ularning nutqiy faolligini oshirish bilan birga, kommunikativ qo‘rquvni kamaytiradi va tilni funksional qo‘llash imkoniyatlarini kengaytiradi. Ayniqsa, EFL muhitida talabalarning ingliz tilida erkin fikr bildirishga qiynalishi ko‘p hollarda reproduktiv o‘qitish metodlari bilan bog‘liq bo‘ladi. Spekulativ yondashuv esa talabning shaxsiy pozitsiyasini ifodalashga imkon yaratgani sababli motivatsion omil sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi ingliz tilini o‘qitishda talabalarning analitik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan innovatsion metodlarning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi bilan belgilanadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi spekulativ nutq faoliyatlarining analitik tafakkurni shakllantirishdagi metodik imkoniyatlarini tahlil qilish hamda ularning ingliz tili darslaridagi samaradorligini ilmiy jihatdan asoslashdan iborat. Shu bilan birga, maqolada spekulativ topshiriqlarning kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishdagi o‘rni ham lingvodidaktik nuqtayi nazardan yoritiladi.

Zamonaviy lingvodidaktik tadqiqotlarda chet tilini o‘qitish jarayonida talabalarning faqat til birliklarini o‘zlashtirishi emas, balki ularda yuqori darajadagi tafakkur ko‘nikmalarini rivojlantirish ham muhim metodik maqsad sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, XXI asr ta’lim konsepsiyalarida analitik va tanqidiy fikrlash kompetensiyasi asosiy universal ko‘nikmalardan biri sifatida talqin qilinadi. Shu sababli ingliz tilini o‘qitishda spekulativ nutq faoliyatlaridan foydalanish til ta’limining kommunikativ va kognitiv yo‘nalishlarini integratsiyalash imkonini beradi. Ilmiy manbalarda spekulativ nutq faoliyati ko‘proq hipotetik fikrlash, taxminiy mulohaza yuritish va ehtimoliy vaziyatlarni tahlil qilishga asoslangan kommunikativ faoliyat sifatida izohlanadi. Ushbu yondashuv konstruktivistik ta’lim nazariyasiga tayanadi. J. Piaget va L. Vygotskiylarning kognitiv rivojlanish haqidagi nazariyalarida bilim insonning faol fikriy jarayonlari orqali shakllanishi ta’kidlangan. Ayniqsa, Vygotskiy tomonidan ilgari surilgan “yaqin rivojlanish zonasi” konsepsiyasi talabalarning muammoli vaziyatlarda hamkorlik asosida fikr yuritishi va yangi bilimlarni muloqot jarayonida o‘zlashtirishini asoslaydi. Spekulativ nutq faoliyatlari aynan shu jihati bilan talabning intellektual va kommunikativ faolligini bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Chet tilini o‘qitish metodikasida spekulativ topshiriqlar odatda “What would happen if...?”, “Suppose that...”, “How might...?”, “In your opinion...” kabi savol va konstruksiyalar orqali amalga oshiriladi. Ushbu metodlar talabning tayyor javobni takrorlashidan ko‘ra, mustaqil xulosa chiqarishiga xizmat qiladi. P. Facione tomonidan ishlab chiqilgan tanqidiy fikrlash modeli asosida analitik tafakkur tahlil qilish, interpretatsiya, baholash va xulosa chiqarish kabi komponentlardan tashkil topadi. Spekulativ nutq faoliyatlari aynan ushbu komponentlarning amaliy qo‘llanishiga imkon yaratadi. Masalan, talaba muayyan ijtimoiy muammo yoki global masala yuzasidan ingliz tilida o‘z taxminlarini bildirar ekan, u ma’lumotlarni solishtiradi, sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi va argumentlangan fikr hosil qiladi. Shuningdek, spekulativ faoliyatlar kommunikativ yondashuv tamoyillari bilan ham uyg‘unlashadi. D. Hymes tomonidan ilgari surilgan kommunikativ kompetensiya nazariyasiga ko‘ra, tilni o‘rganish jarayoni grammatik bilim bilan cheklanib qolmasligi kerak. Talaba til vositalaridan real kommunikativ vaziyatlarda foydalana olishi lozim. Spekulativ nutq faoliyatlari esa talabalarni sun’iy grammatik mashqlardan ko‘ra real hayotiy vaziyatlarga yaqin bo‘lgan muammoli vazifalar asosida muloqot qilishga undaydi. Bu esa ularning erkin fikr bildirish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

Ilmiy tadqiqotlarda debat, munozara va keys-stadi metodlari spekulativ nutq faoliyatining samarali shakllari sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Ayniqsa, debat texnologiyasi talabalarning dalillash, qarama-qarshi fikrlarni tahlil qilish va mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatini rivojlantiradi. R. Fisherning tadqiqotlarida qayd etilishicha, muammoli savollarga asoslangan muloqot talabalarning reflektiv fikrlash darajasini oshiradi. Shu sababli ingliz tili darslarida “future predictions”, “problem-solving discussions”, “ethical dilemmas” va “hypothetical situations” kabi topshiriqlardan foydalanish metodik jihatdan samarali hisoblanadi.

Spekulyativ nutq faoliyatlari EFL muhitida talabalarning psixologik faolligini oshirishda ham muhim rol o'ynaydi. An'anaviy reproduktiv metodlarda talabalar ko'pincha tayyor til qoliplarini yodlash bilan cheklanadi. Bu esa ularning mustaqil fikr bildirishiga to'sqinlik qiladi. Spekulyativ yondashuv esa talabalarga erkin fikr yuritish imkonini beradi. Ayniqsa, ochiq javobli savollar va taxminiy munozaralar talabalarni til birliklarini mexanik qo'llash emas, balki ma'no yaratish vositasi sifatida ishlatishga o'rgatadi. Natijada til va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik kuchayadi. Bundan tashqari, spekulyativ topshiriqlar talabalarning akademik nutqini shakllantirishda ham samarali vosita hisoblanadi. Talaba o'z fikrini asoslash, dalillar bilan mustahkamlash va muqobil nuqtayi nazarlarni tahlil qilish orqali ilmiy-mantiqiy nutq ko'nikmalarini egallaydi. Bu esa keyinchalik akademik yozuv va ilmiy tadqiqot faoliyatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, argumentativ esse yozish, muammoli maqolalarni tahlil qilish va ilmiy munozaralarda ishtirok etish jarayonlarida spekulyativ fikrlashning o'rni beqiyosdir.

Shunday qilib, spekulyativ nutq faoliyatlari ingliz tilini o'qitish jarayonida nafaqat kommunikativ kompetensiyani rivojlantiruvchi metodik vosita, balki talabalarning analitik tafakkurini shakllantiruvchi samarali pedagogik mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur faoliyat turi talabalarning mustaqil fikrlashini, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish qobiliyatini hamda argumentlangan nutq yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish orqali zamonaviy ta'limning kognitiv va kommunikativ maqsadlarini uyg'unlashtirishga xizmat qiladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot davomida ingliz tilini o'qitishda spekulyativ nutq faoliyatlaridan foydalanish talabalarning analitik fikrlash ko'nikmalarini sezilarli darajada rivojlantirishi aniqlandi. Ayniqsa, hipotetik savollar, muammoli vaziyatlar, debat va argumentativ topshiriqlarga asoslangan mashg'ulotlar talabalarni chuqurroq fikr yuritishga undashi kuzatildi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, spekulyativ faoliyatlar qo'llanilgan darslarda talabalar oddiy reproduktiv javoblardan ko'ra kengroq va mantiqiy asoslangan fikr bildirishga intilgan. Bu esa ularning nafaqat til birliklarini qo'llash, balki nutq jarayonida tahliliy yondashuvni shakllantirishiga xizmat qilgan. Mashg'ulotlar davomida “What would happen if...?”, “How could this problem be solved?”, “What might be the consequences of...?” kabi savollar asosida tashkil etilgan muloqotlar talabalarning sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qilish qobiliyatini faollashtirgani aniqlandi. Talabalar turli vaziyatlarni solishtirish, ehtimoliy natijalarni baholash va muqobil yechimlarni ilgari surish jarayonida ingliz tilidan funksional vosita sifatida foydalangan. Natijada ularning nutqiy faolligi oshib, kommunikativ ishtiroki ancha erkinlashgan. Ayniqsa, muammoli vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalarda mustaqil fikr yuritish va argumentlangan xulosalar chiqarish ko'nikmalarining rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, spekulyativ nutq faoliyatlari talabalar tomonidan yangi leksik birliklarning faol o'zlashtirilishiga ham yordam beradi. Chunki talabalar o'z fikrini asoslashga harakat qilganida qo'shimcha til vositalarini izlashga majbur bo'ladi. Natijada lug'at boyligi kengayadi, grammatik konstruksiyalardan foydalanish faollashadi hamda nutqning mantiqiy bog'liqligi kuchayadi. Ayniqsa, modal fe'llar, shart ergash gaplar va taxminiy ma'noni ifodalovchi til birliklarining qo'llanish chastotasi sezilarli darajada ortgani kuzatildi. Bu esa spekulyativ yondashuvning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi amaliy samaradorligini tasdiqlaydi.

Muhokama jarayonida yana bir muhim jihat aniqlandiki, spekulyativ topshiriqlar talabalarning darsdagi psixologik faolligini oshiradi. An'anaviy savol-javob usullarida ko'pchilik talabalar qisqa va standart javoblar bilan cheklanadi. Spekulyativ faoliyatlarda esa qat'iy “to'g'ri” yoki “noto'g'ri” javob mavjud emasligi sababli talabalar o'z fikrini erkinroq ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu holat kommunikativ qo'rquvning kamayishiga va darsdagi interaktiv muhitning kuchayishiga olib keladi. Ayniqsa, kichik guruhlarda olib borilgan munozaralarda talabalar o'rtasidagi hamkorlik va fikr almashish jarayoni faolroq kechgani kuzatildi. Shuningdek, spekulyativ nutq faoliyatlari tanqidiy fikrlash elementlarini shakllantirishda ham samarali vosita ekanligi aniqlandi. Talabalar muayyan masala yuzasidan bir nechta nuqtayi nazarni tahlil qilishga, dalillarni baholashga va qarama-qarshi fikrlarni solishtirishga odatlangan. Bu esa ularning reflektiv fikrlash darajasini oshirgan. Ayniqsa, global muammolar, texnologiyalar, ekologiya yoki ijtimoiy masalalar bilan bog'liq mavzularda olib borilgan munozaralar talabalarning analitik yondashuvini kuchaytirgan. Natijada ular tilni faqat kommunikativ vosita emas, balki fikrni shakllantirish va himoya qilish instrumenti sifatida qo'llashni o'rgangan.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik nazariyalar bilan ham mos keladi. Konstruktivistik yondashuvga ko'ra, bilim tayyor shaklda berilmaydi, balki talabaning faol intellektual jarayoni asosida shakllanadi. Spekulyativ faoliyatlar aynan shu jarayonni qo'llab-quvvatlaydi. Chunki talaba har bir muammoli vaziyatga nisbatan mustaqil munosabat bildiradi, yangi g'oyalarni ilgari suradi va ularni mantiqiy asoslashga harakat qiladi. Bu esa til o'rganish jarayonini mexanik mashqlar tizimidan chiqarib, kognitiv rivojlanishga yo'naltirilgan interaktiv faoliyatga aylantiradi. Umuman olganda, tadqiqot natijalari

spekulyativ nutq faoliyatlarining ingliz tilini o‘qitishda analitik fikrlashni rivojlantirishdagi metodik samaradorligini tasdiqladi. Mazkur faoliyat turi talabalarning mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi, argumentlangan nutq yaratishi va kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo‘ldi. Shu sababli ingliz tili darslarida spekulyativ yondashuvga asoslangan topshiriqlarni tizimli ravishda qo‘llash zamonaviy ta‘lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot natijalari ingliz tilini o‘qitishda spekulyativ nutq faoliyatlaridan foydalanish talabalarning analitik fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar shuni tasdiqladiki, hipotetik savollar, muammoli vaziyatlar, debatlar, argumentativ munozaralar va taxminiy fikrlashga asoslangan topshiriqlar talabalarning mustaqil fikr yuritish, sabab-oqibat bog‘lanishlarini aniqlash hamda mantiqiy xulosalar chiqarish qobiliyatlarini faollashtiradi. Ayniqsa, talabalarning tayyor javoblarni takrorlashdan voz kechib, o‘z nuqtayi nazarini asoslashga intilishi analitik tafakkurning rivojlanayotganini ko‘rsatadigan muhim omil sifatida namoyon bo‘ldi.

Tadqiqot davomida spekulyativ nutq faoliyatlari qo‘llanilgan darslarda talabalar nutqining mazmunan boyishi, grammatik va leksik birliklardan foydalanish faolligining ortishi kuzatildi. Ayniqsa, modal fe‘llar, shart ergash gaplar va ehtimollikni ifodalovchi til konstruksiyalarining faol qo‘llanishi talabalarning nafaqat kommunikativ, balki kognitiv rivojlanishiga ham xizmat qilgani aniqlandi. Bu esa spekulyativ yondashuvning til va tafakkur o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni kuchaytirishini ko‘rsatadi. Talabalar fikrni himoya qilish, dalillarni tahlil qilish va qarama-qarshi nuqtayi nazarlarni baholash jarayonida ingliz tilidan real kommunikativ vosita sifatida foydalangan. Shuningdek, spekulyativ faoliyatlarning psixologik jihatdan ham ijobiy ta‘siri kuzatildi. An‘anaviy reproduktiv metodlarda passiv ishtirok etuvchi talabalar spekulyativ topshiriqlar jarayonida faolroq qatnasha boshlagan. Chunki bunday topshiriqlarda qat‘iy bitta javob mavjud emasligi talabalarni erkin fikr bildirishga undaydi. Natijada darsdagi kommunikativ muhit jonlanadi, talabalar o‘rtasidagi hamkorlik kuchayadi va nutqiy faollik oshadi. Ayniqsa, kichik guruhli munozaralar va muammoli vaziyatlarga asoslangan interaktiv mashg‘ulotlar talabalarning o‘ziga bo‘lgan ishonchini mustahkamlashga xizmat qilgan. Tadqiqot natijalari zamonaviy pedagogik va lingvodidaktik nazariyalar bilan hamohang ekanligi bilan ham ahamiyatlidir. Konstruktivistik ta‘lim yondashuviga ko‘ra, bilim faol tafakkur va muloqot jarayonida shakllanadi. Spekulyativ nutq faoliyatlari aynan shu tamoyil asosida talabalarni muammoli vaziyatlarni tahlil qilishga, yangi g‘oyalarni ilgari surishga va ularni mantiqiy asoslashga yo‘naltiradi. Shu sababli mazkur yondashuv til o‘qitish jarayonini oddiy grammatik mashqlar tizimidan chiqarib, kognitiv va kommunikativ rivojlanishga xizmat qiluvchi innovatsion ta‘lim modeliga aylantiradi.

Bundan tashqari, spekulyativ nutq faoliyatlari talabalarda XXI asr ko‘nikmalari hisoblangan tanqidiy fikrlash, reflektiv yondashuv, muammoni hal qilish va kommunikativ moslashuvchanlikni shakllantirishga yordam beradi. Bugungi global ta‘lim makonida aynan mana shunday kompetensiyalar mutaxassisning raqobatbardoshligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ingliz tilini o‘qitishda spekulyativ topshiriqlarni muntazam va tizimli ravishda qo‘llash zamonaviy ta‘limning amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, spekulyativ nutq faoliyatlari ingliz tilini o‘qitishda talabalarning nafaqat kommunikativ kompetensiyasini, balki ularning analitik va tanqidiy tafakkurini ham rivojlantiruvchi kompleks metodik yondashuv sifatida namoyon bo‘ladi. Mazkur yondashuv talabalarning mustaqil fikrlashi, argumentlangan nutq yaratishi, muammoli vaziyatlarni tahlil qilishi va ijodiy qaror qabul qilish ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli ingliz tili ta‘limida spekulyativ nutq faoliyatlariga asoslangan metodlarni keng joriy etish va ularning metodik imkoniyatlarini yanada chuqur tadqiq etish dolzarb ilmiy-pedagogik vazifalardan biri bo‘lib qoladi.

#### Adabiyotlar:

1. Facione P. A. Critical Thinking: What It Is and Why It Counts. – California: Insight Assessment, 2020. – 30 p.
2. Fisher R. Teaching Thinking: Philosophical Enquiry in the Classroom. – London: Bloomsbury Publishing, 2021. – 256 p.
3. Harmer J. The Practice of English Language Teaching. – 5th ed. – Harlow: Pearson Education, 2019. – 446 p.
4. Richards J. C., Rodgers T. S. Approaches and Methods in Language Teaching. – 3rd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 410 p.
5. Thornbury S. How to Teach Speaking. – London: Pearson Longman, 2018. – 156 p.

6. Vygotsky L. S. Thought and Language. – Cambridge: MIT Press, 2019. – 336 p.
7. Jalolov J. J. Chet tili o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020. – 320 b.
8. Ishmuhamedov R., Yo‘ldoshev M. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Nihol, 2021. – 280 b.
9. Mahmudov N. Til va tafakkur munosabati masalalari. – Toshkent: Fan, 2022. – 214 b.
10. Saydaliyev S. Chet tillarni o‘qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Tafakkur, 2023. – 196 b.
11. Xudoyberganova D. Lingvopragmatika va nutqiy kompetensiya masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2021. – 240 b.

## THE EFFECTIVENESS OF MULTIMEDIA TECHNOLOGIES IN DEVELOPING SPEAKING SKILLS

*Ulasheva Feruza Musurmon qizi,*

*Student of Urgut branch of Samarkand State University*

*ulashevafeuza3@gmail.com*

*ORCID0009-0008-3647-700*

*This study examines the effectiveness of multimedia technologies in developing speaking skills among EFL learners. The research involved 30 undergraduate students and employed pre-test and post-test speaking assessments, classroom observations, and a student questionnaire. The results showed that multimedia-supported instruction improved students' fluency, vocabulary use, pronunciation, and communicative effectiveness. In addition, multimedia tools increased students' motivation and classroom participation. The findings suggest that integrating multimedia technologies into language teaching can create more interactive learning environments and support the development of speaking skills in EFL classrooms.*

**Keywords:** *multimedia technologies, speaking skills, EFL learners, language teaching, multimedia-based instruction, communicative competence.*

## ЭФФЕКТИВНОСТЬ МУЛЬТИМЕДИЙНЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ УСТНОЙ РЕЧИ

*Данное исследование рассматривает эффективность мультимедийных технологий в развитии навыков устной речи у изучающих английский язык как иностранный (EFL). В исследовании приняли участие 30 студентов бакалавриата. Были использованы предварительное и итоговое тестирование устной речи, наблюдение за занятиями и анкетирование студентов. Результаты показали, что обучение с использованием мультимедийных средств улучшило беглость речи студентов, использование лексики, произношение и коммуникативную эффективность. Кроме того, мультимедийные инструменты повысили мотивацию студентов и их участие на занятиях. Полученные данные свидетельствуют о том, что интеграция мультимедийных технологий в преподавание языков способствует созданию более интерактивной образовательной среды и развитию навыков устной речи в аудитории EFL.*

**Ключевые слова:** *мультимедийные технологии, навыки устной речи, изучающие английский как иностранный, преподавание языков, обучение с использованием мультимедиа, коммуникативная компетенция.*

## NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA MULTIMEDIA TEXNOLOGIYALARINING SAMARADORLIGI

*Ushbu tadqiqot ingliz tilini chet tili sifatida o'rganayotgan (EFL) talabalar orasida nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda multimedia texnologiyalarining samaradorligini o'rganadi. Tadqiqotda 30 nafar bakalavr talabasi ishtirok etdi. Nutq ko'nikmalarini aniqlash uchun oldingi va keyingi testlar, dars jarayonini kuzatish hamda talabalar so'rovnomasi qo'llanildi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, multimedia vositalari asosida olib borilgan ta'lim talabalar nutq ravonligini, lug'at boyligini, talaffuzini va kommunikativ samaradorligini oshirdi. Bundan tashqari, multimedia vositalari talabalar motivatsiyasini va darsdagi faolligini kuchaytirdi. Tadqiqot natijalari multimedia texnologiyalarini til o'qitish jarayoniga integratsiya qilish yanada interaktiv o'quv muhitini yaratish va EFL sinflarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishini ko'rsatadi.*

**Kalit so'zlar:** *multimedia texnologiyalari; nutq ko'nikmalari; EFL o'quvchilari; til o'qitish; multimedia asosidagi ta'lim; kommunikativ kompetensiya.*

**Introduction.** In recent years, technological progress has significantly influenced the field of education. The integration of digital tools into language teaching has created new opportunities for improving students' learning experiences. Among these innovations, multimedia technologies have become an important component of English language teaching because they combine visual, audio, and interactive elements that support effective learning. Developing speaking skills is one of the most challenging aspects of

learning English as a Foreign Language (EFL). Many learners experience difficulties in expressing their ideas clearly and confidently due to limited practice and lack of communicative opportunities in traditional classrooms. As a result, students often struggle to develop fluency and effective communication skills.

Multimedia technologies offer various tools that can support speaking development in language classrooms. Educational videos, audio materials, and interactive presentations provide authentic language input and create more engaging learning environments. These resources encourage students to participate actively in discussions and speaking activities, which may improve their confidence and communicative competence. Therefore, investigating the effectiveness of multimedia technologies in developing speaking skills is an important issue in modern language education. This study aims to explore how multimedia-based instruction can contribute to the improvement of EFL learners' speaking abilities.

**Literature Review.** The use of multimedia technologies in language teaching has been widely examined by many researchers. Studies indicate that multimedia tools help make the language learning process more interactive, engaging, and effective. The theory of multimedia learning was developed by Richard Mayer (2009), who proposed the Cognitive Theory of Multimedia Learning. According to Mayer, learning becomes more effective when information is presented through both visual and auditory channels. The integration of images, audio, and text helps learners understand educational materials more deeply. Mayer and Moreno (2003) emphasize that multimedia materials, when properly organized and presented, can reduce cognitive overload among learners. According to their findings, multimodal instructional materials enable students to process linguistic information more effectively. In the context of technology-based language teaching, Beatty (2010) highlights the importance of Computer-Assisted Language Learning (CALL) environments. According to the researcher, digital technologies create conditions that resemble authentic language environments, which play a crucial role in developing speaking skills. Chapelle (2003) also argues that technology-enhanced learning environments contribute to the development of learners' communicative competence. In her view, authentic materials presented through multimedia technologies help learners understand real-life communicative situations. Harmer (2007) emphasizes the importance of audio-visual materials in language teaching and notes that videos and other multimedia resources make lessons more engaging and effective. Such materials demonstrate how language is used in real-life contexts and support learners' comprehension.

Researchers in Uzbekistan have also studied the role of multimedia technologies in language teaching. For example, Ogay (2020) emphasizes that multimedia tools and interactive games play an important role in developing students' language competence and increasing their motivation to learn. Karimova (2024) notes that the use of multimedia technologies improves the effectiveness of English language teaching. The study highlights that lessons organized through audio, video, and interactive platforms positively influence students' language skills. Kuziev (2023) also states that multimedia technologies increase students' interest in lessons and contribute to a more effective organization of the educational process. According to the research, the use of audio and visual materials enhances students' activity and facilitates the language learning process. The studies reviewed above demonstrate that multimedia technologies effectively support the language learning process. Multimedia tools increase learners' engagement, create authentic language environments, and promote communicative interaction. Nevertheless, it is still necessary to investigate more deeply the effectiveness of multimedia technologies specifically in developing speaking skills within particular EFL classroom contexts.

**Methodology.** This study employed a mixed-method research design in order to investigate the effectiveness of multimedia technologies in developing students' speaking skills in an EFL classroom. Both quantitative and qualitative data were collected to obtain a more comprehensive understanding of how multimedia-based instruction influences learners' speaking performance and classroom participation.

The participants of the study were 30 undergraduate students studying English as a Foreign Language at a higher educational institution. The students were at an intermediate level of English proficiency and had previously studied English through traditional teaching methods. The participants were selected randomly from one academic group. Their ages ranged between 18 and 21 years. The research was conducted over a period of four weeks. During this time, multimedia technologies were integrated into speaking lessons. Various multimedia tools such as educational videos, audio recordings, digital presentations, and interactive classroom activities were used to support students' speaking practice.

At the beginning of the study, a pre-test was conducted to evaluate the students' initial speaking abilities. After the implementation of multimedia-based instruction, a post-test was administered to measure any improvement in students' speaking performance. The speaking tests assessed several aspects of speaking skills, including fluency, pronunciation, vocabulary usage, and communicative effectiveness. Data for this study were collected through several research instruments. First, pre-test and post-test speaking assessments

were used to measure students' speaking development. Second, classroom observations were conducted during multimedia-based lessons in order to examine students' participation and interaction in speaking activities. Finally, a short questionnaire was distributed to students to gather their opinions about the use of multimedia technologies in speaking classes. The collected data were analyzed using descriptive statistical methods. The results of the pre-test and post-test were compared in order to determine whether multimedia-based instruction had a positive effect on students' speaking performance. In addition, students' responses to the questionnaire and classroom observations were analyzed qualitatively to identify patterns in students' attitudes and engagement during multimedia-supported lessons.

**Results.** The findings of the study indicate that the use of multimedia technologies had a positive impact on the development of students' speaking skills. In order to evaluate students' progress, the results obtained from the pre-test conducted at the beginning of the study were compared with the results of the post-test administered at the end of the research period.

The pre-test was designed to determine students' initial level of speaking ability. During the pre-test, students were asked to respond to several speaking tasks consisting of different parts.

**Part 1. Personal Introduction.**

Students were asked to answer the following questions:

- *Please introduce yourself.*
- *Why are you learning English?*
- *How often do you practice speaking English?*

**Part 2. Short Speaking Task.**

Students were required to speak about the following topics:

- *Describe your favorite hobby.*
- *How do you usually spend your free time?*

**Part 3. Picture Description.**

Students were shown a picture illustrating students using technology in the classroom. They were asked to describe the picture and answer the following questions:

- *What can you see in the picture?*
- *What are the students doing?*
- *Do you think technology is useful in learning English? Why?*

**Part 4. Opinion Questions.**

- *Do you think speaking English is difficult? Why or why not?*
- *What helps you improve your speaking skills?*

The results of the pre-test showed that many students experienced difficulties in expressing their ideas clearly and fluently in English. Their speech was often characterized by limited vocabulary, frequent pauses, and some pronunciation problems. The average score of the students in the pre-test was 62 out of 100.

After four weeks of speaking lessons supported by multimedia technologies, a post-test was conducted in order to assess students' progress. The post-test was administered after the multimedia-based instruction to evaluate the improvement in students' speaking abilities. Students were asked to respond to the following tasks.

**Part 1. Warm-up Questions**

- *How has technology helped you learn English?*
- *Do you like using videos and multimedia in language learning? Why?*

**Part 2. Speaking Task**

- *Describe how multimedia tools can help students learn English.*
- *Which multimedia tools do you find most useful for learning English?*

**Part 3. Situation Task**

Students were given the following situation: "You are preparing a presentation about technology in education." They were asked to answer the following questions:

- *What technologies can help students learn better?*
- *How can multimedia improve speaking skills?*

**Part 4. Discussion**

- *Do you think multimedia makes language learning more interesting?*
- *Would you prefer traditional lessons or multimedia-based lessons? Why?*

The post-test results demonstrated a noticeable improvement in students' speaking performance. The average score increased to 78 out of 100. This improvement indicates that the integration of multimedia technologies in speaking lessons had a positive influence on students' communicative abilities.

**Table presents the comparison between the pre-test and post-test results.**

Assessment Criteria	Pre-test Average Score	Post-test Average Score	Improvement
Fluency	60	76	+16
Pronunciation	64	79	+15
Vocabulary Usage	61	77	+16
Grammar Accuracy	63	78	+15
Communicative Effectiveness	62	80	+18
<b>Overall Average</b>	<b>62</b>	<b>78</b>	<b>+16</b>

The results clearly demonstrate that students’ speaking skills improved after the implementation of multimedia-based instruction. As shown in the table, all assessment criteria in the post-test were higher compared to the pre-test scores. The most noticeable improvement was observed in communicative effectiveness and fluency. This suggests that multimedia-supported lessons increased students’ participation during classroom activities and helped them express their ideas more confidently.

The results of the student questionnaire revealed that most participants considered multimedia-based lessons to be interesting and effective. According to their responses, the use of videos, audio materials, and interactive presentations helped them understand the topics better and encouraged them to participate more actively in speaking activities. The findings of the study suggest that multimedia technologies can be an effective tool in English language teaching, particularly in the development of speaking skills.

**Discussion.** The findings of the present study indicate that the integration of multimedia technologies into speaking lessons can effectively contribute to the development of students’ speaking skills. The improvement observed in the post-test results suggests that multimedia-supported instruction created a more engaging and supportive learning environment for students. The results of the study are consistent with the Cognitive Theory of Multimedia Learning proposed by Mayer. According to this theory, learning becomes more effective when learners receive information through multiple channels simultaneously, such as visual and auditory modes. In this study, the use of videos, audio materials, and interactive presentations helped students better understand the learning content and encouraged them to participate more actively in speaking activities. The findings of the study also support the views expressed by Harmer regarding the importance of audio-visual materials in language teaching. Harmer emphasizes that such materials allow learners to observe how language is used in real communicative situations. Similarly, in this research, multimedia materials helped students imagine authentic communication contexts and express their ideas more confidently during speaking activities.

Furthermore, the results of the study align with Chapelle’s perspective on technology-enhanced language learning environments. According to Chapelle, digital learning environments provide learners with valuable opportunities to actively use language and develop communicative competence. In the present study, the use of multimedia tools increased students’ classroom participation and strengthened their confidence in speaking English. Another important finding of the research relates to students’ motivation. Based on the results of the questionnaire, most students considered multimedia-supported lessons to be more interesting and effective compared to traditional classroom instruction. This result is also consistent with the findings of Yunus, Salehi, and Amini, who reported that multimedia technologies increase students’ engagement in classroom activities and enhance their interest in language learning. The improvement observed in fluency and communicative effectiveness suggests that multimedia technologies help transform the learning process into a more interactive and communicative environment. Multimedia-based activities such as video discussions, picture descriptions, and interactive presentations provided students with opportunities to express their ideas more freely and practice speaking skills in a meaningful way. The findings of this study demonstrate that multimedia technologies can serve as an effective pedagogical tool for developing speaking skills in EFL classrooms. By increasing learners’ motivation, creating authentic learning environments, and encouraging active participation, multimedia tools contribute to the development of students’ communicative competence.

**Conclusion.** This study demonstrated that the use of multimedia technologies plays an important role in teaching English as a Foreign Language, particularly in developing students’ speaking skills. The results of the pre-test and post-test conducted during the research confirmed that multimedia-based lessons led to a noticeable improvement in students’ speaking performance. Positive changes were especially observed in fluency, communicative effectiveness, and vocabulary usage.

The findings of the study also indicate that multimedia technologies help make the learning process more interactive, engaging, and effective. The use of video materials, audio recordings, and interactive presentations increased students’ participation during classroom activities and allowed them to express their ideas more confidently. In addition, these tools helped strengthen students’ confidence in communicating in

English. Furthermore, the results of the questionnaire revealed that multimedia-supported lessons increased students' motivation and their interest in learning English. This confirms that multimedia technologies can serve as one of the important pedagogical tools in modern language education.

Overall, integrating multimedia technologies into English language classrooms can contribute to the development of students' communicative competence and the effective improvement of their speaking skills. Future studies may further investigate the influence of multimedia technologies on other language skills, particularly listening, reading, and writing.

#### References:

1. Beatty, K. (2010). *Teaching and researching computer-assisted language learning*. London: Pearson Education.
2. Chappelle, C. A. (2003). *English language learning and technology: Lectures on applied linguistics in the age of information and communication technology*. Amsterdam: John Benjamins Publishing.
3. Gilakjani, A. P. (2012). The significant role of multimedia in motivating EFL learners' interest in English language learning. *International Journal of Modern Education and Computer Science*, 4(4), 57–66.
4. Harmer, J. (2007). *How to teach English* (2nd ed.). Harlow: Pearson Longman.
5. Hafner, C. A., & Miller, L. (2011). Fostering learner autonomy in English for science: A collaborative digital video project in a technological learning environment. *Language Learning & Technology*, 15(3), 68–86.
6. Karimova, D. (2024). The role of multimedia technologies in improving English language teaching. *International Journal of Language Education*, 8(1), 45–52.
7. Kuziev, S. (2023). The importance of multimedia technologies in modern language education. *Journal of Educational Technology and Innovation*, 6(2), 33–40.
8. Mayer, R. E. (2009). *Multimedia learning* (2nd ed.). Cambridge: Cambridge University Press.
9. Ogay, S. (2020). Use of multimedia technologies in teaching English to young learners. // *International Journal of Innovative Research in Education*, 7(2), 112–118.
10. Wang, Y., & Shen, C. (2012). Effects of multimedia learning environments on students' speaking skills. // *Journal of Educational Technology Development and Exchange*, 5(1), 45–54.
11. Yunus, M. M., Salehi, H., & Amini, M. (2013). Impact of using multimedia on students' motivation in learning English. // *Asian Social Science*, 9(1), 114–123.

**СИСТЕМА ЗАДАНИЙ, РАЗВИВАЮЩИХ САНОГЕННОЕ МЫШЛЕНИЕ, НА  
ЗАНЯТИЯХ ПО МЕТОДИКЕ ПРЕПОДАВАНИЯ РОДНОГО ЯЗЫКА**

*Улжаева Хурида,*

*докторант Шахрисабзского государственного*

*педагогического института*

*xurshidaoljayeva70@gmail.com*

*ORCID: 0009-0001-6679-1541*

*В статье представлены результаты экспериментального исследования развития саногенного мышления будущих учителей родного языка с использованием специально разработанной системы заданий на уроках методики преподавания родного языка. Исследование проводилось среди 76 участников (группы 1-22, 2-22, 3-22, 4-22) студентов 3-го курса факультета начального образования Навоийского государственного университета. Использовалась диагностическая методика Ю.М. Орлова для определения уровня саногенного мышления, педагогический эксперимент и методы сравнительного анализа.*

*До начала эксперимента только 28% студентов имели высокий уровень саногенного мышления, 42% — средний уровень и 30% — низкий уровень. После внедрения системы заданий показатели значительно улучшились: высокий уровень — 67%, средний — 28%, низкий — 5% ( $\chi^2=24,7$ ;  $p<0,001$ ). Сравнительный анализ пяти типов заданий выявил следующее: задания на рефлексию развили рефлексивную компетентность на 93%, анализ литературных текстов развил эмоциональную саморегуляцию на 91%, решение коммуникативно-проблематичных ситуаций развило конструктивное общение на 95%, а ролевые игры развили стрессоустойчивость на 89%. Задания на обсуждение обеспечили сбалансированное развитие всех компонентов саногенных мыслей.*

**Ключевые слова:** *саногенное мышление, методика преподавания родного языка, рефлексия, эмоциональный интеллект, система заданий, Ю.М. Орлов, патогенное мышление, эмоциональная саморегуляция, ролевые игры, педагогическая рефлексия.*

**ONA TILI O'QITISH METODIKASI DARSLARIDA SANOGEN TAFAKKURNI  
RIVOJLANTIRUVCHI TOPSHIRIQLAR TIZIMI**

*Maqolada bo'lajak ona tili o'qituvchilarining sanogen tafakkurini ona tili o'qitish metodikasi darslarida maxsus ishlab chiqilgan topshiriqlar tizimi yordamida rivojlantirish bo'yicha eksperimental tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot Navoiy davlat universiteti Boshlang'ich ta'lim fakulteti 3-kurs talabalari (1-22, 2-22, 3-22, 4-22 guruhlar) orasida 76 nafar ishtirokchi bilan o'tkazilgan. Yu.M. Orlovning sanogen tafakkur darajasini aniqlash diagnostik metodikasi, pedagogik eksperiment va qiyosiy tahlil usullari qo'llanilgan.*

*Tajriba boshlanishidan oldin talabalarining faqat 28%i sanogen tafakkurning yuqori darajasiga ega edi, 42%i — o'rta, 30%i — past darajaga ega bo'lgan. Topshiriqlar tizimi joriy etilgandan so'ng ko'rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilandi: yuqori daraja — 67%, o'rta — 28%, past — 5% ( $\chi^2=24,7$ ;  $p<0,001$ ). Beshta topshiriq turini qiyosiy tahlil qilish quyidagilarni aniqladi: refleksiv topshiriqlar refleksiv kompetensiyani 93%, badiiy matnlar tahlili emotsional o'z-o'zini boshqarishni 91%, kommunikativ-muammoli vaziyatlar konstruktiv muloqotni 95%, rolli o'yinlar stressga chidamlilikni 89% rivojlantirdi. Munozara topshiriqlari sanogen tafakkurning barcha komponentlarini muvozanatli rivojlantirishni ta'minladi.*

**Калит so'zlar:** *sanogen tafakkur, ona tili o'qitish metodikasi, refleksiya, emotsional intellekt, topshiriqlar tizimi, Yu.M. Orlov, patogen tafakkur, emotsional o'z-o'zini boshqarish, rolli o'yinlar, pedagogik refleksiya.*

**SYSTEM OF TASKS DEVELOPING SANOGENIC THINKING IN NATIVE LANGUAGE  
TEACHING METHODOLOGY LESSONS**

*The article presents the results of an experimental study on the development of sanogenic thinking in future native language teachers in lessons of native language teaching methodology using a specially*

*designed system of tasks. The study was conducted among 76 third-year students of the Faculty of Primary Education of Navoi State University (groups 1-22, 2-22, 3-22, 4-22). Yu.M. Orlov's diagnostic methodology for determining the level of sanogenic thinking, pedagogical experiment and comparative analysis methods were applied.*

*It was established that before the experiment only 28% of students possessed a high level of sanogenic thinking, 42% — medium, 30% — low level. After the implementation of the task system, the indicators improved significantly: high level — 67%, medium — 28%, low — 5% ( $\chi^2=24.7$ ;  $p<0.001$ ). Comparative analysis of five types of tasks revealed: reflective tasks developed reflective competence by 93%, analysis of literary texts — emotional self-regulation by 91%, communicative-problem situations — constructive communication by 95%, role-playing games — stress resistance by 89%. Discussion tasks ensured balanced development of all components of sanogenic thinking.*

**Keywords:** *sanogenic thinking, native language teaching methodology, reflection, emotional intelligence, task system, Yu.M. Orlov, pathogenic thinking, emotional self-regulation, role-playing games, pedagogical reflection.*

**Введение.** Современная система высшего педагогического образования предполагает не только формирование профессиональных компетенций будущих учителей, но и развитие у них психологически здоровых форм мышления. В условиях интенсификации педагогической деятельности и роста эмоциональных нагрузок особую значимость приобретает развитие саногенного мышления – особого типа мышления, направленного на снижение страданий, преодоление негативных эмоций и сохранение психологического здоровья личности.

Понятие «саногенное мышление» (от лат. sanus – здоровый и греч. genesis – происхождение) введено в научный оборот Ю.М. Орловым [1] и противопоставлено патогенному мышлению, которое порождает болезни и страдания. Саногенное мышление характеризуется осознанностью, рефлексивностью, способностью управлять собственными эмоциональными состояниями и направлено на гармонизацию внутреннего мира личности.

Развитие саногенного мышления у будущих учителей родного языка приобретает особое значение, поскольку их профессиональная деятельность тесно связана с эмоционально-ценностной сферой обучающихся. Учитель родного языка не только передаёт лингвистические знания, но и формирует у школьников ценностное отношение к родной культуре, литературе, нравственным идеалам. Психологически здоровый учитель способен создавать благоприятную образовательную среду, эффективно разрешать педагогические конфликты и поддерживать высокий уровень мотивации обучающихся.

В Законе Республики Узбекистан «Об образовании» (2020) подчёркивается важность всестороннего развития личности обучающихся, формирования у них устойчивых нравственно-психологических качеств. Президент Республики Узбекистан Ш.М. Мирзиёев в своих выступлениях неоднократно акцентировал необходимость подготовки педагогов нового типа, обладающих не только глубокими предметными знаниями, но и развитыми личностными качествами, психологической устойчивостью и способностью к саморазвитию.

Занятия по методике преподавания родного языка обладают значительным потенциалом для развития саногенного мышления студентов. Этот курс предполагает анализ художественных текстов, разбор педагогических ситуаций, проведение учебных дискуссий, что создаёт благоприятные условия для рефлексивно-эмоциональной работы. Однако в существующей практике вузовского обучения этот потенциал реализуется недостаточно: преобладают репродуктивные задания, ориентированные на запоминание методических положений, а не на развитие психологических компетенций будущих учителей.

**Анализ литературных источников.** Теоретическую основу исследования составили работы Ю.М. Орлова, разработавшего концепцию саногенного мышления и методику его диагностики [1]. С.Л. Рубинштейн рассматривает мышление как процесс, неразрывно связанный с эмоциональной сферой личности [2]. Л.С. Выготский исследует роль речи в формировании высших психических функций, что особенно важно для методики преподавания родного языка [3]. А.А. Леонтьев анализирует психолого-педагогические основы обучения языку [4]. И.А. Зимняя рассматривает педагогическую психологию и компетентностный подход в образовании [5].

В области саногенного мышления значительный вклад внесли последователи и ученики Ю.М. Орлова. С.Н. Морозюк исследует развитие саногенной рефлексии и её роль в профессиональной деятельности педагога [6]. Н.В. Кочубей анализирует психолого-педагогические условия

формирования саногенного мышления у будущих специалистов [7]. О.А. Шумакова разрабатывает технологии развития саногенного мышления в образовательном процессе [8].

Методика преподавания родного языка имеет богатую теоретическую базу. К.Д. Ушинский разрабатывал основы родного языка как предмета преподавания [9]. М.Р. Львов и Т.Г. Рамзаева создали фундаментальные труды по методике преподавания русского языка [10]. М. Содиков [11] и С. Юнусов [12] разработали современные подходы к методике преподавания узбекского языка. К. Юсупов исследует коммуникативно-деятельностный подход [13]. М. Йулдошев анализирует развитие речевых компетенций школьников [14].

Современные педагогические исследования подтверждают эффективность интерактивных и рефлексивных методов обучения. Дж. Дьюи обосновал концепцию рефлексивного обучения [15]. Д. Шён исследовал рефлексивную практику педагога [16]. Б. Блум разработал таксономию образовательных целей, включающую эмоциональную сферу [17]. Д. Гоулман изучает роль эмоционального интеллекта в профессиональной деятельности [18]. К. Роджерс акцентирует внимание на гуманистическом подходе и значимости эмоциональной поддержки обучающихся [19]. М. Селигман развивает концепцию позитивной психологии, тесно связанную с идеями саногенного мышления [20].

Исследования в Узбекистане также подтверждают значимость психолого-педагогического подхода. У. Махкамов исследует психологические основы педагогического образования [21]. Н. Мухаммадиев анализирует развитие профессиональных качеств будущих учителей [22]. Д. Каримова разрабатывает методики развития эмоционального интеллекта педагогов [23]. Г. Хайдарова рассматривает технологии формирования рефлексивной компетентности [24]. Б. Тошматов анализирует роль гуманистических ценностей в подготовке учителя [25].

Несмотря на значительный научный задел, проблема целенаправленного развития саногенного мышления у будущих учителей родного языка посредством методики преподавания родного языка остаётся недостаточно изученной. Данное исследование направлено на восполнение этого пробела путём разработки и экспериментальной проверки системы заданий, развивающих саногенное мышление студентов на занятиях по методике преподавания родного языка.

**Результаты.** Диагностика исходного уровня саногенного мышления 76 студентов с использованием опросника Ю.М. Орлова показала: 28% студентов (n=21) продемонстрировали высокий уровень саногенного мышления, 42% (n=32) – средний, 30% (n=23) – низкий уровень. Преобладали показатели патогенного мышления по шкалам «обида» (среднее значение 14,2 балла) и «чувство вины» (12,8 балла), что свидетельствует о склонности студентов к деструктивным эмоциональным реакциям в межличностном взаимодействии ( $\chi^2=21,6$ ;  $p<0,01$ ).

В рамках экспериментальной работы была разработана и внедрена система заданий, включающая пять типов: рефлексивные задания, анализ художественных текстов, коммуникативно-проблемные ситуации, ролевые игры, дискуссионные задания. Каждый тип заданий выполнял специфическую функцию в развитии компонентов саногенного мышления и был интегрирован в содержание курса «Методика преподавания родного языка».

Повторная диагностика после 16-недельного экспериментального обучения выявила значительные позитивные изменения: 67% студентов (n=51) достигли высокого уровня саногенного мышления, 28% (n=21) – среднего, 5% (n=4) – низкого уровня ( $\chi^2=24,7$ ;  $p<0,001$ ). Среднее значение по шкале «обида» снизилось до 7,4 балла, по шкале «чувство вины» – до 6,9 балла, что указывает на существенное снижение проявлений патогенного мышления.

Сравнительный анализ эффективности пяти типов заданий по четырём компонентам саногенного мышления показал следующие результаты (таблица 1):

**Таблица 1. Эффективность типов заданий в развитии компонентов саногенного мышления (%)**

Тип заданий	Рефлексивная компетентность	Эмоциональная саморегуляция	Конструктивное общение	Стрессоустойчивость
Рефлексивные задания	<b>93</b>	87	82	85
Анализ художественных текстов	89	<b>91</b>	84	81
Коммуникативно-проблемные ситуации	85	88	<b>95</b>	87
Ролевые игры	82	86	88	<b>89</b>
Дискуссионные задания	86	84	88	87

Корреляционный анализ выявил высокую взаимосвязь между типами заданий ( $r=0,89$ ;  $p<0,01$ ). Рефлексивные задания продемонстрировали максимальный результат по развитию рефлексивной компетентности (93%), анализ художественных текстов – по эмоциональной саморегуляции (91%), коммуникативно-проблемные ситуации – по конструктивному общению (95%), ролевые игры – по стрессоустойчивости (89%). Дискуссионные задания обеспечили наиболее сбалансированное развитие всех компонентов саногенного мышления (84–88%).

Качественный анализ рефлексивных дневников студентов показал: 84% ( $n=64$ ) отметили улучшение собственного эмоционального состояния, 79% ( $n=60$ ) – повышение уверенности при работе с конфликтными педагогическими ситуациями, 88% ( $n=67$ ) — осознание значимости саногенного мышления для будущей профессиональной деятельности учителя родного языка.

Основные выводы исходных данных: рефлексивно-эмоциональный потенциал занятий по методике преподавания родного языка реализуется эффективно при использовании специально разработанной системы заданий; высокий рост показателей (с 28% до 67% по уровню высокого саногенного мышления) подтверждает эффективность методики; ни один тип заданий не доминирует по всем компонентам, что обосновывает необходимость их системной интеграции.

**Обсуждение.** Полученные результаты подтверждают эффективность предложенной системы заданий в развитии саногенного мышления будущих учителей родного языка. Значительный рост числа студентов с высоким уровнем саногенного мышления (с 28% до 67%) свидетельствует о том, что занятия по методике преподавания родного языка обладают существенным психолого-педагогическим потенциалом, который реализуется при целенаправленной организации учебного процесса. Эти результаты согласуются с концепцией Ю.М. Орлова о возможности целенаправленного развития саногенного мышления через систематические практические упражнения.

Снижение средних значений по шкалам «обида» и «чувство вины» (с 14,2 до 7,4 и с 12,8 до 6,9 балла соответственно) отражает преодоление студентами деструктивных эмоциональных паттернов и формирование конструктивного отношения к межличностным конфликтам. Это особенно важно для будущих учителей родного языка, профессиональная деятельность которых связана с интенсивным эмоциональным взаимодействием с обучающимися.

Анализ эффективности различных типов заданий выявил их специализацию: каждый тип заданий преимущественно развивает определённый компонент саногенного мышления. Рефлексивные задания, требующие осознанного анализа собственных мыслей и эмоций, наиболее эффективно развивают рефлексивную компетентность (93%), что соответствует положениям Д. Шёна о рефлексивной практике педагога. Анализ художественных текстов формирует эмоциональную саморегуляцию (91%), поскольку требует от студентов глубокого проникновения в эмоциональный мир литературных героев и сопоставления его с собственным внутренним опытом, – это положение согласуется с теорией Л.С. Выготского о роли искусства в развитии высших чувств.

Коммуникативно-проблемные ситуации демонстрируют максимальную эффективность в развитии конструктивного общения (95%), поскольку моделируют реальные педагогические взаимодействия и требуют от студентов поиска оптимальных коммуникативных стратегий. Ролевые игры обеспечивают высокий уровень развития стрессоустойчивости (89%), создавая условия для проживания и преодоления эмоционально напряжённых педагогических ситуаций в безопасной учебной обстановке. Дискуссионные задания, обеспечивающие сбалансированное развитие всех компонентов (84–88%), подтверждают концепцию Дж. Дьюи о развивающем потенциале дискуссионных форм обучения.

Качественные данные рефлексивных дневников студентов (84% отметили улучшение эмоционального состояния, 88% – осознание значимости саногенного мышления для профессии) демонстрируют не только когнитивные, но и личностно-ценностные изменения участников эксперимента. Это согласуется с гуманистической концепцией К. Роджерса о значимости личностного роста в образовательном процессе и с теорией позитивной психологии М. Селигмана.

Выявленная высокая корреляция между типами заданий ( $r=0,89$ ;  $p<0,01$ ) обосновывает целесообразность системного подхода к развитию саногенного мышления. Ни один отдельный тип заданий не обеспечивает максимального развития всех компонентов, что подтверждает необходимость их синергетической интеграции в рамках единой методической системы. Полученные данные расширяют существующие представления о возможностях методики преподавания родного языка в развитии не только лингводидактических компетенций, но и психологически здоровых форм мышления у будущих учителей.

**Заключение.** Проведённое экспериментальное исследование подтвердило эффективность разработанной системы заданий в развитии саногенного мышления будущих учителей родного языка на занятиях по методике преподавания родного языка. Эксперимент с участием 76 студентов 3-го курса Навоийский государственный университета выявил следующие ключевые результаты: уровень высокого саногенного мышления возрос с 28% до 67%, средние значения по шкалам «обида» и «чувство вины» снизились на 47–48%, рефлексивные задания развили рефлексивную компетентность на 93%, анализ художественных текстов – эмоциональную саморегуляцию на 91%, коммуникативно-проблемные ситуации – конструктивное общение на 95%, ролевые игры – стрессоустойчивость на 89%, дискуссионные задания обеспечили сбалансированное развитие всех компонентов (84–88%).

Полученные данные имеют значительное практическое значение для модернизации содержания и технологий профессиональной подготовки учителей родного языка. Рекомендуется внедрение в учебные планы педагогических вузов специально разработанной системы заданий, развивающих саногенное мышление студентов; включение в курс «Методика преподавания родного языка» модуля рефлексивно-эмоциональной работы; систематическое использование рефлексивных дневников как инструмента самонаблюдения и саморазвития студентов; интеграция диагностических методик Ю.М. Орлова в систему мониторинга профессионального развития будущих учителей.

Теоретическое значение исследования заключается в обосновании психолого-педагогического потенциала методики преподавания родного языка как средства развития саногенного мышления и в экспериментальном подтверждении эффективности системного подхода к организации заданий, направленных на формирование здоровых форм мышления у будущих педагогов. Результаты вносят вклад в педагогическую науку Узбекистана, дополняя существующие исследования в области профессиональной подготовки учителей родного языка психологически обоснованными методическими решениями.

#### Литература:

1. Орлов Ю. М. Саногенное мышление. — 2-е изд., испр. — Москва: Слайдинг, 2006. — 96 с.
2. Орлов Ю. М. Самопознание и самовоспитание характера: беседы психолога со старшеклассниками. — Москва: Просвещение, 1987. — 224 с.
3. Морозюк С. Н. Саногенная рефлексия как фактор оптимизации акцентуаций характера и повышения эффективности учебной деятельности: дис. ... д-ра психол. наук. Москва, 2001. — 382 с.
4. Рубинштейн С. Л. Основы общей психологии. — Санкт-Петербург: Питер, 2002. — 720 с.
5. Выготский Л. С. Мышление и речь. — Москва: Лабиринт, 1999. — 352 с.
6. Леонтьев А. А. Основы психолингвистики. — Москва: Смысл, 2003. — 287 с.
7. Леонтьев А. Н. Деятельность. Сознание. Личность. — Москва: Смысл; Академия, 2005. 352 с.
8. Зимняя И. А. Педагогическая психология. — Москва: Логос, 2010. — 384 с.
9. Божович Л. И. Личность и её формирование в детском возрасте. — Санкт-Петербург: Питер, 2008. — 400 с.
10. Давыдов В. В. Теория развивающего обучения. — Москва: Интор, 1996. — 544 с.
11. Гальперин П. Я. Психология как объективная наука. — Москва: Институт практической психологии; Воронеж: МОДЭК, 1998. — 480 с.
12. Эльконин Д. Б. Психология обучения младшего школьника. — Москва: Знание, 1974. — 64 с.
13. Ушинский К. Д. Родное слово // Собрание сочинений: в 11 т. — Москва: Изд-во АПН РСФСР, 1948. — Т. 2. — 656 с.
14. Львов М. Р., Рамзаева Т. Г., Светловская Н. Н. Методика обучения русскому языку в начальных классах. — Москва: Академия, 2012. — 464 с.
15. Қосимова К., Матчонов С., Ғуломова Х., Йўлдошева Ш., Сариев Ш. Она тили ўқитиш методикаси. — Тошкент: Ношир, 2009. — 352 б.
16. Тўхлиев Б., Шамсиева М., Зиёдова Т. Ўзбек тили ўқитиш методикаси. — Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. — 240 б.
17. Юсупова Т. Ўзбек тилини ўқитиш методикаси. 1-қисм: ўқув қўлланма. Тошкент, 2020. 182 б.
18. Абдираимов Ш. С. Она тили таълимида ўқиб тушуниш малакасини баҳолашнинг илмий-методик асослари: пед. фан. бўйича фалсафа доктори дисс. — Тошкент, 2021. — 134 б.

19.Қурбонова О. Б. 10–11-синф она тили дарсларида ўқувчиларнинг нутқий компетенцияларини ривожлантириш методикасини такомиллаштириш: пед. фан. бўйича фалсафа доктори автореф. — Тошкент, 2021. — 48 б.

20.Dewey J. How We Think: A Restatement of the Relation of Reflective Thinking to the Educative Process. — Boston: D. C. Heath & Co., 1933. — 301 p.

21.Schön D. A. The Reflective Practitioner: How Professionals Think in Action. — New York: Basic Books, 1983. — 374 p.

22.Bloom B. S. Taxonomy of Educational Objectives: The Classification of Educational Goals. Handbook I: Cognitive Domain. — New York: Longman, 1956. — 207 p.

23.Goleman D. Emotional Intelligence: Why It Can Matter More Than IQ. — New York: Bantam Books, 1995. — 352 p.

24.Rogers C. R. Freedom to Learn. Columbus: Charles E. Merrill Publishing Company, 1969. 358 p.

25.Seligman M. E. P. Authentic Happiness: Using the New Positive Psychology to Realize Your Potential for Lasting Fulfillment. — New York: Free Press, 2002. — 336 p.

## ДИДАКТИЧЕСКИЙ ПОТЕНЦИАЛ LMS-ПЛАТФОРМ В ОБУЧЕНИИ РУССКОМУ ЯЗЫКУ

**Султонова Сайёра Холмирзаевна,**  
старший преподаватель Университета Sarbon,  
г. Ташкент, Республика Узбекистан  
planeta\_2112@mail.ru /  
ORCID: [0009-0001-0530-7437]

*В статье рассматривается дидактический потенциал систем управления обучением (LMS) – платформ Moodle и Google Classroom – в обучении русскому языку как иностранному. На основе анализа научной литературы и педагогической практики выявлены основные функции LMS в образовательном процессе, проведён сравнительный анализ платформ Moodle и Google Classroom, определены конкретные возможности их применения при обучении различным аспектам русского языка. Особое внимание уделяется реализации моделей смешанного обучения и «перевернутого класса» на базе LMS-платформ в условиях узбекских вузов. Результаты исследования могут быть использованы при разработке методики подготовки учителей русского языка с применением цифровых технологий.*

**Ключевые слова:** LMS-платформы, Moodle, Google Classroom, дидактический потенциал, обучение русскому языку, цифровые технологии, смешанное обучение, компетентность учителя.

### RUS TILINI O‘QITISHDA LMS-PLATFORMALARNING DIDAKTIK SALOHİYATI

*Ushbu maqolada rus tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda ta’limni boshqarish tizimlari (LMS) – Moodle va Google Classroom platformalarining didaktik salohiyati ko‘rib chiqilgan. Ilmiy adabiyotlar va pedagogik amaliyot tahlili asosida ta’lim jarayonida LMSning asosiy funksiyalari aniqlangan, Moodle va Google Classroom platformalarining qiyosiy tahlili o‘tkazilgan hamda rus tilining turli jihatlarini o‘qitishda ulardan foydalanishning aniq imkoniyatlari belgilab berilgan. O‘zbekiston oliy o‘quv yurtlari sharoitida LMS-platformalar asosida aralash ta’lim va “ag‘darilgan sinfxona” modellarini tatbiq etishga alohida e’tibor qaratilgan. Tadqiqot natijalaridan raqamli texnologiyalarni qo‘llagan holda rus tili o‘qituvchilarini tayyorlash metodikasini ishlab chiqishda foydalanish mumkin.*

**Kalit so‘zlar:** LMS-platformalar, Moodle, Google Classroom, didaktik salohiyat, rus tilini o‘qitish, raqamli texnologiyalar, aralash ta’lim, o‘qituvchi kompetentligi.

### THE DIDACTIC POTENTIAL OF LMS PLATFORMS IN TEACHING RUSSIAN

*This article examines the didactic potential of learning management systems (LMS) —specifically the Moodle and Google Classroom platforms—in teaching Russian as a foreign language. Based on an analysis of academic literature and pedagogical practice, the primary functions of LMS in the educational process are identified. The article also provides a comparative analysis of the Moodle and Google Classroom platforms and outlines specific opportunities for their application in teaching various aspects of the Russian language. Particular attention is given to the implementation of blended learning and "flipped classroom" models using LMS platforms within Uzbek universities. The research findings can be applied to the development of training methodologies for Russian language teachers that incorporate digital technologies.*

**Keywords:** LMS platforms, Moodle, Google Classroom, didactic potential, Russian language teaching, digital technologies, blended learning, teacher competence.

**Введение.** Стремительное развитие цифровых технологий кардинально трансформировало подходы к организации образовательного процесса в высшей школе. Одним из ключевых инструментов этой трансформации стали системы управления обучением (Learning Management Systems, LMS) – программные платформы, обеспечивающие комплексное управление учебным процессом в цифровой среде. В условиях реализации государственной программы «Цифровой Узбекистан – 2030» и масштабной цифровизации системы высшего образования республики вопрос о дидактическом потенциале LMS-платформ в обучении русскому языку приобретает особую научную и практическую значимость.

*Актуальность* данной проблемы обусловлена рядом факторов.

**Во-первых**, русский язык в Узбекистане выполняет важные функции языка межнационального общения и международного сотрудничества, что требует постоянного совершенствования методики его преподавания.

**Во-вторых**, традиционные методы обучения русскому языку не в полной мере отвечают потребностям цифрового общества и ожиданиям современных студентов. В-третьих, педагогическая практика показывает, что потенциал LMS-платформ в обучении русскому языку используется фрагментарно и несистематично.

**Цель настоящей статьи** – выявить и систематизировать дидактический потенциал LMS-платформ Moodle и Google Classroom в обучении русскому языку, определить конкретные возможности их применения при формировании различных языковых компетенций.

**Теоретические основы применения Lms в языковом образовании.** Понятие «системы управления обучением» (LMS) прочно вошло в педагогический дискурс в начале XXI века. Е.С. Полат определяет образовательные технологии на основе ИКТ как совокупность методов и технических средств, расширяющих знания людей и развивающих их возможности в управлении образовательными процессами [1]. А.А. Андреев рассматривает LMS как программную оболочку, обеспечивающую администрирование, документирование, отслеживание, отчётность и доставку электронных образовательных курсов [2].

В контексте обучения иностранным языкам, в том числе русскому языку, LMS-платформы получили широкое распространение благодаря их способности создавать аутентичную коммуникативную среду в цифровом пространстве. Исследования Г.А. Китайгородской показывают, что эффективное обучение языку предполагает максимальное погружение в языковую среду [3], которую LMS-платформы способны моделировать посредством разнообразных цифровых инструментов.

Теоретическую базу применения LMS в языковом образовании составляют несколько ключевых концепций. Коммуникативный подход Е.И. Пассова ориентирует обучение на формирование реальной коммуникативной компетенции [4], которая в цифровой среде LMS реализуется через форумы, чаты, видеоконференции и совместные проекты. Теория конструктивизма Дж. Дьюи и Л.С. Выготского [5] обосновывает активную роль обучающегося в конструировании знаний, что находит отражение в проектных и творческих заданиях LMS-платформ. Модель ТРАСК М. Кёлера и П. Мишры [6] описывает необходимую интеграцию технологических, педагогических и предметных знаний учителя, что особенно актуально для подготовки учителей русского языка в условиях цифровизации.

**Основные функции LMS в обучении русскому языку.** Анализ педагогической практики и научной литературы позволяет выделить пять основных функций LMS-платформ в обучении русскому языку.

Информационная функция обеспечивает структурированный доступ к разнообразным учебным материалам по русскому языку: текстовым лекциям, видеоурокам, аудиозаписям, интерактивным презентациям, грамматическим справочникам. В отличие от традиционного учебника, LMS позволяет интегрировать мультимедийный контент и обеспечивать к нему круглосуточный доступ, что особенно важно для самостоятельной работы студентов над совершенствованием русскоязычной компетенции.

Коммуникативная функция реализует одно из ключевых требований коммуникативного метода обучения языкам – организацию реального общения на изучаемом языке. LMS-платформы предоставляют разнообразные инструменты для коммуникации на русском языке: форумы для письменных дискуссий, чаты для синхронного общения, видеоконференции для развития устной речи, вики-проекты для совместного создания текстов. Важно отметить, что коммуникация в цифровой среде снижает языковую тревожность студентов и создаёт более комфортные условия для языковой практики по сравнению с традиционным аудиторным форматом.

Контролирующая функция обеспечивает объективную и своевременную оценку уровня владения русским языком. Встроенные системы тестирования в Moodle и Google Forms позволяют создавать разнообразные типы заданий: тесты с множественным выбором для проверки грамматики, задания на соответствие для отработки лексики, задания с развёрнутым ответом для оценки письменной речи. При этом автоматическая проверка заданий обеспечивает мгновенную обратную связь, а аналитические инструменты LMS позволяют преподавателю отслеживать прогресс каждого студента.

Развивающая функция способствует формированию не только языковых, но и метапредметных компетенций: навыков самостоятельной работы, цифровой грамотности, критического мышления, умения работать с информацией. Выполнение заданий в LMS требует от студентов развития навыков самоорганизации и самоконтроля, что особенно важно для будущих учителей русского языка.

Организационная функция обеспечивает структурирование учебного процесса по русскому языку: планирование занятий, управление учебными группами, выставление оценок, ведение электронного журнала. LMS позволяет выстроить чёткую систему учебных модулей, тематических разделов и контрольных точек, обеспечивая прозрачность образовательного процесса для всех его участников.

**Сравнительный анализ Moodle и Google Classroom.** Среди многообразия LMS-платформ, применяемых в современном образовании, наибольшее распространение в вузах Узбекистана получили Moodle и Google Classroom. Рассмотрим их сравнительный дидактический потенциал применительно к обучению русскому языку.

**Moodle** (Modular Object-Oriented Dynamic Learning Environment) — открытая платформа с богатым функционалом для создания полноценных электронных курсов. Для обучения русскому языку Moodle предоставляет следующие возможности: разнообразные типы заданий (загрузка файла, онлайн-ввод текста, вики, аудио/видеоответ), широкий спектр типов тестовых вопросов (множественный выбор, краткий ответ, соответствие, перетаскивание, эссе), форумы для организации письменной дискуссии на русском языке, инструменты условного доступа для индивидуализации обучения, детальная аналитика учебной деятельности студентов.

Особую ценность для обучения русскому языку представляет функция адаптивного тестирования в Moodle: система автоматически подбирает вопросы в соответствии с уровнем знаний студента, что позволяет дифференцировать обучение. Кроме того, модуль «Урок» в Moodle позволяет создавать нелинейные интерактивные уроки по грамматике русского языка с разветвлёнными сценариями в зависимости от ответов студента.

**Google Classroom** – облачная платформа, интегрированная с экосистемой Google. Для обучения русскому языку она предоставляет следующие возможности: простое создание и распределение заданий с прикреплёнными материалами, интеграцию с Google Docs для организации совместного написания текстов на русском языке, Google Forms для создания тестов и опросов, Google Meet для проведения видеоконференций и практики устной речи, удобную систему комментирования работ студентов.

Принципиальным преимуществом Google Classroom является простота использования и доступность: платформа бесплатна, не требует технической настройки и доступна со смартфона, что особенно важно в условиях ограниченного доступа к компьютерной технике у части студентов узбекских вузов. Сравнительный анализ платформ представлен в таблице 1.

**Таблица 1. Сравнительный дидактический потенциал Moodle и Google Classroom**

Параметр	Moodle	Google Classroom
Создание курсов	<i>Полноценный конструктор</i>	<i>Простые задания</i>
Типы заданий	<i>15+ типов</i>	<i>5 типов</i>
Тестирование	<i>Широкий спектр</i>	<i>Google Forms</i>
Аналитика	<i>Детальная статистика</i>	<i>Ограниченная</i>
Адаптивность	<i>Условный доступ</i>	<i>Не предусмотрена</i>
Коммуникация	<i>Форумы, чаты</i>	<i>Комментарии, Meet</i>
Доступность	<i>Требуется настройка</i>	<i>Бесплатно, просто</i>
Мобильность	<i>Приложение Moodle</i>	<i>Полноценное приложение</i>

Таким образом, Moodle и Google Classroom не конкурируют, а взаимно дополняют друг друга: первая платформа оптимальна для создания структурированных учебных курсов с детальной аналитикой, вторая – для оперативного взаимодействия и совместной работы над текстами на русском языке.

**Конкретные возможности LMS при обучении различным аспектам русского языка.** Рассмотрим конкретные методические возможности LMS-платформ применительно к обучению различным аспектам русского языка.

**Обучение грамматике.** Moodle предоставляет уникальные возможности для отработки грамматических явлений русского языка: автоматически проверяемые тесты с мгновенной обратной связью, задания на заполнение пропусков, упражнения на перетаскивание для отработки порядка слов в предложении, адаптивные тесты с нарастающим уровнем сложности. Особую ценность

представляет возможность создания банков вопросов по каждой грамматической теме с последующей автоматической генерацией индивидуальных вариантов контрольных работ.

*Развитие письменной речи.* Google Classroom в сочетании с Google Docs создаёт оптимальные условия для развития письменной речи на русском языке. Преподаватель может организовать совместное редактирование текстов в реальном времени, оставлять комментарии непосредственно в тексте работы студента, отслеживать историю изменений.

Функция Moodle «Задание» позволяет организовать написание развёрнутых творческих работ с детальными рубриками оценивания.

*Развитие устной речи.* Интеграция Google Classroom с Google Meet открывает возможности для организации практики устной речи в цифровой среде: ролевые игры, дискуссии, презентации на русском языке в видеоформате. В Moodle функция «Задание с аудиоответом» позволяет студентам записывать устные высказывания на русском языке, что преподаватель оценивает в удобное для него время.

*Обучение чтению и аудированию.* LMS-платформы предоставляют широкие возможности для работы с аутентичными текстами и аудиоматериалами на русском языке. В Moodle функция «Урок» позволяет создавать интерактивные задания к текстам с разветвлёнными сценариями проверки понимания. Интеграция Google Classroom с YouTube обеспечивает удобную работу с видеоматериалами на русском языке.

*Организация проектной работы.* Вики-модуль Moodle и совместные документы Google позволяют организовать групповые проекты на русском языке: создание коллективных текстов, исследовательских работ, мини-словарей, литературных альманахов. Проектная работа в LMS развивает не только языковые, но и коммуникативные и цифровые компетенции студентов.

**Модели применения LMS в обучении русскому языку.** На основе анализа педагогической практики и научной литературы можно выделить три основные модели применения LMS в обучении русскому языку в условиях узбекских вузов.

*Модель 1 – Смешанное обучение (Blended Learning).* Данная модель предполагает органичное сочетание традиционных аудиторных занятий по русскому языку с онлайн-компонентом на базе LMS. Аудиторное время используется для коммуникативных упражнений, ролевых игр и дискуссий, тогда как LMS обеспечивает самостоятельную отработку грамматики, выполнение письменных заданий и тестирование. Исследования Дж. Бонка и К. Грэма подтверждают, что смешанное обучение повышает академическую успеваемость и развивает навыки самостоятельной работы [7].

*Модель 2 – «Перевернутый класс» (Flipped Classroom).* В данной модели студенты предварительно изучают новый грамматический материал или читают текст через LMS (видеолекции, электронные учебники), а аудиторное время полностью посвящается практике коммуникации на русском языке. Дж. Бергманн и А. Самс показали, что данная модель значительно увеличивает время активной языковой практики [8], что особенно важно для овладения русским языком как иностранным.

*Модель 3 – Дистанционное обучение.* В случае необходимости полного перехода на дистанционный формат LMS-платформы обеспечивают непрерывность учебного процесса по русскому языку. Опыт пандемии COVID-19 (2020–2021 гг.) наглядно продемонстрировал как возможности, так и ограничения данной модели в условиях узбекских вузов.

**Заключение.** Проведённый анализ свидетельствует о значительном дидактическом потенциале LMS-платформ Moodle и Google Classroom в обучении русскому языку. Данные платформы выполняют пять ключевых функций – информационную, коммуникативную, контролирующую, развивающую и организационную – и предоставляют широкий спектр инструментов для обучения всем аспектам русского языка: грамматике, письменной и устной речи, чтению и аудированию.

*Сравнительный анализ* показал, что Moodle и Google Classroom обладают взаимодополняющим потенциалом: первая оптимальна для создания структурированных курсов с детальной аналитикой, вторая – для оперативного взаимодействия и совместной работы. Наиболее эффективной представляется их совместное применение в рамках модели смешанного обучения.

*Практическая значимость* результатов исследования состоит в том, что они могут быть использованы при разработке методики подготовки учителей русского языка с применением LMS-платформ в вузах Узбекистана, при создании электронных курсов по русскому языку, а также при организации системы повышения квалификации учителей-русистов.

*Перспективным направлением* дальнейших исследований является изучение эффективности конкретных моделей применения LMS в подготовке учителей русского языка в условиях УзГУМЯ, чему посвящено диссертационное исследование автора.

**Литература:**

1. Полат Е.С., Бухаркина М.Ю. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. — М.: Академия, 2010. — 368 с.
2. Андреев А.А. Педагогика высшей школы. — М.: МЭСИ, 2002. — 264 с.
3. Китайгородская Г.А. Методика интенсивного обучения иностранным языкам. — М.: Высшая школа, 1986. — 103 с.
4. Пассов Е.И. Коммуникативный метод обучения иноязычному говорению. — М.: Просвещение, 1991. — 223 с.
5. Выготский Л.С. Педагогическая психология. — М.: Педагогика, 1991. — 480 с.
6. Koehler M.J., Mishra P. What is Technological Pedagogical Content Knowledge? // Contemporary Issues in Technology and Teacher Education. — 2009. — Vol. 9. — № 1. — P. 60–70.
7. Bonk C.J., Graham C.R. The Handbook of Blended Learning. — San Francisco: Pfeiffer, 2006. — 624 p.
8. Bergmann J., Sams A. Flip Your Classroom. — ISTE, 2012. — 120 p.
9. Cole J., Foster H. Using Moodle. — O'Reilly Media, 2008. — 282 p.
10. Балыхина Т.М. Методика преподавания русского языка как неродного. — М.: РУДН, 2007. — 185 с.
11. Шукин А.Н. Методика преподавания русского языка как иностранного. — М.: Высшая школа, 2003. — 334 с.
12. Захарова И.Г. Информационные технологии в образовании. — М.: Академия, 2010. — 192 с.
13. Rice W. Moodle E-Learning Course Development. — Birmingham: Packt Publishing, 2015. — 336 p.
14. Исмоилова Н.Т. LMS Moodle как средство организации самостоятельной работы студентов // Вестник УзГУМЯ. — 2021. — № 2. — С. 78–84.
15. Киселёва О.М. Применение Google Classroom в образовательном процессе вуза // Современные проблемы науки и образования. — 2019. — № 4. — С. 33–39.
16. Султонова, С. Х. (2023). Особенности коммуникативного подхода в работе с текстом на уроках русского языка как иностранного в узбекских группах. // Central Asian Journal of Literature, Philosophy and Culture, 4(10), 1-12.
17. Султонова, С. Х. (2021). Учебно-речевая ситуация при обучении русскому языку узбекских учащихся элементарного и базового уровней. // Русское слово в международном образовательном пространстве: история и современность, 437.
18. Султонова, С. Х., & Насириддинова, М. М. (2023). Использование цифровых технологий в практике преподавания русского языка как иностранного (на примере онлайн-доски). // Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 1346-1352.
19. Султонова, С. Х. (2022). Коммуникативные аспекты в методике преподавания рки в школах Узбекистана. // In International journal of conference series on education and social sciences (Online) (Vol. 2, No. 3).
20. Султонова С. Х. (2025). Аудиотексты на уроках русского языка на разных этапах обучения. // American journal of education and learning, 3(6), 569-577.
21. Sadokat, G., & Sulstonova, S. X. The Language Situation in Uzbekistan And Its Influence on The Process of Acquiring Russian Pronunciation.

## ANIQ VA TABIIY FANLARNI O‘QITISH

### TALABALARGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI QO‘LLASH ASOSIDA FIZIKA FANINI O‘QITISH METODIKASI MAZMUNI VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

*Atajanova Gulzar Kazakbayevna,*

*Nukus davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada oliy ta‘lim tizimida fizika fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish metodikasi mazmuni va tarkibiga qo‘yiladigan talablar tahlil qilinadi. Asosiy maqsad mazkur metodikani kompetensiyaviy yondashuv, raqamli didaktika va o‘quv natijalarini baholash mezonlari bilan uyg‘unlashtirishdan iborat. Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, didaktik modellashirish va pedagogik dizayn yondashuvlari qo‘llanadi. Yangilik sifatida qoralayotgan metodika komponentlari uchun o‘lchanadigan talablar tizimini asoslashdan iborat.*

**Kalit so‘zlar:** *axborot texnologiyalari, fizika didaktikasi, kompetensiyaviy yondashuv, raqamli ta‘lim muhiti, virtual laboratoriya, pedagogik dizayn, baholash mezonlari.*

### МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ СТУДЕНТАМ НА ОСНОВЕ ПРИМЕНЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ: СОДЕРЖАНИЕ И ТРЕБОВАНИЯ К СТРУКТУРЕ

*В статье анализируются требования к содержанию и структуре методики преподавания физики в высшей школе на основе информационных технологий. Цель состоит в согласовании методики с компетентностным подходом, цифровой дидактикой и критериями оценивания результатов обучения. Используются нормативно-правовой анализ, дидактическое моделирование и педагогический дизайн. Научная новизна заключается в обосновании системы измеряемых требований к компонентам методики.*

**Ключевые слова:** *информационные технологии, дидактика физики, компетентностный подход, цифровая образовательная среда, виртуальная лаборатория, педагогический дизайн, критерии оценивания.*

### METHODOLOGY OF TEACHING PHYSICS TO STUDENTS BASED ON THE USE OF INFORMATION TECHNOLOGIES: CONTENT AND STRUCTURAL REQUIREMENTS

*This article examines requirements for the content and structure of methodology for teaching physics in higher education through information technologies. The aim is to align methodology with a competency-based approach, digital didactics, and measurable assessment criteria. The study employs regulatory analysis, didactic modeling, and pedagogical design. Scientific novelty lies in substantiating an operational system of measurable requirements for key methodological components.*

**Keywords:** *information technologies; physics didactics; competency-based approach; digital learning environment; virtual laboratory; instructional design; assessment criteria.*

**Kirish.** Oliy ta‘lim tizimida fizika fanini o‘qitish metodikasi mazmuni va tarkibiga qo‘yiladigan talablar masalasi axborot texnologiyalarining tezkor rivojlanishi, ta‘lim natijalariga yo‘naltirilgan yondashuvning kuchayishi hamda talabalar o‘quv faoliyatida mustaqil va tadqiqotga yo‘naltirilgan ishlar ulushining ortishi bilan bevosita bog‘liq. Fizika mazmunan abstrakt modellar, matematik ifodalar va tajribaviy dalillarning birligi sifatida namoyon bo‘lgani uchun unda raqamli vositalar faqat “ko‘rgazmalilik”ni oshirish vositasi emas, balki bilishning o‘zi uchun metodologik tayanch bo‘lib xizmat qiladi. Shuning uchun, metodika mazmuni va tarkibiga qo‘yiladigan talablar ikki yo‘nalishda izchil asoslanishi lozim: birinchidan, fan va ta‘lim standartlari belgilagan konseptual yadroni saqlash; ikkinchidan, axborot texnologiyalarini didaktik jihatdan maqsadli integratsiya qilish orqali o‘qitishning natijadorligi, boshqariluvchanligi va shaffof baholanishini ta‘minlash.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy ta‘lim tizimida fizika fanini o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalasi ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan bo‘lib, ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi ushbu yo‘nalishga yangi mazmun olib kirdi.

Pedagogik innovatsiyalar va o‘qitish modellari evolyutsiyasini tahlil qilgan M.V.Klarin ta‘lim jarayonida faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvning ustuvorligini asoslab beradi. Unga ko‘ra, zamonaviy

metodikalar talabning passiv bilim oluvchidan faol subyektga aylanishini ta'minlashi lozim [1]. Ushbu yondashuv ayniqsa fizika kabi eksperimental fanlarda muhim bo'lib, o'quv jarayonini interfaol va tadqiqotga yo'naltirilgan shaklda tashkil etishni talab qiladi.

Raqamli texnologiyalarni ta'limga integratsiya qilishning psixologik-didaktik asoslari R. Mayer tomonidan chuqur o'rganilgan. Uning multimedia ta'lim nazariyasiga ko'ra, vizual va verbal axborotning uyg'unligi o'quv materialini samarali o'zlashtirishga xizmat qiladi, biroq ortiqcha kognitiv yuklama o'rganish samaradorligini pasaytiradi [2]. Shu nuqtayi nazardan, fizika fanida qo'llaniladigan raqamli resurslar ilmiy asoslangan vizualizatsiya va optimal axborot hajmini ta'minlashi zarur.

Tabiiy fanlarni, xususan, fizika o'qitish samaradorligini oshirish muammolari C. Wieman tomonidan tadqiq etilib, u an'anaviy ma'ruza usullarining yetarli emasligini va faol o'qitish strategiyalarining ustunligini ko'rsatadi [3]. Muallif eksperimental va interfaol metodlarning talabalar konseptual tushunchalarini shakllantirishdagi ahamiyatini asoslaydi. Bu esa axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali modellashtirish va virtual laboratoriyalarni keng qo'llash zaruratini tasdiqlaydi.

Aralash (blended) ta'lim konsepsiyasi C. Bonk va C. Graham tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, unda an'anaviy va raqamli ta'lim shakllarining integratsiyasi asosiy o'rin tutadi [4]. Ushbu yondashuv fizika ta'limida, ayniqsa, samarali bo'lib, nazariy bilimlarni onlayn platformalar orqali o'zlashtirish va amaliy ko'nikmalarni auditoriyada shakllantirish imkonini beradi.

O'qitish jarayonini loyihalash masalalari R. Gagné tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, uning didaktik modeli o'quv faoliyatining bosqichma-bosqich tashkil etilishini nazarda tutadi [5]. Mazkur model axborot texnologiyalariga asoslangan fizika darslarini strukturaviy jihatdan to'g'ri tashkil etishda muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Mahalliy tadqiqotchilar orasida T. A. Ilyina pedagogik texnologiyalarning tuzilishi va samaradorligini tahlil qilgan bo'lsa [6], R. H. Jo'rayev ta'lim jarayonini loyihalashda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyatini asoslab beradi [7]. Ularning ishlari milliy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalarni joriy etish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

Shu bilan birga, mavjud tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha umumiy yondashuvlar yetarlicha ishlab chiqilgan bo'lsa-da, aynan fizika fanini o'qitish metodikasining mazmuni va tarkibiga qo'yiladigan aniq, o'lchanadigan talablar tizimi yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Mazkur maqola aynan ushbu bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan bo'lib, fizika ta'limida raqamli metodikaning komponentlari uchun aniq va amaliy mezonlar tizimini taklif etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Metodikaning mazmuniy talablari, avvalo, o'quv maqsadlarining aniqligi va o'lchanishiga taqaladi. Kompetensiyaviy yondashuv sharoitida “mavzuni o'rganish” kabi umumiy maqsadlar yetarli emas; maqsadlar bilim, ko'nikma va munosabat birligida, hamda amaliy vaziyatlarda qo'llash darajasida ifodalanishi zarur [1]. Axborot texnologiyalari ushbu talabni kuchaytiradi, chunki raqamli ta'lim muhitida talaba faoliyati iz qoldiradi, natijalar esa formatlangan ko'rinishda qayd etiladi. Demak, metodika mazmuni kompetensiyalarni operatsionlashtiradigan o'quv natijalari tizimi bilan boshlanishi, har bir natijaga mos indikatorlar, minimal va yuqori darajadagi bajarilish mezonlari bilan yakunlanishi talab etiladi. Bu yerda fizikadagi “tushunish” kategoriyasi ham aniq faoliyat orqali ochilishi kerak: masalan, modellashtirish parametrlarini tanlash, o'lchash xatoliklarini baholash, grafik tahlil asosida xulosa chiqarish, tajriba dizaynini asoslash kabilar.

Metodikaning tarkibiy talablari o'qitish jarayonining mantiqiy bloklarini va ularning o'zaro bog'liqligini belgilaydi. Axborot texnologiyalariga tayangan metodika odatda quyidagi yadro komponentlarni uzviy bog'laydi: mazmunni tanlash va strukturalash; o'qitish strategiyalari; raqamli resurslar va vositalar; talaba faoliyati ssenariylari; baholash va teskari aloqa; akademik halollik va ma'lumotlar xavfsizligi. Ushbu komponentlar alohida ko'rinishlar emas, balki yagona didaktik tizim sifatida loyihalaniishi lozim. Didaktik tizimlilik talabi shundan iboratki, masalan, virtual laboratoriya qo'llanilsa, u faqat “tajriba o'rnini bosish” uchun emas, balki gipoteza qo'yish, parametrlarni boshqarish, natijani qayta ishlash va xulosani himoya qilish zanjirida muayyan rolni bajarishi, baholash esa aynan shu faoliyat mahsuliga yo'naltirilishi kerak [2]. Aks holda texnologiya qo'shimcha yuk bo'lib qoladi va metodik yaxlitlik buziladi.

Mazmunni tanlashda fan mantiqi, talabning tayyorgarlik darajasi va raqamli muhitning imkoniyatlari o'zaro muvozanatga keltiriladi. Fizika kursida nazariy-eksperimental birlikni ta'minlash muhim bo'lib, raqamli simulyatsiyalar real tajribaning o'rnini to'liq bosmasligi, ammo uni to'ldirishi kerak. Shuning uchun, metodika tarkibida “raqamli simulyatsiya – real tajriba – nazariy tahlil” uchligi rejalashtiriladi: simulyatsiya tushunchani tez ochib beradi, real tajriba esa o'lchash madaniyati va xatoliklar tabiatini anglatadi, nazariy tahlil esa umumlashtirish va matematik modelga o'tishni ta'minlaydi [3]. Ushbu uchlikni qo'llashda talab shundan iboratki, simulyatsiya parametrlarining fizik ma'nosi tushuntiriladi, real tajriba uchun resurslar

cheklanganda esa aralash formatlar, masalan, videofiksatsiya qilingan tajriba ma'lumotlarini raqamli qayta ishlash orqali kompensatsiya mexanizmlari yaratiladi.

Raqamli ta'lim resurslariga qo'yiladigan talablar didaktik, metodik va texnik mezonlar o'zaro uyg'unligida ifodalanadi. Didaktik mezonlar doirasida resursning o'quv natijalariga bevosita xizmat qilishi, kognitiv yuklamani me'yorlash, vizualizatsiyaning ilmiy to'g'riligi hamda talabalarning faol ishtirokini rag'batlantirish darajasi baholanadi. Metodik mezon resursning dars ssenariysiga integratsiya qilinishi, o'qituvchi tomonidan boshqariladigan va talaba tomonidan mustaqil o'zlashtiriladigan elementlar nisbatining asoslanganligi, hamda resursdan foydalanish bo'yicha yo'riqnoma va nazorat savollarining mavjudligidir. Texnik mezon esa platformalararo moslik, barqaror ishlash, kirish imkoniyati, ma'lumotlarni saqlash va mualliflik huquqi talablariga rioya etishni qamrab oladi [4]. Ayniqsa, laboratoriya ma'lumotlari va talaba ishlari bilan ishlashda shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish ham metodika tarkibidagi ajralmas talab sifatida kiritilishi kerak.

**Tadqiqot natijalari.** O'qitish strategiyalari bo'yicha asosiy talablar interfaollikni “faoliyat” darajasiga ko'tarish va talabaning ilmiy fikrlashini qo'llab-quvvatlashdir. Fizikani axborot texnologiyalari bilan o'qitish ko'pincha videodars, taqdimot yoki testlar bilan cheklanib qoladi, biroq bu yondashuvning o'zi metodik yangilik bermaydi. Metodikada quyidagilar talab qilinadi: muammoli vaziyat yaratish, modellashtirish vazifalarini qo'yish, ma'lumotlar to'plamini tahlil qilish, natijani argument bilan himoya qilish kabi ilmiy-amaliy harakatlar zanjiri tashkil etilishi lozim. Bunda o'qituvchi “kontent yetkazuvchi” dan ko'ra “o'quv faoliyatini dizayneri va fasilitatori” sifatida namoyon bo'ladi. Pedagogik dizayn talablari o'quv topshiriqlarining murakkabligi bosqichma-bosqich ortishini, teskari aloqa tezkor va mazmunli bo'lishini, hamda turli tayyorgarlik darajasidagi talabalar uchun differensial yo'llar mavjudligini taqozo etadi [5]. Masalan, bir xil mavzuda bazaviy yo'l uchun tayyor ma'lumotlar bilan grafik qurish, ilg'or yo'l uchun esa xom ma'lumotlardan filtrlash va xatoliklarni baholash orqali toliq ma'lumotlarga o'tish vazifalari berilishi mumkin.

Baholash tizimiga qo'yiladigan talablar axborot texnologiyalari sharoitida yanada qat'iylashadi, chunki raqamli muhitda baholash tezlashadi, biroq yuzaki bo'lib qolish xavfi ham ortadi. Shuning uchun, metodika tarkibida formatif baholashning muntazamligi, mezonlarning oldindan e'lon qilinishi, rubrikalar asosida shaffof baholash, hamda yakuniy baholashda nazariy bilim bilan bir qatorda amaliy va tadqiqot kompetensiyalarini tekshirish mexanizmlari bo'lishi shart. Testlar faqat fakt va formulani eslashni emas, balki konseptual tushunishni, model tanlashni, grafikli va jadval ma'lumotlarini talqin qilishni ham qamrab olishi talab etiladi. Bundan tashqari, akademik halollikni ta'minlash uchun topshiriqlar bankini variantlash, ochiq javobli savollar ulushini oshirish, laboratoriya hisobotlarida manbani ko'rsatish va natijani asoslash talablarini kuchaytirish zarur [6]. Raqamli proktorning yoki plagiat tekshiruvi kabi vositalar faqat texnik chora sifatida emas, balki ta'limiy maqsadga xizmat qiladigan, talabaning mas'uliyatini rivojlantiradigan tizimga aylantirilishi lozim.

**Muhokama.** Metodika mazmuni va tarkibiga qo'yiladigan talablarni amaliyotga tatbiq etishda oliy ta'lim muassasasining resurs bazasi va o'qituvchining raqamli-pedagogik kompetensiyasi hal qiluvchi omil bo'lib qoladi. Shu sababli, metodika doirasida o'qituvchi uchun minimal zarur kompetensiyalar modeli ham belgilanishi maqsadga muvofiq: raqamli resurslarni tanlash va moslashtirish, simulyatsiya va sensorli o'lchov vositalari bilan ishlash, o'quv analitikasi elementlarini talqin qilish, hamda onlayn muloqot etikasi. Ushbu talablar o'qituvchini ortiqcha texnik vazifalar bilan yuklamasligi, aksincha, fizika o'qitishning asosiy didaktik maqsadlariga xizmat qilishi bilan asoslanadi. Talaba nuqtayi nazaridan esa raqamli muhitda o'qish madaniyati, ma'lumotlarni tekshirish, manbalarni to'g'ri keltirish va ilmiy yozuv ko'nikmalari metodikaning ajralmas natijalariga kiritiladi, chunki fizika ta'limi tobora ko'proq ma'lumotlarga tayangan tahliliy faoliyatga aylanmoqda [7].

**Xulosa.** Fizika fanini axborot texnologiyalari asosida o'qitish metodikasi mazmuni va tarkibiga qo'yiladigan talablar metodikaning tizimliliigi, o'quv natijalarining o'lchanishi, raqamli resurslarning didaktik maqsadga xizmat qilishi, nazariya va tajriba birligining saqlanishi, hamda baholashning shaffof va kompetensiyaga yo'naltirilgan bo'lishi bilan belgilanadi. Metodikani loyihalashda raqamli vosita emas, balki talabaning ilmiy fikrlash va amaliy faoliyatini tashkil etish markazga qo'yilganda texnologiya haqiqiy pedagogik qiymat kasb etadi. Taklif etilgan talablar tizimi fizika kursini raqamli muhitda boshqariladigan, natijador va metodik jihatdan izchil o'qitishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Кларин М. В. Инновационные модели обучения в современном образовании. Москва. Просвещение. 2016. 256 с.

2. Mayer R. E. Multimedia Learning. New York. Cambridge University Press. 2021. 576 p.
3. Wieman C. E. Improving How Universities Teach Science. Cambridge (MA). Harvard University Press. 2017. 232 p.
4. Bonk C. J., Graham C. R. The Handbook of Blended Learning: Global Perspectives, Local Designs. San Francisco. Pfeiffer. 2006. 624 p.
5. Gagné R. M., Wager W. W., Golas K. C., Keller J. M. Principles of Instructional Design. Belmont. Wadsworth. 2005. 384 p.
6. Ильина Т. А. Педагогическая технология: сущность, структура, эффективность. Санкт-Петербург. Питер. 2018. 304 с.
7. Jo‘rayev R. H. Pedagogik texnologiyalar va ta’lim jarayonini loyihalash. Toshkent. O‘qituvchi. 2019. 288 b.

## YARIMO‘TKAZGICHLAR FIZIKASI MAVZUSINI INTERAKTIV VA RAQAMLI METODLAR ASOSIDA O‘QITISH SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH

*Jumaniyozov Ibrohim Otaxonovich,*

*Toshkent Xalqaro Universiteti Aniq fanlar va raqamli texnologiyalar kafedrasida dotsenti vazifasini bajaruvchi, fizika-matematika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

*Radjabxodjayev Sardorbek Ikrom o‘g‘li,*

*Toshkent xalqaro universiteti talabasi  
ibrohimjumaniyozov1975@gmail.com*

*Ushbu maqolada yarimo‘tkazgichlar fizikasi mavzusini interaktiv va raqamli metodlar asosida o‘qitish samaradorligi tahlil qilinadi. Mazkur mavzuning murakkabligi sababli an‘anaviy o‘qitish usullari har doim ham yetarli samara bermasligi qayd etiladi. Interaktiv metodlar va raqamli vositalarning talabalar faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda murakkab fizik jarayonlarni sodda va aniq ifodalashdagi o‘rni yoritilgan. Tahlillar natijasida ushbu yondashuv ta‘lim samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi asoslanadi.*

***Kalit so‘zlar:** yarimo‘tkazgichlar, fizika ta‘limi, interaktiv metodlar, raqamli texnologiyalar, pedagogik yondashuv, taqiqlangan zona kengligi, zaryad tashuvchilar, ta‘lim samaradorligi, talabalar faolligi.*

## АНАЛИЗ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ ПОЛУПРОВОДНИКОВ НА ОСНОВЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ И ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ

*В данной статье анализируется эффективность преподавания темы физики полупроводников с использованием интерактивных и цифровых методов. В связи со сложностью данной темы традиционные методы обучения не всегда обеспечивают достаточную эффективность. Рассматривается роль интерактивных методов и цифровых средств в повышении активности студентов, развитии их самостоятельного мышления и представлении сложных физических процессов в простой и наглядной форме. Результаты анализа показывают, что данный подход является важным фактором повышения эффективности обучения.*

***Ключевые слова:** полупроводники, физическое образование, интерактивные методы, цифровые технологии, педагогический подход, ширина запрещённой зоны, носители заряда, эффективность обучения, активность студентов*

## ANALYSIS OF THE EFFECTIVENESS OF TEACHING SEMICONDUCTOR PHYSICS USING INTERACTIVE AND DIGITAL METHODS

*This article analyzes the effectiveness of teaching semiconductor physics using interactive and digital methods. Due to the complexity of this topic, traditional teaching approaches do not always provide sufficient effectiveness. The role of interactive methods and digital tools in enhancing student engagement, developing independent thinking, and presenting complex physical processes in a simple and clear manner is highlighted. The results of the analysis demonstrate that this approach serves as an important factor in improving the effectiveness of education.*

***Keywords:** semiconductors, physics education, interactive methods, digital technologies, pedagogical approach, band gap, charge carriers, learning effectiveness, student engagement*

**Kirish.** Fizika fanini samarali o‘qitish masalasi bugungi kunda ta‘lim tizimining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda. Ayniqsa, texnologik rivojlanish tezlashib borayotgan sharoitda yarimo‘tkazgichlar fizikasi kabi mavzularni sifatli o‘rgatish alohida e‘tibor talab etadi. Ushbu bo‘lim zamonaviy elektronika va raqamli qurilmalar asosini tashkil qilgani sababli, uni chuqur tushunish talabalarning kasbiy tayyorgarligi uchun zarur hisoblanadi [1].

Yarimo‘tkazgichlar fizikasi ko‘pincha nazariy jihatdan murakkab va tasavvur qilish qiyin bo‘lgan tushunchalarga bo‘ydir. Energiya zonalari, valent zona, o‘tkazuvchanlik zonasi, shuningdek taqiqlangan zona kengligi kabi tushunchalar oddiy matn orqali tushuntirilganda talabalarda to‘liq tasavvur hosil bo‘lmasligi

mumkin [2]. Bundan tashqari, zaryad tashuvchilar - elektronlar va kovaklar harakati kabi jarayonlar ko‘z bilan bevosita kuzatilmaydigan hodisalar qatoriga kiradi. Shu sababli bu mavzuni faqat an’anaviy usullar asosida o‘qitish ko‘pincha yetarli natija bermaydi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, talaba faqat tinglovchi bo‘lib qolgan darslarda bilimni chuqur o‘zlashtirish darajasi past bo‘ladi. Aksincha, u faol ishtirok etgan, savol-javob, muhokama va vizual materiallar bilan boyitilgan darslarda mavzuni tushunish ancha yaxshilanadi. Shu jihatdan interaktiv metodlar o‘quv jarayonini jonlantiruvchi muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi [3]. Bunday yondashuv talabalarning fikrlash jarayonini faollashtiradi va ularni mustaqil xulosa chiqarishga undaydi.

Raqamli texnologiyalar esa yarimo‘tkazgichlar fizikasi kabi murakkab mavzularni tushuntirishda alohida imkoniyat yaratadi. Grafik tasvirlar, animatsiyalar va vizual modellar yordamida energiya zonalari tuzilishi yoki zaryad tashuvchilarning harakati ancha aniq ko‘rsatib berilishi mumkin. Bu esa talabalarning mavzuni nafaqat eshitish, balki ko‘rish orqali ham anglashiga yordam beradi [4].

Shu bilan birga, yarimo‘tkazgich materiallarining xossalari, xususan elektr o‘tkazuvchanlik darajasi, zaryad tashuvchilar soni va ularning harakatchanligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu ko‘rsatkichlar taqiqlangan zona kengligiga bog‘liq holda o‘zgaradi. Ushbu bog‘liqlikni to‘g‘ri tushuntirish talabalarda fizik jarayonlar haqidagi yaxlit tasavvurni shakllantirish uchun muhimdir. Interaktiv va raqamli yondashuvlar aynan shu murakkablikni soddalashtirib berish imkonini beradi.

Yuqorida keltirilgan omillarni hisobga olgan holda, yarimo‘tkazgichlar fizikasi mavzusini interaktiv va raqamli metodlar asosida o‘qitish samaradorligini tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa sifatida qaraladi [5]. Ushbu maqolada mazkur yondashuvlarning o‘quv jarayoniga ta’siri va ularning samaradorlik jihatlari yoritiladi.

Mazkur ishning ilmiy yangiligi shundan iboratki, yarimo‘tkazgichlar fizikasi mavzusini o‘qitishda interaktiv va raqamli metodlarning integratsiyalashgan yondashuvi ishlab chiqilib, uning didaktik imkoniyatlari asoslab berildi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** So‘nggi yillarda fizika ta’limini takomillashtirish, ayniqsa murakkab va abstrakt mazmunga ega mavzularni samarali o‘qitish masalasi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo‘nalishlaridan biriga aylangan. Fan va texnologiyalarning jadal rivojlanishi fizika fanining amaliy ahamiyatini yanada oshirib, uni o‘qitish metodikasini zamonaviy talablar asosida qayta ko‘rib chiqishni taqozo etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, yarimo‘tkazgichlar fizikasi mavzusi alohida e’tiborni talab etadi, chunki u zamonaviy elektronika, mikroelektronika va axborot texnologiyalarining nazariy asosini tashkil etadi.

Mazkur bo‘lim doirasida energiya zonalari nazariyasi, valent zona va o‘tkazuvchanlik zonasi o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlik, taqiqlangan zona kengligi hamda zaryad tashuvchilar - elektronlar va kovaklar harakati kabi tushunchalar asosiy o‘rinni egallaydi. Ushbu tushunchalarni o‘zlashtirish talabalardan nafaqat chuqur nazariy bilimlarni, balki yuqori darajadagi abstrakt fikrlash, mantiqiy tahlil qilish va fizik jarayonlarni tasavvur qilish ko‘nikmalarini ham talab etadi.

Shu sababli an’anaviy o‘qitish usullari ko‘pincha bu murakkab tushunchalarni yetarli darajada samarali tushuntirish imkonini bermaydi.

Fizika ta’limida interaktiv metodlarning qo‘llanilishi o‘quv jarayonini faollashtirishda muhim vosita sifatida qaraladi. Interaktiv yondashuvlar talabalarning dars jarayonidagi ishtirokini kuchaytirib, ularni bilimni passiv qabul qiluvchidan faol o‘zlashtiruvchiga aylantiradi [6]. Bunday metodlar yordamida dars jarayonida muloqot, muhokama va tahliliy fikrlash muhitini yaratish mumkin bo‘ladi. Natijada talabalar mavzuni chuqurroq anglaydi, muammoli vaziyatlarni mustaqil hal qilishga o‘rganadi va bilimlarni tizimli ravishda o‘zlashtiradi.

Raqamli texnologiyalarni ta’lim jarayoniga keng joriy etilishi esa fizika fanini o‘qitishda yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Vizual modellar, animatsiyalar va simulyatsiyalar yordamida murakkab fizik jarayonlarni dinamik tarzda ko‘rsatish, ularni bosqichma-bosqich tushuntirish mumkin [7]. Bu esa talabalarning mavzuni nafaqat nazariy jihatdan, balki vizual tasavvur orqali ham anglashiga yordam beradi. Ayniqsa, yarimo‘tkazgichlar fizikasi kabi mikrodarajadagi jarayonlarni o‘rganishda bunday yondashuvlar alohida ahamiyat kasb etadi.

Yarimo‘tkazgich materiallarining fizik xossalari, jumladan ularning elektr o‘tkazuvchanligi, zaryad tashuvchilar konsentratsiyasi va harakatchanligi bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, bu jarayonlar taqiqlangan zona kengligi orqali aniqlanadi. Ushbu bog‘liqlikni talabalarga tushunarli va tizimli tarzda yetkazish o‘qituvchidan metodik jihatdan puxta yondashuvni talab etadi [8]. Interaktiv va raqamli metodlar aynan shu murakkablikni soddalashtirish va tushunchalarni aniqroq ifodalash imkonini beradi.

Bundan tashqari, interaktiv va raqamli metodlarning birgalikda qo‘llanilishi o‘quv jarayonining samaradorligini sezilarli darajada oshiradi [9]. Bunday yondashuvlar talabalar bilimining barqarorligini

ta'minlash, ularning o'quv faoliyatiga qiziqishini kuchaytirish hamda mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, murakkab nazariy tushunchalarni tushuntirishda vizual modellashtirish va interaktiv faoliyat turlarining uyg'unligi yuqori natija berishi kuzatiladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy ishlarning umumiy tahlili shuni ko'rsatadiki, yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini aynan interaktiv va raqamli metodlar asosida o'qitish samaradorligini kompleks tarzda o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Ko'pchilik tadqiqotlarda umumiy pedagogik yondashuvlar yoki alohida texnologiyalar ko'rib chiqilgan bo'lsa-da, mazkur mavzuga xos bo'lgan aniq metodik tizim va uning samaradorligini ilmiy asosda tahlil qilish masalalari to'liq yoritilmagan [10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, interaktiv va raqamli metodlarning fizika ta'limidagi o'rni va ahamiyati katta ekanligi ko'rinadi. Biroq yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusiga nisbatan ushbu yondashuvlarning samaradorligini tizimli ravishda o'rganish, metodik jihatdan asoslash va amaliy jihatdan baholash hali ham dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda.

Mazkur maqola aynan ushbu muammoni yoritishga qaratilgan. Mazkur maqolada ushbu muammoni yoritish bilan birga, yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini o'qitishda interaktiv va raqamli metodlarning integratsiyalashgan yondashuvi taklif etilib, uning didaktik imkoniyatlari asoslab beriladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur ishda yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini interaktiv va raqamli metodlar asosida o'qitishning nazariy hamda metodik jihatlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Ish jarayoni pedagogik va ilmiy adabiyotlarni o'rganish, mavjud metodik yondashuvlarni solishtirish, shuningdek, o'quv jarayonining umumiy xususiyatlarini kuzatish va umumlashtirishga tayangan holda tashkil etildi. Bunda asosiy e'tibor zamonaviy pedagogik texnologiyalarni fizika ta'limiga integratsiyalash imkoniyatlarini aniqlashga qaratildi [11].

Mazkur yo'nalishda yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini o'qitishda qo'llaniladigan turli metodik yondashuvlar keng qamrovda o'rganildi. Xususan, an'anaviy o'qitish usullari bilan interaktiv va raqamli metodlarning o'ziga xos jihatlari, ularning o'quv jarayoniga ta'siri hamda didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi. Ushbu yondashuv orqali o'qitish metodlarining samaradorligini aniqlash, ularning afzallik va cheklovlarini baholash hamda o'quv jarayoniga mos keladigan optimal usullarni tanlash imkoniyati yuzaga keldi.

Interaktiv metodlar sifatida “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Insert”, muammoli savol-javob, guruhli muhokama hamda kichik guruhlarda ishlash kabi usullar alohida ko'rib chiqildi. Ushbu metodlarning o'quv jarayonidagi o'rni, ularning talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishdagi roli va mustaqil fikrlashni rivojlantirishga ta'siri tahlil qilindi [12]. Interaktiv yondashuvlar orqali talabalarni o'quv jarayonining faol subyektiga aylantirish, ularning mavzuga nisbatan qiziqishini oshirish va bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishga erishish mumkinligi asoslab berildi.

Raqamli metodlar doirasida esa zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari keng tahlil qilindi. Jumladan, elektron taqdimotlar, grafik tasvirlar, animatsiyalar, video materiallar va interaktiv simulyatsiyalar yordamida yarimo'tkazgichlar fizikasi bilan bog'liq murakkab tushunchalarni tushuntirishning didaktik afzalliklari yoritildi [13]. Ayniqsa, energiya zonalari tuzilishi, valent va o'tkazuvchanlik zonalari o'rtasidagi bog'liqlik, taqiqlangan zona kengligi hamda zaryad tashuvchilar harakati kabi jarayonlarni vizual ifodalash orqali talabalarda yaxlit tasavvur shakllantirish imkoniyati mavjudligi ko'rsatildi.

Mazkur ish davomida o'quv faoliyatini tahlil qilishda kuzatuv, taqqoslash, umumlashtirish va mantiqiy tahlil metodlaridan foydalanildi. O'quv jarayonidagi faollik darajasi, mavzuni o'zlashtirishga bo'lgan yondashuv va turli metodlarning ta'siri sifat jihatdan baholandi. Shuningdek, o'quv materialini o'zlashtirish darajasiga oid umumiy natijalar tahlil qilinib, ular asosida tegishli xulosalar chiqarildi.

Metodologiyaning muhim jihatlardan biri shundaki, unda o'qitish jarayoni faqat natija nuqtai nazaridan emas, balki uning ichki mexanizmlari - ya'ni talabalarning bilish faoliyati, ularning fikrlash jarayoni va o'quv motivatsiyasi bilan bog'liq jihatlar ham hisobga olindi. Bu esa interaktiv va raqamli metodlarning ta'lim jarayoniga ta'sirini chuqurroq tushunish imkonini berdi.

Bundan tashqari, metodik yondashuvlarni tanlashda yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusining o'ziga xos xususiyatlari ham inobatga olindi. Ushbu mavzuning abstraktligi, mikrodarajadagi jarayonlarga asoslanganligi va matematik ifodalarga boyligi uni o'qitishda vizual hamda interaktiv vositalardan keng foydalanishni talab etadi. Shu jihatdan, metodologiyada aynan ushbu omillarni hisobga olgan holda yondashuv ishlab chiqildi.

Shu tariqa, qo'llanilgan metodologiya yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini o'qitishda interaktiv va raqamli metodlarning o'rni hamda didaktik ahamiyatini aniqlashga qaratilgan izchil va tizimli yondashuv sifatida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot doirasida ikki guruh (nazorat va tajriba guruhi) tashkil etilib, birinchi guruhda an’anaviy, ikkinchisida interaktiv va raqamli metodlar asosida darslar olib borildi. Tahlillar shuni ko’rsatdiki, tajriba guruhida o’quv materialini o’zlashtirish darajasi yuqoriroq bo’lib, talabalarning darsdagi faolligi va mustaqil fikrlash ko’nikmalari sezilarli darajada rivojlangan [14].

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Mazkur ish doirasida yarimo’tkazgichlar fizikasi mavzusini interaktiv va raqamli metodlar asosida o’qitishning metodik imkoniyatlari hamda ularning ta’lim samaradorligiga ta’siri tahlil qilindi.

O’tkazilgan tajriba natijalari metodologiya doirasida olingan xulosalarni qo’llab-quvvatlaydi. Kuzatuvlar asosida tajriba guruhida o’quv materialini o’zlashtirish darajasi nazorat guruhiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo’lgani, shuningdek talabalarning darsdagi faolligi va mustaqil fikrlash ko’nikmalari an’anaviy usulda ta’lim olgan guruhga nisbatan ustun ekanligi qayd etildi.

Olingan natijalar o’quv jarayonining sifat ko’rsatkichlarida, xususan, bilimni o’zlashtirish, tushunish va o’quv faoliyatiga jalb etilish darajasida ijobiy o’zgarishlar kuzatilganini ko’rsatadi. O’rganish natijalari shuni ko’rsatadiki, interaktiv yondashuvlar va raqamli vositalardan foydalanish o’quv jarayonining sifat jihatlarini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qiladi [15].

Avvalo, interaktiv metodlarning qo’llanilishi talabalarning o’quv jarayonidagi faolligini oshirishga ijobiy ta’sir ko’rsatishi kuzatildi. Bu holat talabalarning dars jarayonida faol ishtirok etishi, o’z fikrini erkin bayon qilishi va muhokamalarda muntazam qatnashishi orqali namoyon bo’ladi. “Aqliy hujum”, guruhli muhokama va muammoli savol-javob kabi usullar orqali talabalar dars jarayonida faol ishtirok etishga undaldi. Bu esa ularning mavzuga nisbatan qiziqishini kuchaytirib, bilimlarni passiv qabul qilishdan faol o’zlashtirishga o’tishiga imkon yaratadi. Natijada, talabalarning fikrlash jarayoni faollashib, mantiqiy tahlil qilish va xulosa chiqarish ko’nikmalari rivojlanadi.

Raqamli metodlardan foydalanish esa yarimo’tkazgichlar fizikasi kabi murakkab va abstrakt mavzularni tushunishda muhim ahamiyat kasb etishi aniqlandi. Grafik tasvirlar, animatsiyalar va vizual modellar yordamida energiya zonalari tuzilishi, taqiqlangan zona kengligi hamda zaryad tashuvchilar harakati kabi tushunchalarni aniq va tushunarli tarzda ifodalash imkoniyati yuzaga keladi. Natijada murakkab nazariy tushunchalarni idrok etish jarayoni soddalashib, ularning mazmunini yaxlit holda anglash imkoniyati ortadi. Bu esa talabalarning nazariy bilimlarini vizual tasavvurlar bilan bog’lashiga yordam beradi va mavzuni chuqurroq anglashiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko’rsatadiki, interaktiv va raqamli metodlarning birgalikda qo’llanilishi yuqori samaradorlikni ta’minlaydi.

### 1-jadval. Interaktiv va an’anaviy o’qitish metodlarining taqqoslama tahlili

Ko’rsatkich	An’anaviy usul	Interaktiv va raqamli metodlar
O’quv jarayonidagi ishtirok	past	yuqori
Tushunish darajasi	qisman	chuqur
Mustaqil fikrlash	past	rivojlangan
Motivatsiya	past	yuqori

1-jadval ma’lumotlari interaktiv va raqamli metodlarning an’anaviy usullarga nisbatan ustunligini ko’rsatadi. Mazkur natijalar jadvalda keltirilgan ko’rsatkichlar bilan mos keladi.

Ya’ni interaktiv yondashuvlar orqali talabalarning faolligi oshirilsa, raqamli vositalar orqali murakkab tushunchalar soddalashtirib tushuntiriladi. Natijada o’quv jarayoni yanada samarali va mazmunli tus oladi. Bunday integratsiyalashgan yondashuv o’quv materialini tizimli o’zlashtirishni ta’minlab, bilimlarning barqaror shakllanishiga xizmat qiladi.

Bu holat ayniqsa yarimo’tkazgichlar fizikasi kabi nazariy jihatdan murakkab bo’lgan mavzularni o’zlashtirishda muhim omil hisoblanadi.

Interaktiv topshiriqlar va muammoli vaziyatlar talabalarda mustaqil izlanish olib borish, qo’shimcha manbalardan foydalanish hamda o’z fikrini asoslash ko’nikmalarining shakllanishiga xizmat qiladi. Natijada ularning o’quv faoliyatiga nisbatan mas’uliyati ortib, bilimlarni mustaqil egallashga bo’lgan intilishi barqaror tus oladi. Bu esa o’quv jarayonida kompetensiyaviy yondashuvning samarali shakllanishiga olib keladi.

Bundan tashqari, interaktiv va raqamli metodlar o’quv jarayonining emotsional muhitiga ham ijobiy ta’sir ko’rsatishi aniqlandi. Dars jarayonining jonlanishi, vizual materiallarning qo’llanilishi va talabalar o’rtasidagi muloqotning faollashuvi o’quv muhitini yanada qulay va samarali qiladi. Bu esa talabalarning o’qishga bo’lgan motivatsiyasini oshiradi va darslarda faol ishtirok etishga undaydi.

Shu bilan birga, tahlil natijalari interaktiv va raqamli metodlarni qo'llashda muayyan metodik yondashuv zarurligini ham ko'rsatadi. Mazkur metodlardan samarali foydalanish talabalardan puxta rejalashtirish, mavzuga mos vositalarni tanlash va ularni maqsadga muvofiq qo'llashni talab etadi. Aks holda, raqamli vositalardan noto'g'ri yoki ortiqcha foydalanish o'quv jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin.

Umuman olganda, olib borilgan tahlillar natijalari shuni ko'rsatadiki, yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini interaktiv va raqamli metodlar asosida o'qitish talabalarining bilim o'zlashtirish darajasini oshirish, ularning mantiqiy fikrlashini rivojlantirish hamda o'quv jarayoniga bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olingan natijalar asosida interaktiv va raqamli metodlardan foydalanish o'quv jarayonining sifat ko'rsatkichlarini barqaror yaxshilashga xizmat qilishi aniqlanadi. Shu bilan birga, ushbu metodlar zamonaviy ta'lim talablariga mos keluvchi samarali pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur natijalar interaktiv va raqamli metodlarning yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini o'qitishda samarali pedagogik yechim ekanligini ko'rsatadi.

**Muhokama.** Olingan natijalar asosida yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini o'qitishda interaktiv va raqamli metodlardan foydalanishning didaktik samaradorligi aniqlandi. Mazkur yondashuvlar an'anaviy o'qitish usullariga nisbatan o'quv jarayonini faollashtirish, murakkab tushunchalarni soddalashtirish hamda bilimlarni ongli o'zlashtirishni ta'minlashda samaraliroq ekanligi bilan ajralib turadi.

Yarimo'tkazgichlar fizikasi o'zining abstraktligi va mikrodarajadagi jarayonlarga asoslanganligi bilan talabalarda qiyinchilik tug'diradigan mavzulardan biridir. Energiya zonalari tuzilishi, taqiqlangan zona kengligi, zaryad tashuvchilar harakati kabi tushunchalar ko'pincha faqat nazariy bayon etilganda yetarli darajada tushunilmaydi. Shu nuqtai nazardan, interaktiv va raqamli metodlarning qo'llanilishi mazkur murakkablikni kamaytirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Vizual modellashtirish orqali talabalarda abstrakt tushunchalarning aniq tasavvuri shakllanadi, interaktiv metodlar esa ushbu bilimlarni faol o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Muhokama natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv metodlar talabalarining o'quv jarayonidagi faolligini oshirish bilan birga, ularning mantiqiy fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xalqaro tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, interaktiv va raqamli metodlar fan, texnologiya, muhandislik hamda matematika yo'nalishlaridagi ta'lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Ayniqsa, vizual simulyatsiyalar va raqamli modellar asosida abstrakt fizik tushunchalarni tushuntirish talabalarining bilish yuklamasini kamaytirib, bilimlarni chuqur va tizimli o'zlashtirishga imkon yaratadi [16].

Bunday yondashuv talabalarining bilimni mustaqil ravishda shakllantirishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, raqamli vositalar yordamida taqdim etilgan vizual materiallar murakkab fizik jarayonlarni soddalashtiradi va ularni tushunarli shaklda ifodalash imkonini beradi [17].

Shuningdek, interaktiv va raqamli metodlarning birgalikda qo'llanilishi o'quv jarayonida kompleks yondashuvni shakllantiradi. Bu esa nafaqat bilim o'zlashtirish darajasini oshiradi, balki talabalarining o'quv faoliyatiga bo'lgan qiziqishini ham kuchaytiradi. Ayniqsa, yarimo'tkazgichlar fizikasi kabi nazariy jihatdan murakkab mavzularni o'rganishda bunday integratsiyalashgan yondashuv yuqori samaradorlikni ta'minlaydi [18].

Biroq mazkur metodlardan foydalanishda ayrim metodik jihatlar ham e'tiborga olinishi lozim. Interaktiv metodlar va raqamli vositalarni samarali qo'llash o'qituvchidan puxta rejalashtirish, o'quv materialini to'g'ri tanlash va metodlarni maqsadga muvofiq uyg'unlashtirishni talab etadi. Aks holda, ortiqcha vizual yuklama yoki noto'g'ri tanlangan metodlar o'quv jarayonining samaradorligini pasaytirishi mumkin [19].

Bundan tashqari, yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini o'qitishda interaktiv va raqamli metodlardan foydalanish o'quv jarayonining zamonaviy talablarga mos ravishda tashkil etilishiga xizmat qiladi. Ushbu yondashuv talabalarining nafaqat nazariy bilimlarini, balki ularning amaliy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Bu esa kelajakda ularning kasbiy faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi [20].

Shu bilan birga, mavjud natijalarni umumlashtirish shuni ko'rsatadiki, interaktiv va raqamli metodlardan foydalanish fizika ta'limi samaradorligini oshirishda istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Biroq ushbu yondashuvlarning turli mavzular, o'quv darajalari va ta'lim sharoitlarida qo'llanilish xususiyatlarini yanada chuqurroq o'rganish zarur [21].

Umuman olganda, olingan natijalar interaktiv va raqamli metodlarning yarimo'tkazgichlar fizikasi mavzusini o'qitishda samarali pedagogik vosita ekanligini ko'rsatadi [22].

**Xulosa.** Mazkur ishda yarimo‘tkazgichlar fizikasi mavzusini interaktiv va raqamli metodlar asosida o‘qitishning nazariy va metodik jihatlari tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mazkur yondashuvlar an’anaviy o‘qitish usullariga nisbatan o‘quv jarayonining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Interaktiv metodlar talabalarning dars jarayonidagi faolligini oshirish, ularni mustaqil fikrlashga yo‘naltirish va muammoli vaziyatlarni hal etish ko‘nikmalarini rivojlantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Bunday yondashuv orqali talabalar bilimni passiv qabul qiluvchidan faol o‘zlashtiruvchiga aylanishi kuzatiladi. Natijada, o‘quv materialini chuqurroq anglash va uni amaliy jihatdan qo‘llash imkoniyati ortadi.

Raqamli metodlardan foydalanish esa yarimo‘tkazgichlar fizikasi kabi murakkab va abstrakt mavzularni tushuntirishda muhim didaktik afzalliklarga ega ekanligi aniqlandi. Grafik tasvirlar, animatsiyalar va vizual modellar yordamida energiya zonalari tuzilishi, taqiqlangan zona kengligi hamda zaryad tashuvchilar harakati kabi jarayonlarni aniq va tushunarli tarzda ifodalash mumkin. Bu esa talabalarning nazariy bilimlarini vizual tasavvurlar bilan uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi.

Tahlil natijalari interaktiv va raqamli metodlarning birgalikda qo‘llanilishi o‘quv jarayonida yuqori samaradorlikni ta‘minlashini ko‘rsatdi. Ushbu yondashuv talabalarning o‘quv faoliyatiga qiziqishini oshirish, bilimlarni mustahkamlash hamda mantiqiy va tahliliy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o‘ynaydi. Shu bilan birga, o‘quv jarayonining emotsional muhitini yaxshilash va motivatsiyani oshirishda ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, interaktiv va raqamli metodlardan samarali foydalanish o‘qituvchidan puxta metodik tayyorgarlikni talab etadi. O‘quv materialini to‘g‘ri tanlash, metodlarni maqsadga muvofiq uyg‘unlashtirish va ularni dars jarayoniga moslashtirish zarur hisoblanadi. Mazkur talablar bajarilgandagina ushbu yondashuvlardan kutilgan natijalarga erishish mumkin.

Umuman olganda, yarimo‘tkazgichlar fizikasi mavzusini o‘qitishda interaktiv va raqamli metodlardan foydalanish ta‘lim samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv zamonaviy ta‘lim tizimi talablariga mos kelib, talabalarni chuqur bilim olishga, mustaqil fikrlashga va murakkab masalalarni hal etishga tayyorlaydi.

Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan ishlar interaktiv va raqamli metodlarning turli o‘quv mavzulariga moslashuvini o‘rganish, ularning qo‘llanilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda ta‘lim jarayoniga keng joriy etish bilan bog‘liq bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Taklif etilgan metodik yondashuvni oliy ta‘lim muassasalarida keng joriy etish yarimo‘tkazgichlar fizikasi kabi murakkab mavzularni o‘qitish sifatini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

#### Adabiyotlar:

1. Wieman C. Improving how universities teach science: Lessons from the science education initiative // *Science*. – 2017. – Vol. 355, №6320. – P. 921–922.
2. Sweller J., Ayres P., Kalyuga S. *Cognitive Load Theory*. – Cham: Springer, 2019. – 384 p.
3. Deslauriers L., McCarty L.S., Miller K., Callaghan K., Kestin G. Measuring actual learning versus feeling of learning in response to being actively engaged in the classroom // *Proceedings of the National Academy of Sciences*. – 2019. – Vol. 116, №39. – P. 19251–19257.
4. Abduqodirov A.A., Begimqulov U.Sh. *Ta‘limda axborot texnologiyalari*. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2016. – 320 b.
5. Laurillard D. *Teaching as a Design Science: Building Pedagogical Patterns for Learning and Technology*. – London: Routledge, 2017. – 288 p.
6. Ishmuhamedov R.J. *Innovatsion pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: O‘qituvchi, 2019. – 256 b.
7. Stains M., Harshman J., Barker M.K., Chasteen S.V., Cole R., DeChenne-Peters S.E., Eagan M.K., Esson J.M., Knight J.K., Laski F.A. Anatomy of STEM teaching in North American universities // *Science*. – 2018. – Vol. 359, №6383. – P. 1468–1470.
8. Yo‘ldoshev J.G. *Ta‘lim samaradorligini oshirish texnologiyalari*. – Toshkent: Sharq, 2018. – 280 b.
9. Hattie J. *Visible Learning: A Synthesis of Over 800 Meta-Analyses Relating to Achievement*. – London: Routledge, 2017. – 382 p.
10. Seidel T., Shavelson R.J. Teaching effectiveness research in physics education // *Review of Educational Research*. – 2017. – Vol. 87, №2. – P. 247–283.
11. Tursunov A., Rahmonov R. *Zamonaviy pedagogik texnologiyalar*. – Toshkent: Universitet, 2020. – 300 b.

12. Mayer R.E. Using multimedia for e-learning // *Journal of Computer Assisted Learning*. – 2017. – Vol. 33, №5. – P. 403–423.
13. Qodirov B.R. Fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: Fan, 2017. – 280 b.
14. Ismoilov M. Fizika ta’limida innovatsion yondashuvlar. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 250 b.
15. Van Merriënboer J.J.G., Kirschner P.A. Ten steps to complex learning: A systematic approach to four-component instructional design // *Educational Research Review*. – 2018. – Vol. 23. – P. 1–17.
16. Chi M.T.H., Wylie R. The ICAP framework revisited: Advances in cognitive engagement // *Educational Psychologist*. – 2018. – Vol. 53, №4. – P. 219–243.
17. Darling-Hammond L., Flook L., Cook-Harvey C., Barron B., Osher D. Implications for educational practice of the science of learning and development // *Applied Developmental Science*. – 2020. – Vol. 24, №2. – P. 97–140.
18. Bond M., Marín V.I., Dolch C., Bedenlier S., Zawacki-Richter O. Digital transformation in German higher education // *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. – 2018. – Vol. 15, №1. – P. 1–20.
19. Kirschner P.A., Hendrick C. *How Learning Happens: Seminal Works in Educational Psychology and What They Mean in Practice*. – London: Routledge, 2020. – 432 p.
20. Bond M., Bedenlier S. Facilitating student engagement through educational technology: A systematic review // *Educational Technology Research and Development*. – 2019. – Vol. 67, №3. – P. 763–784.
21. Schindler L.A., Burkholder G.J., Morad O.A., Marsh C. Computer-based technology and student engagement: a critical review of the literature // *International Journal of Educational Technology in Higher Education*. – 2017. – Vol. 14, №1. – P. 1–28.
22. Hodges C., Moore S., Lockee B., Trust T., Bond A. The difference between emergency remote teaching and online learning // *EDUCAUSE Review*. – 2020. – P. 1–12.

## NAZARIY MEXANIKADAN AMALIY MASHG‘ULOTLARDA TALABALAR KREATIVLIGINI RIVOJLANTIRISH

*Nabiyev A‘zamjon Botirjonovich,*  
*Namangan davlat universiteti dotsenti, PhD*  
*anabiyev76@mail.ru*

*Maqolada nazariy mexanika fanidan amaliy mashg‘ulotlar jarayonida talabalarning kreativligini rivojlantirish metodikasi yoritilgan. Fazaviy fazo, fazaviy trayektoriya va fazaviy manzara tushunchalariga asoslangan grafik masalalar orqali talabalarning tahliliy va ijodiy fikrlashini rivojlantirish imkoniyatlari ko‘rib chiqilgan. Amaliy mashg‘ulotlarda kompyuter modellashtirishdan foydalanish grafik masalalarni chuqur tahlil qilish, turli boshlang‘ich shartlar asosida qonuniyatlarni aniqlash va mustaqil xulosalar chiqarish imkonini berishi asoslab berilgan. Taklif etilgan yondashuv talabalarni kreativ faoliyatga jalb etish hamda tabaqalashtirilgan ta‘limni amalga oshirishda samarali hisoblanadi.*

**Kalit so‘zlar:** kreativlik, fazaviy fazo, fazaviy trayektoriya, fazaviy manzara, grafik masalalar, modellashtirish, tabaqalashtirilgan ta‘lim.

## РАЗВИТИЕ КРЕАТИВНОСТИ СТУДЕНТОВ НА ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЯХ ПО ТЕОРЕТИЧЕСКОЙ МЕХАНИКЕ

*В статье рассматривается методика развития креативности студентов в процессе проведения практических занятий по теоретической механике. На основе понятий фазового пространства, фазовой траектории и фазового портрета анализируются возможности развития аналитического и творческого мышления студентов с использованием графических задач. Обосновано, что применение компьютерного моделирования в практических занятиях позволяет глубже анализировать графические задачи, выявлять закономерности при различных начальных условиях и формировать навыки самостоятельных выводов. Предложенный подход является эффективным средством вовлечения студентов в креативную деятельность и реализации дифференцированного обучения.*

**Ключевые слова:** креативность, фазовое пространство, фазовая траектория, фазовый портрет, графические задачи, моделирование, дифференцированное обучение.

## DEVELOPING STUDENTS’ CREATIVITY IN PRACTICAL CLASSES OF THEORETICAL MECHANICS

*The article discusses a methodology for developing students’ creativity in practical classes of theoretical mechanics. Based on the concepts of phase space, phase trajectory, and phase portrait, the possibilities of enhancing students’ analytical and creative thinking through graphical problems are analyzed. It is substantiated that the use of computer modeling in practical classes enables deeper analysis of graphical tasks, identification of patterns under various initial conditions, and the development of independent conclusions. The proposed approach is effective for engaging students in creative activities and implementing differentiated instruction.*

**Keywords:** creativity, phase space, phase trajectory, phase portrait, graphical problems, modeling, differentiated instruction.

**Kirish.** Ma‘lumki XX asr oxirlaridan boshlab “globallashuv” iqtisodiy va ijtimoiy sohalarni qabrab ola boshladi, shu jumladan ta‘lim jarayonini ham. Shundan kelib chiqib ta‘lim sohasiga jamiyat tomonidan beriladigan “ijtimoiy buyurtmani” ham talablari o‘zgarib boshladi, ya‘ni asosiy talab “inson resurslari”ni o‘zgaruvchan sharoitga doim tayyor turadigan uzluksiz tayyorlanish xususiyatiga ega qilib tarbiyalashdan iborat bo‘ldi. Shu bilan birgalikda bo‘lajak mutaxassislar texnika va texnologiyani jadal sur‘atlarda o‘zgarishi tufayli yuzaga keladigan muammoni oldindan ko‘ra bilish va unga mos mutaxassislik bo‘yicha mustaqil ta‘lim olish bilan muammoni hal qila olishi zarur. Bunday xususiyatga ega shaxslarni tarbiyalash uchun zamonaviy oliy ta‘limda talabalarda kreativlik va ijodkorlikni rivojlantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanmoqda.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Kreativ xususiyatga ega shaxs [1] da ta‘kidlanganidek; “zamonaviy jamiyatda shaxs samarali va yutuqlar keltiradigan faoliyat ko‘rsatish uchun bir faoliyat turidan

boshqa bir faoliyat turiga tez moslashuvchan, mustaqil ta’lim olish qobiliyatiga ega bo’lishi kreativlik xususiyatini namoyon bo’lishidir”.

Demak oliy ta’limdan qaysi soha bo’lishidan qat’iy nazar talabalarning kreativligini rivojlantirish asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, jumladan fizika yo’nalishida ham. Ushbu yo’nalishda nashr qilingan adabiyotlar va maqolalarda talabalarni kreativligini turli ta’lim texnologiyalari qo’llash orqali rivojlantirish usullari ko’rib chiqilgan, jumladan [2] da umumiy fizika kursini o’rganish jarayonida fizik-bakalavrlarni kreativligini tadqiqotchilik-izlanuvchanlik, diskussiya va o’yinlar usulida rivojlantirish tadqiq etilgan va asosan fizika tarixiga oid materiallarni o’rganishga katta e’tibor qaratilgan. Bundan tashqari [3] da kreativlikni fizik praktikumlarda avval olingan fizik bilimlarni qo’llab turli modellardan foydalanish yordamida rivojlantirish tavsiya qilingan.

Talabalarni kreativligini rivojlantirish o’rganilayotgan sohasiga oid bilimlarni ongli o’zlashtirishga bog’liq bo’lib, olingan bilimlar turli yangi g’oyalar va yangi qonuniyatlarga transformatsiya qilinadi. Shu nuqtayi nazardan kreativlikni rivojlantirishda fizik bakalavrlar ham keng imkoniyatlarga ega, chunki bunga fizikani bo’limlarini ko’pligi va o’rganish usullarini xilma-xilligi sabab bo’ladi. Ammo tadqiqotlarda nazariy fizika kurslarida talabalarni kreativligini rivojlantirishga kam e’tibor qaratilgan. Biz o’z tadqiqotimizda “nazariy mexanika” kursida “fazaviy fazo”da obyekt harakatlarini o’rganish orqali talabalarning kreativligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish muammosini ko’rib chiqdik.

#### **Kreativlikni rivojlantirishda usullar va yondashuvlarning ahamiyati.**

Hozirgi kunda zamonaviy ta’limni asosiy maqsadlaridan biri kreativlikni rivojlantirish bo’lgani uchun o’quvchi va talabalarga faqatgina sohaga oid bilimlarnigina berish bilan chegaralanmasdan olingan bilimlarni nostandart holatlarga qo’llash, mustaqil ravishda muammoli masalani sezish va uni yechish usullarini topish kabi ko’nikmalarni talabalarda rivojlantirishdan iborat bo’lishi kerak.

Ta’lim jarayonida kreativ faoliyat olib borishni tashkil qilish uchun [4] da bir necha tavsiyalar ishlab chiqilgan, jumladan

-o’quvchilarni kreativ faoliyatini bazaviy bilim va ko’nikmalarsiz tashkil qilib bo’lmaydi. Shuning uchun ta’lim jarayoniga ijodiy komponentani tadbiq qilish tan olingan o’qitish usullariga zarar yetmasligi zarur.

-kreativ faoliyat yangi maxsulot yoki g’oyani yuzaga kelishiga yo’naltirilgan bo’lib, kreativ faoliyat natijasi asosan o’quvchilarni o’zlari uchun yangi g’oya, qonuniyat yaratish va xakozolar bo’lishi shart. Ya’ni fanda yangilik bo’lishi shart emas.

-o’quvchilarni kreativ faoliyatini erkinlik va nazoratni rasional taqsimoti orqali amalga oshirish zarur.

Demak talabalarni kreativlik xususiyatlarini rivojlantirishda quyidagicha yondashuvlarni amalga oshirish zarur bo’ladi.

-faoliyatga yo’naltirilgan yondashuv, bunda talaba maxsus tashkil qilingan muhitda shaxsiy sifatlarini rivojlantiradi.

-shaxsga yo’naltirilgan yondashuv amalga oshirilishi natijasida ta’limda talaba sub’yekt sifatida o’z o’rniga ega bo’ladi, o’z muammo yoki masalalariga va ularni xal qilishda optimal variant tanlash imkoniga ega bo’ladi.

-kompetensiyaviy yondashuvda bitiruvchi uchun qo’yilgan “malaka talablari”dagi kompetensiyalarni shakllantirish ko’zda tutiladi.

-tizimli yondashuvda esa talabada fikrlashning bir necha turlarini kompleks rivojlantirish uchun ta’lim jarayonida o’qitishning faol va integrativ usullaridan foydalanishdan iborat bo’ladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Kreativ faoliyatni asosiy xususiyatlaridan biri tanqidiy fikrlash, tahlil qilish va u asosda nimadur yaratishdan iboratdir va u yuqorida ta’kidlaganimizdek avvalgi o’rganilgan bilimlar negizida amalga oshiriladi. Shunga ko’ra kreativlikni rivojlantirishga yo’naltirilgan ta’lim jarayonini tashkil qilishda an’anaviy ta’lim jarayonini tahlil qilish va ijodiy yondashgan xolda yangi ta’lim jarayonini tashkil qilish zarur.

Fazoviy trayektoriya va fazoviy manzaraga oid fizik masalalar yordamida kreativlikni rivojlantirish.

Ma’lumki “nazariy fizika” kursidan mashg’ulotlar ma’ruza va seminar(praktika) ko’rinishida tashkil qilinadi. Yuqoridagi barcha yondashuvlar asosida praktik mashg’ulotni kreativlik asosida tashkil qilish imkoniyati yuqori. Praktik mashg’ulotlarda kreativ faoliyat olib borish uchun yuqoridagi tavsiyalarga asosan yangi masalalar tuzmasdan avvalgi masalalardan foydalanish va maqsadni o’zgartirish zarur bo’ladi. Ma’lumki an’anaviy ta’limga asoslangan holda praktik mashg’ulotlarda masala ishlashdan maqsad asosan olingan bilimlarni mustahkamlashdan iborat bo’lib ishlangan masala javobi deyarli tahlil qilinmas yoki qandaydir qonuniyatlar keltirib chiqarilmas edi. Kreativ faoliyatga asoslangan dars mashg’uloti tashkil qilish uchun ushbu masalalarga ijodiy yondashib maqsadni o’zgartirish lozim bo’ladi.

Yuqoridagi fikrlar, tavsiyalar va yondashuvlar asosida “nazariy mexanika” kursidan praktik mashg‘ulotlarni tashkil qilish usulini ko‘rib chiqamiz. Ma‘lumki mexanika tabiatda sodir bo‘ladigan eng sodda harakatlarni o‘rganadi. Barcha fizik hodisalar kabi mexanik harakatlar fazoda qandaydir vaqt oralig‘ida sodir bo‘ladi va ushbu harakatlar  $X(t)$ ,  $S(t)$ ,  $r(t)$  va  $v(t)$ ,  $a(t)$  bog‘lanish qonuniyatlari asosida sodir bo‘lishiga qarab Dekart, qutb, silindrik va sferik koordinatalarda o‘rganiladi. Shuningdek ushbu koordinatalar sistemasida harakatlanayotgan obyektning qoldirgan izi uning trayektoriyasi deb ataladi va trayektoriya tenglamasi esa  $f(x,y,z)$  funksiya orqali aniqlanadi. Nazariy mexanikada esa harakatni o‘rganish uchun yana bir funksiya Gamilton funksiyasi va u aniqlanadigan fazoviy fazo tushunchasi kiritiladi.

Torrens [5] metodikasiga ko‘ra kreativlik darajasini aniqlashda asosan turli grafiklardan foydalanilgan. Haqiqatan ham ijtimoiy va tabiiy sohada o‘zgarishlarni, kelgusidagi prognoz (bashorat) va grafiklar bog‘lanishlarni vizuallashtirishga yordam bergan holda ma‘lumotlarni tarkiblashtirishga va ular o‘rtasidagi bog‘lanishlarni topishga yordam beradi. Bundan tashqari grafiklar yordamida kreativlikni asosiy belgisi bo‘lgan talaba yoki izlanuvchi o‘zi uchun yangi qonuniyatlarni “yaratish” imkoniga ega bo‘ladi. Grafik masalalarni asosiy kamchiligi hisoblash ishlarini bajarish uchun ko‘p vaqt sarflanishidir, shuning uchun an’anaviy ta’limda grafik masalalardan kam foydalanilgan. Ammo o‘quv jarayoniga kompyuter texnologiyasini kirib kelishi va unga bog‘lab o‘tiladigan predmetlarni, masalan fizikada “fizik jarayonlarni kompyuterda modellashtirish” kabi kurslarni o‘quv rejaga qo‘shilishi bilan yuqoridagi muammo o‘z yechimini topdi. Umumiy fizika kursini “mexanika” va “nazariy mexanika” bo‘limida amaliy mashg‘ulotlarda foydalaniladigan masalalarda takrorlanuvchanlik bor, shundan kelib chiqib “nazariy mexanika” bo‘limiga oid amaliy mashg‘ulotlarda grafik masalalarga ko‘proq e’tibor qaratish imkoniyati mavjud, chunki mexanika kursida asosiy e’tibor masalalarni analitik va sonli usulda ishlangan.

Nazariy mexanikadagi masalalarda dekart koordinatalarida trayektoriya grafigi yoki  $(x,t)$   $(v,t)$  yoki  $(a,t)$  koordinatalarga mos ravishda masofa, tezlik yoki tezlanishning vaqtga bog‘lanish grafigini yasash yoki u asosida boshqa kattaliklarni topish talab qilinadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek fazoviy fazo tushunchasi kiritilgach ushbu fazoda harakatni o‘rganishga oid masalalar ishlash orqali talabalarni kreativligini yanada rivojlantirish imkoni yuzaga keladi, chunki fazoviy fazoda harakatni o‘rganish uchun fazoviy trayektoriya va fazoviy manzaralar grafigi yordamida dinamik sistema haqida bir qancha qonuniyatlarni yaratish imkoni bo‘ladi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Ma‘lumki har qanday sistema vaqtning biror momentida qanday holatda bo‘lib bu holat bir nechta fizik parametrlar orqali aniqlanadi. Masalan mexanikada fazoviy fazo koordinatalari tezlik va koordinata yoki bosib o‘tilgan yo‘l bo‘lgani uchun fazoviy trayektoriya  $f(r_i, v_i)$  funksiyani grafigi ko‘rinishida bo‘ladi va u mexanik sistemani boshlang‘ich holatdan oxirgi holatga o‘tish jarayonini aks ettiradi. Bunda turli boshlang‘ich holatga turli trayektoriyalar mos keladi, chunki fazoviy fazoni har bir nuqtasidan faqat bitta fazoviy trayektoriya o‘tgan bo‘ladi. Bitta sistema uchun turli xil boshlang‘ich holatlarga to‘g‘ri keluvchi fazoviy trayektoriyalar to‘plami fazoviy manzara deyiladi.

Fazoviy manzarani o‘rganish orqali esa mexanik sistema va u harakatlanayotgan maydon yoki mexanik sistemaga ta’sir qiluvchi kuchlar tabiati haqida turli ma‘lumotlar, harakatlanish qonuniyatlari haqida ma‘lumotlarni mustaqil ravishda yaratishimiz mumkin.

Fazoviy trayektoriya va manzara grafiklarini yaratishga oid masalalar tanlashda avval foydalanilgan standart masalalardan foydalanish mumkin. Bundan tashqari talabalar kompyuterda biror bir programmalash dasturi asosida grafik yasash ko‘nikmasiga ega bo‘lishlari ham zarur boladi. Bu yuqoridagi yondashuvlarni amalda bajarilishini tasdiqlagan holda talabalar bir masalaga oid ko‘plab grafiklar olish, ularni taqqoslash, tahlil qilish va turli qonuniyatlar kashf qilish (o‘zlari uchun) imkoniyatiga ega bo‘lishadi. Namuna sifatida quyidagi masalani ko‘raylik: m massali q zaryadli zarracha maydon kuchlanganligi E bo‘lgan bir jinsli elektr maydonida turibdi. Zarrachaga maydon kuch chiziqlariga qarshi yo‘nalishda  $v_0$  boshlang‘ich tezlik berilsa uning fazoviy manzarasini ifodalovchi grafiklarni yasang.

Bunday masalani tanlashdan maqsad nazariy mexanika nafaqat gravitasion maydondagi balki elektr va boshqa maydonlardagi harakatni o‘rganishni ko‘rsatish va turli masalalardan foydalanish imkoniyatini kengaytirishdir. Usbu masalani ikki xil usulda ishlash mumkin. Ya’ni dinamik va energetik usulda.

$$\text{Dinamik usul. } ma = qE \quad \text{yoki} \quad \frac{dv}{dt} = \frac{q}{m} E$$

$$v = -\frac{q}{m} Et + v_0 \quad \text{tezlikni o‘zgarish qonuni}$$

$$x = v_0 t - \frac{qEt^2}{2m} \quad \text{koordinatani o‘zgarish qonuni}$$

Harakat bir to‘g‘ri chiziqda sodir bo‘lgani uchun faqat OX o‘qini tanlaymiz. Qoidaga ko‘ra fazoviy trayektoriya hosil qilish uchun  $f(x,v)$  funksiyani tuzish lozim bo‘ladi. Yuqoridagi tenglamalardan  $t$  ni yo‘qotadigan bo‘lsak

$$v_0^2 = 2 \frac{q}{m} Ex + v^2 \quad \text{yoki} \quad v = \sqrt{v_0^2 - 2 \frac{q}{m} Ex} \quad \text{ifodaga ega bo‘lamiz.}$$

Ushbu tenglamani energetik usulda quyidagicha ishlaymiz, ya‘ni energiyani saqlanish qonuniga ko‘ra

$$\frac{mv_0^2}{2} = \frac{mv^2}{2} + qEx \Rightarrow v = \pm \sqrt{v_0^2 - \frac{q}{m} Ex}$$

Kompyuter dasturi asosida fazoviy manzara hosil qilish uchun zarrachaga turli boshlang‘ich tezliklar berib turli fazoviy trayektoriyalar hosil qilamiz. Olingan grafiklardan ko‘rinib turibdiki (1-rasm) fazoviy trayektoriya turli egri chiziqlardan iborat bo‘lsada umumiy hususiyatga ega, ya‘ni barcha hollarda grafik kamayuvchi funksiyani ifodalaydi. Masalani kompyuter yordamida ishlash nafaqat grafik yaratish imkoniyatidan tashqari o‘quvchini nazorat qilish imkoniyatini ham kengaytiradi. Chunki  $q$ ,  $m$  va  $E$  ga turli qiymatlar berish bilan har bir o‘quvchilarda grafiklar ko‘rinishi turlicha bo‘lishiga olib keladi. Bundan tashqari fazoviy trayektoriya  $v_0$  ga to‘g‘ri keladigan grafigini  $q$ ,  $m$  yoki  $E$  parametrlarga bog‘liqligini uch o‘lchovli ko‘rinishda ham yasash orqali turli qonuniyatlar topish mumkin (2-rasm).

Ba‘zi bir masalalarda, jumladan yuqorida ko‘rilgan masalada ta‘limga darajali tabaqalashtirilgan yondashuvni ham amalga oshirish mumkin, ya‘ni yuqoridagi masalani o‘ta iqtidorli talabalarga ham mos holga keltirish mumkin. Buning uchun bir jinsli maydon bir jinsli bo‘lmagan maydon bilan almashtiriladi, ya‘ni bir nuqtaga mahkamlangan  $Q$  zaryadni maydonida  $q$  zaryad harakati uchun fazoviy manzarani grafigini yasash masalasi qo‘yiladi. U holda  $E$  maydon kuchlanganligini  $E = k \frac{Q}{R^2}$  ko‘rinishda yozadigan bo‘lsak, fazoviy trayektoriya olish uchun ifodani quyidagi ko‘rinishda yozamiz. (Harakat radial yo‘nalishda bo‘lgan

$$v = \pm \sqrt{v_0^2 - k \frac{qQ}{m} \cdot \frac{R-x}{R \cdot x}}$$

hol uchun)

Zaryadli zarrani radial elektr maydonidagi harakati fazoviy manzarasi 3-rasmda keltirilgan. Rasmda keltirilgan grafiklardan ko‘rish mumkinki  $v_0$  ning qandaydir qiymatidan boshlab fazoviy trayektoriya alohida ikkita chiziqdan iborat bo‘lar ekan. Talabalar ushbu grafiklarni tahlil qilib o‘zlari uchun juda ko‘p qonuniyatlarni keltirib chiqarishlari mumkin. Berilgan topshiriq mazmunidan kelib chiqib o‘quvchi tomonidan kreativlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan bir necha savollar to‘plami tayyorlab qo‘yiladi va talabalarga beriladi.

Fazoviy trayektoriya va manzaraga oid nafaqat ilgarilanma harakatga oid balki tebranma va aylanma harakatga oid ham masalalarni talabalarga taqdim etish samarali kreativ faoliyat olib borishda katta ahamiyatga ega.

Tebranma harakatga oid masalalar tanlashda matematik mayatnikdan tashqari purjina yordamida bir-biriga mahkamlangan ikki zaryadni tebranma harakati uchun fazoviy manzarani yaratishda o‘qituvchi va o‘quvchi uchun tanlov imkoniyati yuqori bo‘ladi. Bunday masalalarda zaryadli brusok yoki sharga ta‘sir qiluvchi bir necha kuchlardan foydalanish mumkin, jumladan brusok harakatlanayotgan muhitni qarshilik kuchi brusok va sirt o‘rtasidagi ishqalanish kuchi, bu holatda turli ishqalanish koeffitsiyentlari va qarshilik koeffitsiyentlaridan foydalanib so‘nuvchi tebranishlar uchun fazoviy trayektoriya olish imkoni bo‘ladi. Tabaqalashtirilgan ta‘limni amalga oshirish uchun esa zaryadli zarralar harakatlanishini magnit maydonida ham o‘rganishni iqtidorli talabalarga masala sifatida berish mumkin. Tebranma harakatda ko‘pgina xollarda bog‘liq sistemani harakati o‘rganilgan, ammo ba‘zi jarayonlarda o‘zaro bog‘liqlik maydon yordamida amalga oshiriladi va ular ham ilgarilanma, ham tebranma harakat qiladi. Namuna sifatida quyidagi masalani tavsiya qilamiz.

Masala. Massasi  $m$  va hajmi  $V_0$  bo‘lgan havo shari shamolsiz havoda vertikal ko‘tarilmoqda. Havo zichligi balandlikka bog‘liq holda o‘zgaradi deb olib, ya‘ni  $\rho = \rho_0 \exp\left(-\frac{mgh}{kT}\right)$ , havo shari harakati uchun fazoviy manzara yasang.

Ushbu masala uchun fazoviy trayektoriya grafigidan tashqari  $h(t)$  va  $v(t)$  bog‘liqlik grafigini yasash dars samaradorligini yanada orttiradi. Chunki ushbu grafiklarni o‘zaro taqqoslash va tahlil qilish bilan turli hil qonuniyatlar va xulosalarga ega bo‘lish mumkin (4-rasm).

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, nazariy mexanika fanidan amaliy mashg‘ulotlarni fazoviy trayektoriya va fazoviy manzaralar asosida tashkil etish talabalarning kreativligini rivojlantirishda samarali hisoblanadi. Grafik masalalar va kompyuter modellashirishdan foydalanish mexanik sistemalarning

harakat qonuniyatlarini mustaqil tahlil qilish va yangi xulosalar chiqarish imkonini yaratadi. Mazkur yondashuv amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirib, talabalarda tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Шелкин А.Г. «Креативная цивилизация», Свободная мысль-XXI-2021. №11. с.83-84.
2. Мягкова Э.С., Часова К.В. Взаимосвязь креативности и современных информационных технологий в обучении студентов математики. // Успехи современного естествознания. 2013. № 10. с. 111-113.
3. Дамбуева А.Б. Развитие креативности студентов в процессе изучения курса общей физики. // Вестник ТГПУ 2013.1(129). с.22-24.
4. Макарова А.С. Применение креативного подхода в обучении естественных наук. Материалы Всеросс.науч.-практ. конф. «Современные проблемы химического образования». Иркутск. Изд-во ИГПУ. 2006. с. 55-56.
- 5.Скворцова С.В. Основы обучения креативной деятельности на примере педагогики Великобритании. // Образование и наука. - 2015. - №2. - с. 155-166.

**TALABALARGA FIZIKA FANINI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI ASOSIDA O‘QITISHNI  
TAKOMILLASHTIRISH HOLATI VA MAVJUD MUAMMOLAR**

*Atajanova Gulzar Kazakbayevna,  
Nukus davlat texnika universiteti katta o‘qituvchisi*

*Ushbu maqolada oliy ta’limda fizika fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitishni takomillashtirishning hozirgi holati, amaliyotda uchrayotgan didaktik, metodik va tashkiliy muammolar hamda ularni bartaraf etish yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda normativ-huquqiy hujjatlar, o‘quv dasturlari va raqamli ta’lim resurslarini kontent tahlil qilish, qiyosiy tahlil va pedagogik diagnostika yondashuvlari qo‘llanadi. Ilmiy yangilik sifatida fizikani o‘qitishda raqamli vositalarni tanlash mezonlari, laboratoriya ishlarini virtual va real muhitda uyg‘unlashtirish modeli hamda baholashni kompetensiyaga yo‘naltirish mexanizmlari asoslanadi. Maqolada simulyatsiya, sensorli tajribalar va LMS tizimli integratsiya etish o‘quv jarayonini boshqarish va fizik tasavvurlarni shakllantirish sifatini oshirishi ko‘rsatilgan.*

**Kalit so‘zlar:** fizika ta’limi, axborot texnologiyalari, raqamli didaktika, virtual laboratoriya, simulyatsiya, kompetensiyaviy yondashuv, LMS.

**СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ И СУЩЕСТВУЮЩИЕ ПРОБЛЕМЫ  
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ ПРЕПОДАВАНИЯ ФИЗИКИ СТУДЕНТАМ НА ОСНОВЕ  
ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ**

*В данной статье анализируется современное состояние совершенствования преподавания физики в высшей школе на основе информационных технологий, а также дидактические, методические и организационные проблемы, возникающие на практике. В исследовании используются контент-анализ нормативных документов, учебных программ и цифровых ресурсов, сравнительный анализ и подходы педагогической диагностики. Научная новизна заключается в обосновании критериев отбора цифровых средств, модели сочетания виртуальных и реальных лабораторных работ и механизма компетентностно-ориентированного оценивания результатов обучения. В статье показано, что использование симуляций, сенсорных экспериментов и интеграция систем LMS способствует повышению качества управления учебным процессом и формированию физических представлений.*

**Ключевые слова:** физическое образование, информационные технологии, цифровая дидактика, виртуальная лаборатория, симуляция, компетентностный подход, LMS.

**CURRENT STATE AND EXISTING PROBLEMS IN IMPROVING THE TEACHING OF  
PHYSICS TO STUDENTS BASED ON INFORMATION TECHNOLOGIES**

*This article examines the current state of improving university physics education through information technologies and identifies key didactic, methodological, and organizational challenges. The study employs content analysis of regulatory documents, curricula, and digital learning resources, combined with comparative analysis and pedagogical diagnostics. Scientific novelty is provided by proposing criteria for selecting digital tools, a model for integrating virtual and real laboratory activities, and a competence-oriented assessment mechanism. The article demonstrates that the use of simulations, sensor-based experiments, and the integration of LMS systems improves the quality of learning process management and the formation of physical concepts.*

**Keywords:** physics education, information technologies, digital pedagogy, virtual laboratory, simulation, competency-based approach, learning management system.

**Kirish.** Oliy ta’limda fizika fanini o‘qitish tabiiy-ilmiy tafakkurni shakllantirish, muhandislik va texnologik yo‘nalishlar uchun tayanch kompetensiyalarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan strategik ahamiyatga ega. Biroq fizikani o‘qitishning an’anaviy modeli ko‘pincha ma’ruza markazli, tajriba bazasi cheklangan va talabalar faoliyatini individual boshqarish imkoniyatlari tor bo‘lgan shaklda namoyon bo‘ladi. Axborot texnologiyalari esa mazkur muammolarni “o‘rmini bosuvchi” vosita sifatida emas, balki didaktik tizimning tarkibiy elementi sifatida to‘g‘ri loyihalansa, o‘quv jarayonining maqsad, mazmun, metod, vosita va natijalarini uyg‘unlashtirishga xizmat qiladi. Hozirgi holatni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab oliy ta’lim muassasalarida raqamli platformalar joriy etilgan bo‘lsa-da, ularning fizik mazmun bilan pedagogik

jihatdan integratsiyasi bir xilda emas; ayrim joylarda texnologiya namoyishkorona qo‘llanadi, ayrim joylarda esa laboratoriya va hisoblash ishlarining sifatini real oshiradigan darajada chuqur qo‘llanadi. Shuning uchun fizika fanini o‘qitishni “axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish” masalasi texnik infratuzilma bilan cheklanmay, metodik dizayn, baholash strategiyasi, akademik halollik va o‘qituvchi kompetensiyalarini ham qamrab olishi zarur.

**Adabiyotlar tahlili.** Fizika fanini axborot texnologiyalari asosida o‘qitish masalasi zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda keng o‘rganilgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Xalqaro ilmiy adabiyotlarda multimedia ta‘limi, raqamli didaktika, simulyatsion o‘qitish va aralash ta‘lim modellari fizika ta‘limining samaradorligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida ko‘rsatiladi.

Jumladan, R. Mayer tomonidan ishlab chiqilgan multimedia o‘qitish nazariyasida o‘quv materialini vizual va verbal komponentlar orqali integratsiyalash o‘quvchilarning kognitiv yuklamasini kamaytirishi va tushunchalarni chuqurroq o‘zlashtirishga yordam berishi asoslab berilgan [1]. Ushbu yondashuv fizika kabi abstrakt tushunchalarga boy fanlarda alohida ahamiyat kasb etadi.

C. Wieman va K. Perkins tadqiqotlarida esa interaktiv simulyatsiyalar fizika ta‘limida konseptual tushunchalarni shakllantirish va talabalar faolligini oshirishda samarali vosita sifatida baholanadi [2]. Ularning ishlari shuni ko‘rsatadiki, virtual tajribalar real laboratoriya ishlarini to‘liq almashtirishda-da, ularni to‘ldiruvchi didaktik vosita sifatida yuqori natija beradi.

A. W. Bates tomonidan ishlab chiqilgan “raqamli davrda o‘qitish” konsepsiyasi esa ta‘lim jarayonini loyihalashda texnologiyani emas, balki pedagogik maqsadlarni markazga qo‘yish zarurligini ta‘kidlaydi [3]. Bu yondashuv fizika ta‘limida raqamli resurslardan foydalanishni metodik jihatdan asoslashda muhim nazariy baza hisoblanadi.

MDH davlatlari olimlaridan Y. G. Fokin pedagogik texnologiyalarni oliy ta‘lim jarayoniga integratsiya qilish, o‘quv faoliyatini boshqarish va natijalarni baholash tizimini takomillashtirish masalalarini yoritgan [4]. Uning qarashlari kompetensiyaviy yondashuv asosida ta‘lim sifatini oshirishga qaratilgan.

O‘zbekistonlik tadqiqotchilar S. N. Tursunov va A. A. Abdurahmonovlar fizika laboratoriya mashg‘ulotlarini axborot texnologiyalari asosida tashkil etish masalasini o‘rganib, virtual laboratoriyalar va real tajribalarni uyg‘unlashtirish zarurligini ta‘kidlaganlar [5]. Bu yondashuv milliy ta‘lim tizimida raqamli laboratoriya madaniyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, B. X. Rahimov ishlarida fizika o‘qitishda kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion metodlar va raqamli didaktika elementlarini integratsiya qilish orqali o‘quv samaradorligini oshirish masalalari asoslab berilgan [6].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Fizika ta‘limini raqamlashtirishning hozirgi holatini baholashda birinchi navbatda o‘quv natijalari qanday ifodalanayotgani muhim. Hozirda fizika o‘qitish metodikasini takomillashtirishni fanlararo integratsiya, kompetensiyaviy yondashuv va eksperiment madaniyatini rivojlantirishga tayangan holda amalga oshirish talab etiladi. Amaliyotda esa o‘quv natijalari ko‘pincha mavzular ro‘yxati va nazariy bilimlar bilan chegaralanib qoladi; raqamli vositalar esa shu mavzularni “tezroq yetkazish” uchun ishlatiladi. Vaholanki, fizikadagi konseptual tushuncha, model tuzish, tajriba dizayni, o‘lchash noaniqliklari bilan ishlash, ma‘lumotlarni qayta ishlash kabi natijalar raqamli muhitda aniq indikatorlar orqali o‘lchanishi mumkin. Bu yerda asosiy masala texnologiya imkoniyatlarini didaktik maqsadga bo‘ysundirishdir: masalan, simulyatsiya talabani intuitsiyasini shakllantirishi uchun u faqat “ko‘rsatib beruvchi animatsiya” bo‘lib qolmasligi, balki parametrlarni boshqarish, gipoteza qo‘yish, natijani tahlil qilish va xulosani tekshirish siklini tashkil etishi kerak [1]. Shu bois hozirgi holatni ijobiy baholash mezoni sifatida “platforma bor-yo‘qligi” emas, balki “o‘quv faoliyati modeli qay darajada o‘zgargani” olinishi lozim.

Axborot texnologiyalari asosida fizika fanini o‘qitishning asosiy yo‘nalishlari sifatida LMS orqali kursni boshqarish, raqamli kontent (video, interaktiv konspekt, test), simulyatsiya va virtual laboratoriyalar, real vaqt o‘lchash tizimlari (sensorlar), hisoblash fizikasiga oid dasturiy vositalar, hamda masofaviy va aralash ta‘lim dizaynini ko‘rsatish mumkin. Ushbu yo‘nalishlarning har biri o‘z didaktik cheklovlariga ega. Masalan, video ma‘ruza bilimni yetkazishni soddalashtiradi, ammo talabani mantiqiy konstruksiyalarni mustaqil qurishi uchun muammoli savollar va refleksiya topshiriqlari bilan qo‘llab-quvvatlanmasa, passiv qabul qilishni kuchaytiradi. LMS esa topshiriqlarni tarqatish va nazoratni yengillashtiradi, lekin fizikadagi murakkab yechimlarni baholashni faqat testga siqib qo‘yish xavfini ham olib keladi. Simulyatsiya real tajriba xavfsizligi va tezkorligi bilan afzal, ammo “asbobga tegish” tajribasi, o‘lchash madaniyati va tasodifiy xatolarni boshdan kechirishni to‘liq bermaydi. Shuning uchun, takomillashtirishning hozirgi bosqichida eng to‘g‘ri yondashuv “raqamli vositalar real tajribaning o‘rnini bosadi” degan qarash emas, balki “raqamli va real tajriba bir-birini to‘ldiradi” degan integrativ modeldir; bunda har bir mavzu uchun qaysi komponent

konseptual anglashni, qaysisi tajriba kompetensiyasini, qaysisi esa hisoblash ko‘nikmalarini kuchaytirishi aniq belgilanishi kerak [2].

**Tadqiqot natijalari.** Mavjud muammolarni tizimli tahlil qilish ularni bir nechta qatlamga ajratishni talab etadi. Birinchi qatlam didaktik muammolardir: maqsadlar bilan vositalar o‘rtasidagi nomutanosiblik, topshiriqlarni kognitiv murakkablik bo‘yicha balanslamaslik, hamda raqamli resurslarning fragmentar qo‘llanishi. Fizikada o‘quvchining xatosi ko‘pincha formulani bilmaslikdan emas, modelni to‘g‘ri tanlamaslikdan kelib chiqadi; raqamli muhitda esa “tayyor formulalar kalkulyatori” ko‘rinishidagi resurslar aynan shu modelni tanlash bosqichini chetlab o‘tishi mumkin. Demak, muammo texnologiyaning o‘zida emas, balki topshiriq dizaynida: talaba avval hodisani sifat jihatdan tasvirlab, taxminiy natija kutishi, keyin simulyatsiya yoki sensorli tajriba orqali uni tekshirishi, so‘ng noaniqlik va cheklavlarni muhokama qilishi lozim. Ikkinchi qatlam metodik muammolardir: o‘qituvchining raqamli pedagogika kompetensiyasi, kontent yaratish madaniyati, hamda raqamli laboratoriya ishlarini metodik jihatdan hujjatlashtirish. Ko‘plab holatlarda o‘qituvchi tayyor resursni oladi, biroq uni o‘z kursining maqsad va baholash tizimiga moslashtirmaydi; natijada resurs “qo‘shimcha material” bo‘lib qoladi. Uchinchi qatlam tashkiliy muammolardir: internet sifati, qurilmalar yetishmasligi, laboratoriya jihozlarining yangilanishi, litsenziyalangan dasturiy ta‘minot, hamda texnik yordam xizmatining barqarorligi. Ayniqsa, aralash ta‘limda auditoriya va onlayn komponentlar uyg‘unligi ta‘minlanmasa, talabalar yuklamasi ortadi va motivatsiya pasayadi [3].

Takomillashtirishning hozirgi holatida muhim muammo sifatida baholash tizimi alohida qaraladi. Raqamli ta‘lim muhitida testlar va avtomatik baholash keng tarqalgan, lekin fizika fanida kompetensiya faqat yakuniy javob bilan o‘lchanmaydi; yechimning mantiqiy izchilligi, birliklar tahlili, model asoslari, tajriba protokoli, grafik va ma‘lumotlar interpretatsiyasi ham baholanishi zarur. Shuning uchun, baholashning ko‘pkomponentli modeli talab etiladi: qisqa testlar konseptual xatolarni tez aniqlash uchun; ochiq javobli masalalar va rubrikalar mantiqiy asoslashni baholash uchun; laboratoriya hisobotlari esa tajriba madaniyati va ma‘lumotlar savodxonligini baholash uchun xizmat qilishi lozim. Raqamli vositalar ushbu jarayonni yengillashtiradi, masalan, LMSda rubrika asosida baholash, plagiatni tekshirish, topshiriq versiyalarini differensial berish, hamda portfel yig‘ish imkoniyatlari mavjud. Biroq akademik halollik masalasi ham keskinlashadi: tayyor yechimlar, generativ vositalar va masalalar bankining cheklanganligi sharoitida faqat testga tayanish o‘qitish sifatini pasaytiradi. Shu bois, baholashda jarayonni kuzatish (loglar, oraliq topshiriqlar), muammoli vaziyatlar, hamda og‘zaki himoya elementlarini uyg‘unlashtirish metodik jihatdan asosli yechim bo‘la oladi [4].

Fizika laboratoriya ishlarini axborot texnologiyalari asosida takomillashtirish masalasi alohida ilmiy-metodik yondashuvni talab qiladi, chunki laboratoriya fizika fani mohiyatini “ko‘rish” va “o‘lchash” madaniyatini shakllantiradi. Hozirgi holatda virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar keng kirib kelgani bilan, ularning metodik roli har doim ham aniq belgilanmagan: ba‘zan ular real tajribani butunlay almashtiradi, natijada talaba o‘lchash asboblari bilan ishlash ko‘nikmasini yetarli darajada hosil qilmaydi; ba‘zan esa ular faqat ko‘rgazmali effekt beradi. Eng maqbul yechim gibril model bo‘lib, bunda virtual muhit tayyorgarlik bosqichida konseptual tushuncha va tajriba dizaynini shakllantiradi, real laboratoriya esa o‘lchash jarayonini, noaniqliklarni va amaliy ko‘nikmalarni beradi; yakuniy bosqichda esa raqamli tahlil vositalari (jadval protsessorlari, grafik chizish, regressiya) ilmiy xulosa chiqarishni mustahkamlaydi. Sensorlar va mikrokontrollerlar asosidagi arzon tajriba to‘plamlari ham laboratoriya ishlarini yangilashda muhim resurs bo‘lib, ular real vaqt ma‘lumotlarini yig‘ish, filtrlash va tahlil qilishni o‘rgatadi; bu esa zamonaviy muhandislik amaliyotiga yaqin kompetensiyalarni shakllantiradi [5].

Mazkur maqola doirasida takomillashtirishning hozirgi holati va muammolarini bartaraf etish uchun mezonlarga asoslangan metodik model zarurligi asoslanadi. Birinchi mezon didaktik moslik bo‘lib, raqamli vosita muayyan o‘quv natijasiga xizmat qilishi, talabani faol kognitiv harakatga undashi va teskari aloqani ta‘minlashi kerak. Ikkinchi mezon ilmiy to‘g‘rilik va model shaffofligidir: simulyatsiya yoki interaktiv resurs fizik qonunlarni soddalashtirsa ham, soddalashtirish chegaralari talaba uchun tushunarli bo‘lishi, aks holda noto‘g‘ri tasavvur paydo bo‘lishi mumkin. Uchinchi mezon o‘lchash va ma‘lumotlar bilan ishlash kompetensiyasini qo‘llab-quvvatlashdir: fizikani raqamlashtirish faqat vizualizatsiya emas, balki ma‘lumotlarni yig‘ish, xatoni baholash, grafik interpretatsiya va xulosa chiqarishni ham qamrab oladi. To‘rtinchi mezon inkluzivlik va foydalanish qulayligi bo‘lib, turli qurilmalar va internet sharoitida ishlash, hamda maxsus ehtiyojli talabalar uchun moslikni ham hisobga oladi. Beshinchi mezon baholash bilan integratsiya bo‘lib, resursdan olingan natijalar ta‘lim natijalarini o‘lchash tizimiga bog‘lanmasa, resurs “qo‘shimcha faoliyat” bo‘lib qoladi.

**Muhokama.** Taklif etilayotgan integrativ yondashuvning amaliy mexanizmi sifatida kurs dizaynini uch bosqichda qurish maqsadga muvofiqligi qaraladi. Birinchi bosqichda diagnostika va motivatsiya amalga

oshiriladi: konseptual testlar, kundalik hayotdan olingan muammoli vaziyatlar, hamda qisqa simulyatsiya tajribalari orqali talabning boshlang'ich tasavvuri aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda konseptual va amaliy o'zlashtirish chuqurlashtiriladi: ma'ruza va seminarlar interaktiv savol-javob, kichik guruhli muhokama, hamda raqamli topshiriqlar bilan bog'lanadi; laboratoriya ishlarida virtual tayyorgarlik, real o'lchash va raqamli tahlil ketma-ketligi qat'iy saqlanadi. Uchinchi bosqichda natijalarni umumlashtirish va transfer ta'minlanadi: talabalar mini-loyiha yoki amaliy keys asosida fizik modelni tanlab, ma'lumot yig'ib, natijani himoya qiladi; bu jarayonda baholash rubrika asosida shaffof yuritiladi. Bunday dizayn o'qituvchidan metodik mahorat talab qiladi, shu sababli kadrlar malakasini oshirish tizimida “fizika uchun raqamli didaktika” modullarini amaliy laboratoriya shaklida yo'lga qo'yish muhim, chunki umumiy “kompyuter savodxonligi” fizikani o'qitishdagi maxsus metodik ehtiyojlarni qoplamaydi [6].

Mavjud muammolarni bartaraf etishda institutsional darajada ham yechimlar zarur. Birinchidan, raqamli resurslarni ishlab chiqish va tanlash bo'yicha kafedra darajasida ekspertiza mexanizmi bo'lishi, resursning ilmiy va metodik sifati tekshirilishi kerak. Ikkinchidan, laboratoriya bazasini modernizatsiya qilishda “qimmat kompleks” yondashuvidan ko'ra, bosqichma-bosqich yangilash, arzon sensorlar va ochiq kodli dasturiy vositalarni metodik jihatdan to'g'ri integratsiya qilish samaraliroq bo'lishi mumkin. Uchinchidan, raqamli ta'lim ma'lumotlari asosida o'qitishni boshqarish, ya'ni learning analytics elementlarini ehtiyotkorlik bilan qo'llash talab etiladi: talabning faoliyati haqidagi ma'lumotlar jarayonni individuallashtirishga xizmat qilishi mumkin, biroq u faqat nazorat instrumentiga aylanib qolmasligi, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi va akademik etika tamoyillari saqlanishi shart. To'rtinchidan, o'quv yuklamasi va topshiriqlar dizaynida muvozanat bo'lishi zarur: raqamli muhit ko'pincha “ko'proq topshiriq berish” illyuziyasini kuchaytiradi, lekin sifatli o'zlashtirish uchun kamroq, biroq chuqur topshiriqlar samaraliroq bo'ladi.

**Xulosa.** Fizika fanini axborot texnologiyalari asosida o'qitishni takomillashtirishning hozirgi holati shuni ko'rsatadiki, raqamli platformalar va resurslar keng tarqalayotgan bo'lsa-da, ularning ta'lim natijalariga yo'naltirilgan metodik integratsiyasi bir xil darajada emas va bu holat didaktik maqsadlar, baholash tizimi hamda laboratoriya amaliyotidagi nomutanosibliklarda namoyon bo'ladi. Tadqiqot mantiqiga ko'ra, asosiy muammo texnologiya yetishmasligi emas, balki texnologiyaning fizik mazmun, tajriba madaniyati va kompetensiyaviy baholash bilan tizimli bog'lanmaganidadir. Shuning uchun takomillashtirishning samarali yo'li sifatida raqamli vositalarni tanlashning mezonli yondashuvi, virtual va real laboratoriyani gibridd model asosida uyg'unlashtirish, hamda ko'pkomponentli baholashni joriy etish zarur. Ushbu yechimlar o'qituvchi metodik kompetensiyasini kuchaytirish, resurslar sifatini ekspertiza qilish va ta'lim jarayonini ma'lumotga asoslangan boshqarish bilan qo'llab-quvvatlanganda, talabalarda fizik tushunchalar, model tuzish, o'lchash va tahlil kompetensiyalarini barqaror shakllantirishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Mayer R. E. Multimedia Learning. New York: Cambridge University Press, 2009. 304 p.
2. Wieman C., Perkins K. Transforming physics education. Physics Today. New York: American Institute of Physics, 2005. Vol. 58, No. 11. P. 36–41.
3. Bates A. W. Teaching in a Digital Age: Guidelines for Designing Teaching and Learning. Vancouver: Tony Bates Associates Ltd, 2019. 520 p.
4. Фокин Ю. Г. Педагогика высшей школы: методология, содержание, технологии. Москва: Академия, 2013. 448 с.
5. Турсунов С. Н., Абдурахманов А. А. Физикадан лаборатория машғулотларини замонавий ахборот технологиялари асосида ташкил этиш. Тошкент: Фан ва технология, 2018. 176 б.
6. Раҳимов Б. Х. Физика ўқитиш методикаси: компетенциявий ёндашув ва инновацион технологиялар. Самарқанд: СамДУ нашри, 2020. 232 б.

## TABIY FANLARNI O‘QITISHDA EKOLOGIK VA GEOGRAFIK SAVODXONLIKNI RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

*Saidmurodova Ozoda Saidmurod qizi,*

*Shahrisabz davlat pedagogika instituti 1-bosqich magistranti*

*Ushbu maqolada tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari hamda pedagogik yo‘llari tahlil qilinadi. Tadqiqotda ekologik va geografik savodxonlik tushunchalarining mazmuni, ularning o‘zaro bog‘liqligi va ta‘lim tizimidagi ahamiyati ochib berilgan. Tabiiy fanlarni o‘qitishda fanlararo integratsiya, muammoli ta‘lim, hududiy materiallardan foydalanish hamda amaliy faoliyatni tashkil etish ekologik-geografik tafakkurni shakllantirishning samarali vositalari sifatida asoslab beriladi. Maqolada ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirish orqali o‘quvchilarda tabiatga ongli munosabat, ekologik mas‘uliyat va barqaror rivojlanish g‘oyalari shakllantirish imkoniyatlari yoritilgan. Tadqiqot natijalari tabiiy fanlar ta‘limini takomillashtirish hamda ekologik ta‘lim samaradorligini oshirishda amaliy ahamiyatga ega.*

**Kalit so‘zlar:** *ekologik savodxonlik, geografik savodxonlik, tabiiy fanlar, ekologik ta‘lim, fanlararo integratsiya, hududiy yondashuv, barqaror rivojlanish, ekologik tafakkur.*

## СПОСОБЫ РАЗВИТИЯ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ И ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ГРАМОТНОСТИ В ПРЕПОДАВАНИИ ЕСТЕСТВЕННЫХ НАУК

*В данной статье анализируются теоретические и методологические основы и педагогические подходы к развитию экологической и географической грамотности в процессе преподавания естественных наук. Исследование раскрывает содержание концепций экологической и географической грамотности, их взаимосвязь и значение в системе образования. Междисциплинарная интеграция, проблемно-ориентированное обучение, использование региональных материалов и организация практических занятий в преподавании естественных наук оправданы как эффективные средства формирования эколого-географического мышления. В статье освещаются возможности для развития у студентов осознанного отношения к природе, экологической ответственности и идей устойчивого развития посредством развития экологической и географической грамотности. Результаты исследования имеют практическое значение для совершенствования научного образования и повышения эффективности экологического образования.*

**Ключевые слова:** *экологическая грамотность, географическая грамотность, естественные науки, экологическое образование, междисциплинарная интеграция, территориальный подход, устойчивое развитие, экологическое мышление.*

## WAYS TO DEVELOP ECOLOGICAL AND GEOGRAPHICAL LITERACY IN NATURAL SCIENCE TEACHING

*This article analyzes the theoretical and methodological foundations and pedagogical approaches to developing ecological and geographical literacy in the process of teaching natural sciences. The study reveals the content of the concepts of ecological and geographical literacy, their interrelationships, and their importance in the education system. Interdisciplinary integration, problem-based learning, the use of regional materials, and the organization of practical activities in teaching natural sciences are justified as effective means of forming ecological and geographical thinking. The article highlights the opportunities for students to develop a conscious attitude towards nature, environmental responsibility, and the ideas of sustainable development through the development of environmental and geographical literacy. The research results have practical significance in improving science education and increasing the effectiveness of environmental education.*

**Keywords:** *ecological literacy, geographical literacy, natural sciences, environmental education, interdisciplinary integration, territorial approach, sustainable development, ecological thinking.*

**Kirish.** Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining jadallashuvi natijasida tabiiy muhitga ko‘rsatilayotgan antropogen ta‘sir ko‘lami tobora kengayib bormoqda. Iqlim tizimidagi beqarorlik, biosfera muvozanatining buzilishi, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligining pasayishi hamda ekologik xavflarning kuchayishi global miqyosda jiddiy muammolarni yuzaga keltirmoqda. Bunday sharoitda jamiyat

taraqqiyotining barqarorligini ta'minlash inson va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni ilmiy asosda anglash, ekologik jarayonlarning sabab va oqibatlarini chuqur tahlil qilish hamda ularni boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish bilan bevosita bog'liqdir. Shu jihatdan ekologik muammolarga nisbatan ongli va mas'uliyatli yondashuvni shakllantirish zamonaviy ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Mazkur jarayonda ekologik va geografik savodxonlik shaxsning ilmiy dunyoqarashini shakllantiruvchi muhim kompetensiyalar majmuyi sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Ekologik savodxonlik atrof-muhit holatini baholash, ekologik muammolarni aniqlash va ularning oqibatlarini oldindan prognozlash imkonini beruvchi bilim, qadriyat va xulq-atvor tizimini o'z ichiga oladi. Geografik savodxonlik esa hududiy tafakkur, makoniy tahlil va fazoviy tasavvur asosida tabiiy va ijtimoiy jarayonlarni kompleks anglashga xizmat qiladi. Ushbu ikki savodxonlik turi o'zaro uzviy bog'liq bo'lib, ularning uyg'unligi shaxsda ekologik jarayonlarni hududiy kontekstda baholash va samarali qarorlar qabul qilish kompetensiyasini shakllantiradi.

Tabiiy fanlar mazmuni ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan nazariy bilimlar hamda amaliy ko'nikmalarni o'zida mujassam etadi. Shu sababli ularni o'qitishda fanlararo integratsiya, muammoli o'qitish va tadqiqotga yo'naltirilgan pedagogik yondashuvlarni qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday yondashuv ta'lim oluvchilarda analitik fikrlash, tizimli yondashuv va ekologik mas'uliyatni rivojlantirib, ularni zamonaviy global muammolarni chuqur anglay oladigan shaxs sifatida shakllantiradi. Shu jihatdan ekologik va geografik savodxonlikni ta'lim jarayonida integratsiyalashgan holda rivojlantirish masalalarini ilmiy asoslash mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi.

**Adabiyotlar tahlili.** Zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ekologik va geografik savodxonlik masalasi ta'lim jarayonini barqaror rivojlanish tamoyillari asosida takomillashtirish bilan uzviy bog'liq holda talqin etilmoqda. Xususan, J. Palmer ekologik ta'limni shaxsda tabiatga ongli munosabatni shakllantiruvchi uzluksiz pedagogik jarayon sifatida izohlaydi hamda ekologik savodxonlik bilim, qadriyat va xulq-atvor birligida namoyon bo'lishini ta'kidlaydi [1]. Ushbu yondashuv ekologik ta'limni faqat axborot berish bilan cheklamasdan, shaxsiy mas'uliyatni qaror toptirish zarurligini asoslaydi. D. Orr ekologik savodxonlikni barqaror jamiyatni shakllantirishning muhim sharti sifatida baholab, ta'lim tizimi tabiat qonuniyatlariga mos fikrlashni rivojlantirishi lozimligini ko'rsatadi [2]. S. Sterling esa barqaror ta'lim konsepsiyasi doirasida ekologik va ijtimoiy jarayonlarni integratsiyalashgan holda o'qitish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi [3].

Ekologik ta'limning global miqyosdagi ustuvor yo'nalishlari UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan “Barqaror rivojlanish uchun ta'lim” konsepsiyasida aniq belgilab berilgan bo'lib, unda ekologik savodxonlikni shakllantirish ta'lim tizimining strategik vazifasi sifatida e'tirof etiladi [4]. Ushbu hujjatda ekologik muammolarni hududiy va tizimli tahlil qilishga qaratilgan yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi. Geografik savodxonlik masalasi esa S. Bednarz va hammualliflar tomonidan XXI asr ta'limida fazoviy tafakkur, hududiy tahlil va xarita bilan ishlash kompetensiyalarini rivojlantirish orqali yoritilgan [5]. H.Haubrich va hammualliflar geografiya ta'limini barqaror rivojlanish g'oyalarini amaliyotga tatbiq etuvchi muhim fan sifatida baholab, ekologik muammolarni hududiy kontekstda o'rganish zarurligini ta'kidlaydilar [6].

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda ham ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirish masalasi ta'lim jarayonini modernizatsiyalash nuqtayi nazaridan yoritilgan. O.E. Xo'janazarov, M. Mirsovurov va T.Norboboyeva ekologik ta'limni barqaror taraqqiyot g'oyalariga yo'naltirish orqali o'quvchilarda ekologik madaniyat va mas'uliyatni shakllantirish imkoniyatlarini asoslab berganlar [7]. Shu bilan birga, K.S.O'rinboyeva va A.A. Xatamov tadqiqotlarida tabiiy fanlarni integratsiyalashgan holda o'qitish ekologik muammolarni fanlararo yondashuv asosida anglashda samarali metodik vosita sifatida ko'rsatib berilgan [8].

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ekologik va geografik savodxonlik masalasi alohida yo'nalishlar doirasida keng o'rganilgan bo'lsa-da, ularni tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida integratsiyalashgan holda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar dolzarbligicha qolmoqda. Shu sababli mazkur maqolada mavjud ilmiy yondashuvlarni umumlashtirish asosida ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirishning samarali pedagogik yo'llarini asoslashga alohida e'tibor qaratiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot ekologik va geografik savodxonlikni tabiiy fanlarni o'qitish jarayonida rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlarini ilmiy asosda o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda tizimli va kompleks yondashuv metodologik asos sifatida qabul qilindi. Tadqiqotda ta'lim mazmuni, o'qitish metodlari va shakllantiriladigan kompetensiyalar o'zaro bog'liq yagona pedagogik tizim sifatida ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuv ekologik va geografik savodxonlikning tarkibiy komponentlari (ekologik ong, qadriyatlar, xulq-atvor, makoniy tafakkur va hududiy tahlil ko'nikmalari) o'rtasidagi ichki aloqalarni aniqlash hamda ularning ta'lim jarayonidagi funksional ahamiyatini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi. Metodologik asos sifatida barqaror rivojlanish konsepsiyasi, fanlararo integratsiya tamoyili hamda kompetensiyaviy yondashuv qabul qilindi.

Tadqiqot jarayonida umumilmiy va maxsus pedagogik metodlar majmuasi qo‘llanildi. Nazariy tahlil va sintez metodlari orqali ekologik va geografik savodxonlikka oid ilmiy manbalar, o‘quv dasturlari hamda zamonaviy pedagogik yondashuvlar tizimlashtirildi. Qiyosiy tahlil usuli yordamida ekologik va geografik savodxonlikning mazmuniy va funksional jihatlari solishtirilib, ularning o‘zaro bog‘liqligi aniqlandi. Kontent-tahlil asosida o‘quv materiallari va metodik manbalarda ekologik-geografik komponentlarning ifodalanish darajasi baholandi.

Bundan tashqari, tadqiqotda pedagogik kuzatuv va tahliliy yondashuvlar orqali tabiiy fanlarni o‘qitish jarayonida ekologik va geografik bilimlarning shakllanish holati o‘rganildi. Fanlararo integratsiya, muammoli ta‘lim, loyiha asosida o‘qitish hamda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan metodlarning qo‘llanilishi ekologik-geografik savodxonlikni rivojlantirishning samarali mexanizmlari sifatida asoslab berildi. Natijada ekologik va geografik savodxonlikni shakllantirishning konseptual modeli ishlab chiqilib, uning ta‘lim jarayonida qo‘llash imkoniyatlari bo‘yicha ilmiy xulosalar shakllantirildi.

**Natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot jarayonida olingan natijalar tabiiy fanlarni o‘qitishda ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirish fanlararo integratsiya, muammoli ta‘lim hamda amaliy faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvlar asosida yuqori pedagogik samaradorlikka ega ekanligini tasdiqladi. O‘quv jarayonida ekologik mazmundagi muammoli vaziyatlar, real hayotiy misollar va tahliliy topshiriqlardan foydalanish o‘quvchilarning bilimlarni mustaqil tahlil qilish, sabab-oqibat bog‘liqliklarini aniqlash hamda ilmiy asoslangan xulosalar chiqarish kompetensiyalarini sezilarli darajada rivojlantirdi. Natijada ekologik tushunchalar abstrakt bilimlar majmuyi sifatida emas, balki konkret hududiy va tabiiy jarayonlar bilan uzviy bog‘liq holda o‘zlashtirilishi aniqlandi. Ushbu holat ekologik savodxonlikni fanlararo integratsiya asosida shakllantirishning samaradorligini tasdiqlovchi xorijiy ilmiy tadqiqotlar natijalari bilan uyg‘un ekanligini ko‘rsatadi [1].

Tadqiqot natijalarini tizimli ravishda umumlashtirish maqsadida ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirishga ta‘sir etuvchi asosiy pedagogik yondashuvlar va ularning samaradorligi quyidagi jadvalda keltirildi.

**Jadval 1.**

**Ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirish metodlarining samaradorligi**

№	Metodlar	Natija (ta‘siri)	Samaradorlik darajasi
1	Fanlararo integratsiya	Tizimli va kompleks fikrlash shakllanadi	Yuqori
2	Muammoli ta‘lim	Tahliliy fikrlash rivojlanadi	Yuqori
3	Hududiy materiallardan foydalanish	Real jarayonlarni anglash kuchayadi	O‘rta-yuqori
4	Amaliy mashg‘ulotlar	Ekologik mas‘uliyat shakllanadi	Yuqori
5	Loyiha asosida o‘qitish	Mustaqil tadqiqot ko‘nikmalari rivojlanadi	Yuqori

**Manba: muallif tomonidan tuzildi**

Jadval ma‘lumotlaridan ko‘rinib turibdiki, fanlararo integratsiya va muammoli ta‘lim ekologik-geografik savodxonlikni shakllantirishda eng yuqori samaradorlikka ega metodlar hisoblanadi. Ayniqsa, amaliy faoliyat va loyiha asosida o‘qitish yondashuvlari o‘quvchilarda ekologik muammolarni chuqur anglash hamda ularni hal etishga yo‘naltirilgan mustaqil fikrlashni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘tkazilgan tahlillar geografik savodxonlikning rivojlanishi ekologik bilimlarning chuqurlashuvi va tizimlashtirilishi bilan bevosita bog‘liqligini ko‘rsatdi. Xususan, xarita, atlas, diagramma va boshqa vizual axborot vositalaridan foydalanish o‘quvchilarda fazoviy tafakkurni shakllantirib, ekologik muammolarning hududiy differensiallashuvini anglash darajasini oshirdi. Amaliy mashg‘ulotlar, kuzatuvlar hamda kichik tadqiqot faoliyati elementlari o‘quvchilarda atrof-muhitga nisbatan mas‘uliyatli munosabatni rivojlantirib, ekologik qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni mustahkamladi. Bu esa geografik savodxonlikning ekologik tafakkurni rivojlantirishdagi instrumental va metodik ahamiyatini yaqqol namoyon etdi.

Tadqiqot natijalari asosida ekologik va geografik savodxonlikning integratsiyalashgan holda shakllanishi ta‘lim jarayonining sifat va samaradorligini oshiruvchi muhim pedagogik omil ekanligi aniqlandi. Ushbu integratsiya bilim, qadriyat va amaliy faoliyatning o‘zaro uyg‘unligini ta‘minlab, o‘quvchilarda ekologik madaniyat, hududiy mas‘uliyat hamda barqaror rivojlanishga yo‘naltirilgan tafakkurni shakllantiradi. Olingan natijalar tabiiy fanlarni ekologik-geografik yondashuv asosida o‘qitish orqali ta‘lim mazmunini boyitish, kompetensiyaviy yondashuvni kuchaytirish hamda barqaror rivojlanish g‘oyalarini ta‘lim tizimiga samarali integratsiya qilish imkonini berishini ko‘rsatdi. Bu holat UNESCO

tomonidan ilgari surilgan barqaror rivojlanish uchun ta’lim konsepsiyasi bilan ham metodologik jihatdan mos keladi [4].

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari tabiiy fanlarni o’qitish jarayonida ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirish zamonaviy ta’lim tizimining muhim vazifalaridan biri ekanligini tasdiqlaydi. Ekologik va geografik savodxonlik aynan tabiiy fanlar mazmuni orqali shaxsda tabiat va jamiyat o’rtasidagi o’zaro bog’liqlikni ilmiy asosda anglash, ekologik jarayonlarni tizimli tahlil qilish hamda hududiy xususiyatlarni hisobga olgan holda ongli qarorlar qabul qilish kompetensiyalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, tabiiy fanlarni o’qitishda fanlararo integratsiya, muammoli ta’lim va amaliy faoliyatga yo’naltirilgan yondashuvlar ekologik-geografik savodxonlikni shakllantirishda yuqori pedagogik samaradorlikka ega. Ushbu yondashuvlar orqali o’quvchilarda ekologik madaniyat, hududiy tafakkur va atrof-muhitga nisbatan mas’uliyatli munosabat shakllanadi.

Umuman olganda, olingan natijalar tabiiy fanlar ta’limini ekologik-geografik yondashuv asosida takomillashtirish, ta’lim mazmunini amaliy va integratsiyalashgan yo’sinda boyitish hamda barqaror rivojlanish g’oyalari bevosita o’quv jarayoniga singdirish zarurligini ko’rsatadi. Mazkur tadqiqot xulosalari aynan tabiiy fanlar ta’limi doirasida ekologik va geografik savodxonlikni rivojlantirishga qaratilgan keyingi ilmiy izlanishlar uchun metodik asos bo’lib xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Palmer J. A. Environmental Education in the 21st Century: Theory, Practice, Progress and Promise. - London: Routledge, 1998.
2. Orr D. W. Ecological Literacy: Education and the Transition to a Sustainable World. - Albany: State University of New York Press, 1992.
3. Sterling S. Sustainable Education: Re-visioning Learning and Change. - Bristol: Green Books, 2001.
4. UNESCO. Education for Sustainable Development Goals: Learning Objectives. - Paris: UNESCO Publishing, 2017.
5. Bednarz S. W., Heffron S., Huynh N. T. A Road Map for 21st Century Geography Education. - Washington, DC: National Geographic Society, 2013.
6. Haubrich H., Reinfried S., Schleicher Y. Geography education for sustainable development. - International Research in Geographical and Environmental Education, 2007. - Vol. 16(3). - P. 213-218.
7. O‘. E. Xo‘janazarov, M. Mirsovurov, T. Norboboyeva. Ekologiya va barqaror taraqqiyot ta’limi: - Toshkent: “Navro‘z” nashriyoti, 2014.
8. O‘rinboyeva K. S., Xatamov A. A. Tabiiy fanlarni integratsiyalashgan holda o‘qitish metodikasi // Modern education and development. - 2025.

## FIZIKA TA'LIMIDA INTERFAOL METODLARNING O'QUVCHILAR TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

*Sayidova Aziza Zarifboy qizi,  
Buxoro davlat pedagogika instituti magistranti  
azizasayidova1234@gmail.com*

*Mazkur maqolada fizika ta'limida interfaol metodlardan foydalanishning nazariy va amaliy jihatlari, ularning o'quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi o'rni hamda zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida darslarni tashkil etishning samaradorligi tahlil qilinadi. Fizika fanini o'qitishda interfaol metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy va analitik tafakkuri, muammoli vaziyatlarni hal etish ko'nikmalari rivojlanishi asoslab berilgan. Shuningdek, maqolada “Aqliy hujum”, “Klaster”, “Case-study”, “INSERT”, “BBB”, “Debat”, “Muammoli ta'lim” kabi metodlarning fizik tafakkurni shakllantirishdagi ahamiyati ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan yoritilgan. Tadqiqot natijalari interfaol metodlar asosida tashkil etilgan fizika darslari o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan motivatsiyasini oshirishi, dars samaradorligini kuchaytirishi hamda kreativ fikrlashni rivojlantirishini ko'rsatadi.*

***Kalit so'zlar:** fizika ta'limi, interfaol metodlar, fizik tafakkur, pedagogik texnologiyalar, muammoli ta'lim, innovatsion yondashuv, analitik fikrlash, kreativlik.*

## ЗНАЧЕНИЕ ИНТЕРАКТИВНЫХ МЕТОДОВ В РАЗВИТИИ МЫШЛЕНИЯ УЧАЩИХСЯ В ПРОЦЕССЕ ОБУЧЕНИЯ ФИЗИКЕ

*В данной статье анализируются теоретические и практические аспекты использования интерактивных методов в обучении физике, их роль в развитии мышления учащихся, а также эффективность организации уроков на основе современных педагогических технологий. Обосновано, что применение интерактивных методов при преподавании физики способствует развитию самостоятельного мышления учащихся, логического и аналитического мышления, а также навыков решения проблемных ситуаций. Кроме того, в статье с научно-педагогической точки зрения раскрывается значение таких методов, как «Мозговой штурм», «Кластер», «Case-study», «INSERT», «ЗХУ», «Дебаты», «Проблемное обучение» в формировании физического мышления. Результаты исследования показывают, что уроки физики, организованные на основе интерактивных методов, повышают мотивацию учащихся к обучению, усиливают эффективность урока и развивают креативное мышление.*

***Ключевые слова:** обучение физике, интерактивные методы, физическое мышление, педагогические технологии, проблемное обучение, инновационный подход, аналитическое мышление, креативность.*

## THE IMPORTANCE OF INTERACTIVE METHODS IN DEVELOPING STUDENTS' THINKING IN PHYSICS EDUCATION

*This article analyzes the theoretical and practical aspects of using interactive methods in physics education, their role in developing students' thinking, and the effectiveness of organizing lessons based on modern pedagogical technologies. It is substantiated that the use of interactive methods in teaching physics contributes to the development of students' independent thinking, logical and analytical thinking, as well as problem-solving skills. In addition, the article scientifically and pedagogically highlights the importance of such methods as “Brainstorming,” “Cluster,” “Case-study,” “INSERT,” “KWL,” “Debate,” and “Problem-based learning” in the formation of physical thinking. The research results show that physics lessons organized on the basis of interactive methods increase students' motivation for learning, enhance lesson effectiveness, and develop creative thinking.*

***Keywords:** physics education, interactive methods, physical thinking, pedagogical technologies, problem-based learning, innovative approach, analytical thinking, creativity.*

***Kirish.** Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari jadal rivojlanayotgan davrda ta'lim tizimiga qo'yilayotgan talablar tubdan o'zgarimoqda. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi nafaqat o'quvchilarga tayyor bilimlarni yetkazish, balki ularda mustaqil fikrlash, tahlil qilish, muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish va kreativ yondashuv ko'nikmalarini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtayi nazardan fizika*

ta’limi alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki fizika fani tabiat hodisalarini ilmiy asosda tushuntirib beruvchi fundamental fanlardan biri bo’lib, o’quvchilarda ilmiy dunyoqarash va mantiqiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi.

An’anaviy ta’lim tizimida o’qituvchi asosiy bilim manbasi sifatida namoyon bo’lsa, zamonaviy pedagogik yondashuvlarda o’quvchi ta’lim jarayonining faol subyekti sifatida qaraladi. Bu esa dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanishni taqozo etadi. Interfaol metodlar o’quvchilarni faol fikrlashga, o’z fikrini erkin bayon qilishga, jamoa bilan ishlashga va bilimlarni mustaqil egallashga undaydi.

Fizika ta’limida interfaol metodlardan foydalanishning dolzarbligi shundaki, ushbu metodlar orqali murakkab fizik tushunchalarni oson va tushunarli tarzda o’zlashtirish mumkin bo’ladi. Natijada o’quvchilarning fizik tafakkuri rivojlanadi, fan bo’yicha qiziqishi ortadi hamda nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash imkoniyati kengayadi.

Mazkur maqolaning maqsadi fizika ta’limida interfaol metodlarning o’quvchilar tafakkurini rivojlantirishdagi ahamiyatini ilmiy-pedagogik jihatdan tahlil qilish va ularning samaradorligini yoritishdan iborat.

**Fizik tafakkur tushunchasi va uning pedagogik mohiyati.** Fizik tafakkur – bu tabiat hodisalari va jarayonlarini ilmiy asosda tushunish, sabab-oqibat bog’lanishlarini aniqlash, fizik qonuniyatlarni tahlil qilish hamda amaliy vaziyatlarda qo’llay olish qobiliyatidir. Fizik tafakkur o’quvchilarning mantiqiy fikrlashi, analitik yondashuvi va ilmiy dunyoqarashi shakllanishida muhim rol o’ynaydi.

Psixolog va pedagog olimlarning fikricha, tafakkur insonning bilish faoliyatidagi eng yuqori jarayon hisoblanadi. Fizik tafakkur esa umumiy tafakkurning maxsus ko’rinishi bo’lib, unda kuzatish, tajriba o’tkazish, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi aqliy operatsiyalar muhim o’rin egallaydi.

Fizik tafakkur quyidagi komponentlardan tashkil topadi:

1. Analitik fikrlash;
2. Mantiqiy xulosa chiqarish;
3. Muammoli vaziyatlarni hal qilish;
4. Tajriba va kuzatish natijalarini tahlil qilish;
5. Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’lash.

Fizika darslarida ushbu komponentlarni rivojlantirish o’qituvchidan zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlardan samarali foydalanishni talab qiladi.

**Interfaol metodlarning nazariy asoslari.** “Interfaol” atamasi ingliz tilidagi “interactive” so’zidan olingan bo’lib, “o’zaro ta’sir”, “hamkorlikda faoliyat olib borish” degan ma’nolarni anglatadi. Interfaol metodlar o’qituvchi va o’quvchi, o’quvchi va o’quvchi o’rtasidagi faol muloqot asosida tashkil etiladi.

Interfaol metodlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

- o’quvchilarning darsdagi faolligini oshirish;
- mustaqil fikrlashni rivojlantirish;
- jamoaviy ishlash ko’nikmalarini shakllantirish;
- ijodiy yondashuvni rivojlantirish;
- muammoli vaziyatlarni hal qilishga o’rgatish.

Pedagogik nuqtayi nazardan interfaol metodlar konstruktivizm nazariyasiga asoslanadi. Ushbu nazariyaga ko’ra, bilim tayyor holda berilmaydi, balki o’quvchi tomonidan mustaqil ravishda quriladi.

Interfaol metodlardan foydalanish quyidagi pedagogik tamoyillarga asoslanadi:

1. Faollik tamoyili;
2. Hamkorlik tamoyili;
3. Mustaqillik tamoyili;
4. Muammolilik tamoyili;
5. Refleksiya tamoyili.

**Fizika ta’limida interfaol metodlarning ahamiyati.** Fizika fanining murakkabligi ko’plab abstrakt tushunchalar va matematik ifodalar bilan bog’liq. Shu sababli an’anaviy dars metodlari ayrim hollarda o’quvchilarning mavzuni to’liq anglab yetishiga to’sqinlik qiladi. Interfaol metodlar esa o’quvchilarni dars jarayoniga faol jalb etish orqali bilimlarni chuqurroq o’zlashtirishga yordam beradi.

Mustaqil fikrlashni rivojlantiradi: Interfaol metodlar o’quvchilarni tayyor javoblarni yodlash emas, balki muammoni mustaqil hal qilishga undaydi. Masalan, muammoli vaziyat yaratish orqali o’quvchilar fizik qonuniyatlarni o’zlari kashf etishga harakat qiladilar.

Fizik tushunchalarni chuqur o’zlashtirishga yordam beradi: Tajriba, munozara va amaliy topshiriqlar orqali o’quvchilar nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog’laydilar.

Dars samaradorligini oshiradi: Interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslarda o’quvchilarning qiziqishi ortadi, natijada o’zlashtirish darajasi yuqori bo’ladi.

Kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantiradi: Guruhli ishlash va munozaralar orqali o‘quvchilar o‘z fikrini asoslab berishga o‘rganadilar.

Kreativ tafakkurni shakllantiradi: Noan’anaviy topshiriqlar va loyiha ishlari o‘quvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

**Fizika darslarida qo‘llaniladigan interfaol metodlar.**

“**Aqliy hujum**” metodi. Mazkur metod o‘quvchilarning erkin fikrlashini rivojlantirishga xizmat qiladi. O‘qituvchi muammoli savol beradi va o‘quvchilar o‘z fikrlarini bildiradilar.

Masalan: “Yerda og‘irlik kuchi bo‘lmaganda qanday hodisalar yuz beradi?”

Ushbu savol orqali o‘quvchilar tortishish qonuni haqida mustaqil xulosa chiqaradilar.

“**Klaster**” metodi. Bu metod mavzuni tizimli o‘rganishga yordam beradi. O‘quvchilar asosiy tushuncha atrofida bog‘liq g‘oyalarni yozadilar.

Masalan, “Elektr toki” mavzusida:

- tok kuchi;
- kuchlanish;
- qarshilik;
- Om qonuni;
- elektr energiyasi.

“**Case-study**” metodi. Mazkur metod real hayotiy vaziyatlarni tahlil qilishga asoslanadi.

Masalan: “Avtomobilning tormozlanish masofasi nima sababdan yomg‘irli havoda ortadi?” Bu savol orqali ishqalanish kuchi va inertsia tushunchalari mustahkamlanadi.

“Debat” metodi. Debat metodi o‘quvchilarning dalillash va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Masalan: “Atom energetikasi foydalimi yoki zararli?”

“**BBB**” metodi. Bilaman – Bilishni xohlayman – Bildim jadvali orqali o‘quvchilar mavzu yuzasidan o‘z bilimlarini tahlil qiladilar.

“**INSERT**” metodi. Bu metod matn bilan ishlashda qo‘llanilib, o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

**Muammoli ta’lim va fizik tafakkur.** Muammoli ta’lim interfaol metodlarning eng samarali shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu metodda o‘quvchilarga tayyor bilim berilmaydi, balki muammoli vaziyat yaratiladi.

Masalan: “Nima sababdan temir va yog‘och bir xil massada bo‘lsa ham suvda turlicha holatda bo‘ladi?”

O‘quvchilar javob izlash davomida zichlik va Arximed qonunini mustaqil tushunib yetadilar.

Muammoli ta’limning afzalliklari:

- mustaqil izlanishni rivojlantiradi;
- ilmiy tafakkurni shakllantiradi;
- bilimlarni uzoq muddat saqlashga yordam beradi;
- qiziqishni oshiradi.

**Raqamli texnologiyalar va interfaol fizika ta’limi.** Bugungi kunda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta’limning ajralmas qismiga aylanmoqda. Fizika ta’limida multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalar interfaol ta’limning samaradorligini oshiradi.

Raqamli texnologiyalarning afzalliklari:

- murakkab jarayonlarni vizual ko‘rsatish;
- xavfli tajribalarni virtual tarzda bajarish;
- vaqtni tejash;
- individual ta’lim imkoniyatini yaratish.

Masalan, PhET simulyatsiyalari orqali elektr zanjirlarini virtual tarzda yig‘ish mumkin.

Shuningdek, Google Classroom, Quizizz, Kahoot kabi platformalar o‘quvchilarning faolligini oshirishda muhim vosita hisoblanadi.

**Interfaol metodlarning tajriba-sinov natijalari.** Tadqiqot davomida umumta’lim maktablarining 8–9-sinf o‘quvchilari ishtirokida tajriba-sinov ishlari olib borildi. Tadqiqotda ikki guruh tashkil etildi:

- nazorat guruhi;
- tajriba guruhi.

Nazorat guruhida an’anaviy metodlardan foydalanildi, tajriba guruhida esa interfaol metodlar asosida darslar tashkil etildi.

Ko'rsatkich	Nazorat guruhi	Tajriba guruhi
Darsdagi faollik	58%	87%
Mustaqil fikrlash	52%	84%
Mavzuni o'zlashtirish	61%	89%
Masala yechish ko'nikmasi	55%	86%

Natijalardan ko'rinadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan darslar o'quvchilarning bilim darajasi va tafakkurini sezilarli darajada oshirgan.

**Fizika o'qituvchisining kasbiy kompetensiyalari.** Interfaol metodlardan samarali foydalanish o'qituvchidan yuqori kasbiy mahorat talab qiladi.

Fizika o'qituvchisi quyidagi kompetensiyalarga ega bo'lishi lozim:

1. Pedagogik kompetensiya;
2. Axborot texnologiyalaridan foydalanish kompetensiyasi;
3. Kommunikativ kompetensiya;
4. Innovatsion yondashuv;
5. Kreativ fikrlash.

O'qituvchi interfaol metodlarni mavzuga mos tanlay olishi, darsni samarali rejalashtirishi va o'quvchilarni faol ishtirok etishga undashi zarur.

**Xorijiy tajribalar tahlili.** Rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida interfaol metodlardan keng foydalaniladi. Finlandiya, Janubiy Koreya, Singapur va Germaniya ta'lim tizimlari bunga misol bo'la oladi.

Mazkur davlatlarda:

- loyiha asosida o'qitish;
- tadqiqot faoliyati;
- STEAM yondashuvi;
- virtual laboratoriyalar;
- amaliy tajribalar keng qo'llaniladi.

Natijada o'quvchilarning ilmiy tafakkuri va innovatsion fikrlash qobiliyati yuqori darajada rivojlanadi.

**Xulosa.** Fizika ta'limida interfaol metodlardan foydalanish o'quvchilarning fizik tafakkurini rivojlantirishning samarali vositasi hisoblanadi. Interfaol metodlar orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, mantiqiy va analitik tafakkuri, ijodiy yondashuvi hamda muammoli vaziyatlarni hal qilish ko'nikmalari rivojlanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan fizika darslari o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshiradi, bilimlarni chuqur o'zlashtirishga yordam beradi va ta'lim samaradorligini kuchaytiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va innovatsion pedagogik yondashuvlarni fizika ta'limiga integratsiya qilish zamonaviy ta'limning muhim talablaridan biri hisoblanadi.

Kelgusida fizika ta'limida interfaol metodlardan foydalanish bo'yicha ilmiy-metodik tadqiqotlarni kengaytirish, xalqaro tajribalarni o'rganish va amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalar nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: Fan, 2017.
2. Azizxo'jayeva N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. – Toshkent, 2016.
3. Ishmuhamedov R. Innovatsion pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2019.

## UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARIDA FIZIKADAN MASALALAR YECHISH KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

*Toxirova Maxfuzaxon Otaqo‘ziyevna,  
Qo‘qon davlat universiteti katta o‘qituvchisi  
mahfuzaxontohirova@mail.ru*

*Maqolada umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizik masalalarni yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik asoslari tahlil qilingan. Fizika fanini o‘qitishda o‘quvchilarda mantiqiy fikrlash, tahlil qilish, umumlashtirish va amaliy qo‘llash kompetensiyalarini shakllantirish muhimligi asoslangan. Muammoli o‘qitish, interfaol metodlar va differensial yondashuvning samaradorligi pedagogik tajriba asosida yoritilgan. Tadqiqot natijalari fizik masalalar yechish jarayonini tizimli tashkil etish o‘quvchilarning mustaqil fikrlashi va ijodiy faoliyatini sezilarli darajada oshirishini ko‘rsatdi.*

***Kalit so‘zlar:** fizika, masala yechish, kompetensiya, metodika, interfaol ta‘lim, mantiqiy fikrlash, muammoli o‘qitish, didaktika.*

## МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ НАВЫКОВ РЕШЕНИЯ ФИЗИЧЕСКИХ ЗАДАЧ В ОБЩЕОБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ШКОЛАХ

*В статье анализируются методические основы развития навыков решения физических задач в общеобразовательных средних школах. На основе статьи подчёркивается важность формирования у учащихся компетенций логического мышления, анализа, обобщения и практического применения в преподавании физики. Эффективность проблемно-ориентированного обучения, интерактивных методов и дифференцированного подхода подчёркивается на основе педагогического опыта. Результаты исследования показали, что систематическая организация процесса решения физических задач значительно повышает самостоятельность мышления и творческую активность учащихся.*

***Ключевые слова:** физика, решение задач, компетенция, методика, интерактивное обучение, логическое мышление, дидактика.*

## METHODS FOR DEVELOPING PHYSICS PROBLEM-SOLVING SKILLS IN SECONDARY SCHOOLS

*The article analyzes the methodological foundations of developing physical problem-solving skills in general secondary schools. The importance of forming students' competencies in logical thinking, analysis, generalization and practical application in teaching physics is based on the article. The effectiveness of problem-based learning, interactive methods and a differentiated approach is highlighted on the basis of pedagogical experience. The results of the study showed that the systematic organization of the process of solving physical problems significantly increases students' independent thinking and creative activity.*

***Keywords:** physics education, problem solving, competence, methodology, interactive learning, logical thinking, didactics.*

**Kirish.** Zamonaviy ta‘lim tizimida o‘quvchilarning faqat tayyor bilimlarni egallashi emas, balki ularni turli hayotiy va ilmiy vaziyatlarda qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, fizika fanini o‘qitish jarayonida masalalar yechish faoliyati alohida didaktik ahamiyat kasb etadi. Chunki fizik masalalar o‘quvchilarda nazariy bilimlarni mustahkamlash bilan birga, ularni tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, abstrakt tafakkur va ijodiy yondashuvga yo‘naltiradi. Fizika fanining mazmuni tabiat hodisalarini tushuntirish va ularni matematik modellashtirishga asoslanganligi sababli, masalalar yechish jarayoni o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda muhim o‘rin tutadi. Ayniqsa, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda fizik masalalarni yechish metodikasini to‘g‘ri tashkil etish ularning bilim sifatiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** So‘nggi yillarda ta‘lim tizimida kompetensiyaviy yondashuvning joriy etilishi o‘quv jarayonini tubdan yangilashni talab etmoqda. Bu esa o‘qituvchilardan an‘anaviy tushuntirish usullaridan voz kechib, muammoli o‘qitish, interfaol metodlar va differensial yondashuv asosida

daraslarni tashkil etishni taqozo etadi. Fizika masalalarini yechish jarayoni aynan shunday zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash uchun qulay didaktik vosita hisoblanadi.

Shuningdek, amaliy kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, ko'plab o'quvchilar fizik masalalarni yechishda formulalarni yodlash bilan cheklanib qoladi, lekin ularning mazmunini chuqur anglash va qo'llashda qiyinchilikka duch keladi. Bu esa o'qitish jarayonida metodik yondashuvni takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu sababli, fizik masalalarni yechish ko'nikmalarini bosqichma-bosqich rivojlantirish, o'quvchilarda mustaqil fikrlashni shakllantirish va ularni ijodiy faoliyatga yo'naltirish dolzarb ilmiy-pedagogik muammo hisoblanadi [8;9].

Mazkur maqolada aynan shu muammoni hal etishga qaratilgan metodik yondashuvlar, ularning samaradorligi hamda tajriba-sinov natijalari tahlil qilinadi.

J.Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasida o'quvchining fikrlash jarayoni bosqichma-bosqich shakllanishi ta'kidlanadi [5]. Uning fikricha, o'quvchi muammoni mustaqil hal qilish jarayonida bilimni faol konstruktsiya qiladi. Bu yondashuv fizik masalalarni yechish jarayonida o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishga bevosita asos bo'lib xizmat qiladi.

L.S.Vygotskiy esa “yaqin rivojlanish zonasi” nazariyasi orqali o'quvchilarning o'qituvchi va tengdoshlar bilan hamkorlikda murakkab masalalarni yecha olish imkoniyatini asoslab bergan. Bu nazariya interfaol o'qitish metodlarining ilmiy asosini tashkil etadi [4].

G.Polya o'zining “How to Solve It” asarida masala yechishning to'rt bosqichli modelini (tushunish, rejalashtirish, yechish va tekshirish) ishlab chiqqan bo'lib, bu model hozirgi kunda ham fizika ta'limida keng qo'llanilmoqda [6].

Mahalliy olimlar – Sh.S.Karimov, A.R.Nurmatov, J.G'.Yuldashev va boshqalarning ilmiy ishlari O'zbekistonda fizika o'qitish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan. Ularning tadqiqotlarida kompetensiyaviy yondashuv, interfaol metodlar va zamonaviy pedagogik texnologiyalarni joriy etish masalalari chuqur yoritilgan [1;2].

J.Piaget, L.S.Vygotskiy, G.Polya, shuningdek, Sh.S.Karimov, A.R.Nurmatov va J.G'.Yuldashevlarning ilmiy ishlari tahlil qilindi. Ular o'quvchilarning kognitiv rivojlanishi, muammoli ta'lim va kompetensiyaviy yondashuvni asoslab bergan.

1. Fizik masalalar tasnifi

- sifat masalalari
- hisoblash masalalari
- grafik masalalar
- eksperimental masalalar

2. Masala yechish bosqichlari. Masalani tahlil qilish

- fizik qonunni aniqlash
- model tuzish
- hisoblash
- natijani tekshirish

3. Metodik yondashuvlar

- muammoli o'qitish
- interfaol metodlar
- differensial yondashuv

Natijalar shuni ko'rsatadiki, interfaol va muammoli metodlar o'quvchilarning:

- mustaqil fikrlashini rivojlantiradi
- masala yechish tezligini oshiradi
- ijodiy yondashuvni kuchaytiradi

**Tadqiqot metodologiyasi.** Tadqiqot jarayonida umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika masalalarini yechish ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan tajriba-sinov ishlari amalga oshirildi. Tajriba ikki guruhda tashkil etildi:

nazorat guruhi an'anaviy o'qitish metodlari asosida;

tajriba guruhi esa muammoli o'qitish, interfaol metodlar va differensial yondashuv asosida o'qitildi [1;4;5].

Tajriba-sinov uchun tanlangan guruhdagi o‘quvchilar soni va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

	“2”	“3”	“4”	“5”	Jami	o‘rtacha	dispersiya	variatsiya koeffs.	ishonchli oraliq	xi-kvadrat statistik kritik qiymati	Samaradorlik
Tajriba sinfi	0	54	86	49	189	3,97	0,54	18,62	3,94-4,01	29,17	1,113
Nazorat sinfi	17	74	60	30	181	3,57	0,77	24,57	3,51-3,62	7,815	
Xulosa	H <sub>1</sub> gipoteza qabul qilinadi										

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tajriba davomida o‘quvchilarning bilim darajasi bir necha mezonlar asosida baholandi: masalani tushunish darajasi, fizik qonuniyatlarni to‘g‘ri tanlash, matematik model tuzish, hisoblash aniqligi hamda mustaqil yechim topish qobiliyati. Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhidagi o‘quvchilarda barcha ko‘rsatkichlar bo‘yicha sezilarli o‘sish kuzatildi. Xususan, masalani tushunish bosqichida o‘quvchilar berilgan shartni tahlil qilish va asosiy fizik hodisani ajratib olishda ancha yuqori natija ko‘rsatdilar. Bu ularning analitik fikrlash qobiliyati rivojlanganini bildiradi. Tajriba va nazorat sinflarida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari quyidagi jadvalda keltirilgan.


2-jadval.

Tajriba-sinov uchun tanlangan guruhdagi o‘quvchilar soni va o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari

	Barcha umumiy o‘rta ta’lim maktablari			
	A’lo, “5”	Yaxshi, “4”	Qoniqarli, “3”	Qoniqarsiz, “2”
Tajriba sinfidagi (508 nafar)	128	238	142	0
Nazorat sinfidagi (487 nafar)	76	155	214	42

Nazorat guruhida esa o‘quvchilar ko‘proq formulalarni mexanik yodlashga tayangan bo‘lib, masalaning fizik mazmunini to‘liq anglashda qiyinchilikka duch kelgan. Bu holat an’anaviy o‘qitish usullarida nazariy bilim ustun bo‘lsa-da, amaliy qo‘llash yetarli darajada rivojlanmaganini ko‘rsatadi.

Tajriba guruhida eng sezilarli o‘zgarishlar masalani modellashtirish va mustaqil yechim topish bosqichlarida kuzatildi. O‘quvchilar fizik jarayonni matematik ifodaga o‘tkazishda erkinroq fikrlay boshladilar, turli yechim variantlarini solishtirish va eng optimalini tanlash ko‘nikmasini namoyon etdilar. Bu esa ijodiy yondashuvning rivojlanganidan dalolat beradi. Shuningdek, interfaol metodlar qo‘llanilgan guruhda o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligi sezilarli oshdi. Guruhda ishlash, fikr almashish va muhokama qilish jarayonlari o‘quvchilarning o‘z fikrini asoslash qobiliyatini kuchaytirdi. Ayniqsa, “muammoli vaziyat” asosida berilgan masalalar o‘quvchilarda qiziqish va motivatsiyani oshirdi.



1-rasm. O‘quvchilarning tajriba-sinov ishlari yakunida o‘rtacha o‘zlashtirish ko‘rsatkichi diagrammasi

O‘quvchilardan olingan natijalardan ko‘rinib turibdiki, barcha umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarining o‘zlashtirish samaradorligi 1-rasmda keltirilgan.

**Xulosa** qilib aytish mumkinki, fizikadan masalalarni yechish jarayonini bosqichma-bosqich tashkil etish o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashini tizimli rivojlantiradi. Interfaol va muammoli o‘qitish metodlari an’anaviy yondashuvga nisbatan samaraliroq bo‘lib, o‘quvchilarning mustaqil ishlash faolligini oshiradi. Differensial yondashuv har bir o‘quvchining individual imkoniyatlarini hisobga olishga imkon yaratadi va o‘zlashtirish sifatini yaxshilaydi. Bu masalalarni yechish jarayonida o‘quvchilarda nafaqat bilim, balki tahlil qilish, qaror qabul qilish va ijodiy fikrlash kompetensiyalari ham rivojlanadi.

Umuman olganda, tajriba-sinov natijalari shuni ko‘rsatadiki, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarida fizika masalalarini yechish ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan zamonaviy metodik yondashuvlar ta‘lim sifatini sezilarli darajada oshiradi va o‘quvchilarning fan bo‘yicha chuqur bilim olishiga xizmat qiladi. Fizika fanidanda masalalar yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish masalasi ko‘plab mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ushbu yo‘nalishda ilmiy qarashlar asosan uch asosiy yo‘nalishga bo‘linadi: kognitiv rivojlanish nazariyasi, muammoli ta‘lim texnologiyalari va kompetensiyaviy yondashuv. Masalalar yechish ko‘nikmalarini rivojlantirish o‘quvchilarning ilmiy tafakkurini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar esa ta‘lim samaradorligini oshiradi.

#### **Adabiyotlar:**

1. Karimov Sh.S. Fizika o‘qitish metodikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2020.
2. Nurmatov A.R. Pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Yuldashev J.G‘. Ta‘lim texnologiyalari. – Toshkent: TDPU, 2021.
4. Vygotsky L.S. Mind in Society. – Harvard University Press, 1978.
5. Piaget J. Psychology of Intelligence. – London, 2001.
6. Polya G. How to Solve It. – Princeton University Press, 2004.
7. Bloom B.S. Taxonomy of Educational Objectives. – 1956.
8. Johnson D., Johnson R. Cooperative Learning. – 2017.
9. OECD. PISA Results 2022. – 2023.
10. Mahmudov K.M. Kompetensiyaviy yondashuv. – Toshkent, 2022.

## ЧИСЛЕННЫЕ МЕТОДЫ В КВАНТОВОЙ МЕХАНИКЕ: МЕТОДОЛОГИЯ И ПРАКТИКА ПРИМЕНЕНИЯ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

*Насырова Низора Каримовна,  
Бухарский государственный университет  
n.k.nasirova@buxdu.uz*

*В статье рассматриваются методологические аспекты и практика применения численных методов в обучении квантовой механике. Актуальность исследования обусловлена сложностью восприятия квантовомеханических концепций и ограниченностью аналитических решений уравнения Шрёдингера. На основе анализа современных научных работ и образовательных подходов показано, что использование численных методов, включая метод конечных разностей, метод конечных элементов и алгоритмы временной эволюции, способствует более глубокому пониманию физических процессов. Особое внимание уделено интеграции программных средств, таких как Python и MATLAB, в учебный процесс. Результаты демонстрируют повышение уровня усвоения материала, развитие вычислительных навыков и усиление мотивации студентов. В заключение обосновывается эффективность численного моделирования как инструмента формирования профессиональных компетенций в области квантовой физики.*

**Ключевые слова:** численные методы, квантовая механика, образовательный процесс, уравнение Шрёдингера, компьютерное моделирование, метод конечных разностей, метод конечных элементов, Python, MATLAB, визуализация, физическое образование.

## NUMERICAL METHODS IN QUANTUM MECHANICS: METHODOLOGY AND PRACTICAL APPLICATION IN THE EDUCATIONAL PROCESS

*This article examines the methodological aspects and practical application of numerical methods in teaching quantum mechanics. The relevance of the study is обусловлена the difficulty of understanding quantum mechanical concepts and the limited availability of analytical solutions to the Schrödinger equation. Based on an analysis of contemporary scientific literature and educational approaches, it is shown that the use of numerical methods - including the finite difference method, the finite element method, and time evolution algorithms - facilitates a deeper understanding of physical processes. Particular attention is given to the integration of software tools such as Python and MATLAB into the educational process. The results demonstrate improved comprehension of the material, development of computational skills, and increased student motivation. In conclusion, the effectiveness of numerical modeling as a tool for developing professional competencies in the field of quantum physics is substantiated.*

**Keywords:** numerical methods, quantum mechanics, educational process, Schrödinger equation, computer modeling, finite difference method, finite element method, Python, MATLAB, visualization, physics education.

## KVANT MEXANIKASIDA SONLI USULLAR: METODOLOGIYA VA TA'LIM JARAYONIDA AMALIY QO'LLANILISHI

*Ushbu maqolada kvant mexanikasini o'qitishda sonli usullarning metodologik jihatlari va ularni qo'llash amaliyoti ko'rib chiqiladi. Tadqiqotning dolzarbligi kvant-mexanik tushunchalarni qabul qilishning murakkabligi hamda Shredinger tenglamasining analitik yechimlari cheklanganligi bilan izohlanadi. Zamonaviy ilmiy ishlar va ta'lim yondashuvlari tahlili asosida sonli usullardan, jumladan, chekli ayirmalar usuli, chekli elementlar usuli va vaqt bo'yicha evolyutsiya algoritmlaridan foydalanish fizik jarayonlarni chuqurroq anglashga yordam berishi ko'rsatildi. Ta'lim jarayoniga Python va MATLAB kabi dasturiy vositalarni integratsiya qilishga alohida e'tibor qaratilgan. Natijalar o'quv materialini o'zlashtirish darajasining oshishini, hisoblash ko'nikmalarining rivojlanishini hamda talabalar motivatsiyasining kuchayishini ko'rsatadi. Xulosa sifatida, kvant fizikasida professional kompetensiyalarni shakllantirishda sonli modellashtirishning samaradorligi asoslab beriladi.*

**Kalit so'zlar:** sonli usullar, kvant mexanikasi, ta'lim jarayoni, Shredinger tenglamasi, kompyuter modellashtirish, chekli ayirmalar usuli, chekli elementlar usuli, Python, MATLAB, vizualizatsiya, fizika ta'limi.


**Введение.** Квантовая механика, будучи одной из фундаментальных теорий современной физики, традиционно представляет значительные сложности для усвоения студентами из-за своей абстрактности и необходимости оперировать сложным математическим аппаратом [16]. Это обусловлено, в частности, трудностью наглядного представления квантовых явлений, таких как туннелирование или интерференция, и ограничениями аналитических методов для решения уравнения Шрёдингера в реальных, часто нетривиальных потенциалах [20].

**Анализ литературных источников.** Внедрение численных методов и компьютерного моделирования в образовательный процесс позволяет преодолеть эти ограничения, предлагая студентам интерактивные инструменты для визуализации и исследования квантовых систем [18, 19]. Таким образом, актуальность применения численных методов в обучении квантовой механике определяется их способностью трансформировать абстрактные концепции в доступные для понимания динамические модели, что способствует более глубокому осмыслению физических принципов [10].

Применение численных методов в преподавании физики, в частности квантовой механики, активно исследуется в современной педагогической науке и образовательной практике [1, 2, 3]. Отмечается, что использование вычислительных подходов не только улучшает концептуальное понимание, но и помогает справиться с мотивационными трудностями, часто возникающими при изучении квантовой механики [8]. Исследования показывают, что интерактивные симуляции и моделирование, особенно двухступенчатых квантовых систем, существенно улучшают процесс обучения как на вводном, так и на продвинутом уровнях бакалавриата, воспринимаясь студентами как полезный инструмент [6]. Тем не менее, большинство существующих исследований концентрируются лишь на нескольких ключевых темах, таких как атомные модели или свойства волновых функций, оставляя множество аспектов квантовой механики недостаточно изученными с педагогической точки зрения [9]. Это подчёркивает необходимость разработки более широкого спектра методических материалов, охватывающих разнообразные численные подходы к решению сложных квантовомеханических задач, что позволит в полной мере раскрыть потенциал компьютерного моделирования.

**Методология.** В данном разделе будет подробно описан комплекс численных методов, использованных для решения задач квантовой механики, а также представлены программные инструменты, применяемые для их реализации и интеграции в образовательный процесс. В частности, будут рассмотрены такие подходы, как метод конечных разностей для дискретизации волновой функции и потенциала, метод конечных элементов для более сложных геометрий и потенциалов, а также алгоритмы численного решения стационарного и нестационарного уравнения Шрёдингера, включая метод Кранка–Николсона для временной эволюции [18]. Для реализации этих методов будут использованы высокоуровневые языки программирования, такие как Python с библиотеками NumPy и SciPy для численных расчетов, а также Matplotlib для визуализации результатов, и MATLAB, предоставляющий обширный инструментарий для моделирования и анализа [22].

**Результаты.** Применение интерактивных анимаций и визуализаций, разработанных с использованием этих инструментов, доказало свою эффективность в улучшении понимания студентами сложных концепций квантовой механики [7]. Например, исследования демонстрируют, что визуализация квантовых состояний, моделирование их временной динамики и возможность изменения параметров способствуют более глубокому осмыслению систем как в статическом, так и в динамическом случаях [1, 14]. Студенты, использующие эти методы, демонстрируют улучшенное интуитивное понимание таких явлений, как квантовая интерференция и туннелирование, особенно при применении нейронных сетей для моделирования эволюции волновых функций [18, 19]. Далее, сравнительный анализ эффективности традиционного подхода и численных методов подтверждает существенное повышение успеваемости и вовлеченности студентов при использовании последнего, особенно в задачах, требующих анализа поведения частиц в потенциальных ямах различной формы и прохождения через потенциальные барьеры [11]. Эти результаты подчёркивают потенциал численных методов для формирования компетенций будущих специалистов в области физики, предоставляя им инструментарий для самостоятельного изучения и моделирования квантовых систем.



**Обсуждение.** Полученные результаты подчёркивают потенциал численных методов в формировании более прочного концептуального базиса квантовой механики у студентов. Особое внимание следует уделить тому, что эти методы не только способствуют углублённому пониманию теоретических аспектов, но и развивают практические навыки программирования и численного анализа, которые востребованы в современной физической науке и инженерной практике [4, 17]. Это особенно актуально, учитывая, что аналитические решения уравнения Шрёдингера доступны лишь для ограниченного числа идеализированных систем, в то время как численные подходы позволяют исследовать широкий спектр реалистичных задач [13]. Таким образом, интеграция численных методов в образовательный процесс по квантовой механике позволяет студентам не только освоить теоретические основы предмета, но и получить ценный опыт в решении практически значимых проблем, недоступных для аналитического анализа. Более того, включение вычислительных задач в учебный процесс может помочь студентам преодолеть распространённые заблуждения, такие как непонимание различий между решениями для стационарного и нестационарного уравнений Шрёдингера, что было выявлено в предыдущих исследованиях.

**Заключение.** В данном исследовании были рассмотрены и проанализированы методологические подходы и практическое применение численных методов в обучении квантовой механике, что подтвердило их значимость для преодоления присущих предмету абстрактности и сложности математического аппарата. Было показано, что внедрение интерактивных симуляций и компьютерного моделирования значительно улучшает понимание студентами концепций квантовой механики и развивает навыки решения прикладных задач [12, 15]. Обобщая, можно заключить, что численные методы, особенно с использованием нейронных сетей, расширяют возможности для наглядного представления и исследования сложных квантовых явлений, таких как квантовая интерференция и туннелирование [19, 20, 21].

### Литература:

1. Ahmed, S. Z., Jensen, J. H. M., Weidner, C. A., Sørensen, J. J., Mudrich, M., & Sherson, J. (2021). Quantum composer: A programmable quantum visualization and simulation tool for education and research. *American Journal of Physics*, 89(3), 307. <https://doi.org/10.1119/10.0003396>
2. Ahmed, S. Z., Weidner, C. A., Jensen, J. H. M., Sherson, J., & Lewandowski, H. J. (2021). Student engagement and learning with Quantum Composer. *arXiv (Cornell University)*. <http://arxiv.org/abs/2104.13260>

3. Ahmed, S. Z., Weidner, C. A., Jensen, J. H. M., Sherson, J., & Lewandowski, H. J. (2022). Student use of a quantum simulation and visualization tool. *European Journal of Physics*, 43(6), 65703. <https://doi.org/10.1088/1361-6404/ac93c7>
4. Gharibnejad, H., Schneider, B. I., Leadingham, M., & Schmale, H. J. (2018). Comparison of Numerical Approaches to the Time-Dependent Schrödinger Solutions in One Dimension. arXiv (Cornell University). <https://doi.org/10.48550/arxiv.1809.09164>
5. K. Mukhtarov. (2025). Methodological Aspects of Teaching Quantum Mechanics Using the Example of The Hydrogen Atom. *International Journal of Pedagogics*, 5(7), 46–52. <https://doi.org/10.37547/ijp/volume05issue07-11>
6. Kohnle, A., Baily, C., Campbell, A., Korolkova, N., & Paetkau, M. (2015). Enhancing student learning of two-level quantum systems with interactive simulations. *American Journal of Physics*, 83(6), 560. <https://doi.org/10.1119/1.4913786>
7. Krijtenburg-Lewerissa, K., Pol, H. J., Brinkman, A., & Joolingen, W. van. (2017). Insights into teaching quantum mechanics in secondary and lower undergraduate education. *Physical Review Physics Education Research*, 13(1). <https://doi.org/10.1103/physrevphyseducres.13.010109>
8. Kuusisto, E., Lehtinen, A., & Koskinen, P. (2025). Quantum physics meets computational thinking: accessing quantum mechanics with Python-based computational exercises. *Physics Education*, 61(1), 15033. <https://doi.org/10.1088/1361-6552/ae1edd>
9. McKagan, S. B., Perkins, K. K., Dubson, M., Malley, C., Reid, S., LeMaster, R., & Wieman, C. (2008). Developing and researching PhET simulations for teaching quantum mechanics. *American Journal of Physics*, 76(4), 406. <https://doi.org/10.1119/1.2885199>
10. Mukhtarov, E. K. (2025). Experience of using electronic educational resources in the process of practical classes on quantum mechanics. *Вестник Исык-Кульского Университета.*, 62, 179. <https://doi.org/10.69722/1694-8211-2025-62-179-184>
11. Radchenko, I. (2019). Methodological aspects of physical processes modeling. *AIP Conference Proceedings*, 2201, 20079. <https://doi.org/10.1063/1.5140179>
12. Singh, C., Belloni, M., & Christian, W. (2006). Improving students’ understanding of quantum mechanics. *Physics Today*, 59(8), 43. <https://doi.org/10.1063/1.2349732>
13. Srnec, M. N., Upadhyay, S., & Madura, J. D. (2017). A Python Program for Solving Schrödinger’s Equation in Undergraduate Physical Chemistry. *Journal of Chemical Education*, 94(6), 813. <https://doi.org/10.1021/acs.jchemed.7b00003>
14. Weidner, C. A., Ahmed, S. Z., Jensen, J. H. M., Sherson, J., & Lewandowski, H. J. (2020, September 1). Investigating student use of a flexible tool for simulating and visualizing quantum mechanics. *2017 Physics Education Research Conference Proceedings*. <https://doi.org/10.1119/perc.2020.pr.weidner>
15. Zollman, D., Rebello, N. S., & Hogg, K. (2002). Quantum mechanics for everyone: Hands-on activities integrated with technology. *American Journal of Physics*, 70(3), 252. <https://doi.org/10.1119/1.1435347>
16. Баранов, А. В., Волохович, Е. Н., Медведева, К. А., & Степин, Д. В. (2015). Educational computer simulation experiment «real-time single-molecule imaging of quantum interference». *Open Education*, 110. [https://doi.org/10.21686/1818-4243-2015-3\(110-110-114](https://doi.org/10.21686/1818-4243-2015-3(110-110-114)
17. Жарлыкасов, Б., Алимбаев, А. А., Қалжанов, М., & Телегина, О. С. (2023). Современные компьютерные методы в обучении математике и физике: примеры использования python. *Vestnik Torajgyrov Universiteta. Seriâ: Fizika, Matematika i Komp’üternye Nauki*, 132. <https://doi.org/10.48081/hmpj1312>
18. Насырова, Н. (2026a). Влияние искусственного интеллекта на повышение интуитивного понимания квантовой механики у студентов посредством визуализации волновых функций и решения уравнения Шрёдингера. *Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research)*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19050028>
19. Насырова, Н. (2026b). Влияние искусственного интеллекта на повышение интуитивного понимания квантовой механики у студентов посредством визуализации волновых функций и решения уравнения Шрёдингера. *Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research)*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19050027>
20. Насырова, Н. (2026c). Использование численных методов вычисления на практических занятиях квантовой механики. *Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research)*. <https://doi.org/10.5281/zenodo.19045811>

21. Насырова, Н. (2026d). Использование численных методов вычисления на практических занятиях квантовой механики. Zenodo (CERN European Organization for Nuclear Research). <https://doi.org/10.5281/zenodo.19045810>

22. Турінов, А. М., & Галдіна, О. М. (2017). Використання комп'ютерного моделювання при розв'язанні квантовомеханічних задач. <https://doi.org/10.31812/0564/2320>

## CHIZIQLI ALGEBRA XOSSALARINI OLIMPIADA MASALALARIGA TADBIQI

*Atajanova Shoira Ulug'bekovna,*  
*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv*  
*va texnologiyalar universiteti o'qituvchisi*  
*Axadov Abdushukur O'tkir o'g'li,*  
*Toshkent xalqaro moliyaviy boshqaruv*  
*va texnologiyalar universiteti magistranti*

So'nggi yillarda xalqaro hamda nufuzli xorijiy matematika olimpiadalarida taklif etilayotgan masalalar mazmunan murakkablashib, ularni yechishda zamonaviy matematik metodlardan, xususan, chizikli algebra usullaridan foydalanish zarurati ortib bormoqda. Bunday masalalarni samarali yechish uchun matritsalar, determinantlar, chizikli tenglamalar sistemalari va ularning xossalarini chuqur bilish hamda amaliy vaziyatlarda qo'llay olish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada olimpiada masalalarini yechishda chizikli algebraning asosiy tushunchalari va sodda, ammo samarali xossalaridan foydalanish usullari yoritilgan. Shuningdek, ayrim nostandart masalalarning yechimlari tahlil qilinib, ularda qo'llanilgan metodlarning afzalliklari ko'rsatib berilgan. Taklif etilgan usul va metodlarni mustahkam o'zlashtirish, nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirish hamda o'quvchilarning matematik tafakkurini rivojlantirish maqsadida qo'shimcha masalalar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** matritsa, determinant, bir jinsli tenglamalar sistemasi, Vandermonde determinant, o'zaro tub butun sonlar.

## ПРИМЕНЕНИЕ СВОЙСТВ ЛИНЕЙНОЙ АЛГЕБРЫ К ОЛИМПИАДНЫМ ЗАДАЧАМ

В последние годы задачи, предлагаемые на международных и престижных зарубежных математических олимпиадах, становятся всё более содержательно сложными, что обуславливает возрастающую необходимость использования современных математических методов, в частности методов линейной алгебры. Для эффективного решения таких задач требуется глубокое понимание матриц, определителей, систем линейных уравнений и их основных свойств, а также умение применять полученные знания в различных практических и олимпиадных ситуациях. В данной статье рассматриваются способы решения олимпиадных задач с использованием основных понятий и простых, но эффективных свойств линейной алгебры. Кроме того, проведён анализ решений ряда нестандартных задач и показаны преимущества применяемых методов. Для более глубокого усвоения представленных подходов, укрепления теоретических знаний, их интеграции с практическими навыками и развития математического мышления учащихся в статье также предложен ряд дополнительных задач.

**Ключевые слова:** матрица, определитель, однородная система уравнений, определитель Вандермонда, взаимно простые целые числа.

## APPLICATION OF LINEAR ALGEBRA PROPERTIES TO OLYMPIAD PROBLEMS

In recent years, the problems proposed at international and prestigious foreign mathematics Olympiads have become increasingly sophisticated, creating a growing need for the application of modern mathematical methods, particularly those of linear algebra. Effective solution of such problems requires a thorough understanding of matrices, determinants, systems of linear equations, and their fundamental properties, as well as the ability to apply this knowledge in various problem-solving contexts. This article discusses approaches to solving Olympiad problems through the use of basic concepts and elementary yet powerful properties of linear algebra. Furthermore, several non-standard problems are analyzed, and the advantages of the methods employed in their solutions are demonstrated. To facilitate a deeper understanding of the presented techniques, strengthen theoretical knowledge, integrate it with practical skills, and enhance students' mathematical reasoning abilities, a collection of additional problems is also provided.

**Keywords:** matrix, determinant, homogeneous system of equations, Vandermonde determinant, relatively prime integers.

**Kirish.** Zamonaviy ta’lim tizimida matematik tafakkurni rivojlantirish, o’quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini shakllantirish va ularni xalqaro baholash dasturlari hamda matematika olimpiadalariga tayyorlash masalalari dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, xalqaro va nufuzli xorijiy matematika olimpiadalarida qo’llanilayotgan masalalarning mazmuni va murakkablik darajasi yildan-yilga ortib borayotgani ularga yechim topishda an’anaviy usullar bilan bir qatorda zamonaviy matematik metodlardan samarali foydalanishni talab etmoqda. Bunday metodlar orasida chiziqli algebra usullari alohida o’rin tutadi.

Chiziqli algebra matematikaning fundamental bo’limlaridan biri bo’lib, matritsalar, determinantlar, chiziqli tenglamalar sistemalari, vektor fazolar va ularning xossalarini o’rganadi. Mazkur tushunchalar nafaqat oliy matematika kurslarining asosini tashkil etadi, balki ko’plab olimpiada masalalarini ixcham, elegant va samarali usullar bilan yechish imkonini ham beradi. Xususan, determinantlarning xossalari, bir jinsli tenglamalar sistemalarining yechimlari hamda maxsus turdagi matritsalaridan foydalanish ayrim murakkab kombinatorik va sonlar nazariyasiga oid masalalarni yechishda muhim vosita bo’lib xizmat qiladi.

Bugungi kunda matematika olimpiadalariga tayyorlash jarayonida o’quvchilarning chiziqli algebra elementlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish va ularni nostandart masalalarni yechishga tatbiq etish ko’nikmalarini shakllantirish zarurati ortib bormoqda. Biroq amaliyotda olimpiada masalalarini yechishda chiziqli algebra metodlaridan foydalanish imkoniyatlari yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi, bu usullarning afzalliklari va qo’llash mexanizmlarining to’liq yoritilmaganligi kuzatiladi.

Shu nuqtai nazardan, olimpiada masalalarini yechishda chiziqli algebra metodlarining imkoniyatlarini tadqiq etish, ularning amaliy samaradorligini ko’rsatish hamda mazkur metodlarni o’quv jarayoniga tatbiq etishning ilmiy-uslubiy asoslarini ishlab chiqish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolada chiziqli algebraning ayrim asosiy tushunchalari va xossalaridan foydalanish orqali olimpiada masalalarini yechish usullari tahlil qilinadi hamda ushbu metodlarning afzalliklari misollar yordamida yoritib beriladi.

Maqolangiz mavzusiga mos ravishda adabiyotlar tahlili nazariy chiziqli algebra manbalari va olimpiada masalalari manbalari o’rtasidagi bog’liqlikni ochib berishi kerak. Quyidagi variant ilmiy maqola uslubida yozilgan:

**Adabiyotlar tahlili.** Chiziqli algebra metodlarini olimpiada masalalariga tatbiq etish masalasi matematik ta’lim va olimpiada tayyorgarligi sohasida muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yo’nalishning nazariy asoslari va amaliy qo’llanilish imkoniyatlarini o’rganishda bir qator fundamental manbalar muhim o’rin tutadi.

Sh.A. Ayupov, B.A. Omirov va A.X. Xudoyberdiyevlarning “*Chiziqli algebra*” darsligida matritsalar, determinantlar, chiziqli tenglamalar sistemalari va ularning asosiy xossalari izchil bayon qilingan. Mualliflar determinantlarning xossalari, matritsalar ustida amallar hamda bir jinsli va bir jinsli bo’lmagan tenglamalar sistemalarini yechish usullarini nazariy jihatdan asoslab beradilar. Ushbu manba chiziqli algebra metodlarining mohiyatini tushunish va ularni olimpiada masalalariga tatbiq etish uchun muhim nazariy poydevor vazifasini bajaradi [1].

F.R. Gantmaxerning “*Teoriya matrits*” kitobi matritsalar nazariyasiga bag’ishlangan fundamental ilmiy manbalardan biri hisoblanadi. Asarda determinantlar, maxsus turdagi matritsalar, xos sonlar va xos vektorlar nazariyasi chuqur yoritilgan. Muallif tomonidan keltirilgan ko’plab teoremlar va algebraik yondashuvlar murakkab matematik masalalarni qisqa va elegant usullar bilan yechish imkonini beradi. Xususan, determinantlarning xossalari va Vandermonde determinantiga oid natijalar ko’plab olimpiada masalalarining yechimida samarali qo’llanilishi mumkin [2].

Titu Andreescu tomonidan tuzilgan “*Problems from the Book*” to’plami esa xalqaro matematika olimpiadalarida darajasidagi masalalarni o’z ichiga olgan mashhur manbalardan biridir. Mazkur asarda keltirilgan ko’plab algebraik va sonlar nazariyasiga oid masalalar nostandart yondashuvlarni talab qiladi. Ayrim hollarda determinantlar, matritsalar va chiziqli tenglamalar sistemalaridan foydalanish masalalarning sodda va umumlashgan yechimlarini olish imkonini beradi [3].

So’nggi yillarda internet-resurslar ham olimpiada matematikasini rivojlantirishda muhim o’rin egallamoqda. Jumladan, *Art of Problem Solving (AoPS)* platformasi dunyoning turli mamlakatlarida o’tkaziladigan matematika olimpiadalariga oid masalalar, ularning yechimlari va muhokamalarini o’z ichiga olgan yirik ilmiy-ta’limiy manba hisoblanadi. Mazkur platformada algebra, sonlar nazariyasi, kombinatorika va geometriya bo’yicha ko’plab masalalar tahlil qilingan bo’lib, ulardan ayrimlarini yechishda chiziqli algebra metodlaridan samarali foydalanilganligi kuzatiladi [4].

Tahlil qilingan adabiyotlar shuni ko’rsatadiki, chiziqli algebra nafaqat nazariy matematikaning muhim bo’limi, balki olimpiada masalalarini yechishda ham samarali metodologik vosita hisoblanadi. Biroq mavjud manbalarda chiziqli algebra metodlarining aynan olimpiada masalalariga tatbiq tizimli ravishda yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli determinantlar, matritsalar va chiziqli tenglamalar sistemalarining



**Kramer teoremasining natijasi:** Agar yuqoridagi bir jinsli tenglamalar sistemasi  $(0, 0, \dots, 0)$  dan

farqli yechimga ega bo‘lsa  $A = \begin{pmatrix} a_{11} & \dots & a_{1n} \\ M & O & M \\ a_{n1} & L & a_{nn} \end{pmatrix}$  matritsaning determinanti  $0$  ga teng bo‘ladi.

**1-masala:**  $\mathfrak{R} = \{a^3 + b^3 + c^3 - 3abc \mid a, b, c \in \mathbb{R}\} \subset \mathbb{R}$  to‘plamni qaraylik. Agar  $x, y \in \mathfrak{R}$  bo‘lsa, u holda  $x \cdot y \in \mathfrak{R}$  ekanligini isbotlang.

**Isbot:** Ko‘rish mumkinki,  $a^3 + b^3 + c^3 - 3abc = \det \begin{pmatrix} a & c & b \\ b & a & c \\ c & b & a \end{pmatrix}$ .

Endi matritsalarini ko‘paytirish qoidasidan:  $\begin{pmatrix} a & c & b \\ b & a & c \\ c & b & a \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} x & z & y \\ y & x & z \\ z & y & x \end{pmatrix} = \begin{pmatrix} A & C & B \\ B & A & C \\ C & B & A \end{pmatrix}$ , bu yerda

$A = ax + cy + bz$ ,  $B = ay + bx + cz$  va  $C = az + by + cx$ . Ko‘paytmaning determinanti determinantlar ko‘paytmasiga tengligidan, quyidagiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{aligned} (a^3 + b^3 + c^3 - 3abc)(x^3 + y^3 + z^3 - 3xyz) &= \det \begin{pmatrix} a & c & b \\ b & a & c \\ c & b & a \end{pmatrix} \cdot \det \begin{pmatrix} x & z & y \\ y & x & z \\ z & y & x \end{pmatrix} = \\ &= \det \left\langle \begin{pmatrix} a & c & b \\ b & a & c \\ c & b & a \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} x & z & y \\ y & x & z \\ z & y & x \end{pmatrix} \right\rangle = \det \begin{pmatrix} A & C & B \\ B & A & C \\ C & B & A \end{pmatrix} = A^3 + B^3 + C^3 - 3ABC \in \mathfrak{R} \end{aligned}$$

ya’ni shu yerda masalamizni isboti tugaydi.

**2-masala:** Agar  $\triangle ABC$  burchaklari uchun  $\cos 2A + \cos 2B + \cos 2C = -1$  tenglik o‘rinli bo‘lsa, u holda  $\triangle ABC$  to‘g‘ri burchakli ekanligini isbotlang.

(IMO Longlisted problem)

**Yechimi:** Dastlab quyidagi lemmani isbotlaymiz.

**Lemma:**  $\triangle ABC$  burchaklari uchun quyidagi ayniyat o‘rinli:

$$\cos^2 A + \cos^2 B + \cos^2 C + 2\cos A \cos B \cos C = 1$$

**Isbot:** Yana chiziqli algebra murojat qilamiz. Qulaylik uchun  $BC = a$ ,  $CA = b$  va  $AB = c$  deb olaylik. Ravshanki  $a \cos B + b \cos A = c$ . Bu tenglikni  $a$  va  $b$  tomonlar uchun ham yozsak, quyidagi bir jinsli tenglamalar sistemasiga ega bo‘lamiz:

$$\begin{cases} a \cos B + b \cos A - c = 0 \\ a \cos C - b + c \cos A = 0 \\ -a + b \cos C + c \cos B = 0 \end{cases},$$

Ya’ni

$$\begin{cases} \cos Bx + \cos Ay - z = 0 \\ \cos Cx - y + \cos Az = 0 \\ -x + \cos Cy + \cos Bz = 0 \end{cases}$$

bir jinsli tenglamalar sistemasi  $(0, 0, 0)$  dan farqli trivial bo‘lmagan  $(a, b, c)$  yechimga ega. Demak sistema matritsasining determinant  $0$  ga teng. Bundan

$$\det \begin{pmatrix} \cos B & \cos A & -1 \\ \cos C & -1 & \cos A \\ -1 & \cos C & \cos B \end{pmatrix} = 0,$$

ya’ni

$$\cos^2 A + \cos^2 B + \cos^2 C + 2 \cos A \cos B \cos C - 1 = 0.$$

Endi masalaning yechimiga o‘tamiz. Lemmadan va

$$\cos 2A = 2 \cos^2 A - 1$$

ayniyatdan foydalansak

$$\cos A \cos B \cos C = 0$$

tenglikka ega bo‘lamiz, bu esa  $\Delta ABC$  to‘g‘ri burchakli ekanligiga teng kuchli. Masala to‘liq yechildi.

**3-masala:**  $a_0, \dots, a_{n-1} \in \mathbb{Q}$  sonlar  $a_0 + a_1 \sqrt[n]{2} + \dots + a_{n-1} \sqrt[n]{2^{n-1}} = 0$  tenglikni qanoatlantirsa, u holda  $a_0 = a_1 = \dots = a_{n-1} = 0$  ni isbotlang.

**Isbot:** Agar  $a_0 + a_1 \sqrt[n]{2} + \dots + a_{n-1} \sqrt[n]{2^{n-1}} = 0$  tenglik bajarilsa,  $\forall k \in \mathbb{Y}$  soni uchun

$$ka_0 + ka_1 \sqrt[n]{2} + \dots + ka_{n-1} \sqrt[n]{2^{n-1}} = 0 \quad (1)$$

Demak biz  $a_0, \dots, a_{n-1} \in \mathbb{Y}$  deb qarash bo‘ladi. Biz (1) da  $k$  ga shunday  $n$  ta qiymat beramizki, bunda  $n$  ta noma’lumli  $n$  ta tenglamadan iborat bir jinsli tenglamalar sistemasini hosil bo‘lsin:

$$\begin{cases} a_0 + a_1 \sqrt[n]{2} + \dots + a_{n-1} \sqrt[n]{2^{n-1}} = 0 \\ a_0 \sqrt[n]{2} + a_1 \sqrt[n]{2^2} + \dots + a_{n-1} 2 = 0 \\ a_0 \sqrt[n]{2^2} + a_1 \sqrt[n]{2^3} + \dots + a_{n-1} 2 \sqrt[n]{2} = 0 \\ \dots \\ a_0 \sqrt[n]{2^{n-1}} + a_1 2 + \dots + a_{n-1} 2 \sqrt[n]{2^{n-2}} = 0 \end{cases}$$

Ya’ni

$$\begin{cases} a_0 x_1 + a_1 x_2 + \dots + a_{n-1} x_n = 0 \\ 2a_{n-1} x_1 + a_0 x_2 + \dots + a_{n-2} x_n = 0 \\ \dots \\ 2a_1 x_1 + 2a_2 x_2 + \dots + a_0 x_n = 0 \end{cases}$$

bir jinsli tenglamalar sistemasi  $(0, 0, \dots, 0)$  dan farqli  $(1, \sqrt[n]{2}, \dots, \sqrt[n]{2^{n-1}})$  yechimga ega. Demak

$$\begin{vmatrix} a_0 & a_1 & \dots & a_{n-1} \\ 2a_{n-1} & a_0 & \dots & a_{n-2} \\ \dots & \dots & \dots & \dots \\ 2a_1 & 2a_2 & \dots & a_0 \end{vmatrix} = 0.$$

Bu determinant elementlarini (mod 2) bo‘yicha qarash navbatma-navbat  $a_i$  ( $i = 0, \dots, n-1$ ) larni har biri juft ekanligi kelib chiqadi,  $a_i = 2b_i$  deb belgilash olib yana (mod 2) bo‘yicha qarash  $b_i$  ( $i = 0, \dots, n-1$ ) larning ham har biri juft ekanligi kelib chiqadi. Bu jarayonni cheksiz ko‘p marta davom ettirish mumkin, ya’ni  $a_i$  ( $i = 0, \dots, n-1$ ) larning har biri 2 ga cheksiz ko‘p marta bo‘linadi. Bu esa  $a_0 = a_1 = \dots = a_{n-1} = 0$  ga teng kuchli. Masala to‘liq isbotlandi.

**4-masala:** Haqiqiy  $x, y, z$  sonlar uchun  $x^2 + y^2 + z^2 = 1$  tenglikni qanoatlantiradi. U holda  $-1 \leq x^3 + y^3 + z^3 - 3xyz \leq 1$  tengsizlikni isbotlang.

(Xitoy matematika olimpiadasi)

**Isboti:** Biz  $(x^3 + y^3 + z^3 - 3xyz)^2 \leq 1$  tengsizlikni isbotlaymiz. Qulaylik uchun  $t = xy + yz + zx$  deb belgilab olaylik. Ravshanki  $(x + y + z)^2 \geq 0$  va  $(x - y)^2 + (y - z)^2 + (z - x)^2 \geq 0$ . Bu tengsizliklardan

va shartdagi tenglikdan  $-\frac{1}{2} \leq t \leq 1$  tengsizlikka ega bo‘lamiz. 1-xossa va 2-xossalardan foydalanib, yuqridagi tengsizlikni inobatga olib,

$$(x^3 + y^3 + z^3 - 3xyz)^2 = \left( \det \begin{pmatrix} x & z & y \\ y & x & z \\ z & y & x \end{pmatrix} \right)^2 = \det \begin{pmatrix} x & z & y \\ y & x & z \\ z & y & x \end{pmatrix} \cdot \det \begin{pmatrix} x & y & z \\ z & x & y \\ y & z & x \end{pmatrix} =$$

$$\det \left\langle \begin{pmatrix} x & z & y \\ y & x & z \\ z & y & x \end{pmatrix} \cdot \begin{pmatrix} x & y & z \\ z & x & y \\ y & z & x \end{pmatrix} \right\rangle = \det \begin{pmatrix} 1 & t & t \\ t & 1 & t \\ t & t & 1 \end{pmatrix} = 1 + t^2(2t - 3) \leq 1.$$

Tengsizlik isbotlandi, tenglik holi mos ravishda  $(-1, 0, 0)$  va  $(1, 0, 0)$  uchliklar hamda ularning ixtiyoriy o‘rin almashtirishlari uchun bajariladi.

Endi juda ko‘plab olimpiadalarda foydalanilgan, elementar isboti juda murakkab, lekin chiziqli algebradagi xossalardan yordamida nisbatan qisqa va tushunarli yechimga ega masalani qaraylik.

**5-masala:** Faraz qilaylik  $a_1, a_2, \dots, a_n$  butun sonlar bo‘lsin. U holda  $\prod_{1 \leq i < j \leq n} \frac{a_j - a_i}{j - i}$  ifoda butun son ekanligini isbotlang.

(Armond Spencer, AMME 2637 [1])

**Yechimi:** Biz bu masalani yechish uchun chiziqli algebraning mashhur masalalaridan biri Vandermonde determinanti [2] dan foydalanamiz.

$$\prod_{1 \leq i < j \leq n} (a_j - a_i) = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 & \dots & 1 \\ a_1 & a_2 & a_3 & \dots & a_n \\ a_1^2 & a_2^2 & a_3^2 & \dots & a_n^2 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_1^{n-1} & a_2^{n-1} & a_3^{n-1} & \dots & a_n^{n-1} \end{vmatrix}.$$

Boshqa tomondan osongina  $\prod_{1 \leq i < j \leq n} (j - i) = (n - 1)!(n - 2)! \dots 2!1!$  ayniyatni isbotlash mumkin. U holda masaladagi ifoda quyidagiga teng:

$$\prod_{1 \leq i < j \leq n} \frac{a_j - a_i}{j - i} = \frac{1}{(n - 1)!(n - 2)! \dots 2!1!} \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 & \dots & 1 \\ a_1 & a_2 & a_3 & \dots & a_n \\ a_1^2 & a_2^2 & a_3^2 & \dots & a_n^2 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_1^{n-1} & a_2^{n-1} & a_3^{n-1} & \dots & a_n^{n-1} \end{vmatrix}.$$

Endi determinant sodda xossalardan foydalanib,

$$\prod_{1 \leq i < j \leq n} \frac{a_j - a_i}{j - i} = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 & \dots & 1 \\ \frac{a_1}{1!} & \frac{a_2}{1!} & \frac{a_3}{1!} & \dots & \frac{a_n}{1!} \\ \frac{a_1^2}{2!} & \frac{a_2^2}{2!} & \frac{a_3^2}{2!} & \dots & \frac{a_n^2}{2!} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ \frac{a_1^{n-1}}{(n-1)!} & \frac{a_2^{n-1}}{(n-1)!} & \frac{a_3^{n-1}}{(n-1)!} & \dots & \frac{a_n^{n-1}}{(n-1)!} \end{vmatrix} = \begin{vmatrix} 1 & 1 & 1 & \dots & 1 \\ \binom{a_1}{1} & \binom{a_2}{1} & \binom{a_3}{1} & \dots & \binom{a_n}{1} \\ \binom{a_1}{2} & \binom{a_2}{2} & \binom{a_3}{2} & \dots & \binom{a_n}{2} \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ \binom{a_1}{n-1} & \binom{a_2}{n-1} & \binom{a_3}{n-1} & \dots & \binom{a_n}{n-1} \end{vmatrix}$$

(isboti uchun [3] ga qarang), bu yerda  $\binom{k}{m} = \frac{k!}{m!(k-m)!} \in \mathbb{Y}$ . Ya'ni oxirgi determinant ostidagi

matritsani barcha elementlari butun sonlar, demak uning determinant ham butun son. Bu esa masaladagi ifodaning qiymati butun son ekanligini bildiradi. Masala to'liq isbotlandi.

**6-masala:** Faraz qilaylik  $x, y, z$  haqiqiy sonlar  $x + y + z = 0$  va  $x^2 + y^2 + z^2 = 2$  shartlarni qanoatlantirsin. U holda  $E = |x^2y^2(x-y) + y^2z^2(y-z) + z^2x^2(z-x)|$  ifodaning eng katta qiymatini toping.

**Yechimi:** Masala shartidan

$$2(xy + yz + zx) = (x + y + z)^2 - (x^2 + y^2 + z^2) = -2$$

demak  $xy + yz + zx = -1$ . Biz modul ostidagi ifodani ko'paytuvchiga ajratamiz va topgan tengligimizdan foydalanib, quyidagi tenglikga ega bo'lamiz.

$$E = |(xy + yz + zx)(x-y)(y-z)(z-x)| = |(x-y)(y-z)(z-x)|$$

Yana **5-masaladagi** Vandermonde determinantiga murojat qilib topamiz,

$$|(x-y)(y-z)(z-x)|^2 = \left( \det \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ x & y & z \\ x^2 & y^2 & z^2 \end{pmatrix} \right)^2 = \langle 2-xossa \rangle =$$

$$\det \begin{pmatrix} 1 & 1 & 1 \\ x & y & z \\ x^2 & y^2 & z^2 \end{pmatrix} \cdot \det \begin{pmatrix} 1 & x & x^2 \\ 1 & y & y^2 \\ 1 & z & z^2 \end{pmatrix} = \det \begin{pmatrix} 3 & 0 & 2 \\ 0 & 2 & 3xyz \\ 2 & 3xyz & 2 \end{pmatrix} = 4 - 27(xyz)^2 \leq 4.$$

Ya'ni  $E = |x^2y^2(x-y) + y^2z^2(y-z) + z^2x^2(z-x)|$  ifodaning eng katta qiymati 2 ga teng. Tenglik holi bor, masalan  $x = -1, y = 0, z = -1$ .

**Mustaqil yechish uchun masalalar:**

1. Quyidagi shartlarni qanoatlantiruvchi  $\{x_n\}_{n \geq 0}$  ketma-ketlikni qaraylik:

(a)  $x_0 = 4, x_1 = x_2 = 0$  va  $x_3 = 3$

(b)  $x_{n+4} = x_{n+1} + x_n$

U holda ixtiyoriy tub  $p$  soni uchun  $x_p$  soni  $p$  ga qoldiqsiz bo'linishini isbotlang.

(AMM [1])

2. Faraz qilaylik  $a, b, c$  lar o'zaro tub butun sonlar bo'lsin. U holda shunday  $x, y, z, u, v, w$  butun sonlar mavjudligini isbotlangki, bunda  $a(yw - zv) + b(zu - xw) + c(xv - yu) = 1$  tenglik bajariladi.

(AMM [1])

3. Faraz qilaylik  $a_1, a_2, \dots, a_k$  haqiqiy sonlar uchun  $P_n = \sqrt[n]{a_1} + \sqrt[n]{a_2} + \dots + \sqrt[n]{a_k}$  ifoda ixtiyoriy  $n \geq 2$  uchun ratsional son bo'lsin. U holda  $a_1 = a_2 = \dots = a_k = 1$  ekanligini isbotlang.

4. Biz *Fibonachchi* ketma-ketligini qaraylik:  $F_1 = F_2 = 1$  va  $F_n = F_{n-1} + F_{n-2}$ ,  $n \geq 3$ . U holda isbotlang:

(a)  $F_{n+1}F_{n-1} - F_n^2 = (-1)^n$

(b)  $F_{m+n} = F_nF_{m+1} + F_{n+1}F_m$

5.  $n^2 + 1$  soni ayirmasi  $n$  ga teng bo'ladigan ikkita bo'luvchiga ega bo'lsa, biz  $n$  natural sonni “ajabtovur son” deb ataylik. “ajabtovur son”lar cheksiz ko'p ekanligini isbotlang.

(Romania TST 2011)

6. Faraz qilaylik  $a_1, a_2, \dots, a_n$  lar butun sonlar bo'lsin va  $A = \frac{EKUB(a_1, a_2, \dots, a_n)}{a_1 a_2 \dots a_n} \prod_{1 \leq i < j \leq n} (a_j - a_i)$

ifodani qaraylik. Isbotlang:

(a)  $A$  soni  $(n-1)!(n-2)! \dots 2!1!$  ga qoldiqsiz bo'linadi.

(b) Masalaning (a) shartida  $(n-1)!(n-2)!...2!1!$  ko‘paytmani unga karrali boshqa ifodaga almashtirib bo‘lmaydi.

(Marius Cavachi, Gazeta Mathematica)

7. Faraz qilaylik  $[-1,1]$  kesmadagi  $a, b, c$  sonlar  $a^2 + b^2 + c^2 \leq 2abc + 1$  tengsizlikni qanoatlantirsin. U holda  $\forall n \in \Gamma$  uchun  $a^{2n} + b^{2n} + c^{2n} \leq 2(abc)^n + 1$  tengsizlikni isbotlang.

(IMC-2010)

8. Faraz qilaylik  $x, y, z$  haqiqiy sonlar  $x + y + z = 0$  va  $x^2 + y^2 + z^2 = 2k$  shartlarni qanoatlantirsin. U holda  $E = |x^2y^2(x-y) + y^2z^2(y-z) + z^2x^2(z-x)|$  ifodaning eng katta qiymatini toping.

(6-masalaning umumlashmasi).

9. Quyidagi tengsizlik barcha  $a, b, c$  haqiqiy sonlar uchun bajariladigan  $M$  haqiqiy sonining eng kichik qiymatini toping:

$$|a^2b^2(a-b) + b^2c^2(b-c) + c^2a^2(c-a)| \leq M(a^2 + b^2 + c^2)^2$$

(IMO-2006 P3)

10. Faraz qilaylik nomanfiy  $a, b, c$  haqiqiy sonlar uchun  $a^2 + b^2 + c^2 = 5$  tenglik bajarilsin. U holda quyidagi ifodaning eng katta qiymatini toping:

$$|(a-b)(b-c)(c-a)(a+b+c)|$$

(mathlinks. ro saytidan)

11. Haqiqiy  $a, b, c$  sonlar uchun  $a^2 + b^2 + c^2 = 1$  tenglik o‘rinli. U holda quyidagi ifodaning eng katta qiymatini toping:

$$(a^2 - bc)(b^2 - ca)(c^2 - ab)$$

(Janubiy Korea M-2016 Final round)

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, chiziqli algebra metodlari matematika olimpiadalarida uchraydigan ko‘plab nostandart masalalarni samarali yechish imkonini beradi. Tadqiqot davomida determinantlar, matritsalar va bir jinsli tenglamalar sistemalarining xossalari ayrim murakkab masalalarni soddaroq va umumiyroq usullar bilan yechishga xizmat qilishi ko‘rsatildi. Shuningdek, chiziqli algebra metodlaridan foydalanish o‘quvchilarning mantiqiy va analitik tafakkurini rivojlantirishga yordam beradi. Shu sababli olimpiada tayyorgarligi jarayonida chiziqli algebra elementlarini chuqur o‘rganish va ularni amaliy masalalarga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

#### Adabiyotlar:

1. Ayupov Sh.A., Omirov B.A., Xudoyberdiyev A.X. Chiziqli algebra. – Toshkent.
2. Гантмахер Ф.Р. Теория матриц. – Москва: Наука, 1967.
3. Andreescu T., Gelca R. Problems from the Book. – Boston: Birkhäuser, 2006.
4. Art of Problem Solving. Olympiad Mathematics Resources. – Available at: <https://artofproblemsolving.com>.

## JISMONIY MADANIYAT VA SPORT

### TALABALAR ORASIDA OMMAVIY SPORTNI RIVOJLANTIRISH BO‘YICHA O‘TKAZILGAN SO‘ROVLAR NATIJALARI VA ULARNING PEDAGOGIK TAHLILI

*Ummatov Nozim Raimjonovich,  
Namangan davlat pedagogika institutining  
Jismoniy madaniyat va sport kafedrasida professori*

*Mazkur maqolada oliy ta’lim muassasalarida talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirishga qaratilgan so‘rovlar natijalari tahlil qilinadi hamda talabalar sport faolligiga ta’sir etuvchi pedagogik, ijtimoiy-psixologik va tashkiliy omillar ilmiy jihatdan asoslanadi. Tadqiqot jarayonida talabalar o‘rtasida sportga bo‘lgan qiziqish darajasi, jismoniy faollik ko‘rsatkichlari, sport infratuzilmasining mavjudligi, mashg‘ulotlar tashkil etilish darajasi hamda motivatsion omillar o‘rganildi. So‘rov natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish uchun pedagogik yondashuvni takomillashtirish, sport tadbirlarini tizimli tashkil etish hamda rag‘batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so‘zlar:** talabalar sporti, ommaviy sport, jismoniy faollik, so‘rovnoma, pedagogik tahlil, sport motivatsiyasi, sog‘lom turmush tarzi, talabalar faolligi, sport infratuzilmasi, jismoniy tarbiya, sport pedagogikasi, oliy ta’lim muassasalari.

### РЕЗУЛЬТАТЫ ОПРОСОВ ПО РАЗВИТИЮ МАССОВОГО СПОРТА СРЕДИ СТУДЕНТОВ И ИХ ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ АНАЛИЗ

*В данной статье анализируются результаты опросов, направленных на развитие массового спорта среди студентов высших учебных заведений, а также научно обосновываются педагогические, социально-психологические и организационные факторы, влияющие на спортивную активность студентов. В ходе исследования были изучены уровень интереса студентов к спорту, показатели физической активности, наличие спортивной инфраструктуры, уровень организации тренировочных занятий, а также мотивационные факторы. Результаты опроса показали, что для развития массового спорта среди студентов важное значение имеют совершенствование педагогического подхода, системная организация спортивных мероприятий и усиление механизмов мотивации.*

**Ключевые слова:** студенческий спорт, массовый спорт, физическая активность, опрос, педагогический анализ, спортивная мотивация, здоровый образ жизни, активность студентов, спортивная инфраструктура, физическое воспитание, спортивная педагогика, высшие учебные заведения.

### SURVEY RESULTS ON DEVELOPING MASS SPORTS AMONG STUDENTS AND THEIR PEDAGOGICAL ANALYSIS

*This article analyzes the results of surveys conducted to develop mass sports among students in higher education institutions and scientifically substantiates pedagogical, socio-psychological, and organizational factors influencing students' sports activity. The study examined students' level of interest in sports, physical activity indicators, availability of sports infrastructure, organization level of training sessions, and motivational factors. The survey results showed that improving pedagogical approaches, systematically organizing sports events, and strengthening motivation mechanisms are essential for developing mass sports among students.*

**Keywords:** student sports, mass sports, physical activity, survey, pedagogical analysis, sports motivation, healthy lifestyle, student activity, sports infrastructure, physical education, sports pedagogy, higher education institutions.

**Kirish.** Bugungi globallashuv sharoitida yoshlarning jismoniy faolligini oshirish, sog‘lom turmush tarzini shakllantirish hamda talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish dolzarb pedagogik va ijtimoiy muammolardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Ayniqsa, oliy ta’lim muassasalarida tahsil olayotgan talabalar

yoshlar jamiyatning eng faol, intellektual va ijtimoiy qatlamini tashkil etadi. Shu sababli, ularning jismoniy faolligini oshirish nafaqat sog‘liqni mustahkamlash, balki kelajak mutaxassislarining kasbiy samaradorligini ta‘minlashda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy pedagogik tadqiqotlarda talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish masalasi kompleks pedagogik tizimni takomillashtirish, innovatsion yondashuvlarni joriy etish hamda jismoniy tarbiya jarayonini modernizatsiya qilish bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganilmoqda [1]. Bugungi kunda yoshlarning jismoniy faolligining pasayishi global miqyosdagi muammolardan biri sifatida qayd etilmoqda. Axborot texnologiyalarining keng rivojlanishi, raqamli muhitning kengayishi, passiv turmush tarzining shakllanishi talabalar orasida jismoniy harakat faoliyatining qisqarishiga olib kelmoqda. Shu bilan birga, o‘quv yuklamlarining ortib borishi, mustaqil ta‘lim hajmining kengayishi ham talabalar orasida sport bilan muntazam shug‘ullanish imkoniyatlarini cheklamoqda.

Ushbu holat esa talabalar sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatib, ularning jismoniy tayyorgarligi darajasining pasayishiga sabab bo‘lmoqda [2]. Talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish masalasi nafaqat jismoniy tarbiya tizimi, balki ijtimoiy-pedagogik jarayon sifatida ham muhim ahamiyatga ega. Chunki sport faoliyati yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish, jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, liderlik qobiliyatlarini rivojlantirish hamda psixologik barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu jihatdan qaraganda, oliy ta‘lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirish pedagogik tizimni takomillashtirish orqali amalga oshirilishi zarur bo‘lgan muhim yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [3]. Zamonaviy pedagogik tadqiqotlar shuni ko‘rsatmoqdaki, talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirishda motivatsion omillar muhim rol o‘ynaydi.

Talabalar sportga bo‘lgan qiziqishi, sport mashg‘ulotlarining tashkil etilish darajasi, sport infratuzilmasining mavjudligi hamda rag‘batlantirish mexanizmlarining samaradorligi ushbu jarayonning asosiy determinantlari sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bilan birga, talabalar orasida sportga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish pedagogik jarayonning muhim komponenti hisoblanadi [4]. Oliy ta‘lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirish jarayonida so‘rovnomalar orqali olingan ma‘lumotlar muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi. So‘rovlar orqali talabalar sportga bo‘lgan munosabati, sport bilan shug‘ullanish chastotasi, sport turlariga qiziqishi hamda mavjud muammolar aniqlanadi. Ushbu ma‘lumotlar asosida talabalar sportini rivojlantirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish imkoniyati yaratiladi [5].

Talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari shuni ko‘rsatadiki, talabalar sport bilan shug‘ullanishga qiziqish bildirsa-da, amaliy jihatdan ushbu jarayonda turli to‘siqlar mavjud. Jumladan, sport maydonchalari yetishmasligi, mashg‘ulotlar jadvalining noqulayligi, sport anjomlarining yetarli emasligi hamda motivatsion mexanizmlarning sustligi talabalar sport faolligining pasayishiga olib kelmoqda. Shu sababli, talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirishda kompleks pedagogik yondashuvni qo‘llash muhim hisoblanadi [6]. Shuningdek, talabalar sportini rivojlantirish jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etadi. Interaktiv mashg‘ulotlar, raqamli monitoring tizimlari, mobil ilovalar orqali sport faoliyatini nazorat qilish hamda individual yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish talabalar sportini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. Shu bilan birga, sport tadbirlarini ommaviy tarzda tashkil etish, fakultetlararo musobaqalar o‘tkazish ham talabalar sport faolligini oshirishga xizmat qiladi [7].

Bugungi kunda oliy ta‘lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida e‘tirof etilmoqda. Yoshlar orasida sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilish, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovlar natijalarini tahlil qilish ilmiy-amaliy ahamiyatga ega [8]. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha mavjud holatni aniqlash, muammolarni tahlil qilish hamda ularni bartaraf etish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalari oliy ta‘lim muassasalarida talabalar sportini rivojlantirishning samarali pedagogik tizimini yaratishda muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi [9]. Shu bilan birga, talabalar sportini rivojlantirish masalasi yoshlarning sog‘lom turmush tarzini shakllantirish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Sport bilan muntazam shug‘ullanish talabalar jismoniy salomatligini mustahkamlash bilan birga, ularning psixologik holatiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa o‘z navbatida talabalar o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [10].

Talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirishda ijtimoiy muhit ham muhim rol o‘ynaydi. Talabalar o‘zaro raqobati, jamoaviy sport tadbirlarining tashkil etilishi hamda sport klublarining faoliyati talabalar sport faolligini oshirishga xizmat qiladi. Shu sababli, oliy ta‘lim muassasalarida sport klublari faoliyatini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish masalasi xalqaro miqyosda ham dolzarb ilmiy muammo sifatida o‘rganilib, ushbu yo‘nalishda ko‘plab xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan. Jumladan, sport faolligi, jismoniy tarbiya jarayonini tashkil etish hamda talabalar sog‘lom turmush tarzini shakllantirish masalalari pedagogik, psixologik va ijtimoiy yondashuvlar asosida kompleks tadqiq etilmoqda. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan tadqiqotlar talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirishning nazariy va amaliy asoslarini ilmiy jihatdan boyitib, zamonaviy pedagogik mexanizmlarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda.

Xorijiy olimlardan biri sifatida Russell R. Pate talabalar va yoshlar o‘rtasida jismoniy faollikni oshirish masalasini chuqur tadqiq qilgan. Uning ilmiy ishlarida yoshlarning jismoniy faolligi darajasini oshirishda ta‘lim muassasalarining o‘rni muhimligi ta‘kidlangan. Olimning tadqiqotlariga ko‘ra, talabalar orasida jismoniy faollikni rivojlantirish uchun tizimli pedagogik yondashuv, sport mashg‘ulotlarini muntazam tashkil etish hamda motivatsion omillarni kuchaytirish zarur hisoblanadi. Russell R. Pate o‘zining ilmiy tadqiqotlarida talabalar sport faolligiga ta‘sir etuvchi omillarni ijtimoiy, psixologik va tashkiliy komponentlar asosida tahlil qilib, sport infratuzilmasining mavjudligi, murabbiylik tizimi va jamoaviy sport faoliyati talabalar jismoniy faolligini oshirishda muhim rol o‘ynashini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Uning fikricha, talabalar orasida sportni rivojlantirish uchun oliy ta‘lim muassasalarida ommaviy sport tadbirlarini tizimli tashkil etish hamda talabalarni sport faoliyatiga keng jalb qilish muhim pedagogik vazifa hisoblanadi. Shuningdek, xorijiy tadqiqotchilardan I-Min Lee tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda talabalar va yoshlar orasida jismoniy faollikning pasayishi global muammo sifatida ko‘rib chiqilgan. I-Min Lee o‘z tadqiqotlarida jismoniy faollikning yetarli darajada bo‘lmashligi yoshlar sog‘lig‘iga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi, akademik samaradorlikning pasayishiga olib kelishi hamda psixologik muammolarni kuchaytirishini ilmiy jihatdan asoslab bergan.

Olim tomonidan olib borilgan empirik tadqiqotlar natijasida talabalar orasida sportga bo‘lgan qiziqishni oshirish uchun sport dasturlarini modernizatsiya qilish, ommaviy sport tadbirlarini kengaytirish hamda sog‘lom turmush tarzini targ‘ib etish zarurligi ta‘kidlangan. I-Min Lee tadqiqotlarida, shuningdek, talabalar orasida jismoniy faollikni oshirish uchun ijtimoiy rag‘batlantirish tizimi, sport klublari faoliyatini kengaytirish hamda individual yondashuv asosida mashg‘ulotlarni tashkil etish samarali pedagogik mexanizmlar sifatida ko‘rsatilgan.

Mazkur xorijiy olimlarning ilmiy tadqiqotlari talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirishning nazariy asoslarini shakllantirishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ularning tadqiqotlari asosida talabalar sportini rivojlantirishda kompleks pedagogik yondashuvni qo‘llash, sport infratuzilmasini rivojlantirish hamda motivatsion mexanizmlarni takomillashtirish zarurligi ilmiy jihatdan asoslanadi. Shu bilan birga, ushbu ilmiy ishlar talabalar orasida o‘tkazilgan so‘rovlar natijalarini tahlil qilish hamda talabalar sportini rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy tavsiyalar ishlab chiqishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqot jarayonida talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish holatini aniqlash hamda so‘rovlar natijalarini ilmiy jihatdan tahlil qilish maqsadida kompleks pedagogik yondashuv asosida ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi, jumladan, pedagogik kuzatish orqali talabalar sport faoliyatining real holati o‘rganildi, anketa-so‘rovnoma metodi yordamida talabalar orasida sportga bo‘lgan qiziqish darajasi, sport mashg‘ulotlarida ishtirok etish chastotasi hamda sport infratuzilmasiga bo‘lgan ehtiyoj aniqlandi, suhbat metodi orqali talabalar fikr-mulohazalari chuqur tahlil qilindi, pedagogik tajriba-sinov ishlari asosida talabalar sport faolligini oshirishga qaratilgan pedagogik mexanizmlarning samaradorligi tekshirildi, statistik tahlil metodlari yordamida olingan natijalar miqdoriy va sifat jihatdan qayta ishlanib, taqqoslash, umumlashtirish hamda tizimlashtirish metodlari orqali ilmiy xulosalar shakllantirildi, shuningdek, diagnostik metodlar asosida talabalar jismoniy faollik darajasi aniqlanib, tadqiqot natijalarining ishonchliligi matematik-statistik tahlil usullari orqali asoslandi.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Tadqiqot jarayonida talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish bo‘yicha o‘tkazilgan so‘rovlar natijalari tahlili shuni ko‘rsatdiki, respondentlarning 68 foizi sport bilan shug‘ullanishga qiziqish bildirgan bo‘lsa-da, faqatgina 37 foizi muntazam sport mashg‘ulotlarida ishtirok etishi aniqlandi, 42 foiz talabalar sport infratuzilmasining yetarli emasligini asosiy muammo sifatida qayd etgan bo‘lsa, 35 foiz talabalar mashg‘ulotlar jadvalining noqulayligi sport bilan shug‘ullanishga to‘sqinlik qilayotganini ta‘kidlagan, shuningdek, 51 foiz talabalar ommaviy sport tadbirlari muntazam tashkil etilmasligini ko‘rsatgan, 46 foiz respondentlar esa sport mashg‘ulotlariga jalb etishda rag‘batlantirish mexanizmlarining yetarli darajada emasligini bildirgan, natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, sport klublari faoliyati samarali tashkil etilgan guruhlarda talabalar jismoniy faolligi 1,4 barobar yuqori bo‘lgan, shu bilan birga, fakultetlararo sport musobaqalarida muntazam qatnashgan talabalar o‘rtasida jismoniy faollik darajasi 32 foizga yuqori ekanligi aniqlandi, tadqiqot natijalari asosida talabalar orasida ommaviy sportni

rivojlantirishda tizimli pedagogik yondashuv, sport infratuzilmasini takomillashtirish hamda motivatsion mexanizmlarni kuchaytirish muhim omillar sifatida belgilandi.

**Muhokama.** Talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish masalasi bo'yicha olingan natijalar zamonaviy xorijiy tadqiqotchilar tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar bilan qiyosiy tahlil qilindi. Xususan, Russell R. Pate tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlarda yoshlar orasida jismoniy faollikni oshirish uchun ta'lim muassasalarida tizimli sport dasturlarini joriy etish zarurligi ta'kidlangan. Olimning fikricha, talabalar sportini rivojlantirishda asosiy omil sifatida sport infratuzilmasining rivojlanganligi hamda muntazam tashkil etilgan sport tadbirlari muhim rol o'ynaydi.

Uning nazariyasiga ko'ra, agar sport mashg'ulotlari tizimli ravishda tashkil etilsa, talabalar orasida jismoniy faollik darajasi sezilarli darajada oshadi. Mazkur tadqiqot natijalari ham ushbu fikrni tasdiqlab, sport klublari faoliyati samarali tashkil etilgan guruhlarda talabalar faolligi yuqori ekanligini ko'rsatdi. Biroq I-Min Lee tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlarda talabalar orasida sport faolligini oshirishda faqat tashkiliy omillar emas, balki individual motivatsiya va psixologik omillar ham muhim ekanligi ta'kidlangan. Olim sportga jalb etishda talabalar ehtiyojlari, qiziqishlari hamda ijtimoiy muhitning ta'siri katta ekanligini ilmiy jihatdan asoslab beradi. I-Min Lee talabalar orasida jismoniy faollikni oshirish uchun rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, sportni ommalashtirish kampaniyalarini tashkil etish hamda ijtimoiy qo'llab-quvvatlash tizimini shakllantirish zarurligini ta'kidlaydi.

Mazkur ikki olimning ilmiy qarashlari o'rtasida muayyan polemik munozaralar mavjud bo'lib, Russell R. Pate asosan tashkiliy-pedagogik omillarni ustuvor deb hisoblasa, I-Min Lee esa psixologik va motivatsion omillarning ustunligini ilgari suradi. Ushbu qarashlar o'rtasidagi ilmiy bahs mazkur tadqiqot natijalari asosida kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi. Chunki o'tkazilgan so'rovlar natijalari ham talabalar sport faolligiga bir vaqtning o'zida bir nechta omillar ta'sir ko'rsatishini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, sport infratuzilmasining mavjudligi talabalar faolligini oshirishda muhim omil bo'lsa-da, motivatsion mexanizmlar yetarli darajada shakllanmagan hollarda talabalar sport mashg'ulotlarida muntazam ishtirok etmasligi kuzatilmoqda.

Bu esa I-Min Lee tomonidan ilgari surilgan psixologik va motivatsion omillarning muhimligini yana bir bor tasdiqlaydi. Shu bilan birga, sport tadbirlarini tizimli tashkil etilgan guruhlarda talabalar faolligi yuqori ekanligi Russell R. Pate nazariyasining ham dolzarbligini ko'rsatadi. Mazkur ilmiy polemika asosida shuni ta'kidlash mumkinki, talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish uchun faqat tashkiliy yoki faqat motivatsion omillar yetarli emas, balki kompleks pedagogik yondashuvni qo'llash zarur. Bunda sport infratuzilmasini rivojlantirish, rag'batlantirish mexanizmlarini kuchaytirish, sport klublari faoliyatini kengaytirish hamda talabalar qiziqishlariga mos sport mashg'ulotlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Mazkur yondashuv talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirishning samarali pedagogik mexanizmini shakllantirishga xizmat qiladi.

**Xulosa.** Talabalar orasida ommaviy sportni rivojlantirish bo'yicha o'tkazilgan so'rovlar natijalari oliy ta'lim muassasalarida jismoniy faollikni oshirish masalasi dolzarb pedagogik muammo ekanligini ko'rsatdi. Tadqiqot natijalari shuni tasdiqladiki, talabalar sport bilan shug'ullanishga qiziqish bildirsada, amaliy jihatdan sport mashg'ulotlarida muntazam ishtirok etish darajasi nisbatan pastligicha qolmoqda. Bu holat sport infratuzilmasining yetarli emasligi, mashg'ulotlar jadvalining noqulayligi, sport anjomlarining yetishmasligi hamda rag'batlantirish mexanizmlarining sustligi bilan izohlanadi.

#### Adabiyotlar:

1. Jabborov X. X., Avezov O. R., Jumayev N. Z. Sport psixologiyasi //O'quv qo'llanma. "Durdona" nashriyoti. – 2014.
2. Narziyev S. M. Sportda mehnat muhofazasini ta'minlashning sanitar-gigiyenik chora-tadbirlari // Sanoatda raqamli texnologiyalar. – 2024. – T. 2. – №. 03.
3. Olimov M. S., Soliyev I. R., Haydarov B. S. Sport pedagogik maxoratini oshirish //Yengil atletika T. – 2017.
4. Omonova S. O'zbekistonda sportni rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati va bunda xotin-qizlar ishtiroki //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 1. – C. 31-31.
5. Xalimov A. R. O'zbekistonda sport va jismoniy tarbiyaning rivojlanish tarixi (1991-2025) // Modern education and development. – 2025. – T. 37. – №. 2. – C. 134-141.
6. Nazirov Q. Jismoniy tarbiya va sportni boshqarish tizimini rivojlantirish uslubiyati // Scientific-theoretical journal of International education research. – 2026. – T. 4. – №. 1. – C. 31-33.
7. Xalikova S. Sportchilarda milliy mafkuraviy bilim va malakalarni shakllantirish // Scientific journal of the Fergana State University. – 2025. – №. 4. – C. 22-22.

8. Patiddinov K. D., Boymirzayeva M. I. Adaptiv jismoniy tarbiya va sport //Global Science Review. – 2025. – T. 3. – №. 6. – C. 580-588.
9. Polatova G. Q. O‘zbekiston Respublikasining jismoniy tarbiya tizimida suzishning rivojlanish istiqbollari //o'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali. – 2025. – T. 4. – №. 44. – C. 98-104.
10. Usmonov E. Olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazlarida ilg‘or texnologiyalarni qo‘llash // Scientific-theoretical journal of International education research. – 2026. – T. 4. – №. 1. – C. 24-26.

**11-12 YOSHLI FUTBOLCHILARNING MAXSUS CHIDAMKORLIGINI  
RIVOJLANTIRISH USLUBIYATI**

**Boltaboyeva Mahliyo Muzaffar qizi,**  
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat univeristeti  
Sport faoliyati, pedagogika va psixologiya fakulteti magistranti  
maxliyoboltaboyeva2004@gmail.com

*Ushbu maqola 11-12 yoshli futbolchilarning maxsus chidamkorligini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy tadqiqotni o'z ichiga oladi. Ishda bolalar futbolida chidamkorlik tushunchasi, uning turlari va yosh futbolchilarda maxsus chidamkorlikni shakllantirishning fiziologik asoslari tahlil qilingan. Tadqiqot davomida o'yin davomida kardiovaskulyar, mushak va psixologik chidamlilikni oshirishga yo'naltirilgan maxsus mashq komplekslari ishlab chiqilgan hamda samaradorligi eksperimental yo'l bilan tekshirilgan. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, tizimli ravishda qo'llaniladigan interval va o'yin mashqlari majmuyi 11-12 yoshli futbolchilarning maxsus chidamkorlik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.*

**Kalit so'zlar:** maxsus chidamkorlik, 11-12 yoshli futbolchilar, interval usuli, aerob va anaerob chidamkorlik, o'yin mashqlari, jismoniy tayyorgarlik.

**МЕТОДИКА РАЗВИТИЯ СПЕЦИАЛЬНОЙ ВЫНОСЛИВОСТИ У ФУТБОЛИСТОВ  
11–12 ЛЕТ**

*Данная статья включает научно-практическое исследование, направленное на развитие специальной выносливости футболистов 11-12 лет. В работе проанализированы понятие выносливости в детском футболе, её виды и физиологические основы формирования специальной выносливости у юных футболистов. В ходе исследования были разработаны специальные комплексы упражнений, направленные на повышение сердечно-сосудистой, мышечной и психологической выносливости в процессе игры, а также экспериментально проверена их эффективность. Полученные результаты свидетельствуют о том, что систематическое применение комплекса интервальных и игровых упражнений значительно улучшает показатели специальной выносливости футболистов 11-12 лет.*

**Ключевые слова:** специальная выносливость, футболисты 11-12 лет, интервальный метод, аэробная и анаэробная выносливость, игровые упражнения, физическая подготовка.

**METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPECIAL ENDURANCE IN 11–12-YEAR-OLD  
FOOTBALL PLAYERS**

*This article presents a scientific and practical study aimed at developing special endurance in 11-12-year-old football players. The work analyzes the concept of endurance in youth football, its types, and the physiological foundations of forming special endurance in young players. During the research, specialized exercise complexes were developed to enhance cardiovascular, muscular, and psychological endurance during match play, and their effectiveness was verified through experimental methods. The results obtained indicate that the systematic application of a combined interval and game-based exercise program significantly improves special endurance indicators in 11-12-year-old football players.*

**Keywords:** special endurance, 11-12-year-old football players, interval method, aerobic and anaerobic endurance, game-based exercises, physical fitness.

**Kirish.** Hozirgi zamonaviy futbol o'yini yuqori darajadagi jismoniy tayyorgarlikni, ayniqsa, o'yin davomida uzoq vaqt davomida samarali harakat qilish qobiliyatini talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, futbolchilarda chidamkorlik sifatini, xususan, maxsus chidamkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Maxsus chidamkorlik futbolchining o'yinga xos bo'lgan harakatlarni - tez yugurishlar, to'xtashlar, yo'nalishni o'zgartirish, texnik va taktik harakatlarni uzoq vaqt davomida samarali bajarish qobiliyatini ifodalaydi.

Ayniqsa, 11-12 yoshli futbolchilar organizmi jadal rivojlanish bosqichida bo'lib, bu davrda ularning jismoniy sifatlarini to'g'ri va ilmiy asoslangan usullar orqali rivojlantirish katta ahamiyatga ega. Mazkur yosh davri chidamkorlikni shakllantirish uchun qulay davr hisoblanadi, chunki bu bosqichda yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faol rivojlanadi hamda jismoniy yuklamalarga moslashuvchanlik yuqori bo'ladi.

Bugungi kunda bolalar futbolida mashg'ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish, ayniqsa, maxsus chidamkorlikni rivojlantirishga qaratilgan samarali uslub va vositalarni qo'llash dolzarb masalalardan biri

hisoblanadi. Chunki noto‘g‘ri yoki bir tomonlama yuklamalar nafaqat sport natijalariga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi, balki yosh organizmga zarar yetkazishi ham mumkin.

Shu bois, ushbu maqolada 11-12 yoshli futbolchilarning maxsus chidamkorligini rivojlantirish uslubiyati, uning nazariy asoslari hamda amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan samarali metod va vositalar tahlil qilinadi.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Maxsus chidamkorlik sportchining muayyan sport turiga xos bo‘lgan jismoniy yuklamalarni uzoq vaqt davomida samarali bajarish qobiliyatini ifodalaydi. Futbolda ushbu sifat o‘yin davomida takrorlanuvchi yuqori intensivlikdagi harakatlar - tez yugurishlar, yo‘nalishni keskin o‘zgartirish, sakrash va texnik-taktik elementlarni bajarishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Futbolida chidamkorlik ikki turga ajratiladi: umumiy (aerob) va maxsus (aralash - aerob-anaerob). Aynan maxsus chidamkorlik o‘yin samaradorligini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi, chunki o‘yin davomida futbolchi qisqa vaqt ichida maksimal kuch bilan ishlash va tez tiklanish qobiliyatiga ega bo‘lishi lozim.

Fiziologik jihatdan 11-12 yoshli bolalarda aerob energiya tizimi faol rivojlangan bo‘lsa-da, anaerob mexanizmlar hali to‘liq shakllanmagan. Shu sababli mashg‘ulotlar aralash energetik rejimda tashkil etilishi maqsadga muvofiqdir. Ushbu yoshda maksimal kislorod iste‘moli kattalarnikiga nisbatan 60-70% darajada bo‘lib, yurak urish chastotasi yuqori ko‘rsatkichlar (180-200 ur/min) orqali kompensatsiya qilinadi.

Psixologik jihatdan esa bu yoshdagi futbolchilar yuqori qiziqish va motivatsiyaga ega bo‘lib, mashg‘ulotlarni o‘yin shaklida tashkil etish ularning samaradorligini oshiradi.

Tadqiqot metodikasi va tashkil etilishi

Tadqiqot Urganch shahridagi futbol maktabida o‘tkazildi. Unda 11-12 yoshli 24 nafar futbolchi ishtirok etdi va ular ikki guruhga ajratildi:

Eksperimental guruh (n=12)

Nazorat guruhi (n=12)

Tadqiqot 12 hafta (3 oy) davom etdi. Nazorat guruhi an‘anaviy mashg‘ulotlar asosida shug‘ullandi, eksperimental guruh esa maxsus ishlab chiqilgan metodika asosida tayyorlandi.

Tadqiqot davomida quyidagi testlar qo‘llanildi:

Yo-Yo Chidamkorlik testi (yurish ya‘ni bosib o‘tilgan masofa)

Cooper 12 daqiqalik yugurish testi

5×30 m intervalli sprint testi

Yurak urish chastotasini monitoring qilish

Maxsus chidamkorlikni rivojlantirish metodikasi ishlab chiqildi unga ko‘ra

Ishlab chiqilgan metodika beshta asosiy blokdan iborat bo‘ldi:

1. Interval mashqlar bloki

20-30 soniya davomida yuqori intensivlikdagi yugurish (YuCh 170-190 ur/min) va 30-40 soniya aktiv dam olish navbatlashuvi asosida tashkil etildi. Haftasiga 2 marta, 6-8 takror bajarildi.

Mashq 1: 20×20 m shuttle run (qaytishli yugurish)

Bajarish: 20 metrga maksimal tezlikda yugurish va qaytish

Davomiyligi: 20-25 soniya

Dam olish: 30 soniya (yengil yugurish)

Takrorlar: 6-8 marta

Maqsad: anaerob-aerob chidamkorlikni rivojlantirish

Mashq 2: “Zig-zag” yugurish (konuslar orasida)

Bajarish: 5-6 ta konus oralig‘ida yo‘nalishni o‘zgartirib yugurish

Davomiyligi: 25-30 soniya

Dam olish: 40 soniya

Takrorlar: 5-6 marta

Maqsad: tezlik va chidamkorlik kombinatsiyasi

2. O‘yin (SSG) bloki

Kichik maydonlarda 3×3 va 4×4 shaklidagi o‘yinlar qo‘llanildi. Har bir o‘yin 3-4 daqiqa davom etdi, 2 daqiqalik dam olish bilan bajarildi. Bu usul tabiiy ravishda yuklama intensivligini oshirdi.

Kichik o‘yinlar (SSG) asosidagi mashqlar

Mashq 3: 3×3 kichik o‘yin

Maydon: 20×25 m

Davomiyligi: 3 daqiqa

Dam olish: 2 daqiqa

Takrorlar: 3-4 raund

Maqsad: o‘yin sharoitida chidamkorlikni oshirish

Mashq 4: 4×4 + 2 neytral o‘yinchi

Maqsad: doimiy harakat va qaror qabul qilish tezligini oshirish

Davomiyligi: 4 daqiqa

Dam olish: 2 daqiqa

Takrorlar: 3 marta

3. Texnik-taktik chidamkorlik bloki

To‘p bilan uzluksiz mashqlar (uzatish, qabul qilish, zarba berish kombinatsiyalari) 8–10 daqiqa davomida dam olishsiz bajarildi.

Texnik-taktik chidamkorlik mashqlari

Mashq 5: Uzatish va harakat kombinatsiyasi

Bajarish: 4-5 o‘yinchi doira shaklida uzatish bajaradi va harakatlanadi

Davomiyligi: 8 daqiqa (to‘xtovsiz)

Maqsad: texnika va chidamkorlikni uyg‘un rivojlantirish

Mashq 6: “Pressing + zarba” mashqi

Bajarish: to‘pni yo‘qotgach tez pressing, qayta egallab darvozaga zarba

Davomiyligi: 6-8 daqiqa

Maqsad: o‘yin tempida chidamkorlikni oshirish

4. Sprint chidamkorligi mashqlari

Mashq 7: 5×30 m intervalli sprint

Bajarish: 30 metr maksimal tezlikda yugurish

Dam olish: 30 soniya

Setlar: 2-3

Setlar orasida dam: 2 daqiqa

Maqsad: tezlik chidamkorligi

Mashq 8: “Sprint + yurish + sprint”

15 m sprint → 15 m yurish → 15 m sprint

Takrorlar: 6-8

Maqsad: tiklanish fonida ishlash qobiliyati

5. Kompleks kombinatsiyalangan mashq

Mashq 9: “Futbol aylana mashqi” (circuit training)

Har bir stansiya 30 soniya:

To‘p bilan dribling

Qisqa sprint

Uzatish-qabul qilish

Sakrash mashqlari

Zarba berish

Aylana soni: 3-4

Dam olish: 2 daqiqa

Maqsad: umumiy va maxsus chidamkorlikni kompleks rivojlantirish

Metodik tavsiyalar

Yurak urish chastotasi 170-190 ur/min oralig‘ida nazorat qilinishi lozim

Haftasiga 2-3 marotaba qo‘llash tavsiya etiladi.

Mashqlar o‘yin elementi bilan boyitilishi kerak

Haddan tashqari yuklamadan saqlanish zarur

Individual yondashuv muhim ahamiyatga ega

**Tadqiqot natijalari va ularning tahlili.**

12 haftalik tajriba yakunida quyidagi natijalar qayd etildi:

**1-jadval. Eksperimental va nazorat guruhlarining ko‘rsatkichlari**

Test turi	Guruh	Boshlang‘ich natija	Yakuniy natija	O‘zgarish (%)
Yo-Yo testi (m)	Eksperimental	1240	1470	+18,6%
Yo-Yo testi (m)	Nazorat	1260	1340	+6,3%
Cooper testi (m)	Eksperimental	1810	2035	+12,4%
Cooper testi (m)	Nazorat	1795	1880	+4,7%
5×30 m sprint (sek)	Eksperimental	29,4	28,5	-3,2%
5×30 m sprint (sek)	Nazorat	29,2	28,8	-1,4%

Natijalardan ko‘rinib turibdiki, eksperimental guruhda barcha ko‘rsatkichlar sezilarli darajada yaxshilangan. Ayniqsa, Yo-Yo testidagi 18,6% o‘shish maxsus chidamkorlikning yuqori darajada rivojlanganini ko‘rsatadi.

Statistik tahlil ( $p < 0,05$ ) guruhlar o‘rtasidagi farqning ishonchli ekanligini tasdiqladi.

#### 5. O‘yin faoliyati tahlili

Yakuniy o‘yin kuzatuvlari shuni ko‘rsatdiki:

- Eksperimental guruhda ikkinchi taymda yugurish faolligining pasayishi 30% kam bo‘ldi
- Harakat intensivligi yuqori darajada saqlanib qoldi
- Texnik xatolar soni kamaydi

Bu esa ishlab chiqilgan metodikaning nafaqat jismoniy, balki o‘yin samaradorligiga ham ijobiy ta‘sir ko‘rsatganini isbotlaydi.

**Xulosa.** O‘tkazilgan tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, 11-12 yoshli futbolchilarda maxsus chidamkorlikni rivojlantirish mashg‘ulot jarayonini ilmiy asosda tashkil etish orqali sezilarli darajada samarali amalga oshiriladi. Ushbu yosh davrida organizmning fiziologik xususiyatlarini, xususan, aerob tizimning ustun rivojlanganligi va anaerob imkoniyatlarning hali to‘liq shakllanmaganligini inobatga olish muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan uch komponentli metodika - interval mashqlar, kichik o‘yinlar (SSG) va texnik-taktik chidamkorlik mashqlarining uyg‘un qo‘llanilishi eksperimental guruhda yuqori natijalarni ta‘minladi. Xususan, Yo-Yo testi, Cooper testi va intervalli sprint ko‘rsatkichlarining sezilarli yaxshilanishi mazkur metodikaning samaradorligini isbotladi.

Nazorat guruhi bilan solishtirganda eksperimental guruhda o‘shish ko‘rsatkichlarining yuqoriligi, shuningdek, statistik ishonchlilik darajasining tasdiqlanishi ( $p < 0,05$ ) ushbu yondashuvning amaliy ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatadi. Bundan tashqari, o‘yin faoliyati tahlili natijalariga ko‘ra, eksperimental guruh futbolchilarida o‘yin davomida jismoniy faollikning barqarorligi va texnik harakatlarning sifat ko‘rsatkichlari yaxshilangani aniqlandi.

Shu asosda xulosa qilish mumkinki, 11-12 yoshli futbolchilarning maxsus chidamkorligini rivojlantirishda aralash (aerob-anaerob) yo‘nalishdagi, o‘yin faoliyatiga yaqinlashtirilgan va yosh xususiyatlariga moslashtirilgan mashg‘ulot metodikasi yuqori samaradorlikka ega. Mazkur metodikani bolalar futbol maktablari amaliyotiga joriy etish sport natijalarini oshirish bilan bir qatorda yosh futbolchilarning sog‘lom va har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi.

**Amaliy tavsiyalar.** O‘tkazilgan tadqiqot natijalari va olingan ilmiy xulosalarga asoslanib, 11-12 yoshli futbolchilarning maxsus chidamkorligini rivojlantirish jarayonini samarali tashkil etish uchun quyidagi amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi:

Birinchiidan, mashg‘ulot jarayonida maxsus chidamkorlikni rivojlantirishda aralash (aerob-anaerob) yo‘nalishdagi yuklamalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Chunki ushbu yosh davrida organizm aynan shunday yuklamalarni samarali qabul qiladi va moslashadi.

Ikkinchiidan, mashg‘ulotlar haftasiga kamida 2-3 marotaba maxsus chidamkorlikka yo‘naltirilgan tarzda tashkil etilishi lozim. Bunda yuklama hajmi va intensivligi bosqichma-bosqich oshirib borilishi kerak.

Uchinchiidan, mashg‘ulotlarda kichik o‘yinlar (3×3, 4×4 shaklidagi SSG)dan keng foydalanish tavsiya etiladi. Ushbu usul futbolchilarning nafaqat jismoniy, balki texnik va taktik tayyorgarligini ham bir vaqtning o‘zida rivojlantiradi.

To‘rtinchiidan, interval mashqlarni qo‘llashda yurak urish chastotasini nazorat qilish muhim ahamiyatga ega. Mashqlar davomida YuCh 170–190 ur/min oralig‘ida bo‘lishi optimal hisoblanadi.

Beshinchiidan, mashg‘ulotlarga texnik-taktik elementlarni chidamkorlik yuklamasi bilan uyg‘unlashtirib kiritish zarur. Bu o‘yin sharoitiga yaqinlashgan mashg‘ulot effektini beradi va sport natijalarini oshiradi.

Oltinchiidan, yosh futbolchilarning psixologik xususiyatlarini inobatga olib, mashg‘ulotlarni ko‘proq o‘yin shaklida tashkil etish tavsiya etiladi. Bu ularning motivatsiyasini oshiradi va charchashni kamaytiradi.

Yettinchiidan, ortiqcha yuklama berishdan saqlanish lozim. Mashg‘ulotlar oralig‘ida yetarli darajada tiklanish (dam olish) vaqtini tashkil etish zarur.

Sakkizinchiidan, mashg‘ulot jarayonida individual yondashuvni qo‘llash, ya‘ni futbolchilarning jismoniy tayyorgarlik darajasi va funksional imkoniyatlarini hisobga olish tavsiya etiladi.

To‘qqizinchiidan, nazorat testlari (Yo-Yo testi, Cooper testi, sprint testlari) muntazam ravishda o‘tkazilib, o‘shish dinamikasi tahlil qilib borilishi lozim.

O‘ninchiidan, murabbiylar tomonidan mashg‘ulot jarayonini rejalashtirishda ilmiy-uslubiy manbalarga tayanish va zamonaviy trening texnologiyalaridan foydalanish tavsiya etiladi.

**Adabiyotlar:**

1. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. - Москва: Советский спорт, 2004. - 820 с.
2. Волков Н.И., Несен Э.Н., Осипенко А.А. Биохимия мышечной деятельности. - Киев: Олимпийская литература, 2010. -504 с.
3. Bangsbo J. The physiology of soccer -with special reference to intense intermittent exercise. // Acta Physiologica Scandinavica. - 1994. - Vol. 151, Suppl. 619. - P. 1-155.
4. Stolen T., Chamari K., Castagna C., Wisloff U. Physiology of Soccer: An Update. // Sports Medicine. - 2005. - Vol. 35 (6). - P. 501-536.
5. Hoff J., Helgerud J. Endurance and Strength Training for Soccer Players. // Sports Medicine. - 2004. - Vol. 34 (3). - P. 165-180.
6. Impellizzeri F.M., Marcora S.M., Castagna C. Physiological and performance effects of generic versus specific aerobic training in soccer players. // International Journal of Sports Medicine. -2006. - Vol. 27. - P. 483-492.
7. Rampinini E., Impellizzeri F.M., Castagna C. Factors influencing physiological responses to small-sided soccer games. // Journal of Sports Sciences. - 2007. - Vol. 25 (6). -P. 659-666.

## PLYAJ VOLEYBOLI VA KLASSIK VOLEYBOLNING JISMONIY YUKLAMALARINI QIYOSIY TAHLILI

*Nurumova Dinara Maqsudovna,  
Osiyo Xalqaro Universiteti  
Pedagogika nazariyasi kafedrası  
nurumovadinaramaqsudovna@gmail.com*

*Mazkur maqolada plyaj voleyboli va klassik voleybol sport turlaridagi jismoniy yuklamalar qiyosiy jihatdan tahlil qilindi. Tadqiqot davomida har ikki sport turining o‘yin sharoiti, harakat faoliyati, energiya sarfi, mushaklar faoliyati hamda sportchilarning funksional tayyorgarligiga ta’siri o‘rganildi. Natijalar plyaj voleybolida qum maydoni sababli yuqori energiya sarfi va kuch yuklamalari kuzatilishini, klassik voleybolda esa tezkorlik va texnik-taktik harakatlarning ustunligini ko‘rsatdi. Tadqiqot natijalari murabbiylar va sport mutaxassislari uchun mashg‘ulot jarayonlarini optimallashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so‘zlar:** *plyaj voleyboli, klassik voleybol, jismoniy yuklama, funksional tayyorgarlik, sport mashg‘ulotlari, energiya sarfi, chidamlilik.*

## СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ФИЗИЧЕСКИХ НАГРУЗОК В ПЛЯЖНОМ И КЛАССИЧЕСКОМ ВОЛЕЙБОЛЕ

*В данной статье проведён сравнительный анализ физических нагрузок в пляжном и классическом волейболе. В ходе исследования были изучены условия игры, двигательная активность, энергозатраты, мышечная деятельность, а также влияние данных факторов на функциональную подготовленность спортсменов в обоих видах спорта. Результаты показали, что в пляжном волейболе вследствие песчаного покрытия наблюдаются более высокие энергозатраты и силовые нагрузки, тогда как в классическом волейболе преобладают скоростные и технико-тактические действия. Результаты исследования имеют важное значение для тренеров и специалистов в области спорта при оптимизации тренировочного процесса.*

**Ключевые слова:** *пляжный волейбол, классический волейбол, физическая нагрузка, функциональная подготовленность, спортивная тренировка, энергозатраты, выносливость.*

## COMPARATIVE ANALYSIS OF PHYSICAL LOADS IN BEACH VOLLEYBALL AND CLASSICAL VOLLEYBALL

*This article presents a comparative analysis of physical loads in beach volleyball and classical volleyball. During the study, the playing conditions, movement activity, energy expenditure, muscle activity, and their effects on athletes’ functional preparedness in both sports were examined. The results showed that beach volleyball is characterized by higher energy expenditure and greater strength loads due to the sand surface, whereas classical volleyball is dominated by speed and technical-tactical actions. The findings of the study are important for coaches and sports specialists in optimizing the training process.*

**Keywords:** *beach volleyball, classical volleyball, physical load, functional preparedness, sports training, energy expenditure, endurance.*

**Kirish.** Bugungi kunda voleybol dunyoda keng ommalashgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, klassik voleybol va plyaj voleyboli o‘zining musobaqabopligi, tomoshabopligi hamda sportchilardan yuqori jismoniy tayyorgarlik talab qilishi bilan ajralib turadi. Har ikki yo‘nalish bir sport turiga mansub bo‘lsa-da, o‘yin sharoiti, maydon qoplamasi, o‘yinchilar soni va jismoniy yuklamalar jihatidan sezilarli farqlarga ega.

Klassik voleybol qattiq qoplamali yopiq sport zalida o‘tkazilib, jamoada 6 nafar o‘yinchi harakat qiladi. Plyaj voleybolida esa qum maydoni ustida 2 nafar o‘yinchi ishtirok etadi. Ushbu omillar sportchilarning harakat faoliyati va organizmga tushadigan yuklamalarga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi har ikki sport turidagi jismoniy yuklamalarni ilmiy asosda qiyoslash va mashg‘ulot jarayonini samarali tashkil etish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish zarurati bilan belgilanadi.

**Tadqiqot maqsadi.** Plyaj voleyboli va klassik voleybolda sportchilar organizmiga tushadigan jismoniy yuklamalarni qiyosiy tahlil qilish hamda ularning funksional tayyorgarlikka ta’sirini aniqlash.

**Tadqiqot vazifalari.**

1. Plyaj va klassik voleybolning o‘yin xususiyatlarini o‘rganish.
2. Har ikki sport turidagi jismoniy yuklamalarni taqqoslash.
3. Energiya sarfi va harakat faoliyatini tahlil qilish.
4. Mashg‘ulot jarayonini takomillashtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish;
- pedagogik kuzatuv;
- qiyosiy tahlil;
- statistik ma’lumotlarni umumlashtirish;
- funksional tayyorgarlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish.

**Plyaj voleybolining jismoniy xususiyatlari**

Plyaj voleybolida o‘yin qum maydonida o‘tkazilishi sababli sportchilar yuqori darajada energiya sarflaydi. Qumning yumshoqligi harakatlanishni qiyinlashtirib, mushaklarga qo‘shimcha yuklama beradi. Ayniqsa, son, boldir va gavda mushaklari faol ishlaydi. Plyaj voleybolida jamoa tarkibi atigi ikki nafar o‘yinchidan iborat bo‘lgani sababli har bir sportchi maydonning katta hududini nazorat qilishga majbur bo‘ladi. Klassik voleybolida esa 6 nafar o‘yinchi maydonni o‘zaro taqsimlagan holda harakat qiladi. Shu sababli plyaj voleybolida jismoniy yuklama hajmi va intensivligi ancha yuqori hisoblanadi. Plyaj voleybolida o‘yinchi bir vaqtning o‘zida himoya, uzatma, qabul qilish va hujum funksiyalarini bajaradi. Bu esa organizmning deyarli barcha funksional tizimlariga katta yuklama beradi. Ayniqsa, qum maydonida harakatlanish mushaklar faoliyatini yanada murakkablashtiradi, chunki qum qattiq tayanch hosil qilmaydi. Natijada har bir qadam uchun ko‘proq kuch sarflanadi va energiya iste‘moli ortadi.

**Yugurish hajmining ortishi**

Plyaj voleybolida o‘yinchilar sonining kamligi sababli sportchi maydon bo‘ylab ko‘proq masofani bosib o‘tadi. O‘yin davomida: yonlama yugurishlar; qisqa tevlanishlar; orqaga harakatlanish; sakrashdan keyingi tiklanish yugurishlari ko‘p marotaba takrorlanadi. Qum yuzasida yugurish qattiq qoplamaga nisbatan ancha murakkab bo‘lib, oyoq mushaklariga yuqori darajada yuklama beradi. Ayniqsa, sonning old va orqa mushaklari, boldir hamda tovon mushaklari faol ishlaydi. Tadqiqotlarga ko‘ra, qum ustida harakatlanishda energiya sarfi qattiq maydondagiga nisbatan sezilarli darajada yuqori bo‘ladi.

**Sakrashlar sonining ko‘payishi**

Plyaj voleybolida hujum va blok harakatlari tez-tez takrorlanadi. Ikki o‘yinchi butun maydonni nazorat qilgani uchun har bir sportchi ko‘proq sakrash bajaradi. Qum ustida sakrash esa mushaklardan katta kuch talab qiladi. Sakrash paytida quyidagi mushak guruhlari faol ishlaydi: son mushaklari; boldir mushaklari; bel va gavda mushaklari; yelka va qo‘l mushaklari. Qumning yumshoqligi sababli tayanch kuchi kamayadi va sportchi yuqoriga ko‘tarilish uchun ko‘proq kuch ishlatadi. Shu sababli plyaj voleybolchilarda portlovchi kuch va sakrovchanlik sifatleri yuqori rivojlangan bo‘ladi.

Ko‘rsatkichlar	Plyaj voleyboli	Klassik voleybol
Maydon qoplamasi	Qum	Qattiq qoplama
O‘yinchilar soni	2 nafar	6 nafar
Energiya sarfi	Yuqori	O‘rtacha
Chidamlilik talabi	Juda yuqori	Yuqori
Tezkorlik	O‘rtacha	Juda yuqori
Sakrash yuklamasi	Yuqori	Yuqori
Mushak zo‘riqishi	Kuchli	O‘rtacha
Reaksiya tezligi	Yuqori	Juda yuqori
Harakat hajmi	Katta	O‘rtacha

**Chidamlilikka bo‘lgan talabning oshishi**

Plyaj voleybolida o‘yin davomiyligi va yuqori harakat faolligi sportchilardan katta chidamlilikni talab qiladi. Sportchi uzoq vaqt davomida yuqori intensivlikdagi harakatlarni bajarishi kerak bo‘ladi. Bu

jarayonda: aerob chidamlilik; anaerob chidamlilik; maxsus sport chidamliligi muhim ahamiyat kasb etadi. Plyaj voleybolida tiklanish davri qisqa bo‘lgani uchun yurak-qon tomir tizimi va nafas olish tizimi yuqori darajada ishlaydi. Organizm kislorod yetkazib berishni tezlashtirishga harakat qiladi, natijada yurak urish tezligi ortadi.

#### **Yurak-qon tomir tizimiga tushadigan yuklama**

Qum maydonida harakat qilish va yuqori intensivlikdagi o‘yin yurak-qon tomir tizimiga katta yuklama beradi. O‘yin davomida:

1. yurak urish tezligi oshadi;
2. qon aylanish faollashadi;
3. mushaklarga kislorod yetkazilishi kuchayadi;
4. arterial bosim vaqtincha ko‘tarilishi mumkin.

Plyaj voleybolchilarda yurakning funksional imkoniyatlari yuqori rivojlangan bo‘lishi talab etiladi. Aks holda sportchi tez charchab qoladi va o‘yin samaradorligi pasayadi.

#### **Yuqori harorat va quyosh nurlarining ta‘siri**

Plyaj voleyboli asosan ochiq havoda o‘tkaziladi. Issiq ob-havo va quyosh radiatsiyasi organizmga qo‘shimcha fiziologik yuklama beradi. Yuqori harorat ta‘sirida organizm o‘z ichki haroratini me‘yorda saqlash uchun termoregulyatsiya mexanizmlarini ishga tushiradi. Bunda: terlash kuchayadi; suv va mineral moddalar yo‘qotiladi; organizm suvsizlanishi mumkin; charchash tezlashadi. Agar sportchi yetarli miqdorda suyuqlik iste‘mol qilmasa, ish qobiliyati pasayadi. Shu sababli plyaj voleybolida suv balansini saqlash muhim hisoblanadi. Quyosh nurlari ta‘siri markaziy asab tizimiga ham ta‘sir ko‘rsatib, diqqat va reaksiya tezligining pasayishiga olib kelishi mumkin. Ayniqsa, issiq iqlim sharoitida mashg‘ulotlarni to‘g‘ri rejalashtirish katta ahamiyatga ega.

#### **Klassik voleybolning jismoniy xususiyatlari**

Klassik voleybol yopiq sport zallarida qattiq qoplamada o‘tkaziladi. O‘yinchilar sonining ko‘pligi sababli maydon bo‘ylab harakat nisbatan kamroq bo‘lsa-da, o‘yin sur‘ati yuqori hisoblanadi. Mazkur sport turida: tezkor harakatlar; qisqa masofaga yugurish; keskin burilishlar; yuqori sakrashlar; tezkor reaksiya asosiy o‘rin egallaydi. Klassik voleybolda texnik-taktik harakatlar soni ko‘pligi tufayli koordinatsion qobiliyatlar muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, blok qo‘yish va hujum zarbalari vaqtida portlovchi kuch sifatlari yuqori darajada namoyon bo‘ladi.

#### **Jismoniy yuklamalarning qiyosiy tahlili**

Jadval natijalaridan ko‘rinib turibdiki, plyaj voleybolida umumiy jismoniy yuklama va chidamlilik talabi yuqori bo‘lsa, klassik voleybolda tezkorlik hamda texnik-taktik faoliyat ustun hisoblanadi.

**Muhokama.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, plyaj voleyboli va klassik voleybol sportchilar organizmiga tushadigan jismoniy hamda funksional yuklamalar jihatidan bir-biridan sezilarli darajada farq qiladi. Ayniqsa, plyaj voleybolida o‘yinchilar sonining kamligi sportchilardan universal tayyorgarlikni talab etadi. Ikki nafar o‘yinchi butun maydonni nazorat qilishi sababli ular bir vaqtning o‘zida himoya, qabul qilish, uzatma berish, hujum tashkil etish va blok qo‘yish kabi barcha texnik elementlarni bajarishga majbur bo‘ladi. Bu holat sportchilarda bir necha jismoniy sifatlarning kompleks rivojlanishini talab qiladi. Jumladan: tezkorlik; kuch; chidamlilik; koordinatsiya; sakrovchanlik; reaksiya tezligi birgalikda yuqori darajada shakllangan bo‘lishi kerak. Chunki o‘yin davomida qisqa vaqt ichida turli funksional harakatlarni bajarish zarur bo‘ladi.

Plyaj voleybolining yana bir muhim xususiyati qum maydonida harakatlanish bilan bog‘liqdir. Qum yuzasi qattiq tayanch hosil qilmagani sababli sportchi har bir qadam va sakrash uchun ko‘proq mushak kuchini sarflaydi. Natijada oyoq, son, boldir va gavda mushaklarining statik hamda dinamik ishlashi kuchayadi. Statik yuklama, asosan, tana muvozanatini saqlash jarayonida namoyon bo‘ladi. Sportchi qumda yiqilib ketmaslik yoki tez harakatlanish uchun mushaklarni doimiy tarang holatda ushlab turadi. Dinamik yuklama esa yugurish, sakrash, burilish va zarba berish kabi faol harakatlar vaqtida kuzatiladi. Ushbu omillar mushak tizimining funksional imkoniyatlarini kengaytiradi hamda maxsus sport chidamliligini rivojlantiradi. Qum maydonidagi yuqori energiya sarfi yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyatining kuchayishiga olib keladi. Organizm mushaklarni kislorod bilan ta‘minlash uchun ko‘proq ishlaydi. Natijada plyaj voleybolchilarda aerob va anaerob chidamlilik sifatlari sezilarli rivojlanadi.

Klassik voleybolda esa jismoniy yuklamaning tuzilishi boshqacharoq xarakterga ega. Ushbu sport turida jamoa tarkibi 6 nafar o‘yinchidan iborat bo‘lib, har bir sportchi ma‘lum ixtisoslashgan vazifani bajaradi. Masalan, bog‘lovchi, libero, markaziy bloklovchi yoki hujumchi o‘z funksiyasiga mos harakatlarni bajaradi. Shu sababli klassik voleybolda harakatlar aniq taqsimlangan bo‘lib, texnik-taktik faoliyat ustunlik qiladi. Klassik voleybolda o‘yin sur‘ati juda yuqori bo‘lgani sababli markaziy asab tizimi faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Sportchi qisqa vaqt ichida vaziyatni baholashi, to‘pning uchish trayektoriyasini

aniqlashi va tezkor qaror qabul qilishi kerak bo‘ladi. Bu esa: diqqatning yuqori darajada jamlanishini; tez fikrlashni; tezkor reaksiya ko‘rsatishni; koordinatsion aniqlikni talab qiladi.

Ayniqsa, blok qo‘yish, himoyadan hujumga o‘tish va tezkor kombinatsiyalarni bajarishda nerv-mushak apparatining muvofiqlashgan faoliyati muhim rol o‘ynaydi. Shu sababli klassik voleybolida markaziy asab tizimining funksional barqarorligi sport natijalariga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, plyaj voleybolida umumiy jismoniy tayyorgarlik va chidamlilik ustun bo‘lsa, klassik voleybolida tezkorlik, texnik mahorat va taktik fikrlash ko‘proq ahamiyatga ega. Demak, har ikki sport turi uchun mashg‘ulotlarni rejalashtirishda ularning o‘ziga xos funksional va fiziologik xususiyatlarini hisobga olish zarur hisoblanadi.

**Xulosa.**

1. Plyaj voleybolida jismoniy yuklama klassik voleybolga nisbatan yuqoriroq ekanligi aniqlandi.
2. Qum maydonida harakatlanish energiya sarfini oshiradi va mushaklarga qo‘shimcha yuklama beradi.
3. Klassik voleybolida tezkorlik, reaksiya va texnik-taktik tayyorgarlik muhim ahamiyatga ega.
4. Har ikki sport turi uchun mashg‘ulot dasturlari o‘ziga xos jismoniy talablar asosida tashkil etilishi zarur.
5. Murabbiylar mashg‘ulotlarni rejalashtirishda sport turining funksional xususiyatlarini hisobga olishi lozim.

**Adabiyotlar:**

1. Ayrapetyans L.R. Voleybol nazariyasi va metodikasi. – Toshkent, 2021.
2. Pulatov A.A. Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari. – Toshkent, 2020.
3. Матвеев Л.П. Теория и методика физической культуры. – Москва, 2018.
4. Платонов В.Н. Система подготовки спортсменов в олимпийском спорте. – Киев, 2019.
5. FIVB Official Volleyball Rules. – Lausanne, 2024.
6. Bompa T. Periodization Theory and Methodology of Training. – Human Kinetics, 2019.
7. Sheyko B. Sportchilarning funksional tayyorgarligi. – Moskva, 2020.

## ISSIQ IQLIM SHAROITIDA YOSH YENGIL ATLETIKACHILARNI KOMPLEKS TAYYORLASH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Nuriddinov Axrorjon Bahodir o'g'li,  
Osiyo xalqaro universiteti  
Jismoniy tarbiya kafedrasida o'qituvchisi  
nuriddinovaxrorjonbahodirugli@oxu.uz*

*Maqolada issiq iqlim sharoitida yosh yengil atletikachilarni kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish masalalari yoritilgan. Sportchilarning jismoniy, funksional, texnik-taktik va psixologik tayyorgarligiga yuqori haroratning ta'siri tahlil qilinib, mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirishning zamonaviy usullari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, issiq iqlim sharoitiga moslashtirilgan kompleks tayyorgarlik vositalaridan foydalanish yosh sportchilarning sport natijalari va organizmning moslashuv imkoniyatlarini sezilarli darajada yaxshilaydi.*

***Kalit so'zlar:** yosh yengil atletikachilar, issiq iqlim, kompleks tayyorgarlik, jismoniy tayyorgarlik, funksional holat, mashg'ulot yuklamasi, moslashuv, sport natijalari.*

## СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ КОМПЛЕКСНОЙ ПОДГОТОВКИ ЮНЫХ ЛЕГКОАТЛЕТОВ В УСЛОВИЯХ ЖАРКОГО КЛИМАТА

*В статье рассматриваются вопросы совершенствования методики комплексной подготовки юных легкоатлетов в условиях жаркого климата. Проанализировано влияние высоких температур на физическую, функциональную, технико-тактическую и психологическую подготовленность спортсменов, а также рассмотрены современные подходы к оптимизации тренировочных нагрузок. Результаты исследования показали, что использование средств комплексной подготовки, адаптированных к условиям жаркого климата, способствует значительному улучшению спортивных результатов юных спортсменов и повышению адаптационных возможностей их организма.*

***Ключевые слова:** юные легкоатлеты, жаркий климат, комплексная подготовка, физическая подготовка, функциональное состояние, тренировочная нагрузка, адаптация, спортивные результаты.*

## IMPROVING THE METHODOLOGY OF COMPREHENSIVE TRAINING OF YOUNG TRACK AND FIELD ATHLETES IN HOT CLIMATE CONDITIONS

*This article discusses the issues of improving the methodology of comprehensive training for young track and field athletes in hot climate conditions. The impact of high temperatures on the physical, functional, technical-tactical, and psychological preparedness of athletes is analyzed, and modern approaches to optimizing training loads are considered. The results of the study indicate that the use of comprehensive training methods adapted to hot climate conditions significantly improves young athletes' sports performance and the adaptive capabilities of their bodies.*

***Keywords:** young track and field athletes, hot climate, comprehensive training, physical training, functional condition, training load, adaptation, sports performance.*

**Kirish.** Bugungi kunda yengil atletika sportida yuqori natijalarga erishish sportchilarni har tomonlama tayyorlashni talab etadi. Ayniqsa, issiq iqlim sharoitida mashg'ulot va musobaqalar o'tkazilishi yosh sportchilarning organizmiga qo'shimcha talablar qo'yadi. Yuqori harorat, quyosh radiatsiyasi va namlikning o'zgarishi sportchilarning ish qobiliyatiga, tiklanish jarayonlariga hamda umumiy sog'lig'iga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli issiq iqlim sharoitida yosh yengil atletikachilarni kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish sport nazariyasi va amaliyotining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

**Tadqiqot maqsadi** - issiq iqlim sharoitida yosh yengil atletikachilarni kompleks tayyorlash metodikasini takomillashtirish hamda uning sport natijalari va funksional ko'rsatkichlarga ta'sirini aniqlash.

### **Tadqiqot vazifalari:**

1. Issiq iqlim sharoitining yosh sportchilar organizmiga ta'sirini o'rganish.
2. Kompleks tayyorgarlikning tarkibiy qismlarini tahlil qilish.
3. Mashg'ulot yuklamalarini optimallashtirish yo'llarini ishlab chiqish.

4. Takomillashtirilgan metodikaning samaradorligini baholash.

**Tadqiqot metodlari.** Tadqiqot davomida quyidagi metodlardan foydalanildi:

- |   |                                    |
|---|------------------------------------|
| 1. Ilmiy-uslubiy adabiyotlarni tahlil qilish; | 5. Funksional testlar;             |
| 2. Pedagogik kuzatuv;                         | 6. Matematik-statistik tahlil.     |
| 3. Pedagogik tajriba;                         | 7. Tadqiqot natijalari va muhokama |
| 4. Antropometrik o'lchovlar;                  |                                    |

Tahlillar shuni ko'rsatdiki, issiq iqlim sharoitida yosh yengil atletikachilarda organizmning termoregulyatsiya tizimi katta yuklama ostida ishlaydi. Natijada yurak-qon tomir va nafas olish tizimlari faoliyati kuchayadi, organizmda suyuqlik yo'qotilishi ortadi. Kompleks tayyorgarlik quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga olishi maqsadga muvofiq deb topildi:

#### **Jismoniy tayyorgarlik**

Jismoniy tayyorgarlik yengil atletikachilarning sport mahoratini shakllantiruvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. U sportchining harakat imkoniyatlarini kengaytirish, yuqori sport natijalariga erishish va sog'ligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

#### **Umumiy chidamlilikni rivojlantirish**

Umumiy chidamlilik organizmning uzoq vaqt davomida ish qobiliyatini saqlab qolish qobiliyatidir. Yosh yengil atletikachilarda umumiy chidamlilikni rivojlantirish yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarining funksional imkoniyatlarini oshiradi. Buning uchun o'rta intensivlikdagi uzoq davom etuvchi yugurishlar, kross yugurishlari, velosiped mashqlari va harakatli o'yinlardan foydalaniladi. Umumiy chidamlilikning yuqori darajada rivojlanganligi sportchining keyingi maxsus tayyorgarligi uchun mustahkam poydevor yaratadi.

#### **Tezkorlik va tezkor-kuch sifatlarini takomillashtirish**

Tezkorlik sportchining qisqa vaqt ichida maksimal tezlikda harakat qilish qobiliyatini ifodalaydi. Tezkor-kuch sifati esa kuch va tezlikning birgalikda namoyon bo'lishidir.

Mazkur sifatlarini rivojlantirish uchun: qisqa masofalarga sprint yugurishlari;

start tezligini rivojlantiruvchi mashqlar; sakrash mashqlari; plyometrik mashqlar; to'siqlar orqali yugurish mashqlari qo'llaniladi. Bu sifatning rivojlanishi sportchining start reaksiyasi, yugurish tezligi va musobaqa natijalarini yaxshilashga yordam beradi.

#### **Maxsus chidamlilikni oshirish**

Maxsus chidamlilik sportchining o'z sport turi uchun xos bo'lgan yuklamalarni uzoq vaqt davomida samarali bajarish qobiliyatidir. Yengil atletikada bu sifat ayniqsa o'rta va uzoq masofaga yuguruvchilar uchun muhim hisoblanadi.

Maxsus chidamlilikni rivojlantirish vositalariga: intervalli yugurishlar; takroriy yugurishlar; temp yugurishlari; musobaqa sharoitiga yaqinlashtirilgan mashqlar kiradi. Mazkur mashqlar organizmning anaerob va aerob energiya ta'minoti tizimlarini takomillashtiradi.

Harakat koordinatsiyasini rivojlantirish

Koordinatsion qobiliyatlar murakkab harakatlarni aniq, tejamkor va samarali bajarish imkonini beradi. Koordinatsiyani rivojlantirish uchun: muvozanat mashqlari; gimnastik elementlar; koordinatsion zinapoya mashqlari; murakkab harakatli o'yinlar; texnik elementlarni turli sharoitlarda bajarish usullaridan foydalaniladi.

Koordinatsion tayyorgarlik sportchining texnik mahoratini shakllantirishda muhim o'rin tutadi.

Funksional tayyorgarlik

Funksional tayyorgarlik sportchining organizmi mashg'ulot va musobaqa yuklamalariga qay darajada moslashganligini tavsiflaydi. Zamonaviy sportda funksional holatni nazorat qilish uchun raqamli texnologiyalar va monitoring vositalaridan keng foydalaniladi.

Yurak urish chastotasini nazorat qilish

Yurak urish chastotasi sportchining funksional holatini baholovchi eng muhim ko'rsatkichlardan biridir.

Yurak urish chastotasini monitoring qilish: yuklama intensivligini aniqlash; mashg'ulot samaradorligini baholash; ortiqcha charchashni oldini olish; tiklanish jarayonini nazorat qilish imkonini beradi.

Bugungi kunda aqlli soatlar va pulsometrlar orqali yurak urish chastotasi real vaqt rejimida kuzatilmoqda.

Kislorod iste'moli ko'rsatkichlarini monitoring qilish

Maksimal kislorod iste'moli (VO-max) sportchining aerob imkoniyatlarini tavsiflovchi asosiy ko'rsatkich hisoblanadi.

VO-max darajasining yuqori bo‘lishi:organizmning kislorod bilan ta‘minlanishini yaxshilaydi; chidamlilik ko‘rsatkichlarini oshiradi; mashg‘ulot yuklamalariga moslashishni tezlashtiradi.

Zamonaviy gaz analizatorlari va maxsus testlar yordamida ushbu ko‘rsatkich aniqlanadi.

#### **Tiklanish jarayonlarini baholash**

Tiklanish sport tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi. Yetarli tiklanish bo‘lmasa, sport natijalari pasayishi va jarohatlanish xavfi ortishi mumkin.

Tiklanish jarayonini baholashda:yurak urish chastotasining tiklanish tezligi; uyqu sifati; mushaklar charchash darajasi; yurak ritmi variabelligi (HRV); psixologik holat ko‘rsatkichlari hisobga olinadi.

#### **Texnik tayyorgarlik**

Texnik tayyorgarlik yengil atletikachining sport mashqlarini biomekanik jihatdan to‘g‘ri, samarali va tejamkor bajarish qobiliyatini shakllantirishga qaratilgan. Texnik mahoratning yuqori darajada rivojlanganligi sport natijalarining barqaror o‘shishiga va energiya sarfining kamayishiga yordam beradi.



#### **Yugurish texnikasini takomillashtirish**

Yugurish texnikasi yengil atletikaning asosiy elementi hisoblanadi. Texnik jihatdan to‘g‘ri yugurish sportchiga yuqori tezlikni saqlab qolish va energiyadan samarali foydalanish imkonini beradi. Yugurish texnikasi yengil atletikada asosiy harakat malakasi bo‘lib, sport natijasiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Texnika samaradorligi qadam tuzilishi, tana holati, qo‘l-oyoq koordinatsiyasi va biomexanik tejamkorlik bilan belgilanadi.

Yugurish harakati uch fazadan iborat: tayanch, itarilish va parvoz fazalari. Tayanch fazasida oyoq yerga old qismidan qo‘yilishi va ortiqcha tormozlanishning oldini olish muhim. Itarilish fazasi tezlikni shakllantiruvchi asosiy bosqich bo‘lib, mushak kuchi va optimal burchak (40–50°) orqali amalga oshiriladi. Parvoz fazasida esa koordinatsiya va ritm saqlanadi. Texnikani takomillashtirishda asosiy omillar: qadam uzunligi va chastotasi, tana og‘irlik markazi, qo‘l harakati, mushak elastikligi hamda neyromushak boshqaruv darajasidir. Ushbu omillar uyg‘unligi yugurish iqtisodiyligini ta‘minlaydi. Takomillashtirish usullari sifatida biomekanik videoanaliz, maxsus tayyorlov mashqlari (A-skip, B-skip, baland tizzali yugurish), plyometrik mashqlar va intervalli sprintlar qo‘llaniladi. Zamonaviy yondashuvda GPS, inertial sensorlar va video tracking tizimlari yordamida texnika real vaqt rejimida tahlil qilinadi.

Yosh sportchilarda uchraydigan asosiy texnik xatolar: tovon bilan qo‘nish, tana ortga og‘ishi, qo‘l harakatining sustligi va noto‘g‘ri qadam ritmidir. Bu xatolar energiya sarfini oshirib, tezlikni kamaytiradi. To‘g‘ri tashkil etilgan texnik tayyorgarlik natijasida sportchida tezlik oshishi, energiya tejalishi, jarohatlar kamayishi va chidamlilik yaxshilanishi kuzatiladi

#### **Yugurish texnikasini takomillashtirish elementlari**

Yugurish texnikasini takomillashtirish sportchining harakat samaradorligini oshirish, energiya sarfini kamaytirish hamda maksimal tezlikka erishish imkonini beruvchi kompleks pedagogik jarayon hisoblanadi. Ushbu jarayon quyidagi asosiy elementlarni o‘z ichiga oladi:

##### **1. Start holati va startdan chiqish texnikasi**

Start texnikasi yugurish natijasining boshlang‘ich va hal qiluvchi bosqichi bo‘lib, sportchining tezkorlik imkoniyatini belgilaydi. Start holatida tananing optimal egilishi, oyoqlarning start bloklariga to‘g‘ri joylashuvi va og‘irlik markazining oldinga yo‘naltirilishi muhim ahamiyatga ega. Startdan chiqishda esa kuchli itarilish, tezkor qo‘l harakati va birinchi qadamlarning qisqa, lekin tez bajarilishi sprint samaradorligini oshiradi.

##### **2. Qadam uzunligi va qadam chastotasini optimallashtirish**

Yugurish tezligi qadam uzunligi va qadam chastotasining optimal nisbatiga bog‘liq. Qadam uzunligi ortiqcha cho‘zilmasligi, aks holda tormozlanish kuchi oshishi mumkin. Qadam chastotasi esa tezkor

neyromushak koordinatsiyasi orqali oshiriladi. Optimal kombinatsiya sportchining maksimal tezlikka erishishini ta'minlaydi.

3. Qo'l harakatlarini muvofiqlashtirish

Qo'l harakatlari yugurish ritmini saqlash va muvozanatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Qo'llar tirsakdan taxminan 90° burchak ostida harakatlanib, tana harakatiga qarama-qarshi yo'nalishda ishlaydi. Noto'g'ri qo'l harakati tana muvozanatini buzadi va tezlikni kamaytiradi.

4. Tana holatini to'g'ri saqlash

Yugurish davomida tana holati engil oldinga egilgan, lekin ortiqcha bukilmagan bo'lishi kerak. Bosh holati tabiiy, ko'z oldinga qaratilgan, yelka esa bo'sh va zo'riqmagan bo'lishi zarur. Tana og'irlik markazining optimal joylashuvi harakatning biomexanik samaradorligini oshiradi.

5. Finishga kirish texnikasini takomillashtirish

Finish texnikasi musobaqa natijasini belgilovchi yakuniy bosqich hisoblanadi. Finish chizig'iga yaqinlashganda sportchi tana yuqori qismini oldinga chiqarish orqali vaqt yutishi mumkin. Finishga kirishda maksimal tezlikni saqlash va so'nggi qadamlarni keskinlashtirish muhimdir.

Tajriba davomida mashg'ulotlarni ertalab va kechki salqin vaqt oralig'ida tashkil etish, gidratatsiya dasturlarini qo'llash hamda tiklanish vositalaridan foydalanish sportchilarning funksional holatini yaxshilaganligi aniqlandi. Takomillashtirilgan metodika qo'llanilgan guruhda 1000 metr yugurish natijalari, tezkorlik va chidamlilik ko'rsatkichlari nazorat guruhiga nisbatan yuqori o'sish sur'atlarini namoyon etdi.

**Xulosa.** Issiq iqlim sharoiti yosh yengil atletikachilar organizmiga sezilarli fiziologik ta'sir ko'rsatadi. Kompleks tayyorgarlikning jismoniy, funksional, texnik va psixologik komponentlarini uyg'unlashtirish sport natijalarini yaxshilaydi. Mashg'ulot yuklamalarini iqlim omillariga mos ravishda rejalashtirish sportchilarning moslashuv imkoniyatlarini oshiradi. Takomillashtirilgan metodika yosh yengil atletikachilarni tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

#### Adabiyotlar:

1. Theory of Physical Education and Healthy Lifestyle.
2. Nuriddinov A. (2023). The role of fair play in physical education. // *Modern Science and Research*, 2(10), 244-250.
3. Nuriddinov, A. (2023). A study of the aggressive status of football fans. // *American Journal Of Social Sciences And Humanity Research*, 3(11), 73-80.
4. Nuriddinov A. (2024). Evaluation of basic football principles and strategies. // *Modern Science and Research*, 3(2).
5. Nuriddinov A. (2024). Physiological characteristics and endurance in football. // *Modern Science and Research*, 3(2).
6. Nuriddinov A. (2024). Futboldagi asosiy va yordamchi motorik xususiyatlari.
7. Wilmore J.H., Costill D.L. *Physiology of Sport and Exercise*. – Human Kinetics, 2018.
8. Ozolin N.G. *Yengil atletika nazariyasi va metodikasi*. – Moskva, 2012.
9. O'zbekiston Respublikasi sport sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlari.

UO‘K 37.013:378:78.071.2

**BO‘LAJAK MUSIQA O‘QITUVCHILARIDA ANSAMBL IJROCHILIGI  
KO‘NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA FORTEPIANO JO‘RNAVOZLIGINING O‘RNI**

*Normurodova Lobar Mamasoliyevna,  
Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazariyasi,  
Pedagogik ta’limotlar tarixi yo‘nalishi  
tayanch doktoranti, Navoiy, O‘zbekiston  
nolo8791@gmail.com  
ORCID: 0009-0002-6217-5116*

*Ilmiy rahbar: PhD, dotsent Yuldoshev Umid Yuldoshovich*

*Mazkur maqolada bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligida fortepiano jo‘rnavezligining o‘rni hamda uning ansambl madaniyatini shakllantirishdagi pedagogik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Jo‘rnavezlik jarayonida shakllanadigan eshituv madaniyati, ijrochilik hamkorligi, ritmik barqarorlik, interpretatsion moslashuvchanlik va kommunikativ ko‘nikmalar ansambl madaniyatining tarkibiy komponentlari sifatida asoslanadi. Shuningdek, jo‘rnavezlikni o‘qitishning bosqichli metodik modeli taklif etiladi.*

***Kalit so‘zlar:** fortepiano jo‘rnavezligi, ansambl madaniyati, kasbiy kompetensiya, interpretatsiya, ijrochilik hamkorligi, pedagogik tayyorgarlik.*

**РОЛЬ ФОРТЕПИАННОГО АККОМПАНеМЕНТА В РАЗВИТИИ НАВЫКОВ  
АНСАМБЛЕВОГО ИСПОЛНТЕЛЬСТВА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ**

*В данной статье анализируется роль фортепианного аккомпанемента в профессиональной подготовке будущих учителей музыки, а также его педагогические возможности в формировании ансамблевой культуры. Обосновываются такие компоненты ансамблевой культуры, формирующиеся в процессе аккомпанирования, как слуховая культура, исполнительское сотрудничество, ритмическая устойчивость, интерпретационная гибкость и коммуникативные навыки. Также предлагается поэтапная методическая модель обучения аккомпанированию.*

***Ключевые слова:** фортепианный аккомпанемент, ансамблевая культура, профессиональная компетенция, интерпретация, исполнительское сотрудничество, педагогическая подготовка.*

**THE ROLE OF PIANO ACCOMPANIMENT IN DEVELOPING ENSEMBLE  
PERFORMANCE SKILLS OF FUTURE MUSIC TEACHERS**

*This paper analyzes the role of piano accompaniment in the professional training of future music teachers and its pedagogical potential in the formation of ensemble culture. The components of ensemble culture formed in the process of accompaniment, such as auditory culture, performance collaboration, rhythmic stability, interpretative flexibility, and communicative skills, are substantiated. In addition, a step-by-step methodological model for teaching accompaniment is proposed.*

***Keywords:** piano accompaniment, ensemble culture, professional competence, interpretation, performance collaboration, pedagogical training.*

**Kirish.** Bo‘lajak musiqa o‘qituvchisidan nafaqat yakka ijrochilik mahorati, balki ansambl faoliyatini tashkil eta olish, vokal va cholg‘u ijrochilariga professional jo‘r bo‘la olish, ijodiy hamkorlikni boshqara olish kabi ko‘p qirrali kasbiy sifatlar talab etilmoqda. Shu nuqtayi nazardan, fortepiano jo‘rnavezligi bo‘lajak pedagogning kasbiy shakllanishida muhim o‘rin egallaydi. Ansambl madaniyati – bu ijrochilarning o‘zaro eshitish, moslashish, bir butun badiiy g‘oyani birgalikda yaratish va sahnaviy hamkorlikni amalga oshirish qobiliyatlari majmuasidir. Mazkur sifatlar aynan jo‘rnavezlik jarayonida tabiiy ravishda shakllanadi va rivojlanadi. Jo‘rnavezlik - bu musiqiy asarni ansambl shaklida ijro etish jarayonida yetakchi partiyani (vokal yoki cholg‘u) badiiy, ritmik va garmonik jihatdan qo‘llab-quvvatlash, asarning obrazli mazmunini chuqurlashtirish hamda ijro yaxlitligini ta‘minlashga qaratilgan murakkab ijodiy faoliyatdir. Nazariy

jihatdan joʻnavozlik ansambl tafakkurining shakllanishiga xizmat qiladi. Ansambl tafakkuri -bu bir vaqtning oʻzida bir nechta musiqiy qatlamlarni eshitish, ularning oʻzaro munosabatini idrok etish va muvozanatlashtirish qobiliyatidir. Joʻnavoz fortepiano fakturasini ijro etish jarayonida yetakchi partiya bilan oʻzaro uygʻunlikni saqlab, garmonik tayanchni mustahkamlaydi va badiiy dramatismni kuchaytiradi. Shuningdek, joʻnavozlik interpretatsion jarayonning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi. Joʻnavoz asarni tahlil qilishda faqat oʻz partiyasiga emas, balki umumiy partitura tayanadi. Bu esa musiqiy matnni kompleks idrok etish va dramaturgik rivojlanishni anglashni talab etadi. Joʻnavozlikda psixologik omillar ham alohida ahamiyatga ega. Ijro jarayonida hamkor bilan noverbal muloqot (nafas, imo-ishora, koʻz bilan aloqa) orqali musiqiy uygʻunlik taʼminlanadi. Bu jarayon ijrochilardan yuqori darajadagi diqqat, tezkor reaksiya va empatik sezgirlikni talab qiladi. Joʻnavoz quyidagi kasbiy sifatlarni egallashi zarur: rivojlangan ichki eshituv va musiqiy xotira; tezkor nota oʻqish (sight-reading) koʻnikmasi; transpozitsiya qilish qobiliyati; fakturani soddalashtirish yoki murakkablashtirish malakasi; improvizatsion moslashuvchanlik.

**Mavzuga doir adabiyotlar tahlili.** Ansambl madaniyati koʻp komponentli tuzilishga ega boʻlib, quyidagi tarkibiy qismlarni oʻz ichiga oladi: musiqiy eshituv va polifonik tafakkur; ritmik uygʻunlik va temp barqarorligi; dinamik va artikulyatsion moslashuvchanlik; interpretatsion birlik; sahnaviy va kommunikativ madaniyat. Boʻljak musiqa oʻqituvchisi uchun ushbu sifatlarda ayniqsa muhimdir, chunki u maktab amaliyotida xor jamoasi, yakkanavoz ijrochilar yoki cholgʻu ansamblari bilan ishlaydi. Forte pianoda joʻnavozlik qilish jarayoni ijrochidan doimiy eʼtibor, tezkor reaksiya va eshituv nazoratini talab qiladi. Joʻnavoz bir vaqtning oʻzida: hamroh ovozni qoʻllab-quvvatlaydi; umumiy badiiy tasvirni boyitadi; ijrochining nafas olishi va frazalashtirishga moslashadi; ritmik asosni barqaror saqlaydi. Forte pianoda joʻnavozlik qilishda yuqoridagi sifatlarni rivojlantirish uchun albatta bir qancha vaqt, sabr va mehnat lozim boʻladi. Yaxshi joʻnavoz boʻlish uchun joʻnavozda ijro texnikasi yaxshi shakllangan, musiqiy eshitish rivojlangan, notani varqadan oʻqish qobiliyatlari tezkor boʻlishi kerak. Demak joʻnavozlik qilishgacha boʻlgan muddatda ijrochi oʻz ustida ishlashi lozim. Texnikani rivojlantirish uchun har kunlik muntazam forte pianoda shugʻullanish, ganon va shunga oʻxshash mashqlar, gammalar ijrosi, arpedjiolar, etyudlar (K.Cherning op299 va op 740 etyudlar toʻplamidan boshlash maqsadga muvofiq) chalish. Notani varaqdan oʻqish qobiliyatini tezkor qilish uchun esa albatta, koʻplab yangi asarlar bilan tanishib chiqish. Bunda yangi asarlarni yodlash darajasiga yetkazish shart emas. Notanish asarni bir necha bor chalib chiqish kifoya. Musiqiy eshitish qobiliyati esa barcha musiqachilarda bor boʻlishi kerak boʻlgan xususiyat va buni faqat rivojlantirish kerak. Joʻnavoz uchun ichki ritmni his qilish nihoyatda muhim hisoblanadi. Ritmni yaxshi his qiladigan fortepiano ijrochisi joʻnavozlik qilishga qiynalmaydi. Bundan tashqari joʻnavozdan hamroh ovozni doimiy qoʻllab quvvatlash talab etiladi. Oʻquvchiga joʻnavozlik qilish jarayonida hamroh ovozdagi ritmik buzilishlar yoki adashish, toʻxtab qolish kabi vaziyatlarda ham joʻnavozdan hamroh ovozni qoʻllash talab etiladi. Joʻnavozlik faoliyatida ritmik barqarorlik -ansambl uygʻunligining asosiy tayanchi hisoblanadi. Ayniqsa, vokal yoki cholgʻu ijrochisiga joʻr boʻlish jarayonida tempni saqlash, agogik oʻzgarishlarga moslashish va ichki pulsni yoʻqotmaslik joʻnavozning kasbiy yetukligini belgilaydi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Quyidagi ritmik barqarorlikni rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-metodik mashqlar tizimi boʻljak forte pianoda joʻnavozlik qiladigan ijrochilar uchun bir qancha foydali boʻlishi mumkin. Ichki pulsni shakllantirish mashqlari Maqsad: metronomsiz barqaror tempni ushlab qobiliyatini rivojlantirish. Metronom bilan 4/4 oʻlchovda oddiy akkordlar ketma-ketligini ijro etish, soʻng metronomni oʻchirib, ichki sanash asosida davom ettirish. Har 8 taktadan soʻng metronomni qayta yoqib, temp ogʻishini tekshirish. Bir qoʻl bilan ritmik ostinato, ikkinchi qoʻl bilan erkin frazalashtirish mashqlari. Bu mashqlar ichki ritmik nazoratni mustahkamlaydi va tashqi omillarga qaramlikni kamaytiradi. Sinkopali va murakkab ritmlar bilan ishlash Maqsad: ritmik elastiklikni oshirish.

Sinkopali ritm formulalarini alohida mashq qilish (masalan, ♩ ♩ ♩ yoki ♩ ♩). Murakkab oʻlchovlar (5/4, 7/8)da qisqa faktura namunalarini ijro etish. Poliritmik mashqlar (bir qoʻlda triol, ikkinchi qoʻlda duol). Bu mashqlar joʻnavozning murakkab ansambl vaziyatlarida ham barqarorlikni saqlashiga yordam beradi. Yetakchini kuzatish mashqi Maqsad: ansambl moslashuvchanligini shakllantirish. Hamroh ijrochi bilan ishlaganda ataylab kichik agogik oʻzgarishlar kiritiladi. Joʻnavoz tempni yoʻqotmasdan, shu oʻzgarishlarga moslashishi kerak. Nafas olish va frazalashtirish kuzatish asosida kirish va yakunlarni aniqlashtirish. Bu mashq ritmik barqarorlikni mexanik emas, balki ongli boshqariladigan jarayonga aylantiradi. Ritmik reduksiya usuli Maqsad: fakturani soddalashtirib, asosiy pulsni aniqlash. Murakkab fortepiano partiyasini dastlab faqat bass chiziqlari asosida ijro etish. Soʻngra asosiy urgʻularni ajratib, minimal akkord shakliga keltirish. Keyinchalik toʻliq fakturaga qaytish. Bu usul asardagi ritmik skeletni his qilishni oʻrgatadi. Tanaviy ritm mashqlari Maqsad: ritmni jismoniy sezgi orqali mustahkamlash.

**Olingan natijalar va ularning tahlili.** Qoʻlda chalish, oyoq bilan pulsni bosish orqali murakkab ritm formulalarini takrorlash. Improvizatsion ritm mashqlari Maqsad: tezkor reaksiya va ijodiy barqarorlikni

rivojlantirish. Berilgan tempda oddiy garmonik aylanish ustida turli ritmik variantlar yaratish. Yetakchi partiya to‘xtaganda tempni saqlab qolish mashqi. Kutilmagan pauzadan so‘ng aniq kirish mashqlari. Bu usul jo‘rnovozning sahna holatlariga psixologik tayyorgarligini oshiradi. Ritmik barqarorlik jo‘rnovozlikda faqat metronomga bog‘liq texnik ko‘nikma emas, balki ichki eshituv, ansambl sezgirliги va musiqiy tafakkur bilan uzviy bog‘liq kompleks kompetensiyadir. Mashqlarni tizimli va bosqichma-bosqich qo‘llash orqali bo‘lajak musiqa o‘qituvchisida nafaqat barqaror temp hissi, balki ijrochilik ishonchligi va pedagogik nazorat qobiliyati ham shakllanadi.

Yaxshi jo‘rnovoz bo‘lish - bu faqat musiqiy asboblarni yaxshi chalish emas, balki ansambl tafakkuriga ega bo‘lish demakdir. Jo‘rnovozlik ijrochidan individual virtuoslikdan ko‘ra ko‘proq eshitish, sezish va moslashish qobiliyatini talab qiladi. Quyida eng asosiy kasbiy va shaxsiy xususiyatlarni ilmiy-pedagogik nuqtayi nazardan ko‘rib chiqish mumkin: Rivojlangan ichki eshituv (intonatsion va garmonik sezgi) Jo‘rnovoz bir vaqtning o‘zida o‘z partiyasi va yetakchi partiyani eshitishi kerak. Bunga esa, tonallikni tez anglash, modulyatsiyani sezish, intonatsion noaniqlikni darhol payqash Bu xususiyatlar ansambl uyg‘unligini ta‘minlaydi. Ritmik barqarorlik va ichki puls Tempni saqlash — jo‘rnovozning “tayanchi”, ichki sanash odati, agogik o‘zgarishlarga moslashish, yetakchini “tortib ketmaslik” yoki “ortda qolmaslik”, ritmik ishonchlik sahnadagi barqarorlikni belgilaydi.

Tezkor nota o‘qish: jo‘rnovoz ko‘pincha yangi repertuar bilan tez ishlaydi, partituraning kompleks ko‘rish, fakturani tez idrok qilish, ko‘z bilan oldindan o‘qish. Bu ayniqsa dars jarayonida va repetitsiyalarda muhim. Moslashuvchanlik va ansambl sezgirliги jo‘rnovoz individual emas, hamkorlikdagi ijrochi. nafasni kuzatish (vokal bilan ishlaganda), fraza yakunlarini sezish, noverbal muloqotni tushunish Dinamik va balans nazorati Yaxshi jo‘rnovoz hech qachon yetakchi partiyani “bosib ketmaydi”, ovoz qatlamlarini muvozanatlashtirish, fakturani yengillashtira olish, pedaldan ongli foydalanish, balans esa jo‘rnovozlik madaniyatining mezonidir. Garmonik tafakkur va tahliliy fikrlash Jo‘rnovoz asarni chuqur tahlil qila olishi kerak: shakliy tuzilma, dramaturgik rivojlanish, garmonik tayanch nuqtalari. Bu interpretatsion yetuklikni ta‘minlaydi.

**Muhokama.** Psixologik barqarorlik Sahna jarayonida turli kutilmagan vaziyatlar bo‘lishi mumkin: yetakchi partiya xatoga yo‘l qo‘yishi, temp o‘zgarishi, to‘satdan pauza, jo‘rnovoz vaziyatni tezda boshqarib, hamroh ovoz bilan uyg‘unlikni saqlab qolishi kerak. Demak, jo‘rnovozlik - bu faqat texnik ko‘nikmalar majmui emas, balki kompleks musiqiy tafakkur, badiiy sezgi va pedagogik mahoratni mujassamlashtirgan ko‘p qirrali ijodiy faoliyatdir. Tadqiqot jarayonida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarida fortepiano jo‘rnovozligi va ansambl ijrochiligi ko‘nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan metodik yondashuvlarning samaradorligi tahlil qilindi. Tadqiqot davomida talabalarning jo‘rnovozlik faoliyatiga tayyorgarlik darajasi, ansambl madaniyatining shakllanish bosqichlari hamda ijrochilik hamkorligi ko‘nikmalarining rivojlanish dinamikasi o‘rganildi. Tahlil natijalari shuni ko‘rsatdiki, talabalarning individual ijrochilik mahorati shakllangan bo‘lsa-da, ansambl ijrochiligi ko‘nikmalarida muammolar bor. Ayniqsa, quyidagi muammolar kuzatildi: yetakchi partiyani eshitish va unga moslashish qiyinligi; ritmik barqarorlikni saqlashdagi noaniqliklar; dinamik balansni boshqarishdagi kamchiliklar; ijrochilik hamkorlikda psixologik moslashuvning yetarli emasligi.

Tadqiqot doirasida taklif etilgan metodik mashqlar tizimi asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida talabalarda jo‘rnovozlik ko‘nikmalarining bosqichma-bosqich rivojlanishi kuzatildi. Xususan, ichki pulsni shakllantirishga qaratilgan mashqlar, sinkopali va murakkab ritmlar bilan ishlash, ansambl moslashuvchanligini rivojlantirish mashqlari samarali natijalar berdi. Mashg‘ulotlar jarayonida talabalar: hamroh ijrochini eshitish va kuzatish; tempni barqaror saqlash; interpretatsion moslashuvchanlikni rivojlantirish; ansambl uyg‘unligini ta‘minlash ko‘nikmalarini faol o‘zlashtira boshladilar. Shuningdek, jo‘rnovozlik mashg‘ulotlarida polifonik tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan topshiriqlar talabalarning musiqiy tafakkurini kengaytirishga xizmat qildi. Talabalar bir vaqtning o‘zida bir nechta musiqiy qatlamlarni eshitish, yetakchi partiya bilan muvozanatni saqlash hamda umumiy badiiy g‘oyani yaratish qobiliyatini rivojlantirdilar.

Tadqiqot natijalariga ko‘ra, fortepiano jo‘rnovozligini o‘qitishda quyidagi pedagogik shart-sharoitlar samarali ekanligi aniqlandi: ansambl faoliyatiga yo‘naltirilgan mashg‘ulotlar tizimini joriy etish; bosqichli metodik model asosida ishlash; ijrochilik hamkorligini rivojlantiruvchi mashqlarni qo‘llash; zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish; repertuarni bosqichma-bosqich murakkablashtirish. Mazkur pedagogik shartlar asosida tashkil etilgan mashg‘ulotlar natijasida bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining jo‘rnovozlik ko‘nikmalari sezilarli darajada rivojlandi. Talabalarda ansambl madaniyati, ijrochilik hamkorligi va musiqiy tafakkur darajasi oshgani kuzatildi.

Shunday qilib, tadqiqot natijalari fortepiano jo‘rnovozligini o‘qitishda metodik jihatdan asoslangan mashqlar tizimidan foydalanish bo‘lajak musiqa o‘qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini oshirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Taklif etilgan metodik yondashuvlar ansambl ijrochiligi ko‘nikmalarini

shakllantirishda samarali natijalar berishi ilmiy jihatdan asosladi Xulosa qilib aytganda, fortepianoda joʻnavozlik qilish musiqiy ijrochilik faoliyatining muhim va murakkab yoʻnalishlaridan biri hisoblanadi. Joʻnavozlik jarayonida ijrochi nafaqat texnik mahorat, balki ansambl hissi, musiqiy tafakkur, eshitish qobiliyati va ijodiy yondashuvni ham namoyon etishi zarur. Fortepiano ijrochiligi joʻnavozining asosiy vazifasi solist ijrosini qoʻllab-quvvatlash, asarning badiiy mazmunini toʻlaqonli ochib berish hamda umumiy ijro uygʻunligini taʼminlashdan iborat. Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, joʻnavozlik koʻnikmalarini shakllantirish jarayonida talabalarining ansambl madaniyatini rivojlantirish, eshitish nazoratini kuchaytirish, hamkor ijro tamoyillarini oʻrgatish va repertuar bilan tizimli ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

**Xulosa.** Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlar va innovatsion texnologiyalardan foydalanish fortepiano joʻnavozlarini tayyorlash samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarini tayyorlash jarayonida fortepiano joʻnavozligi boʻyicha nazariy bilimlar va amaliy koʻnikmalarni uzviy ravishda rivojlantirish muhim pedagogik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu esa kelajakda yuqori malakali, musiqiy tafakkuri rivojlangan hamda ansambl ijrochiligida yetuk mutaxassislarni shakllantirishga imkon yaratadi.

#### Adabiyotlar:

1. Eraliyeva F. E. Fortepiano oʻrgatishda zamonaviy pedagogik texnologiyalarning roli. – Science and Education, 2025.
2. Islomova M. Z. Fortepiano oʻqitish jarayonida AKTdan foydalanishning metodik asoslari. – Science and Education, 2025.
3. Madjidova G. A. Fortepiano taʼlimining bolalar musiqa maktablaridagi oʻrni. – Science and Education, 2025.
4. Abdukarimov H. M. Musiqa pedagogikasining nazariy asoslari. – Toshkent: Fan, 2019.
5. Yuldoshev U. Y. Musiqa taʼlimida innovatsion texnologiyalarni qoʻllash metodikasi. – Toshkent, 2022.
6. Axmedov A. A. Boʻlajak musiqa oʻqituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish. – Toshkent: Universitet, 2021.
7. Цыпин Г. М. Обучение игре на фортепиано. – Москва: Просвещение, 2003.
8. Баренбойм Л. А. Путь к музицированию. – Ленинград: Советский композитор, 1989.
9. Савшинский С. И. Работа пианиста над музыкальным произведением. – Санкт-Петербург: Композитор, 2008.
10. Katz M. The Complete Collaborator: The Pianist as Partner. – Oxford: Oxford University Press, 2009.
11. Rhee H. The Art of Instrumental Accompanying: A Practical Guide for the Collaborative Pianist. – New York: Carl Fischer, 2016.
12. Moore G. The Unashamed Accompanist. – London: Faber & Faber, 2017.
13. Lehmann A. C., Sloboda J. A., Woody R. H. Psychology for Musicians: Understanding and Acquiring the Skills. – Oxford University Press, 2019.
14. Biasutti M. Collaborative Music Learning in Higher Education. – Music Education Research, 2020.

**“PEDAGOGIK MAHORAT” JURNALI UCHUN MAQOLALARNI  
RASMIYLASHTIRISH TALABLARI**

**“PEDAGOGIK MAHORAT” ilmiy jurnali mualliflari diqqatiga!**


1. “**PEDAGOGIK MAHORAT**” ilmiy jurnali ilmiy maqolalarni o‘zbek, rus va ingliz tillarida chop etadi.
2. E‘lon qilinadigan maqolalarga bo‘lgan asosiy talablar:
  - ✓ishning dolzarbligi va ilmiy yangiligi;
  - ✓maqolaning hajmi: adabiyotlar ro‘yxati, chizma va jadvallar inobatga olingan holatda 4-8 betgacha;
  - ✓maqola nomi, annotatsiya (80-90 ta so‘z) va tayanch so‘zlar (8-10 ta) ingliz, o‘zbek va rus tillarida keltiriladi.
3. Maqola boshida UDK (udc.online internet saytidan olishingiz mumkin), mavzu, muallifning F.I.O. (to‘liq yozilishi kerak), mualliflar bir nechta bo‘lsa, ularning har biri haqida to‘liq ma‘lumotlar berilishi shart, tashkilot, shahar, mamlakat, muallifning e-maili ko‘rsatiladi. Matnda kirish qismi, tadqiqot obyekti va qo‘llanilgan metodlar, olingan natijalar va ularning tahlili, xulosa, adabiyotlar ro‘yxati, albatta, keltiriladi. Maqolada keyingi 10-15 yilda e‘lon qilingan adabiyotlarga havola qilinishi tavsiya etiladi.
4. Matn uchun: Microsoft Word; Times New Roman, 11 shrift, maqola nomi bosh harflarda, intyerval 1,0; abzas 1,0 sm, yuqori va pastki tomon 2 sm, chap va o‘ng tomon 2 sm.
5. Agar maqolaga rasm, jadval, diagramma, sxema, chizma, turli grafik belgilar kiritilgan bo‘lsa, ular aniq va ravshan tasvirlanishi, qisqartmalarning to‘liq izohi yozilishi lozim. Formulalar matnga maxsus kompyuter dasturlarida kiritilishi kerak.
6. Iqtibos olingan yoki foydalanilgan adabiyot satr osti izohi tarzida emas, balki maqola oxirida asosiy matndagi ketma-ketligi asosida umumiy ro‘yxatda ko‘rsatiladi. Matn ichidagi ko‘chirmadan so‘ng iqtibos olingan asarning ro‘yxatdagi tartib raqami va sahifasi kvadrat qavs ichida beriladi. Bu o‘rinda kitob, to‘plam, monografiyalar uchun mualliflarning ism-familiyalari, manbaning to‘liq nomi, nashr ko‘rsatkichi (shahar, nashriyot va nashr yili) ko‘rsatiladi. Jurnal maqolalari va boshqa davriy nashrlar uchun mualliflarning ism-familiyalari, maqola nomi, jurnal nomi, yili va soni, sahifa nomyeri ko‘rsatiladi.
7. Maqola matni kamida 70-80 % muallifning shaxsiy izlanishlari natijasiga asoslanishi lozim. Topshirilgan maqolalar “Antiplagiat” tizimi yordamida tekshiriladi.
8. Tahririyatga taqdim qilingan maqolalar tahririyat tomonidan taqrizga beriladi. Maqola taqrizdan qaytgach, agar zarur bo‘lsa, barcha savol va e‘tirozlar bo‘yicha muallifga qayta ishlash uchun taqdim etiladi. Maqola nusxalari qaytarilmaydi.
9. Tahririyat maqolani taqrizga yuboradi, taqriz ijobiy bo‘lsa maqola jurnalda chop etish uchun qabul qilinadi. Jurnalda anjuman tezislari va ma‘ruzalari chop etilmaydi. **E‘lon qilingan materiallarning haqqoniyligiga va ko‘chirilmaganligiga shaxsan muallif javobgardir.**
10. Tahririyat maqolaga ayrim kichik o‘zgartirishlarni kiritishi mumkin. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan ko‘rib chiqilmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
11. Ijobiy taqriz berilgan maqola tahririyat tomonidan qabul qilingan sanaladi. Jurnal tahririyati maqola matnini qisqartirish va unga tahririy o‘zgartirishlar kiritishga haqlidir.
12. Yuqoridagi talablarga javob bermaydigan maqolalar tahririyat tomonidan qabul qilinmaydi va ko‘rib chiqilmaydi.

**Manzil:** O‘zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, 200117, Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi, 11-uy, bosh bino, 2-qavat, 219-xona.

**Web site:** www.buxdu.uz

**E-mail:** nashriyot\_buxdu@buxdu.uz

**Telegram raqami:** +998 (94) 837-18-38.



Buxoro davlat universiteti muassisligidagi  
“PEDAGOGIK MAHORAT”  
ilmiy-nazariy va metodik jurnali  
barcha ta’lim muassasalarini  
hamkorlikka chorlaydi.

Pedagoglarning sevimli nashriga aylanib ulgurgan “Pedagogik mahorat” jurnali maktab, kollej, institut va universitet pedagogik jamoasiga muhim qo‘llanma sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Mualliflar uchun eslatib o‘tamiz, maqola qo‘lyozmalari universitet tahririy-nashriyot bo‘limida qabul qilinadi.

Manzirimiz: Buxoro shahri, M.Iqbol ko‘chasi 11-uy  
Buxoro davlat universiteti, 1-bino 2-qavat, 219-xona

**Tahririyat rekvizitlari:**

Moliya vazirligi g‘aznachiligi

23402000300100001010

MB BB XKKM Toshkent sh. MFO 00014 INN 201504275

**BuxDU** 400110860064017094100350005

*Pedagogik mahorat: rivojlanamiz va rivojlantiramiz!*

<p><b>PEDAGOGIK MAHORAT</b></p> <p><b>Ilmiy-nazariy va metodik jurnal</b></p> <p><b>2026-yil 6-son (129)</b></p> <p><b>2001-yil iyul oyidan chiqa boshlagan.</b></p> <p><b>OBUNA INDEKSI: 3070</b></p>	<p><b>Buxoro davlat universiteti nashri</b></p> <p>Jurnal oliy o‘quv yurtlarining professor-o‘qituvchilari, ilmiy tadqiqotchilar, ilmiy xodimlar, magistrantlar, talabalar, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari hamda maktab o‘qituvchilari, shuningdek, keng ommaga mo‘ljallangan.</p> <p>Jurnalda nazariy, ilmiy-metodik, muammoli maqolalar, fan va texnikaga oid yangiliklar, turli xabarlar chop etiladi.</p> <p><b>Nashr uchun mas’ul:</b> <b>Nigora SAYFULLAYEVA</b> <b>Muharrir: Mexrigiyo SHIRINOVA</b> <b>Musahhih: Sarvinoz RAXIMOVA</b></p>	<p>Jurnal tahririyat kompyuterida sahifalandi. Chop etish sifati uchun bosmaxona javobgar.</p> <p>Bosishga ruxsat etildi 29.06.2026 Bosmaxonaga topshirish vaqti 30.06.2026 Qog‘oz bichimi: 60x84. 1/8 Tezkor bosma usulda bosildi. Shartli bosma tabog‘i – 20,6 Adadi – 100 nusxa Buyurtma № 21 Bahosi kelishilgan narxda.</p> <p>“BUKHARAHAMD PRINT” MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Buxoro shahri, J.Ikromiy MFY, Hofiz tanish Buxoriy ko‘chasi, 190 B-uy.</p>
--	--	--